

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY BA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**



**«XALQARO TURIZM» FAKULTETI**

**«INFRATUZILMANI RIVOJLANTIRISH VA LOGISTIKA»  
KAFEDRASI**

**A. S. KUCHAROV, D. N. ISHMANOVA**

**BOJXONA ISHI**

**fanidan**

**D A R S L I K**

**Toshkent – 2018**

**A.S.Kucharov, D.N.Ishmanova** «Bojxona ishi» fanidan darslik – Т.: TDIU, 2018. 287 bet.

Ushbu darslikda O'zbekiston Respublikasida bojxona ishining vujudga kelish tarixi, uning rivojlanishi va bojxona ishining respublikamizdagi hozirgi holati to'grisida ma'lumotlar keltirilgan. Bulardan tashqari respublikamizda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish mexanizmi, bojxona to'lovlarini o'rni, bojxona rejimlari, tovarlarni bojxona qiymatini aniqlash usullari, bojxona nazorati, kontrabanda va bojxona qoidalalarini buzilishiga qarshi kurash usullari va bojxona ishiga oid xalqaro hamkorlik masalalari ifodalangan. Darslik 5230501 ta'lim yo'nalishi va 5A230501 – «Bojxona ishi» mutahassisligida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir:** t.f.d., prof. K.K.Karimqulov

**Taqrizchilar:**

1. O'zbekiston Respublikasi DBQsi Toshkent shahar bojxona boshqarmasi bojxona hizmati kapitani A.A.Abdughalilov.
2. TDIU «Infratuzilmani rivojlantirish va logistika» kafedrasи prof. A.T.Shermuhamedov  
© “Infratuzilmani rivojlantirish va logistika” kafedrasи

**А.С Кучаров, Д.Н.Ишманова** «Таможенное дело» Учебник – Т.: ТГЭУ, 2018. 287 стр.

В данном учебнике освещены процессы формирования таможенного дела в Республике Узбекистан обеспечивающее экономическую стабильность и безопасность развития экономики страны и интеграцию в мировое хозяйство, её сущность и значение, этапы формирования и факторы, влияющие на эти процессы, а также отражены разные пути обмена в процессе международной торговли интеллектуальной собственности, финансовой и материальные формы и средства их осуществления. Учебник предназначен для магистров и студентов обучающихся по направлению и специальности 5230500 и 5A230501 – «Таможенное дело».

**Ответственный редактор:** д.т.н., проф. К.К. Каримкулов

**Рецензенты:**

**1.** ГТК Республики Узбекистан, капитан таможенной службы городского таможенного управления А.А.Абдухалилов.

**2.** Проф. А.Т.Шермухамедов кафедры «Развитие инфраструктуры и логистика».

© кафедра «Развитие инфраструктуры и логистика».

**A.S. Kucharov, D.N. Ishmanova.** «Customs» the manual-T.: TSUE, 2018. 287 pages.

In given the educational the grant (manual) the basic customs politics of the Republic of Uzbekistan providing economic integration in the world economy, its essence and value, stages of formation and factors influencing on these processes is covered and also different ways of exchange are reflected during international trade, intellectual properties, financial and material forms and means of their realization. The manual it is intended for students of trainees on a direction 5230500 and 5A230501 – «Customs».

**Responsible editor:** doctor of technical science, professor K.K. Karimkulov

**The reviewers:**

**1.** SCC of the Republic of Uzbekistan, customs capitane of the town department A. A. Abduhalilov.

**2.** Senior lecturer of faculty «Development of infrastructure and logistics» A. T. Shermuhamedov.

© department «Development of infrastructure and logistics»

	<b>KIRISH.....</b>	10
<b>I-Bob.</b>	<b>Qadimgi dunyoda bojxona munosabatlarini paydo bo'lishi.....</b>	13
1.1.	O'rta asrlarda bojxona ishini rivojlanishi.....	13
1.2.	Markaziy Osiyda bojxona ishi.....	16
1.3.	Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari.....	19
1.4.	O'zbekiston Respublikasi bojxona hizmatining tashkil topishi va rivojlanishi.....	26
<b>II-Bob.</b>	<b>O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari.....</b>	32
2.1.	O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahririni yaratilishi va uni xalqaro huquqiy me'yorlarga mosligi.....	32
2.2.	Bojxona organlarini kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash faoliyatining huquqiy asoslari.....	36
2.3.	Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.....	46
2.4.	Bojxona organlarida surishtiruvni tashkil etish.....	64
2.5.	O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish.....	85
<b>III-Bob.</b>	<b>Xalqaro savdo va uning rivojlanish tarixida bojxona hizmatining to'tgan o'rni.....</b>	85
3.1.	Xalqaro savdo siyosatini takomillashuvi va davlat iqtisodiy havfsizligi.....	85
3.2.	Tashqi savdoda bojxona statistikasi va uning asosiy vazifasi.....	95
3.3.	Mintaqalararo savdo iqtisodiy munosabatlar va O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy munosabatlarni samaradorligi.....	109
3.4.	Milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilishda bojxona organlarining asosiy vazifalari.....	115
<b>IV BOB</b>	<b>Bojxona organlari faoliyatida bojxona nazoratini tashkil etish yo'llari.....</b>	119
4.1.	Bojxona nazorati tushunchasi, uning shakllari va amalga oshirish tartibi.....	119

4.2.	Bojxona nazoratining o'ziga hos hususiyatlari.....	128
4.3.	Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish.....	132
4.4.	Bojxona rasmiylashtiruvi va uning tartibi.....	145
4.5.	Bojxona nazoratining tehnika vositalari.....	164
4.6.	Bojxona nazorati tizimida ekspertiza.....	173
4.7.	Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari.....	182
<b>V BOB.</b>	<b>Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.....</b>	199
5.1.	Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi.....	199
5.2.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni mohiyati, ahamiyati va maqsadlari.....	205
5.3.	TIFni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati.....	215
5.4.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvi vositalari.....	229
5.5.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvida tarif usullar.....	236
<b>VI BOB.</b>	<b>Bojxona hamkorligi tashkilotlarining tashkil etilish tarixi.....</b>	247
6.1.	Xalqaro bojxona hamkorligi uning mohiyati va maqsadi.....	247
6.2.	Yevropa ittifoqi va uning jahon iqtisodiy maydonidagi urni va asosiy vazifasi.....	250
6.3.	JST/GATT – xalqaro savdo tashkiloti va xalqaro savdoni tartibga solish tamoyillari .....	256
6.4.	O'zbekiston Respublikasining jahon ho'jaligiga integrasiyalashuvi.....	265
	<b>Xulosa.....</b>	274
	<b>Izoxli lug'at ( Glossariy).....</b>	279
	<b>Foydalanilgan adabiyotlar.....</b>	285

	<b>Введение.....</b>	<b>10</b>
<b>Глава I</b>	<b>Появление таможенных отношений в древнем мире.....</b>	<b>13</b>
<b>1.1</b>	Развитие таможенного дела в средних веках.....	13
<b>1.2</b>	Таможенное дело в Центральной Азии.....	16
<b>1.3</b>	Основы организации и управление таможенного дела.....	19
<b>1.4</b>	Организация и развитие таможенной службы Республики Узбекистан.....	26
<b>Глава II</b>	<b>Правовые основы деятельности государственных таможенных органов Республики Узбекистан.....</b>	<b>32</b>
<b>2.1</b>	Создание новой редакции Таможенного кодекса Республики Узбекистан и его соответствие международным правовым нормам.....	32
<b>2.2</b>	Правовые основы противодействия таможенных органов контрабандой и нарушением таможенных правил.....	36
<b>2.3</b>	Ответственность за нарушение таможенного законодательства.....	46
<b>2.4</b>	Организация дознавания в таможенных органах.....	64
<b>2.5</b>	Совершенствование правовых основ таможенных органов Республики Узбекистан.....	85
<b>Глава III</b>	<b>Международная торговля и место таможенной службы в истории ее развития.....</b>	<b>85</b>
<b>3.1</b>	Совершенствование политики международной торговли и экономическая безопасность государства..	85
<b>3.2</b>	Таможенная статистика во внешней торговле и ее основные задачи.....	95
<b>3.3</b>	Межрегиональные торгово-экономические отношения и эффективность экономических отношений Республики Узбекистан.....	109
<b>3.4</b>	Основные задачи таможенных органов при защите национальных экономических интересов.....	115
<b>Глава IV</b>	<b>Пути организации таможенного контроля в деятельности таможенных органов.....</b>	<b>119</b>
<b>4.1</b>	Понятие о таможенном контроле, его формы и порядок осуществления.....	119
<b>4.2</b>	Особенности таможенного контроля.....	128

<b>4.3</b>	Проведение таможенного контроля и оформления товаров и транспортных средств, проходящих через таможенную границу.....	132
<b>4.4</b>	Таможенное оформление и порядок его осуществления	145
<b>4.5</b>	Технические средства таможенного контроля.....	164
<b>4.6</b>	Экспертиза в системе таможенного контроля.....	173
<b>4.7</b>	Таможенные режимы и условия их применения.....	182
<b>Глава V</b>	<b>Тарифные методы в системе государственного регулирования внешнеэкономической деятельности</b>	199
<b>5.1</b>	Теория государственной торгово-тарифной политики.....	199
<b>5.2</b>	Сущность, значение и цели внешнеэкономической деятельности.....	205
<b>5.3</b>	Государственная политика организации, управления и регулирования внешнеэкономической деятельности	215
<b>5.4</b>	Средства государственного управления внешнеэкономической деятельностью.....	229
<b>5.5</b>	Тарифные методы в управлении внешнеэкономической деятельностью.....	236
<b>Глава VI</b>	<b>История организации организаций таможенного сотрудничества.....</b>	247
<b>6.1</b>	Международное таможенное сотрудничество, его сущность и цели.....	247
<b>6.2</b>	Европейский Союз, его основные задачи и место в мировой экономике.....	250
<b>6.3</b>	ВТО/ГАТТ – всемирная торговая организация и принципы регулирования международной торговли	256
<b>6.4</b>	Интеграция Республики Узбекистан в мировое хозяйство	265
	Заключение.....	274
	Глоссарий.....	279
	Литература.....	285

	Introduction.....	10
<b>Chapter I</b>	<b>Appearance of the customs relations on ancient world.....</b>	13
1.1	Development of the customs deal in average age.....	13
1.2	Customs deal in Central Asia.....	16
1.3	Bases to organizations and governing the customs deal.....	19
1.4	Organization and development of the customs service of the Republic Uzbekistan.....	26
<b>Chapter II</b>	<b>Legal bases to activity state customs organ Republics Uzbekistan.....</b>	32
2.1	Creation to new editing of the Customs code of the Republic Uzbekistan and its correspondence to international legal rate.....	32
2.2	Legal bases fight customs organ against contraband and breach of the customs rules.....	36
2.3	Responsibility for breach customs legislation.....	46
2.4	Organization investigation in customs organ.....	64
2.5	Improvement legal basys customs of the Republic of Uzbekistan.....	85
<b>Chapter III</b>	<b>World trade and place of the customs service in histories of its development.....</b>	85
3.1	Improvement politicians to world trade and economic safety state.....	85
3.2	Customs statistics in external oрговле and its primary tasks.....	95
3.3	Мezhregionalnye trade-economic relations and efficiency of the economic relations of the Republic of Uzbekistan.....	109
3.4	Primary tasks customs organ at protection national economic interest.....	115
<b>Chapter IV</b>	<b>Way to organizations of the customs checking in activity customs organ.....</b>	119
4.1	Notion about customs checking, its forms and order	

	of the realization.....	119
4.2	Particularities of the customs checking.....	128
4.3	Undertaking the customs checking and registrations goods and transport facilities, getting through customs border.....	132
4.4	Customs registration and order of its realization.....	145
4.5	Technical facilities of the customs checking.....	164
4.6	Expert operation in system of the customs checking..	173
4.7	Customs modes and condition of their using.....	182
<b>Chapter V</b>	<b>Tariff methods in system state regulations to foreign economic activity.....</b>	199
5.1	Theory state trade-tariff politicians.....	199
5.2	Essence, importance and purposes to foreign economic activity.....	205
5.3	State policy to organizations, management and regulations to foreign economic activity.....	215
5.4	Facility of state management foreign economic activity.....	229
5.5	Tariff methods in management foreign economic activity.....	236
<b>Chapter VI</b>	<b>History to organizations organization customs cooperation.....</b>	247
6.1	International customs cooperation, its essence and purposes.....	247
6.2	European Alliance, its primary tasks and place in world economy.....	250
6.3	VEIN/GATT - a worldwide trade organization and principles of the regulation to world trade.....	256
6.4	Integration of the Republic of Uzbekistan in world facilities.....	265
	<b>Conclusion.....</b>	274
	<b>Glossary.....</b>	279
	<b>Literature.....</b>	285

## KIRISH

Tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida davlat xizmatlarining shaffofligini va ulardan erkin foydalanish imkoniyatini, mamlakatning iqtisodiy manfaatlarini hisobga olgan holda, eksport-import operatsiyalarining mutanosibligini ta'minlash tadbirkorlik faoliyatini jadal rivojlantirish, investitsiya va eksport salohiyatini oshirish, aholining turmush sharoiti va sifatini yaxshilashning eng muhim shartlari hisoblanadi. Shu bilan birga, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvining murakkab tartib-taomillari va uzoq muddatlari, bojxona organlari xodimlari o'rtasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik va xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining saqlanib qolayotganligi islohotlarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda. Bundan tashqari, tashqi savdo operatsiyalarini monitoring qilish sohasida idoralararo va xalqaro hamkorlikning sust tashkil etilganligi kontrabanda va kontrafakt mahsulotlarni olib kirishning oldini olish vazifalarini samarali bajarish, bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tov lash sxemalarini aniqlash imkonini bermayapti. Umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlar asosida bojxona organlari faoliyatini hamda bojxona ma'muriyatichilagini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlik va turizmni faol va jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi.

Bugungi kunda respublika bojxonasi o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni samarali bajara oladigan, qudratli zamonaviy bojxona texnologiya va asbob-uskunalariga ega bo'lgan, yaxlit, puhta tashkil etilgan, kadrlar bilan ta'minlangan huquqni muhofaza qilish tuzilmasi hisoblanadi.

Shu bilan birga, 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab chegara bojxona postlarida bojxona organlari tomonidan bojxona nazorati o'tkazilganda veterinar, fitosanitar, ekologik va sanitар-epidemiologik nazorat ham amalga oshirilishi, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkilotiga a'zo davlatlarning akkreditatsiyadan o'tgan organlari tomonidan muvofiqlik sertifikatlari berilgan, O'zbekiston Respublikasiga olib kirilayotgan tovarlarga nisbatan majburiy muvofiqlik sertifikatlashtirishni amalga oshirish talab etilmasligi; tovarlarni «erkin muomalaga chiqarish (import)» rejimiga bojxona rasmiylashtiruvi uchun davlat tilida majburiy markirovka qilish talab etilmasligi nazarda tutilgan.

Ushbu tizimga ko'ra, eksport-import qilinayotgan tovarlar faqat dastlabki bojxona rejimiga rasmiylashtirish vaqtida xavfni boshqarish

tizimini qo'llash asosida tanlab tekshirish prinsipiga rioya etgan holda bojxona ko'rigi o'tkaziladi.

Xavfni boshqarish tizimida tovarni bojxona ko'rigidan o'tkazish kerakligi to'g'risidagi qarorni tadbirkorlik sub'ektining xalolligiga qarab, avtomatlashtirilgan dasturdagi axborotlar asosida qabul qilinishi ko'zda tutilmoxda. Ya'ni sub'ektiv yondashuvdan voz kechiladi.

2018 yil 1 sentyabrdan Davlat bojxona qo'mitasining veb-saytida tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakati rejimini tartibga soluvchi barcha normativ hujjatlar, tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan hujjatlar, har bir tovarga mos ravishda bojxona bojlari stavkalari, ushbu hujjatlarni beruvchi organlar to'g'risidagi batafsil axborotni, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun boshqa ma'lumotlarni real vaqt rejimida bepul asosda olish imkonini beradigan «Integratsiyalashgan tarif» interaktiv xizmati joriy etilishi, tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilganda davlat organlariga «Integratsiyalashgan tarif» interaktiv xizmatida nazarda tutilmagan ma'lumot va hujjatlarni talab qilish man etilishi belgilab qo'yildi.

U rivojlangan infratuzilmaga ega bo'lib, o'zining barcha bo'linmalari bir yelkadan bosh chiqarib, bir tartibda ishlashini ta'minlaydi, haqli ravishda mamlakat iqtisodiy havfsizligining ishonchli istehkomi va uning iqtisodiy manfaatlarining sodiq himoyachisi hisoblanadi. Mustaqil O'zbekiston ichki va tashqi siyosatining ajralmas qismi hisoblangan bojxona siyosatida keyingi vaqtda jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda, ayni ular uni rivojlantirishning asosiy strategik yo'nalishlari, huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnika asoslari barpo etilishini belgilaydi. Mamlakatimizda bojxona ishi jahon hamjamiyatida uz berayotgan integrasiya jarayonlarini hisobga olgan holda rivojlanmoqda. Bular esa savdoni globallasshtirish, chegara orqali olib o'tilayotgan yo'q hajmlarining anchagina ko'payishi, axborot-kommunikasiya texnologiyalarining rivojlanishida olg'a qarab qo'yilgan qadamlardir. Tabiiyki, ushbu omillar butun dunyoda savdo-iqtisodiy munosabatlar ustidan nazoratning dastagi sifatida bojxona rolining oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Xalqaro savdoni globallashuvi tashqi savdo siyosati vositalaridan foydalanishni yanada takomillashtirishni, ya'ni xalqaro savdoni tartibga solishda notarif usullaridan tarif usullariga o'tishni taqozo etayapti. Bu esa tarif usullarini bevosita amaliyotda qo'lllovchi bojxona ishini, uning

asosiy tashkil etuvchilarini, asosiy tamoyillari va qoidalarini o'rganishga bo'lган e'tiborni oshiradi.

«Bojxona ishi» fanini o'qitishdan maqsad talabalarda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda bojxona ishini tutgan o'rni, bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazishni, ulardan bojxona qonunchiligidagi belgilangan bojxona to'lovlarini undirilishini ob'ektivligini ta'minlashni, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashni, bojxona ishi bo'yicha xalqaro hamkorlikni, bojxona hizmati uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishni, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishidagi ahamiyati to'g'risida, nazariy va amaliy bilimlar hosil qilishdan iborat. Fanni o'qitilishining asosiy vazifalari O'zbekiston Respublikasining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi, xalqaro hamjamiyat bilan o'zaro savdo iqtisodiy aloqalarini kengayishi sharoitida respublikamiz bojxona organlarining faoliyatini Jahon amaliyotida qabul qilingan me'yorlar asosida takomillashtirishni zarurligi to'g'risida talabalarda ilmiy izlanishlar olib borishga qiziqish uyg'otish.

Davlatlar o'rtasidagi xalqaro savdoni rivojlanishi, ishlab chiqarish integrasiyasini kengayishi va takomillashuvi tashqi iqtisodiy faoliyatni yanada erkinlashuviga sabab bo'layapti.

Xozirgi bozor islohotlari yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida, mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan, jumladan, tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni rag'batlantirish, horijiy kapital oqimini kuchaytirishga yo'naltirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora-tadbirlar tizimini yaratishdir.

## **I-Bob. Qadimgi dunyoda bojxona munosabatlarini paydo bo'lishi**

### **1.1. O'rta asrlarda bojxona ishini rivojlanishi.**

Xalqlar va davlatlar o'rtasidagi savdo va iqtisodiy aloqalarni tartibga solishning o'ziga hos shakli sifatida bojxona ko'p asrlar muqaddam poydo bo'ldi. Tashqi savdo aloqalari haqidagi eng ilk ma'lumotlar bizga Qadimgi Misrning oltinchi sulolasi(eramizdan uch ming yil oldin) yodgorliklari orqali etib kelgan. O'sha davrlarda savdo karvonlaring harakati hafsiz emas edi. Misrdagi yangi podshohlik davrining tarixiy yodgorliklari ot-ulovlarni talash va savdogarlarni talash va savdogarlarning shikoyatlari haqida hikoya qiladi. Shu sababli karvonni qo'riqlash, sarf harajatlarini qoplash maqsadida maxsus yig'imlar undirila boshlandi. Feodallar tomonidan ular orqali o'tuvchi savdogarlardan undiriladigan soliqlar ham bojning qadimgi ko'rinishi edi. Keyinchalik ularni shaharlar ham undirib ola boshladi, davlat paydo bo'lganidan keyin esa boj hazinaning to'ldirishni qulay vositasiga aylandi.

Ijtimoiy hayot murakkablashishi, shaharlar rivojlanishi, savdo hajmi va intensivligi kengayishi davomida yig'imlarning yangi yangi turlari, shu jumladan savdodan olinadigan yig'imlar joriy etila boshladi.

Boj o'zining asosiy funksiyasi, fiskal fyuksiyasini, yaa'ni hazina manfaatlariga rioya qilish vazifasini ado etar ekan, boshqa soliqlar va yig'imlar bilan birgalikda davlatning mustahkamlanishiga ko'maklashadi.

Davlatni rivojlanishi barobarida bojlar ham rivojlanadi, bojxona hizmatini tashkil etish shakillari va usullari takomillashadi.

Bojxona tarixining Rossiyalik tadqiqotchisi V.A. Timmerman eramizdan oldingi 6 asrdan boshlab afina aholisi donni Misr dan, Sisiliyadan, keyinchalik esa Shimoliy Qora dengiz bo'yidan olganligini qayd etadi. Xersones, Pantikapey, Feodosiya kabi shahar Qadimgi Gresiyaning tashki savdosi uchun shunchalik muhim ediki, ulardan tovar keltirilganligi va chiqarilganligi uchun boj undirilmas edi. Gresiyaning o'zida chetdan keltirilgan tovarlardan olinadigan boj ular bahosining o'ndan bir qismini tashkil etardi. Biroq vaqt o'tishi bilan afinaliklar mu'tadil bojlar sovdoning rivojlanishiga ko'maklashadi va ko'p daromad keltirishi mumkin degan qarorga keldilar. Shu sababli eramizdan oldingi IV asrda, Demosfen davrida boj tovar bahosining yigirma, ellik, hatto yuzdan bir qismigacha qisqartirildi. Ayrim buyumlar - qurol yarog', harbiy anjomlar - umuman boj to'lashdan ozod

etilgan. Afinaning barcha ittifoqchilari boj imtiyozlariga ega edilar, ular o'z tovarlar uchun bohosining yuzdan bir qismi, qadim shaharlar yigirmadan bir qismi miqdorida boj to'lashar edi.

Boj dengiz portlarida va shahar bozorlarida yig'ilar edi. Quruqlikdagi bojxonalar ham mavjud edi. Bojxonadagi operasiyalar qo'shinlar bilan dushmanlik munosabatlari mavjud bo'lgan taqdirda chegaralar yopilganda to'xtatilar edi. Boj odatda oltin va kumush bilan to'lanardi. Boj yig'ish ayrim shaxslar yoki guruhlarga sotilar, ular obro'li fuqarolardan bo'lgan kafillarga ega bo'lishardi.

O'rta asrlarda bojxona ishining rivojlanishi xalqaro savdoning kengayishi, davlatlar va moliyaviy iqtisodiy munosabatlarning qaror topishi bilan mustahkam aloqadorlikda davom etdi. Xiristianlikni hyukumronlik qilishi Yevropada bojxona ishiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Masalan, Stasburgda 982 yilgi maqom bilan episkopga shaharning to'rt yuqori amaldorini: mer, graf, bojxonachi va hazinachini tayinlash huquqi berilgan edi.

Biroq keyinroq, 1249 yildayoq Frayburg shahrida bojxona amaldorini saylash va, agar ular o'z vazifalariga vijdonan munosabatda bo'lmasalar, ularni lavozimidan bo'shatish huquqini fuqarolarning o'ziga berildi.

Strasburglik bojxonachilar vazifalariga, masalan, eng asosiy soliqlarni undirish kirardi, ayni vaqtida yarmarka yig'imlarini qal'a boshlig'i sifatida grafning o'zi o'ndirar edi. Strasburg ko'priklari va yo'llari graf va bojxonachilar mablag'lari evaziga saqlanardi.

Parijda XXII asrda shaharga olib kirishda barcha horijiy tovarlardangina emas, balki boshqa fransuz shaharlarining ipak, polotno, ipdan qilingan buyumlardan, shuningdek movut va mo'ynadan ham boj undirilar edi.

1275 yilda Angliya parlamenti qiroq Eduard I ga import qilinadigan vinoga va eksport qilinadigan ingliz juniga boj begilash huquqini berdi.

Biroq Yevropa mamlakatlari bojxonaning markazlashuvi yana ko'p asrlar davom etdi. Angliya bilan Shotlandiya o'rtasidagi bojxonalar 1707 yilda, Angliya bilan Irlandiya o'rtasidagi bojhona zastavalari esa faqat 1823 yilda yo'q qilindi. Fransiyada bojxona birligi 1790 yilda vujudga keldi. Avstriya esa o'z bojxona siyosatini 1775-1851 yillarda shakllantirdi. Italiyada bojxona to'siqlari 1859 yilda quladi, Germaniyaning bojxona jihatdan birlashishi esa 1842 yildan 1888 yilgacha davom etdi. Davlatning ichki siyosati murakkabligiga qaramay, savdogarlarning tashqi savdo aloqalari XV-XVIII asrlarda feodal

Yevropa mamlakatlarining merkantilizm deb atalgan yangi iqtisodiy siyosatining asosiga aylandi.

XVI asrda Angliyada olib kiriladigan tovarlardan olinadigan boj 42 ming olib chiqib ketiladigan tovarlardan olinadigan boj 185 ming funt sterlingni tashkil etar edi. 15-18 asrlarda hududidan savdogarlarning karvonlari Yevropadan Xindistonga, Xindistondan Yevropaga o'tadigan Misrda boj tovar qiymatining salkam 15 foizini tashkil etardi, XVIII asrning ohirlarida kelib esa ular 35 foizga yetdi va undan ham oshib ketdi. Imtiyozli tarif faqat sadogarlar Pizadan yetkazib beradigan temir va yog'och mahsulotlarga belgilangan.(10%) Keyinroq Xindistonga Afrikani aylanib o'tadigan dengiz yo'li ochilishi va portugaliyaliklar tomonidan Xurmuz va Adan dengiz portlarini bosib olinishi tovarlarni misr orqali olib o'tishga katta ta'sir o'tkazdi, birok bunda bojlarning haddan ortiq ekanligi ham muayyan o'rinn tutadi.

Fransiyada 1664 yilda boj yig'imlaring fiskal ahamiyati hali kuchli bo'lган vaqtida boj tarifi tovarlarni keltirish bo'yicha 700 modda va olib chiqib ketish bo'yicha 900 moddadan iborat bo'lган, Bu esa boj yig'imi mayda-chuydasigacha ishlab chiqilganligidan dalolat beradi. Kanada 1975 yili dekabr oyida proteksionistik maqsadlarda AQShdan go'sht mahsulotlariga cheklash joriy qilganda, AQSh ushbu mahsulotlarning Kanadadan import qilinishiga qattik kvota belgilandi, bu xol Kanada iqtisodiyotiga 100 milion dollar zarar yetkazdi, AQSh ko'rgan zarar esa Kanadani ko'rgan zararidan 10 baravar kam bo'ldi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona ishi nima?
2. Eramizdan oldingi bojxona ishini qanday tasvvur qilasiz?
3. Bojxona ishini O'rta asrlardagi rivoji qanday bo'lган?
4. O'rta asrlardan bojxona ishi bo'yicha ma'lumotlar qanday yetib kelgan?
5. O'rta asrlarda bojxonachilar savdo karvonlariga qanday hizmat ko'rsatgan?
6. Markaziy Osiyoda bojxona ishi to'g'risida gapiring?
7. O'zbekiston Respublikasi da bojxona ishini vujudga kelish tarixi to'grisida gapiring.
8. Pata -Gisar bojxonasi nechanchi yilda tashkil etilgan?
9. Nechanchi yilda bojxona organi alohida davlat organi sifatida e'lon qilingan

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. «O’zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to’g’risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
2. А.П.Киреев –Международная экономика М: Международные отношения, 2009 г
3. Международное экономическое отношение Учебник, под.ред И. Фоминского, Экономист 2014 г
4. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г
- 5.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УHITI, 2014 г.
6. Драганов Б. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.

### **1.2. Markaziy Osiyoda bojxona ishi.**

Rivojlanayotgan mamlakatlarning bojxona siyosati iqtisodiy va siyosiy mustaqillikni ta’minalash manfaatlari, milliy iqtisodiyotni mustahkamlash va rivojlantirish maqsadlarida olib boriladi. Masalan olib kiriladigan mashina va asbob uskunalar, kimyoviy tovarlar va materiallardan eng kam stavkalarda bojlar undirilgan. Qishloq xo’jaligi mahsulotlari, odatda bojsiz import qilingan. Kiyim-bosh va uy-ro’zg’or buyumlariga oshirilgan stavkalar qo’llanilgan. Zeb-ziynat va alkagolli ichimliklarga eng yuqori stavkalarda boj undirilgan.

Takibiga soliqlar va bojlarni undirish ham kiradigan moliyaviy - iqtisodiy tizimning puhta faoliyat ko’rsatishi har qanday tuzumda davlat mavjud bo’lishining iqtisodiy asosi hisoblanadi. Akademik B.Ahmedovning fikriga ko’ra bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlab mavjud bo’lgan. Chunki ko’p ming yillab Sharqni G’arb bilan boglagan Buuyuk Ipak yo’li Markaziy Osiyo hudidan o’tgan. O’rta dengizdagi Suriyaning Antalya porti uzoq vaqt Ispaniya, Portugaliya, Benesiyanadan tovarlarni tashuvchi kemalarga hizmat qilgan. Bu kemalar Buuyuk Ipak yo’li orqali Xitoy va Yaponiyaga yo’l olganlar. Buuyuk Ipak yo’li orqali amalga oshiriladigan savdoga qaysi darajada aloqador bo’lgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiruvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirildi va maqbul holiga keltirildi. Agar qaysidir davlat yoki shahar bojxona qoidalarini qattiqlashtirsa, bojlar va yig’imlar haddan tashqari ko’paytirilsa, karvonlar uni chetlab o’tishni

yo'lini qidirganlar: birgina Markaziy Osiyoda Buyyuk Ipak yo'lining bir nechta shahobchasi mavjud bo'lган. Ushbu karvonlar chetlab o'tgan davlatlar esa anchagina daromadidan mahrum bo'lishar edi.

Tarixchilarning guvohlik berishicha, Markaziy Osiyoda yerdan hiroj va tanob, tovardan esa zakot undirilgan. Qur'onga muvofiq, har bir musulmon mol mulkining qirqdan bir qismini zakot qilar edi. Zakot shuningdek kelayotgan va ketayotgan har bir karvondan ham undirilar, shu sababli zakotchilar karvonlar harakatini ziyraklik bilan kuzatib turishar edi. Shahardan o'tadigan har qanday savdogar zakot olinadigan saroyga to'xtab o'tishi shart bo'lган. Bu yerda uning tovaridan 2,5 foizli boj undirilar edi. Bundan tashqari , savdogar har bir tuyu hisobiga yerlik ezilganligi uchun ham haq to'laganlar. Bu yerlik timpaek 54 tovar honlikning barcha aholi yashaydigan joylaridan erkin o'tishga kafolat berar edi. Amudaryoning Janubiy qirg'og'ida deyarli barcha shahar boj undirish huquqini o'zlariga saqlab qolgan. Ular zakotni qonun bo'yicha emas balki O'zbekitan bilganlaricha belgilashardi. Afg'onistonda esa 2.5 foiz emas, balki 20 foiz miqdorda zakot undirilgan.

Ko'chmanchilardan zakot naturada undirilgan. Xar qirq moldan bittasi zakot sifatida olingan. Zakotchi yiqqan butun mol- mulk honning hazinasiga kelib tushgan. Buhoro honligining katta qismini inglizlar nazorati ostida tutib turgan Afg'oniston bilan chegarasida bojxonalar tashkil etilgan. O'lkaning Afg'oniston bilan savdo qiluvchi boshqa tumanlaridan chiquvchi tovarlar mana shu bojxonadan o'tar edi.

Ma'lumki, Buhoro hyukumati o'z vaqtida Afg'onistonga olib ketilayotgan tovarlarni bojdan ozod qilish haqida farmoyish chiqargan bo'lib, biroq bu farmoyish Buhoro devonhonasidan tashqariga chiqmagan. Lekin shunga qaramay, bojxona birlashmasi davlatlar o'rtasida savdo aloqalarini kengayishida o'zbekistan ahamiyatiga ega bo'ldi. Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingenidan keyin Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. 1893 yilda 11 ta chegara posti tashkil etildi. Turkiston okrugi shulardan biri bo'ldi. Turkiston okurugida 16 ta bojxona organi mavjud edi. 1895 yilda Termiz shahrida Patta-Gisar bojxonasi tashkil etildi. Unda asosan Afg'onistondan keltirilgan tovarlardan bojlar undirilar edi. Xar yili ushbu bojxona posti orqali 2500 dan ziyod sayohatchi o'tardi. U paytlari Afgoniston hududi orqali Markaziy Osiyoga ko'plab kontrabanda tovarlari ham o'tkazilgan.

1917 yildan keyin ichki va tashqi savdo xalq komissarligida 8 bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashkil etildi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. Uning

tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bo'lib, ularda 5710 nafar xodim ishlar edi. O'sha yili Temiz shahridagi Patta-Gesar bojxonasi Termiz bojxonasiga aylantirildi. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilganidan keyin Bojxona bosh boshqarmasi tashki savdo vazirligi tarkibida qoldirildi.

Toshkent postida hammasi bo'lib 3ta xodim ishlagan. Ularga B.Hovikov rahbarlik qilgan. Yetmishinchchi yillarda tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlanish munosabati bilan ushbu post Toshkent bojxonasiga, 1988 yilda esa O'zbekiston bojxonasiga aylantirildi.

1988-1989 yillarda Samarqand, Buhoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzah, Qo'qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliqda bojxona postlari ishga tushdi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona ishi nima?
2. Eramizdan oldingi bojxona ishini qanday tasvvur qilasiz?
3. Bojxona ishini O'rta asrlardagi rivoji qanday bo'lган?
4. O'rta asrlardan bojxona ishi bo'yicha ma'lumotlar qanday yetib kelgan?
5. O'rta asrlarda bojxonachilar savdo karvonlariga qanday hizmat ko'rsatgan?
6. Markaziy Osiyoda bojxona ishi to'g'risida gapiring?
7. O'zbekiston Respublikasi da bojxona ishini vujudga kelish tarixi to'grisida gapiring.
8. Pata –Gisar bojxonasi nechanchi yilda tashkil etilgan?
9. Nechanchi yilda bojxona organi alohida davlat organi sifatida e'lon qilingan

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
2. А.П.Киреев –Международная экономика М: Международные отношения, 2009 г
3. Международное экономическое отношение Учебник, под.ред И. Фоминсконского, Экономист 2014 г
4. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г
- 5.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УНИТИ, 2014 г.
6. Драганов Б. «Основы таможенного дела», М., 1998 г.

### **1.3. Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari**

Mustaqillikdan ilgari bojxona ishi 1991 yilda qabul qilingan Bojxona kodeksi va «Boj tarifi to'g'risida»gi Qonuni asosida amalga oshirilar edi. Bu davr bojxona institutlarini huquqiy jihatdan boshqarish va tartibga solishning eng yangi, zamonaviy usullarini joriy qilish bilan ajralib turadi. Mazkur Kodeksning yangiliklaridan biri shundan iborat ediki, ilgari ma'muriy huquqbazarlik toifasiga kiritilgan kontrabandaga jinoyat turi sifatida baho (kvalifikasiya) berildi; bundan tashqari, lisenziya tizimi va boshqa bojxona vositalari amaliyatga kiritildi. Xo'jalik sohasini davlat tasarrufidan va hususiy lashtirish jarayonlar rivojining istiqboli – bojxona huquqbazarligi sodir etgan korxonalarini ma'muriy javobgarlikka tortishni qonuniylashtirdi. Xo'jalik yyurituvchi sub'ektlar va fuqarolarning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish sohasidagi huquqiy-me'yoriy hujjatlar doirasi ancha kengaytirildi, bu holat, o'z navbatida, kontrabanda va bojxona huquqbazarliklari haqidagi ishlarni yuritishni bat afsil va qat'iy tartibga solishda hamda bojxona organlariga kontrabanda haqidagi ishlar bo'yicha surishtiruv olib borish huquqining berilishida o'z aksini topdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 11 aprelda e'lon qilingan «Eksport-import operasiyalarini tartibga solishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi hamda «Tovarlar (ishlar, hizmatlar) eksportini rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmonlari, «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq, 1993 yil 7 oktyabrdagi chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 372-Farmoyishi; bojxona nazoratini takomillashtirish va bojxona statistikasini yuritishi maqsadida e'lon qilingan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 95-sonli «Tashqi savdo operasiyalarini amalga oshirishda horijiy valyutadagi mablag'lardan foydalanish ustidan nazoratni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi; 1996 yil 1 oktyabrdagi 342-sonli «O'zbekiston Respublikasi da tovarlar importi samaradorligini oshirish (rasionalizasiya) chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari bojxona ishini tartibga solishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qonun hujjatlarining aksariyati oraliq va o'tish hususiyatlariga ega bo'lsa ham, o'sha davrda bojxona munosabatlarini tartibga solishda ularning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Aynan o'sha vaqtida bojxona ishi va zamonaviy bojxona huquqining demokratik va ilg'or modeli ishlab

chiqila boshlandi. Yuqorida sanab o'tilgan Farmonlar, Farmoyishlar va Qarorlar o'ziga hos mustaqil «poydevor» (blok) vazifasini bajarib, sifat jihatdan butunlay yangi bojxona qonunchiligini tashkil etdi.

Bojxona kodeksi va «Davlat bojxona hizmati to'g'risida»gi Qonunlarning qabul qilinishi tufayli O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligi bir butun, yahlit, uzviy bog'langan tizimga aylandi. Bojxona operasiyalari davomida qonuniylik va fuqarolarning huquqlarini ta'minlovchi ma'muriy-prosessual me'yorlarning ahamiyati ortdi. Kodeksda bojxona ishini tashkil qilishga oid eng zamonaviy huquqiy qonun-qoidalar va me'yorlar mavjud bo'lib, ularsiz samarali bojxona qonunchiligini shakllantirish va eng muhimi uni tadbiq qilish mumkin emas; bojxona organlarining yagona va yahlitligi tamoyili shular jumlasidandir. Bojxona kodeksi assosini qonuniylik va insonparvarlik tamoyillari tashkil qiladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning jahon amaliyotiga mos keluvchi, yangi qonun-qoidalari (tamoiyillari): tarifli boshqaruvi, lisenziyalash, kvotalash va boshqalar yyuk aylanuvida bo'lgan tovarlar ustidan bojxona nazoratini tashkil qilishni tubdan o'zgartirishni talab qildi. Agar ilgari tovarlarni o'tkazish tartiboti (rejim) va tartibi (prosedura) tashqi savdo bitimining sub'ekti kim ekanligidan kelib chiqib belgilansa, hozir bunday bitimning bosh, asosiy mezoni ob'ekt, ya'ni aniq tovardir. Qonunlarga og'ilmay rioya qilmasdan turib, bojxona hizmati faoliyatining samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Shu sababli, bojxona organlarida yuridik hizmatni tashkil qilish va rivojlantirish eng dolzarb muammolardandir. Mazkur hizmatning vakolatlariga: bojxona ishining huquqiy me'yoriy negizini yyuritish, bojxonachilarga qonun va me'yoriy hujjatlarni tushuntirish; fuqarolar va tashkilotlarga kerakli ma'lumotlar va yuridik maslahatlar berish; ma'muriy va jinoiy javobgarlik choralarini qo'llash bilan bog'liq bo'limgan shikoyatlar va murojatlarni ko'rib chiqish; huquqiy me'yoriy hujjatlarni va tegishli hulosalarni tekshirib chiqib, imzolash (viza qo'yish - vizirovanie).

Kodeks o'sha davrning shart-sharoitidan kelib chiqib tuzilgan edi. Xozirgi vaqtda unga tuzatishlar va o'zgartirishlar kiritish (korrektirovka) zamon talabiga aylandi, chunki u bojxona ishining muhim sohalari hisoblangan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadigan bojxona valuta nazorati, bojxona statistikasini o'z ichiga olmagan, bundan tashqari, Bojxona kodeksida bayon qilingan 16 bojxona rejimlarining har biriga mufassal, barcha tafsilotlari bilan izoh berilmagan.

Davlat bojxona hizmati faoliyatining huquqiy asoslari – O’zbekiston Respublikasi 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Davlat bojxona hizmati to’g’risida»gi hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iuldagi 374-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O’zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo’mitasi to’g’risida»gi Hizomda aniq belgilab berildi va ushbu soha 2018 yil 12 aprelda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan imzolangan «O’zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to’g’risidagi farmoni tasdiqlangach qayta takomillashtirilmoqda.

O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo’mitasi, Davlat bojxona Qo’mitasining Qoraqalpog’iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va postlari bojxona organlaridir.

Bojxona organlari o’z faoliyatida O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga, O’zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksiga, «Davlat bojxona hizmati to’g’risida»gi Qonunga, O’zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga amal qiladilar. O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasi (keyingi o’rinlarda DBQ deb yuritiladi) O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq Davlat boshqaruvi organi hisoblanadi.

DBQ o’z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati amalga oshirilishini, bojxona ishiga oid qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko’rsatishini ta’minlaydi. Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o’z faoliyatini davlat hokimiyatining mahalliy idoralaridan mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

DBQning qonunchilikka muvofiq o’z vakolatlari doirasida qabul qilgan qarorlari, mulkchilik shakllaridan qat’iy nazar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan ijro etilishi shart. Bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organ hisoblanadi va davlat budgeti mablag’laridan ta’milanadi. O’zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tushirilgan va o’z nomi bitilgan muhrga ega.

DBQning tuzilishi hamda uning faoliyatini tashkil etish O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iyuldagagi 374-sonli Qarori bilan tasdiqlangan. Shu qarorga asosan DBQning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Yagona bojxona siyosati amalga oshirilishining huquqiy, iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqish, ularning amalda

qo'llanilishini ta'minlash, bojxona ishi sohasida qonun hujjatlari va me'yoriy hujjatlar loyihalari tayyorlanishida qatnashish;

- O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari ishlab chiqilishida qatnashish, belgilangan tartibda va o'z vakolatlari doirasida bojxona masalalari bo'yicha xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzish;
- Respublikaning bojxona hududida davlat havfsizligini, jamoat tartibini, inson hayoti va salomatligini himoya qilish, hayvonloar va o'simliklarni muhofaza qilish, atrof-muhit muhofazasi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirilishiga ko'maklashish;
- Belgilangan tartibda bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarni bojxona nazoratidan o'tkazilishini ta'minlash va uning shakllarini takomillashtirish;
- TIF qatnashchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga va o'z vakolatlari doirasida – soliq qonunchiligiga rioya etilishi ustidan nazoratni takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qabul qilish;
- TIFni tartibga solishda bojxona tartibga solish vositalarini qo'llanishini ta'minlash (tarif mexanizmi ham shu jumлага kiradi), tashqi iqtisodiy faoliyatni tarifli tartibga solish usullari, kvotalash normalari belgilashda, lisenziyalash va deklarasiyani taqdim etish tartibini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishida belgilangan tartibda qatnashish;
- Boj poshlinalari, soliqlar va boshqa bojxona to'lovlarini davlat budjetiga o'z vaqtida va to'liq o'tkazilishini ta'minlash;
- O'z vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;
- Bojxona statistikasi metodologiyasini takomillashtirishda, bojxona ishi sohasida statistik ma'lumotlar to'plash, ularga ishlov berish va tahlil qilinishini tashkil etish, respublikaning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish, tashqi savdo va to'lov balansini mustahkamlash bo'yicha prognoz hisob-kitoblarini amalga oshirish va takliflarni ishlab chiqish;
- Bojxona organlari faoliyati to'g'risida ahborot to'planishi va ishlab chiqilishi hamda avtomatlashtirilgan tizim joriy etilishini yuritish, shuningdek bojxona statistika ma'luotlarini tegishli idoralar va manfaatdor organlarga taqdim etish;
- Kontrabandani, bojxona qonunchiligini va o'z vakolatlari doirasida soliq qonunchiligi buzilishining oldini olish va ularga barham berish chora-tadbirlarini mustaqil ravishda yoki huquqni muhofaza

qilish organlari bilan o'zaro hamkorlikda ishlab chiqish va qo'llash, shuningdek xalqaro terrorizmga va Respublika xalqaro fuqaro aviasiyasi faoliyatiga g'ayriqonuniy aralashishga qarshi kurashishga ko'maklashish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va qo'llash;

- Bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruv ishlarini amalga oshirish va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalari buzilishiga muvofiq ishlarni ko'rib chiqish;
- Yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda bojxona qoidalari buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralarini belgilangan tartibda qo'llash;
- Giyohvandlik vositalari, psihotrop va portlovchi moddalar, qurol-yarog'ni respublikaning bojxona chegarasi orqali g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va qo'llash;
- Respublikaning va horijiy davlatlarning vakolatli organlari bilan birgalikda giyohvand va psihotrop moddalarni nazorat ostida yyetkazib berilishini amalga oshirish;
- Milliy havfsizlik xizmati va ichki ishlar organlari bilan o'zaro hamkorlikda qonunchilikda belgilangan tartibda, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- Aybdorlarni javobgarlikka tortish to'g'risidagi masala bojxona organlari vakolatlari doirasidan tashqariga chiqqanda, qonun bu'zilishlari faktlari bo'yicha materiallarni tergov, sud organlari va boshqa idoralarga topshirish;
- Bojxona organlarining mansabdar shaxslari tomonidan qonuniylikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, bojxona organlari mansabdar shaxslarining hatti-harakatlari va qarorlari ustidan tushgan shikoyatlar va e'tirozlarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish;
- Bojxona organlariga yyuklangan vazifalar va funksiyalar amalga oshirilishi samaradorligini ta'minlovchi bojxona infratuzilmasini tashkil etish;
- Bojxona organlari xodimlarini, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar barcha ishlab chiqarish korxonalari, muassasalar va tashkilotlar uchun bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;
- Bojxona va erkin omborlar, bojsiz savdo do'konlari, bojxona brokyerlari va bojxona tashuvchilari, tovarlarga bojxona hududidan tashqarida, bojxona hududida yoki bojxona nazorati ostida ishlov berish

ustidan nazoratni amalga oshirish, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda faoliyatning sanab o'tilgan turlarini amalga oshirish huquqiga ruhsatnomalar berish;

- Xalqaro bojxona va savdo tashkilotlarida qatnashish, horijiy davlatlarning bojxona organlari, bojxona ishi masalalari bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish, qonunchilikda belgilangan tartibda xorijiy mamlakatlarning bojxona hizmatlari bilan o'zaro axborotlar ayirboshlash;
- Bojxona organlarining moddiy-tehnika bazasini rivojlantirish va mustahkamlash chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tashqi savdo yyuklarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish, bojxona maskanlari tarmog'ini va bojxona infrastryukturasining boshqa ob'ektlarini kengaytirish;
- DBQning moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan harajatlar mahsus jamg'armasiga tushadigan pul mablag'lar hisobiga respublikada bojxona ishini takomillashtirish chora-tadbirlarini mablag' bilan ta'minlashdan iborat.

Organning davlat idoralari tizimidagi ahamiyatini aniqlab beruvchi, huquqiy mavqeining bosh mezoni, tarkibiy qismi uning kompetensiyasidir (bu lotinchada «competentia» so'zidan olingen bo'lib, «yuritish, qobiliyat, layoqat, huquqiy tegishlilik» kabi ma'nolarni anglatadi). Ushbu so'zning ikki ma'nosi mavjud: ma'lum masalalar doirasida chuqur bilimga ega bo'lishlik hamda vakolatlar doirasi (huquq va majburiyatlar) demakdir.

Boshqaruv idoralarining butun faoliyati, tashkiliy va huquqiy munosabatlari – ularning o'z kompetensiyalarini amalga oshirishlari natijasida namoyon bo'ladi. Organning kompetensiyasida ko'proq boshqaruvning idoraviy mazmuni ko'zga tashlanadi. Davlat boshqaruv idorasining kompetensiyasi huquqiy-me'yoriy hujjatlarini e'lon qilish yo'li bilan belgilanib, ushbu idoraning istalgan sohadagi faoliyat doirasini aniqlab beradi. Bojxona organi kompetensiyasi qonunlar yordamida shakllantiriladi.

DBQ huquqiy me'yoriy hujjatlar tuzish vakolatining keng qamrovligi uning faoliyati doirasi bilan bog'liq bo'lib, tarmoqlararo boshqaruvning asosiy funksiyasi hamda tashkiliy vositalariga nisbatan boshqaruvda ancha katta hajmni egallab turuvchi asosiy faoliyatning huquqiy shaqli sifatida namoyon bo'ladi. Davlat qo'mitalari ana shu

hususiyatlari bilan o’z tarmoqlaridan tashqarida ijro etilishi majburiy bo’lgan idoralararo hujjatlarni chiqara oladigan vazirlikdan faqlanadi.

Bunday me’yoriy hujjatlarning majburiyligini hisobga olganda ular davlat qo’mitalari boshqaruva faoliyatini qat’iyat bilan amalga oshirilishining mazmuniga aylanadi. Ammo, me’yoriy hujjatlar tuzishning bunday vakolati mazkur qo’mitalarning mahsus funksiyasi va tarmoq boshqaruvi bilan bog’liq faoliyatining asosiy huquqiy shaqli emas.

Davlat qo’mitalarida aksincha, idoralararo me’yoriy hujjatlarni chiqarish (tasdiqlash) huquqiy ular funksiyasini amalga oshirishning asosiy kafolati bo’lib hizmat qiladi. DBQ faoliyatida ham me’yoriy hujjatlar tuzish ishlari ko’p hollarda yohud birgalikda, yoki boshqa davlat boshqaruvi idorasi bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

O’zbekiston Respublikasining boshqa vazirliklari va idoralari bilan bojxona qonunchilagini qo’llash masalalari bo’yicha birgalikda, belgilangan tartibda me’yoriy hujjatlarni chiqarish huquqi – Davlat bojxona qo’mitasi to’g’risidagi Nizomda belgilangan. Bir tomonidan, bu o’z mavqelariga teng bo’lgan ma’muriy-huquqiy munosabatlar sub’ektlarining harakatlari bo’lib, ularning vakolatiga, misol uchun, DBQ va Moliya vazirligi, DBQ va Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi, DBQ va Markaziy bank o’rtasidagi birorta masalani hal qilish va huquqiy-me’yoriy hujjatlarni qabul qilish kiradi. Boshqa tomonidan, bir tomonlama buyruqlar chiqarishga imkon bermaydigan, vujudga keladigan munosabatlarni yo’lga qo’yuvchi muayyan usullaridir.

Qo’mita tomonidan, o’z mavqeiga ko’ra, teng bo’lgan davlat boshqaruvi idoralari o’rtasida nazorat va muvofiqlashtirish tartibot faoliyatini amalga oshirishda vujudga keladigan munosabatlarning o’ziga xos hususiyatlari – davlat qo’mitalarining huquqlari, vakolatlari, funksiyalari reglamentining o’ziga hos jihatlaridan kelib chiqadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona ishi nima?
2. Eramizzdan oldingi bojxona ishini qanday tasvvur qilasiz?
3. Bojxona ishini O’rta asrlardagi rivoji qanday bo’lgan?
4. O’rta asrlardan bojxona ishi bo’yicha ma’lumotlar qanday yetib kelgan?
5. O’rta asrlarda bojxonachilar savdo karvonlariga qanday hizmat ko’rsatgan?
6. Markaziy Osiyoda bojxona ishi to’g’risida gapiring?

7. O'zbekiston Respublikasi da bojxona ishini vujudga kelish tarixi to'grisida gapiring.

8. Pata –Gisar bojxonasi nechanchi yilda tashkil etilgan?

9. Nечanchи yilda bojxona organi alohida davlat organi sifatida e'lon qilingan

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil

2. А.П.Киреев –Международная экономика М: Международные отношения, 2009 г

3. Международное экономическое отношение Учебник, под.ред И. Фоминского, Экономист 201 4 г

4. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г

5.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УHITI, 2014 г.

6. Драганов Б. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.

#### **1.4. O'zbekiston Respublikasi bojxona hizmatining tashkil topishi va rivojlanishi**

O'zbekiston Respublikasi bojxona hizmatining tashkil topishi va rivojlanishining o'ziga hos jihatlari shundaki mamlakatimizning asosiy bojxona qonunini yangilash ishi uzoq va puxta olib borilgan. Qonun loyihasi ustida ishlash bojxona ishiga doir me'yoriy-huquqiy hujjatlarni tizimga solishdan boshlangan. Keyingi ikki yilning o'zidagina ushbu soxani tartibga soladigan o'nlab nizom va yo'riqnomalar qayta ishlandi. Bular bojxona rejimlari, ayrim taomillar, bojxona bilan bog'lik infratuzilma xodimlari: bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtirishi bo'yicha mutahassis faoliyatiga taalluqli hujjatlardir.

Tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar amaldagi Bojxona kodeksiga ham kiritildi. Bir vaqtida kodeksning yangi tahriri loyihasi ustida ham ish olib borildi. Bunda amaldagi qonunni qo'llash amaliyoti, MDX bo'yicha hamkor davlatlarning bojxona qonunchiligi, hozirgi xalqaro bojxona amaliyotining amalda qo'llanishi, shuningdek Jahon savdo tashkilotining qonun-qoidalari, 1999 yil yangilangan tahrirda qabul qilingan “Bojxona taomillarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'grisida” Kioto konvensiyasi va bojxona nazoratini tashkil etish masalalarini tartibga soladigan boshqa xalqaro konvensiyalarning

qidalarini inobatga olingan. Qonun loyihasini tayyorlayotganda DBK mutahassislarini kodeksiga bevosita ta'sir etadigan, qonunosti hujjatlari miqdorini iloji boricha qisqartiradigan hujjat bo'lishi kerakligidan kelib chiqdilar, chunki mufassal va aniq-puhta qonun bojxonani tartibga solish sohasida barqarorlik va oldindan ayta olishlik kafolatidir. Shu bois bojxona organlari va TIF ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar asosiy me'yorlarining muhim qismi idoraviy me'yoriy hujjatlardan yangilangan qonunga o'tkazildi. Bojxona to'lovlari hisoblab yozish va to'lash yoki o'ndirishning barcha masalalari bevosita qonun loyihasida aks ettirildi. Biroq bojxona boshqaruvi jarayonining har bir bosqichini imkonli boricha batafsillashtirish amalda bajarib bo'lmaydigan vazifa. Imkonli boricha bevosita amal qiladigan qonun yaratish maqsad qilib olingan bo'lishiga qaramay, hozir unga qo'shimcha me'yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqmasa bo'lmasligi ravshan bo'lib qoldi. Bu nafaqat Davlat bojxona qo'mitasi, balki loyihami ishlab chiqishning turli bosqichlarida ishtirok etgan xalqaro ekspertlarning ham nuqtai nazaridir. Misol uchun, ushbu hujjatga bojxona bojlarining stavkalari, tovarlarni tasniflash qoidalarini kiritib bo'lmaydi. Zero u bojxona tariflari bilan tartibga solishning barcha o'ziga hos detallarini batafsil tavsiflab berishi kerak bo'lган amaliy yo'riqnomasi emas.

Shu bois muayyan dastaklar to'plami hisoblangan turli xil qonunosti hujjatlari (yo'riqnomalar, tartiblar, nizomlar va hokazo), shubhasiz, har doim bojxona amaliyotida qo'llanadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, yangi tahrirdagi Bojxona kodeksi, bevosita amal qiluvchi hujjat sifatida, ularning sezilarli qisqarishiga olib keladi. Shu sababli u 418 modda, 59 bob va 12 bo'limdan iborat bo'lган amaldagi Bojxona kodeksi bilan qiyoslaganda ancha katta hajmli bo'ladi. Chunonchi, hozirgi paytda yangi tahrir loyihasida qayta taxrir qilingan modda va bo'lim mavjud. Qonun loyihasi hajmining ko'payishi shu bilan shartlanganki, unda bojxona nazorati va tovarlarni rasmiylashtirish, bojxona to'lovlari hisoblab yozish masalalari va hokazolar bo'yicha bojxona organlari bilan tashki iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi huquqiy munosabatlar me'yorlari ancha batafsil belgilangan; barcha mulkchilik shakllaridagi ho'jalik yurituvchi sub'ektlar, shu jumladan fuqarolarning ham bojxona to'grisidagi qonunlarni buzish uchun javobgarligi masalalari tartibga solingenan.

Shu sababli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun qulay amaliy muhitni yaratish, tadbirkorlar bilan hamkorlikning sifat jihatidan

yangi amaliy algoritmini ko'rish respublika bojxona hizmatining muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga terrorchilik harakatlari zamonamizning dahshatli voqealigiga aylanib qoldi. Terrorizm solayotgan havf, xalqaro narkobiznesning hujumkorligi bojxona hizmatidan huquqni muhofaza qilish funksiyalarini kuchaytirishni, yanada faolroq harakatlarni, ishda ildam bo'lishni talab qildi. Bojxona nazoratining samaradorligini oshirish, narkotiklar, qurol, o'q-dori, portlovchi moddalar, harbiy va ikkiyoqlama maqsaddagi tovarlarni aniqlash hamda ularning kontrabandasiga barham berish Davlat bojxona qo'mitasining eng muhim ustuvor vazifasi hisoblanadi. DBK si tezkor tadbirlarning natijadorligi va uyushganligiga; taylorlanayotgan yoki sodir etilgan huquqbazarliklar to'grisidagi axborotni o'z vaqtida olish, to'plash, tahlil qilish va ushbu ahborotdan amalda foydalanish tizimini barpo etishga alohida e'tibor qaratgan. Ushbu vaziyatlarni hal etish barcha fuqarolarning qonunga itoat etishi va halolligiga bog'lik. Buning uchun bojxonaning barcha bo'glnlari bojxona nazoratini aniq-puhta tashkil etishni ta'minlashlari, mavjud kuch va vositalardan foydalanish samaradorligini oshirishlari zarur bo'ladi.

Ana shu maqsadda bojxona infratuzilmasi ob'ektlarini modernizasiyalash, ularni eng yangi uskunalar, aloqa va nazoratning zamonaviy vositalari bilan jihozlash bo'yicha rejali ish olib borilmoqda. Bu faoliyat o'z natijasini bermoqda. 2005 yilning to'qqiz oyi ichida bojxona hizmati narkotiklarni kontrabanda qilishga doir 80 dan ortiq urinishga barham berilgan. G'ayriqonuniy aylanmadan 38 kilogrammga yaqin turli narkotik vositalar, tarkibida psihotrop va kuchli ta'sir qiluvchi moddalar bo'lган yarim milliondan ziyod tabletka hamda ampulalar olib qo'yilgan. Ushbu yo'nالishda respublika bojxonasi respublikaning boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan yaqindan hamkorlik qilmoqda. Mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlantira borib, terrorizmga qarshi kurashda bojxona hizmatlarining sa'y-harakatlarini birlashtirish, bojxona nazoratining tashqi savdoga ko'maklashish choralarini bilan iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash choralarini biriktiradigan ta'sirchan mexanizmini shakllantirish uchun harakat qilinmoqda. Ikki bo'limdan iborat yagona vazifani amalgalashish bojxona boshqaruvini isloh qilishni talab etadi, bu, birinchi navbatda, fiskal va huquqni muhofaza qilish vazifalarini majburiy amalgalashish bojxona rasmiylashtirishi taomillarini soddallashtirish hamda jadallashtirishga albatta ta'sir ko'rsatishi kerak.

Bojxona taomillarining samaradorligini oshirish imkonini beradigan xalqaro tavsiyalar Kioto konvensiyasida bayon etilgan. Ulardan biri xatarlar tahlili va boshqarilishi tizimini amaliyatga joriy etish hisoblanadi, bu tizim, o'z navbatida, bojxona ishi konsepsiyasining o'zini tubdan o'zgartirishi kerak. Hozirgi sharoitda bunday yondashuvning muhimligi Jahon bojxona tashkiloti (WCO) Kengashining shu yil bo'lib o'tgan 105/106-sessiyalarida ta'kidlandi, bunda xalqaro bojxona hamjamiyati jahon savdosida havfsizlik va hamkorlikning hadli standartlari to'grisidagi WCO loyihasini ma'qulladi.

Hozirgi vaqtida uning modeli ustida ish olib borilar ekan, bojxona nazorati jarayonlarida xatarlarni boshqarish tizimi dastaklaridan foydalanmasdan turib yaqin istiqbolda bojxona xizmati oldida yuzaga keladigan maqsadlarga erishib bo'lmasligidan kelib chiqiladi. Davlat bojxona qo'mitasi umuman olganda xatarlarni tahlil qilish va boshqarish konsepsiyasini belgiladi, xatarlarni aniqlash uslubiyati va xatarlar darajasini, ular tahlili darajalari hamda aniqlangan xatarlarga munosabat bildirish choralarini baholash mezonlari ishlab chiqish bosqichida turibdi. Xatarlarni boshqarish tizimini ishlab chiqish va joriy etish miqiyosiga ko'ra o'tgan asrning 90 chi yillari boshida bojxona yo'q deklaratsiyasini qo'llagan holda olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni deklaratsiya qilishning joriy etilishi hamda 2003 yil oxirida Tashqi savdo operatsiyalarining yagona elektron axborot tizimi (TSOYaEAT) amalga kiritilishi bilan taqqoslasa bo'ladigan loyiha bo'ldi deb aytish o'rinnlidir. Bu loyiha ana shunday tizimga solingan va keng miqyoslidir.

Bugunga kelib xatarlarni boshqarish tizimi elementlarini joriy etishga keng qamrovli yondashuvga assoslangan dastlabki qadamlar qo'yildi deb qayd etish mumkin. Lekin bular faqat ishning boshlanishi xolos, oldinda esa uzoq, ko'p bosqichli ishlar turibdi. Xatarlarni tahlil qilish va boshqarishni amalda ro'yobga chiqarish, bojxonadan keyingi auditni uchta muhim tarkibiy qismsiz: avtomatlashtirish vositalarini joriy etish va bojxona bo'linmalari o'rtasida ma'lumotlarni real vaqt rejimida elektron ayrboshlash, amaldagi me'yoriy-huquqiy bazani yangilash va takomillashtirish hamda kadrlar tarkibining yangi texnologiyalarda ishslashga tayyorligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Bojxona qonunchiligini xatarlarni tahlil qilish va boshqarish tizimi talablariga muvofiqlashtirish ham bir oyda va hatto bir yilda bajariladigan ish emas.

Shuni qayd etish lozimki, hatto yetakchi davlatlarda bu tizim odatda kamida besh yil mobaynida joriy etilgan. Bojxona nazorati jarayonlarida xatarlarni boshqarish tizimining huquqiy asoslari va elementlari, tegishincha, uni qo'llash chog'ida bojxona organlari xodimlari harakatlarining funksional doirasi Bojxona kodeksi yangi tahririning loyihasida aks etgan.

Xalqaro integratsiya jarayonlari miqiyosida aytish lozimki Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati va Markaziy Osiyo hamkorligi tashkilotini birlashtirish to'grisidagi qaror respublika bojxona organlarining faoliyatiga ijobjiy ta'sir ko'rsatgan. Aytish lozimki oktyabr oyining boshlarida Sankt-Peterburgda "Markaziy Osiyo hamkorligi" va Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati tashkilotlarini bir tuzilmaga birlashtirish to'grisida qaror qabul qilindi, bu esa, shubhasiz, respublika bojxona organlari faoliyatida ham bojxona taomillarini soddallashtirish bilan aks etadi. Bu hol savdo aylanmasini nafaqat Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasida jadallashtirishga imkon beradi.

Tranzit taomillarini soddallashtirish O'zbekiston tovarlarini Yevropa bozorlariga ham olib chiqishni kuchaytirishga xizmat qiladi. Ushbu qarorni ro'yobga chiqarishda bojxona organlarining roli katta: zero Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi hyukumatlararo shartnomalar va kelishuvlarning uchdan biri bojxona ishiga taalluqli va Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar hududida bojxona nazorati va rasmiylashtirishi, tarifli va notarif tartibga solish choralarini qo'llashning yagona mexanizmlarini belgilaydi. Ulardan ba'zilari quyidagilardir: Yevrosiyo iqtisodiy hamjamiyati Bojxona qonunchiligi asoslarini ishlab chiqish to'grisida, bojxona to'lovlarini hisoblab chiqish va undirishning yagona tartibi, bojxona huquqbuzarligi masalalari bo'yicha jinoiy va ma'muriy qonunchilikni uyg'unlashtirish, bojxona kadrlarini tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish, davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarida nazoratni amalga oshirish chog'ida nazorat organlarining hamkorligi va ularni joylashtirish tartibi. ustakillik sharofati ila tashkil Oliy Xarbiy bojxona instituti mustaqilligimizning ilk mevalaridan biridir. OXBI barcha jahon standartlariga javob beradi, zamonaviy moddiy-texnika bazasiga ega, noyob uskunalar bilan jihozlangan. Bir nechta komputer sinfi, kriminalistika laboratoriyasi, WCO talablari darajasida jihozlangan o'quv sinflari ishlab turibdi. Ular orasida shu jumladan texnik vositalarni qo'llagan holda bojxona nazorati va rasmiylashtirishini o'rgatish, kontrabanda va bojxona qoidalarini buzishlarga qarshi kurash

sinflari hamda eng zamonaviy uskunalar bilan jihozlangan kimyo laboratoriyasi bor. Bu yerda bojxona ishi va yurisprudensiya o'qitiladi, bakalavrлarni tayyorlash dasturi 4 yil, magistrлarniki 2 yil. Tinglovchilar ancha qattiq tarzda tanlab olinsada, unga kirish uchun talabgorlar oz emas. Institutda boshqa o'quv yurtlarini bitirgan bojxona xodimlari ham dastlabki tayyorgarlik va qayta tayyorgarlikdan o'tadilar. Shaxsiy tarkib bilan doimiy tarbiyaviy-profilaktik ish olib boriladi, unda huquqbuzarlikka moyil bo'lган xodimlarni aniqlashga katta e'tibor beriladi. Bojxona organlari xodimlarining muntazam o'tkaziladigan attestatsiyasi kadrlarning amaliy va axloqiy xislatlari, kasbga yaroqliligiga, shuningdek shaxsiy qobiliyatlari va ish tajribasiga muvofiq ularni joy-joyiga o'rинli qo'yishga baho berishning samarali shakllaridan biri bo'lib hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona ishi nima?
2. Eramizdan oldingi bojxona ishini qanday tasvvur qilasiz?
3. Bojxona ishini O'rta asrlardagi rivoji qanday bo'lган?
4. O'rta asrlardan bojxona ishi bo'yicha ma'lumotlar qanday yetib kelgan?
5. O'rta asrlarda bojxonachilar savdo karvonlariga qanday hizmat ko'rsatgan?
6. Markaziy Osiyoda bojxona ishi to'g'risida gapiring?
7. O'zbekiston Respublikasi da bojxona ishini vujudga kelish tarixi to'grisida gapiring.
8. Pata –Gisar bojxonasi nechanchi yilda tashkil etilgan?
9. Nechanchi yilda bojxona organi alohida davlat organi sifatida e'lon qilingan

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
2. А.П.Киреев –Международная экономика М: Международные отношения, 2009 г
3. Международное экономическое отношение Учебник, под.ред И. Фоминсконского, Экономист 2014 г
4. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г
- 5.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., UHITI, 2014 г.
6. Драганов Б. «Основы таможенного дела», М., 1998 г.

## **II-Bob. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari.**

### **2.1. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi tahririni yaratilishi va uni xalqaro huquqiy me'yordarga mosligi.**

Bojxona kodeksini yangi tahririning loyihasini ishlab chiqish 2000 yilda boshlangan edi. Uni yaratayotgan ishchi guruh amaldagi kodeksni qo'llash amaliyotini hozirgi xalqaro bojxona amaliyotining realliklarini, «Bojxona taomillarini soddallashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risida»gi Kioto konvensiyasiga (1974 yil), avvalo uning qayta ko'rilgan versiyasiga (1999 yil) negiz bo'lган g'oyalarni hisobga oladi.

O'zbekistonning Jahon savdo tashkiloti (JST)ga kelajakda kirishi ham loyiha qoidalarini shakllantirishda belgilovchi qoida hisoblanadi, u savdoni nazorat qilish mexanizmini, umumqabul qilingan xalqaro standartlarga mutanosib ravishda ko'rishga majbur etadi.

Shu tariqa, bojxona xizmati asosiy qonunining yangi tahririni tayyorlash quyidagi muhim tamoyillarni hisobga olgan holda yuritiladi:

- hujjatning xalqaro savdo va bojxona ishi qoidalari, boshqa xalqaro huquq me'yorlariga, shuningdek, respublikada amal qilayotgan, tashqi iqtisodiy faoliyatni va xorijiy investitsiyalar amalga oshirilishini tartibga soladigan va hokazo qonun hujjatlariga muvofiqligi;

- milliy qonunchilikni O'zbekiston Respublikasi bilan Yevropa ittifoqi o'rtasidagi tuzilgan «Sheriklik va hamkorlik to'g'risidagi Bitim»ga muvofiq Yevropa qonunchiligidagi moslashtirish;

- ular negizada tashqi savdo va dunyoning ko'p mamlakatlarida, shu jumladan, ularning O'zbekiston bilan savdosida uni tartibga solish, amalga oshiriladigan bir qator xalqaro savdo va bojxona konvensiyalariga kirishga tayyorlanish;

- hujjatga bevosita ta'sir ko'rsatish xususiyatini berish.

Darvoqe, hozirgi tamoyilni talqin qilish borasida ko'plab bahslar yuritilmoqda. Bojxona ishining ba'zi amaliyotchilari bevosita ta'sir ko'rsatadigan qat'iy Kodeksni yaratish bajarib bo'lmaydigan vazifa deb hisoblaydilar. Hayot oqimi mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishining jo'shqin sur'atlari har qanday qonun hujjatlariga, har qanday me'yoriy hujjatlarga qotib qolgan shaklda mavjud bo'lishga imkon bermaydi. Ular yangi kodeksda asosiy jihatlar aks ettirilishi, detallar esa boshqa tartibga soluvchi hujjatlarda belgilanishi kerak deb hisoblaydilar. Shunday bo'lsada, barcha holatlarni chuqur tahlil qilib, amaliy jihatdan maqsadga muvofiqligini hisobga olib, ishchi guruh bojxona organlari bilan

tadbirkorlar o'rtasidagi huquqiy munosabatlar asosiy me'yollarining katta qismini idoraviy, me'yoriy hujjatlardan yangilangan qonunga kiritish to'g'risida qaror qabul qildi.

Aniq ravshanki, yanada batafsil puxta kodeks – bojxona tartibga solishi sohasida barqarorlik va istiqbolni ko'zlab ish yuritish kafolatidir. Bojxona talab qilishi mumkin bo'lgan ma'lumotlarning batafsil ro'yxati va tovarlarni chiqarish muddati albatta qonun tomonidan belgilanishi kerak. Ta'sir choralarining batafsil ro'yhati ham shunday qilinishi darkor. Biroq, har bir qadamni, bojxona ma'murchiligi jarayonlarini imkonи boricha batafsillashtirish haqiqatda amalda bajarib bo'lmaydigan vazifa. Mo'ljal aniq bo'lishiga qaramay, unga hamroh bo'ladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlarsiz bevosita ta'sir qiladigan qonunni yaratib bo'lmaydi. Bu faqat Davlat bojxona Qo'mitasining nuqtai nazari emas. Bojxona qonunchiligini ishlab chiqishda biz, masalan, Yevropa Ittifoqi Komissiyasi (EIK) ekspertlari bilan yaqindan hamkorlik qilamiz. Ular ham bu masalada bizni qo'llab-quvvatlashadi: - ha, qonun ravshan va tushunarli bo'lishi kerak, lekin uning matni doim ham professional yurist bo'limgan kishilar tomonidan aynan qabul qilinmasligi mumkin. Alalhusus, so'z Bojxona Kodeksi singari murakkab me'yoriy-huquqiy hujjat to'g'risida borganda. Misol uchun, tovari chegaradan muammolarsiz qanday qilib olib o'tishni tushunish uchun uning bir o'zi kifoya qilmaydi, chunki bojxona bojlarining stavkalari, tovarlarni tasniflash qoidalarini ushbu hujjatga kiritish mumkin emas. Zero, u barcha tafsilotlarni ipidan ignasigacha bayon qiladigan amaliy yo'riqnomalar emas. Bojxona sohasida huquqiy munosabatlar g'oyatda xilma-xillikka ega. Ba'zan oldindan ko'rib bo'lmaydigan muammolar yuzaga keladi. Lekin baribir, ularni hal etish kerak. Buning ustiga shunday qilish kerakki, o'zboshimchalik, qonunning u yoki bu qoidalarini o'z bilganicha talqin qilishlar kam bo'lsin. Shuning uchun muayyan regulyatorlar to'plami ularga turli qonunosti hujjatlari (yo'riqnomalar, tartiblar, nizomlar va hokazolar) kiradi, Shubhasiz, har doim bojxona amaliyotida ishlataladi. Lekin, yana bir marotaba ta'kidlamoqchiman: yangi tahrirdagi bojxona kodeksi, bevosita ta'sir ko'rsatadigan hujjat sifatida, ularni anchagina qisqartirishga olib keladi.

Amaldagi bojxona kodeksini qo'llash amaliyotni umumlashtirish chog'ida muammo va masalalar doirasida belgilandi, ularni mazkur aniq bosqichda hal qilish hayotiy muhim hol edi. Unga O'zbekiston Respublikasining qonuni tomonidan bir qator o'zgartirish va qo'shimchalarining qayta-qayta kiritilishi ham shu bilan izohlanadi.

Misol uchun, «qayta ishslash» bojxona rejimiga taalluqli qoidalar, bojxona va erkin omborlar boj to'lamasdan savdo qilinadigan do'konlarni nazorat qilish masalalari anchagina o'zgartirildi, ular batafsilroq qayd etilgan, ba'zi atamalar yanada yig'iq talqingga ega bo'ldi. Bojxona brokeri va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassis faoliyati to'g'risida nizomlarga ham jiddiy o'zgartirishlar kiritildi.

Amaldagi bojxona kodeksi 19 bob va 11 bo'limdagи 198 moddadan iborat. Yangi tahrir loyihasida hozir 65 bob va 18 bo'limda 500 dan ortiq modda mavjud.

Qonun loyihasi hajmining ko'payishi avvalo shu narsalar bilan bog'liq:

- Bojxona nazorati va tovarlarni rasmiylashtirish, bojxona to'lovlarini hisoblab yozish va hokazo masalalar bo'yicha bojxona organlari bilan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar o'rtaida huquqiy munosabatlar me'yorlari yanada batafsilroq belgilangan;
- Mulkchilikning barcha shakllariga mansub xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning, shu jumladan, fuqarolarning ham, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarligi masalalari tartibga solinmoqda;
- Huquqbuzar o'z aybini tan oladigan va unga solinadigan jarimalarni joyning o'zida to'lash imkoniyatiga ega bo'lgan ayrim bojxona huquqbuzarliklari uchun ish yyuritish va undirishning soddalashtirilgan tartibini joriy qilish taklif etiladi;
- «Maxsus bojxona tamoyillari», «Xatarni boshqarish», «Xalqaro pochta jo'natmalari», «Ichki bojxona tranziti», «Valyuta nazorati», «Bojxona organlari tomonidan intellektual mulk huquqlarining himoya qilinishi», «Bojxona statistikasi», «Axboriy tizimlar va axborot texnologiyalari» singari va boshqa bo'limlar qo'shimcha ravishda kiritildi.

Aytishim joizki, yangi boblarning anchagina qismini qonunchilik novellalari deb atash mumkin. Bungacha bizda faqat umumiy tamoyillar bo'lib, ular assosida bo'ishda biron bir tarzda ishtirop eta olardik. Endi yangiliklarga bojxona ishining yangi konsepsiyasi qo'yildi. So'z, avvalo, xatarlar tahlili va ularni boshqarish tizimi to'g'risida boryapti...

Loyihaning fazilatlaridan biri shundan iboratki, u tovar olib kelishdan tortib, uning taqdirini belgilashga qadar muammolarning butun zanjirini tartibga solishni nazarda tutadi. Amaldagi kodeksda mazkur masalalar bunday kompleks tarzda hal qilinmagan.

Yuqorida bayon etilganlardan xulosa chiqarib, asosli tarzda aytish mumkinki, yangi tahrirdagi bojxona kodeksi loyihasida hozir O'zbekistonda amal qilayotgan tashqi savdo qoidalariga rioya qilishning universal mexanizmi mavjud. Uning asosiy qoidalari Jahon savdo tashkilotining umume'tirof etilgan me'yorlari va qoidalariga muvofiqlashtirilgan. Shu tariqa, bojxona qonunchiligi me'yorlarining yangi majmuining o'z vaqtidagi va ta'sirchan huquqiy baza bo'lib, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga, mamlakatimizni jahon iqtisodiyotiga yanada integrallashga va tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirishga yo'naltirilgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritish tartibi.
2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritishni ta'minlash.
3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalar.
4. Bojhona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bojxona organining qarori.
5. Bojxona haqidagi qonunlarni buzish tushunchasi.
6. Bojxona haqidagi qonunlarni buzganligi uchun jazo choralarini qo'llash tartibi.
7. Bojxona qonunlarini buzgan holatda tovarlarni musodara qilish tartibi.
8. Bojxona Kodeksining 192 moddasi to'g'risida gapiring.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi, Bojxona kodeksi, T., «Iqtisodiyot va xuquq dunyosi», 2016 y.
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
2. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.
5. Таможенное право. Экзамационные ответы. Шпаргалки. – М.: BUKLAYH, 2014 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.
2. UzR bojxona ishiga oid me'eriylar hujjalari.
3. К.Ф. Скворкова «Расследование контрабанды», М., Юрист, 2014 г.
4. Таможенное дело, Учебник, 2014 г. [www.professiya.ru](http://www.professiya.ru).

## **2.2. Bojxona organlarini kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurash faoliyatining huquqiy asoslari.**

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri – bojxona chegarasi orqali bojxona qoidalarini buzgan holda, kontrabanda yo'li bilan tovar-moddiy boyliklarini olib o'tilishiga qarshi kurashdan iborat.

Bojxona qoidalarini buzilishi deganda, O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining 129-moddasiga asosan bojxona kodeksiga va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjalarda belgilangan bojxona qoidalariga aybli g'ayriqonuniy rioya etishlik tushuniladi.

Bojxona kodeksining 129-moddasiga asosan bojxona qoidalarining buzilishi – Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, O'zbekiston Respublikasining bojxona ishiga oid boshqa qonun hujjalari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiyatchiliklaridan o'tkazish tartibiga, bojxona to'lovlarini to'lash tartibiga rioya etmaslik, bojxona imtiyozlari berish va ulardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslarning huquqiga zid tusdagi harakat yoki harakatsizligidir. Buning uchun (ya'ni, ularning huquqqa zid harakati ekt harakatsizligi uchun) Bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Javobgarlik sub'ektlari. Bojxona haqidagi qonun hujjalarining buzilganligi uchun javobgarlik sub'ektlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, quyidagi O'zbekiston Respublikasi shaxslari ham, horijiy shaxslar ham ma'muriy javobgarlikka tortilishlari mumkin:

- fuqarolar (o'n olti yoshga to'lgan);
- mansabdar shaxslar (agar ular huquqbazarliklar sodir etilgan paytda ularning hizmat vazifalariga Bojxona kodeksi va O'zbekiston

Respublikasining bojxona ishi bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash kirsa);

- yuridik shaxslar (mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);

- yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 15-bo'limi 134-172-moddalarida bojxona haqidagi qonunlar buzilishi turlari va ular buzilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Fuqarolar va mansabdor shaxslarning javobgarligi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgar bo'ladilar, ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari bo'lган taqdirda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Xuquqni buzuvchi (jismoniy shaxs) bilan bojxona organi o'rtasida o'zaro munosabatlar paydo bo'lganda, huquq buzish mavzusi esa fuqaroga tegishli tovar bo'lganda bojxona qoidalaring buzilishi fuqaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan lisensiya yoki malaka attestati chaqirib olinishi mumkin. Mansabdor shaxslar, agar ular tomonidan huquqni buzish sodir etilishi paytida Bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash ularning hizmat vazifalariga kirsa, bojxona qoidalari buzilganligi uchun javobgar bo'ladi.

Yuridik shaxslarning javobgarligi. Yuridik shaxslar va yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan Bojxona kodeksining 134-172-moddalarida nazarda tutilgan bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan lisensiya yoki malaka attestatini chaqirib olish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qo'llaniladi.

Korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan o'z hizmat vazifalarini bajarish chog'ida sodir etilgan bojxonaga oid qonun hujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fuqaro (yukni oluvchi, jo'natuvchi, tashuvchi, saqllovchi)ning ishi bilan bog'liq hamda ularning manfaatlari yo'lida va tovarlari bilan sodir etilgan hatti-harakat korxona

va tashkilot (yuridik shaxs) tomonidan sodir etilgan bojxona qoidalarining buzilishi sifatida tavsiflanadi. Ushbu holda yuridik shaxslar sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi. Korxona, tashkilot yoki fuqaroga qarashli bo'lgan tovar qonunni buzish ashyosi hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bo'lмаган taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi. Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun beriladigan jazo turlari. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar beriladi (BKning 132-moddasiga muvofiq):

1. **Jarima.** Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan vaqtdagi, davo etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan vaqtidan belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tovarlar va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan jarima ko'rinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda huquqbuzarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) nahi tushuniladi.

2. Bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organlari tomonidan berilgan **lisenziyani yoki malaka attestatini chaqirib olish.** Lisenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish bojxona omborlari, bojsiz savdo do'konlari, erkin omborlar, vaqtincha saqlash omborlariga, shuningdek bojxona brokeri, bojxona tashuvchisiga yoki bojxona rasmiylashtiruvi mutahassisiga ular tomonidan bojxona qoidalari buzilganligi uchun, agar ushbu huquqbuzarliklar ko'rsatib o'tilgan shaxslar tomonidan lisenziya yoki malaka attestati bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan sodir etilgan bo'lsa, qo'llanilishi myukin.

3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan **tovarlar va transport vositalarini musodara qilish**. Musodara qilish – bojxona qoidalari buzilishi ob'ekti hisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekinga olib qo'yilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jarima asosiy jazo sifatida qo'llaniladi. BKning 132 moddasi 2-3-bandlarida nazarda tutilgan jazolar esa, ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin. Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs tomonidan bojxona haqidagi qonun hujjatlari bir necha marta bo'zilsa, har bir huquqbuzarlik uchun alohida jazo beriladi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo berilishi javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni boj to'lovlarini to'lash va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo belgilash muddatlari. Bojxona organi tomonidan muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun berilgan lisenziya yoki malaka attestatini qaytarib olish hamda jarima ko'rinishida jazo belgilash bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish holati aniqlangan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay, lekin u sodir etilgan kundan boshlab uch yildan kechiktirmay, budjetga bojxona to'lovlarini to'lamaslik bilan bog'liq ishlar bo'yicha besh yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilish ko'rinishidagi jazo bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish sodir etilgan yoki aniqlangan vaqt dan hamda u asosiy yoki qo'shimcha jazo ekanligidan qat'iy nazar qo'llaniladi. Tovarlar va transport vositalarini g'ayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksi 246-moddasiga ko'ra Kontrabanda, ya'ni bojxona nazoratini chetlab yoki bojxona nazoratidan yashirib yohud bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'hshatib yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib, deklarasiyasiz yoki boshqa nomga yozilgan deklarasiyadan foydalanib, kuchli ta'sir qiluvchi zahar va zaharlovchi, radioaktiv, portlovchi moddalar, portlash qurilmalari, qurol-yarog', o'qotar qurol lekin o'q-dorilarni, shuningdek giyohvandlik vositalari va psihotrop moddalarni yoki diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidan o'tkazish ol-mulk musodara

qilinib yoki musodara qilinmay besh yildan o'n yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Yadroviy, kimyoviy, biologik va ommaviy qirg'in qurolining boshqa turlarini, shunday qurollarni yaratishda foydalanilishi mumkinligi ayon bo'lgan material va moslamalarni, shuningdek, giyohvandlik vositalari yoki psihotrop moddalarini ko'p miqdorlarda kontabanda qilish, mol-mulki musodara qilinib, 10 yildan 20 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi.

Demak, kontrabanda jinoyati bojxona chegaralaridan har qanday mol-mulkni emas, quyidagi ashyolarni g'ayriqonuniy o'tkazish bilan bog'liq:

1. Kuchli ta'sir qiluvchi zaharlar.
2. Zaharovchi moddalar.
3. Radioaktiv materiallar.
4. Portlovchi moddalar.
5. Portlatish qurilmalari.
6. Qurol-yarog', o'q-otar qurol va o'q-dorilar.
7. Giyohvandlik vositalari, psihotrop moddalar.
8. Diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlikni targ'ib qiluvchi materiallar.

Kontrabanda jinoyati:

- a) bojxona nazoratini chetlab o'tish;
- b) bojxona nazoratidan yashirib o'tkazish;
- v) bojxona hujjatlari yoki vositalariga o'hshab yasalgan hujjatlardan aldash yo'li bilan foydalanib o'tkazish;
- g) deklarasiyasiz o'tkazish;
- d) boshqa nomga yozilgan deklarasiyadan foydalanib o'tkazish orqali sodir etiladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlarini kontrabanda va bojxona qoidalarini buzilishiga qarshi kurashda mamlakatimiz huquqni himoya qilish organlari bilan hamkorlikda olib borayotgan chora-tadbirlari yahshi natijalar berayapti.

Bugungi kunda huquqni muhofaza qilish organi sifatida bojxonaning roli anchagina oshdi. Prezidentimiz va respublika hyukumati tomonidan qo'yilgan O'zbekistonning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga oid vazifalarning bajarilishida uning ulushi salmoqli bo'ldi. Bunga bojxona tegishli bo'linmalarining tezkor-qidiruv faoliyatini tartiblashtirib beruvchi me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashtirilishi ham ko'p darajada imkon yaratdi.

Shu munosabat bilan ta'kidlash joizki, bojxona tushumlarining o'sishi bojxona organlari fiskal vazifalarini takomillashtirish bilan bir qatorda tovarlarni kontrabanda yo'li bilan olib o'tish va bojxona to'g'risidagi Qonun hujjalarning buzilishiga qarshi kurashni kuchaytirish, tovarlarni deklarasiya qilmaslik yoki to'g'ri deklarasiya qilmaslik yo'li bilan, hususan, tovarlarning bojxona qiymatini, og'irligini kamaytirib ko'rsatish, tovar turkumlarining kelib chiqish mamlakatini o'zgartirish va hokazo yo'llar bilan bojxona to'lovlarini to'lashdan qochish faktlarini aniqlashga oid samarali ishlar bilan ifodalanadi.

Respublika bojxona hizmatining rahbari joriy yilda kontrabandaga va bojxona qoidalarini buzishlarga qarshi kurashish bo'linmalari faoliyatining asosiy yo'naliшlarini belgilab, ulardan o'z vazifalarini samarali amalga oshirishni, kontrabandachilarga va bojxona qoidalarini buzuvchilarga qarshi turishni kuchaytirishni, huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida bojxona hizmatining ahamiyatini oshirishni talab qildi.

Vaziyatning tahlili mamlakatimizga iste'mol tovarlari olib kirilishini tartibga solish chora-tadbirlarining qabul qilinishi bilan qo'shni davlatlarning O'zbekiston bilan chegaradosh tumanlarida bozorlar soni keskin ko'payganligidan dalolat beradi. Xozir Qozog'iston, Qирг'изистон, Turmaniston va Tojikistonning eng yaqin tumanlarida 20 dan ortiq ana shunday bozorlar faoliyat ko'satyapti.

Ayniqsa, O'zbekiston-Qozog'iston chegaralari tutashgan joylardagi bunday faollik juda ham havotir tug'diradi. Misol uchun, Janubiy Qozog'istonning Toshkent viloyati bilan chegaradosh tumanlarida 10 ga yaqin bozor faoliyat ko'rsatyapti. Ularda sotilayotgan import tovarlarning anchagina qismi Qozog'istonga bojxonaning rasmiylashtiruvvisiz va tegishli to'lovlarni to'lamasdan kontrabanda yo'li bilan olib kiriladi, bu esa ularni past narxlarda sotish imkonini beradi.

Asosan, Xitoyda ishlab chiqarilgan va past sifatli bo'lган bu tovarlar chegara bo'y lab hususiy uylarda barpo etilgan omborlarga to'planadi. Qo'shni davlat bilan chegara avvalgidek nomiga bo'lib, bu hol bojxonachilarga ko'p tashvishlar keltirmoqda. Ilgari yagona bo'lган mamlakatda karvon so'qmoqlari 10 yillar davomida ishlab chiqilgan va shu sababli bojxona va chegaradagi nazorat o'tkazish punktlarini aylanib o'tish olg'ir ishbilarmonlar uchun unchalik qiyinchilik tug'dirmaydi. Bu so'qmoqlar orqali oborlardagi past sifatli tovarlar kontrabanda yo'li bilan mamlakatimizga olib kelinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 25 artdagi 140-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida 2004 yil 1 aprel kuni DBQning 82-sonli buyrug'i bilan bojxona xodimlari vazifalari aniq belgilab berilgan. DBQ xodimlari tomonidan qarorlar talablari asosan bajarilgan bo'lsada, ushbu Nizom amalga kiritilgandan so'ng yangicha mexanizm ishga kirib ketishida amaliyotda bir qancha muammolar paydo bo'lib, ularni bartaraf etish choralari ko'rildi.

O'zbekiston Respublikasi Bosh Prokuraturasi,IIBning tergov boshqarmalari bilan bojxona organlari tomonidan qo'zg'atilgan jinoyat ishlari bo'yicha daliliy ashyo tariqasida olingan tovar moddiy boyliklarni harakatlari to'g'risida o'zaro jadval shaqlidagi ma'lumotnomalar tuzilishi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Bosh prokuraturasi, Oliy sudi, Adliya vazirligiga Nizomning sharhlanishi, qo'shimcha va o'zgartirish kiritish yuzasidan bir necha marotaba takliflar kiritildi.

Yuqoridagi qarorlar talablarini bajarilishi bo'yicha DBQ bojxona surishtiruv ishlari boshqarmasi tomonidan «Bojxona organlarida ashyoviy dalillarni saqlash tartibi», «O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarida surishtiruvni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi uslubiy qo'llanma» ishlab chiqilib, DBQning 2003 yil 9 oktyabrdagi 289-sonli buyrug'i bilan joriy etildi, shuningdek «O'zbekiston Respublikasi DBQ tizimida davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni hisobga olish, baholash va sotilishining namunaviy tehnologik tartibi» ishlab chiqilib, 2003 yil 31 dekabrdagi 356-sonli buyrug'i bilan amalga kiritildi. Ushbu tartiblarda bojxona posti inspektoridan tortib, boshqarma boshlig'igacha ularning aniq qilib ko'rsatib berildi.

So'nggi yillarda kontrabandaga qarshi kurashish sohasini kuchaytirish, uni transport, aloqa va mahsus tehnik vositalar bilan ta'minlash, bo'sh o'rirlarni tezkor faoliyat tajribasiga ega xodimlar hamda yosh mutahassislar bilan jamlash, ularni bilim saviyasini oshirish va tezkor faoliyatga o'rgatish, chegaralar orqali va ichki hududda tovarlarni noqonuniy aylanishini aniqlashda boshqa huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat organlari bilan hamkorlikni yahshilash bo'yicha ishlar davom ettirildi.

Chegaralardan noqonuniy olib o'tilayotgan 17,4 kg. tilla buyumlar, 665,2 ming AQSh dollari, 14022 Evro, 2 mln. Rossiya rubli, 189,3 mln o'zbek so'mi, 779,2 ming litr neft mahsulotlari, 221 tonna mineral o'g'it, 559,6 ming pachka sigaret, 118,9 ming litr spirt va spirtli ichimliklar, 2308,3 tonna don, un va un mahsulotlari, 569 bosh chorva

mollari, 2175,5 tonna rangli va qora metall hamda ko'plab boshqa tovarlar ushlab qolingan.

Lekin, giyohvandlik moddalarini noqonuniy aylanishini oldini olishga qaratilgan tadbirlar susaytirib yuborilganligi natijasida yil davomida 132 holatda 47,7 kg giyohvandlik moddalarini noqonuniy aylanishi aniqlanib, bu ko'rsatkich o'tgan yillarga nisbatan holatlar soni bo'yicha 32 taga, miqdori esa 171,2 kg kamaygan.

Tezkor faoliyatni tashkil etishda jiddiy kamchiliklar mavjud. Toshkent, Sirdaryo, Hamangan, Andijon, Xorazm, Buxoro, Samarcand viloyatlarida 50 dan ortiq «yama»lar, ya'ni tovarlarni vaqtincha saqlash joylari mavjudligi haqida tezkor ma'lumotlar bo'lsada, lekin, ushbu «yama» egalarining g'ayriqonuniy harakatlarini o'rganish, hujjatlashtirish va fosh etishga qaratilgan tezkor tadbirlar yetarli darajada o'tkazilmayapti.

Xozirgi kunda mamlakat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishida bojxona hizmatini o'rni kattadir. Bojxona xodimlari tomonidan joriy 2018 yilning o'tgan davrida o'tkazilgan tadbirlar va bojxona ko'rikilari natijasida jami 5215 ta huquqbazarlik holatlari aniqlanib, 69,9 mlrd. so'mlik tovarlar olib qo'yildi. Aniqlangan huquqbazarliklarning 230 ta holati yuzasidan jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Joriy yilda tovarlarni soxta kuzatuv hujjatlari asosida chegaradan olib o'tish va rasmiylashtirish bilan shug'ullangan 20 ta TIF qatnashchilarining jinoiy faoliyati fosh etilib, ularga nisbatan jinoyat ishi qo'zg'atilib, jami 135,2 mlrd so'mga yaqin qo'shimcha bojxona to'lovlari hisoblandi. Bundan tashqari, 60 ta TIF qatnashchilari tomonidan 24,5 mlrd. so'mlik bojxona imtiyozlaridan noqonuniy foydalanganligi aniqlandi.

O'tkazilgan tezkor tadbirlarda 23,9 kg. giyohvandlik vositalari, 567 dona psixotrop moddalar, 22 dona o'qotar qurol, 202 dona jangovar o'qdori, 4421 dona diniy mazmundagi, shafqatsizlik va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi materiallar huquqbuzarlardan olindi.

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2018 yil 29 iyundagi «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarori qabul qilinib, import boji va aksiz solig'i stavkalari unifikatsiya qilindi va ular 2019 yil 1 yanvardan boshlab amalga kiritilishi belgilandi.

Jumladan, jami 11 295 tovar pozitsiyasidan 3 410 tasi bo'yicha bojxona boji stavkalari tushirilib, 8 166 (bundan oldingi ko'rsatkich 6

240) ta tovar pozitsiyasi uchun bojxona boji 0 stavka miqdorida belgilandi. Bojxona boji stavkasini o'rtacha arifmetik hisobi amaldagi qaror buyicha 6,45 foizni tashkil etgan bo'lsa, yangi qabul qilingan qaror bo'yicha 4,07 foizni tashkil etib, 1,5 barobarga kamaygan.

Aksiz solig'iqa tortiladigan jami 1 530 ta tovar pozitsiyalaridan 778 tasiga aksiz solig'i stavkasi 0 stavka miqdorida belgilandi (qisqarish 1,9 barobar), 752 ta tovar pozitsiyalari bo'yicha 5 foizdan 70 foizgacha bo'lgan stavkalar yanada qisqartirildi

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Respublika Prezidentining shu yil 5 oktyabrdagi F-2340 sonli Farmoyishi hamda 19 sentyabrdagi 183-sonli qarorida bojxona organlariga nisbatan bildirilgan e'tirozlardan, to'g'ri xulosa chiqargan holda DBQ Hay'atining 26 noyabrdagi yig'ilishida belgilangan vazifalarning joylarda to'g'ri bajarilishi natijasida respublika hududiga TMBlarning katta miqdorlarda noqonuniy olib kirilishi va ichki hududda aylanishi bo'yicha aniqlangan holatlar ko'paygan.

Lekin, bu yo'nalihsda olib borilayotgan ishlar mavjud imkoniyatlar darajasida deb bo'lmaydi. Hamon bozorlar, do'kon va ovqatlanish shahobchalarida noqonuniy olib kirilgan TMBlar bilan savdo qilish kamaymayapti. Shu bilan birga, o'sishga asosan 4-chorakda olib borilgan tadbirlar natijasida erishilganligi hech kimga sir emas.

Bu esa ushbu yo'nalihsda imkoniyatlar ko'pligi, joylarda xizmat talab darajasida tashkil etilmayotganligini, xodimlar o'rtasida jinoiy elementlar bilan birlashib ketish va boshqa salbiy holatlarga chek qo'yilmaganligi, xizmatni kuchaytirish uchun Respublika va DBQ rahbariyatining topshirig'ini kutib o'tirish doimiy holatga aylanib qolayotganligini ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda respublika hududida TMBlarni noqonuniy aylanishini aniqlash asosan ichki hududlar ulushiga to'g'ri kelmoqda, vaholanki, Respublika rahbariyati tomonidan bojxona qo'mitasi oldiga noqonuniy tovarlarni chegaradan kirib kelishida aniqlash talab qilinmoqda.

Bu esa, mazkur boshqarmalar rahbariyati tomonidan xizmat faoliyatini tanqidiy nuqtai nazardan tahlil qilinmagani, o'z vaqtida kerakli keskin chora-tadbirlar belgilamaganliklaridan darak beradi.

Shuni ham ta'kidlab o'tish lozimki, spirt va alkogol ichimliklari, tamaki mahsulotlarini respublika hududiga noqonuniy olib kirilishini oldini olish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar belgilash va amalga oshirish haqida DBQ Hay'ati qarorlari va bir qator ko'rsatmalarda aniq

topshiriqlar berilganligiga qaramasdan aksariyat hududiy boshqarmalarda bu borada sezilarli o'zgarishlar qilinmadi.

Ochig'ini aytish kerak, hali Qorasuv bozoridan TMBlarni nazoratsiz, noqonuniy kirib kelishiga chek qo'yilgani yo'q. Respublikaning eng chekka viloyatlari bo'lgan Buxoro va Xorazmda ham Qirg'izistonning Qorasuv bozoridan noqonuniy kirib kelgan iste'mol tovarlari ushlanmoqda. Ammo, viloyatlararo nazorat o'tish va yo'l patrul postlarida hizmat olib borayotgan bojxona xodimlari faoliyati ham boshqarma rahbarlari nazoratidan chetda qolmoqda.<sup>1</sup>

O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining bu sohadagi faoliyatining samaradorligini oshirish maqsadida mamlakatimiz hyukumati bojxona organlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

#### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritish tartibi.
2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritishni ta'minlash.
3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalar.
4. Bojhona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bojxona organining qarori.
5. Bojxona haqidagi qonunlarni buzish tushunchasi.
6. Bojxona haqidagi qonunlarni buzganligi uchun jazo choralarini qo'llash tartibi.
7. Bojxona qonunlarini buzgan holatda tovarlarni musodara qilish tartibi.
8. Bojxona Kodeksining 192 moddasi to'g'risida gapiring.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi, Bojxona kodeksi, T., «Iqtisodiyot va xuquq dunyosi», 2016 y.
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-slonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
3. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.

---

<sup>1</sup> Respublika bojhona organlarining 2005 yil davomidagi xizmat faoliyati yakunlari to'g'risida ma'lumot, T.: 2006 yil, 12-bet.

4. Таможенное право. Экзаменационные ответы. Шпаргалки.  
– М.: BUKLAYH, 2014 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.
2. UzR bojxona ishiga oid me'eriy hujjatlar.
3. К.Ф. Скворкова «Расследование контрабанды», М., Юрист, 2014 г.
4. Таможенное дело, Учебник, 2014 г. [www.professiya.ru](http://www.professiya.ru).

### **2.3.Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik.**

Xususan, mamlakatimiz bojxona chegaralari daxlsizligini ta'minlash, yurtimizga notinchlik soluvchi quroq-yarog', giyohvand moddalar, qolaversa g'araz niyatli kimsalar va buzg'unchi g'oyalar yo'liga, diniy aqidaparastlik va ekstremizm yo'liga qat'iy to'siqlar qo'yish – bojxona xodimlarining eng ma'suliyatli vazifasi, Vatan oldidagi muqaddas burchidir.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'grisidagi Prezident Farmonida (1997 yil 8 iul) va Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iuldagagi 374-sonli qarorida belgilangan:

- kontrabandaga, bojxona qonunchiligi buzilishiga qarshi kurashish;  
- respublikaning bojxona chegarasi orqali giyohvandlik moddalari, psixotrop va portlovchi moddalar, quroq-yarog', valyuta boyliklari, milliy boylik hisoblangan badiiy, madaniy-tarixiy va arxeologik meros buyumlari, intellektual mulk ob'ektlari g'ayriqonuniy olib o'tilishining oldini olish kabi asosiy vazifalarni sharaf bilan bajarish uchun xodimlarimiz kontrabanda jinoyati va uning tarkibini, kontrabanda buyumlari va ularni aniqlash yo'l-yuriqlarini myukammal bilishlari, xalqaro huquq va milliy qonunchilikning talab va me'yorlaridan to'liq xabardor bo'lishlari lozim.

Kontrabandaga, bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishlarga va O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga tegishli soliqlar va boshqa majburiy boj to'lovlarini to'lashdan bosh tortishga qarshi kurash funksiyasi O'zbekiston

Respublikasi bojxona organlarining asosiy funksiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustahkamlangan. Yuqorida aytib o'tilgan funksiya bilan qonun hujjatlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavqeい ham belgilab berilgan, bu, shubhasiz, o'z funksional vazifalarini hal etishda bojxona organlarining huquqini kengaytiradi.

Bojxona organlari bojxona bilan bog'lik huquqbazarliklarga qarshi kurash vazifasini hal etib, bojxona haqdagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlash, sanksiya usullarini qo'llaydilar. Bojxona bilan bog'lik huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortish sohasida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqni qo'llash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining IX va X bo'limlari qoidalari bilan qonuniy tartibga solinadi. Ushbu qoidalalar asosida bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralariga tegishli masalalar bo'yicha normativ baza shakllanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi tushunchasi. Bojxona kodeksida bojxona qonun hujjatlari buzilishi tushunchasiga keng izoh berilgan. U 129-moddada keltirilgan. Ushbu moddaga muvofiq Bojxona kodeksida va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariга aybli g'ayrihuquqiy rioya etmaslik bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi deb hisoblanadi.

Aytib o'tilgan moddaga binoan bojxona qonunlarining buzilishi – Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'grisidagi qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi (shu jumladan, bojxona rejimlari) tartibiga, bojxona to'lovlarini to'lashga, bojxona imtiyozlari berish va ulardan foydalananishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqga zid tusdagi xatti-harakati yohud harakatsizligidir. Buning uchun (ya'ni, ularning huquqqa zid tusdagi xatti-harakati eki harakatsizligi uchun) Bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Javobgarlik sub'ektlari. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlik sub'ektlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, quyidagi O'zbekiston Respublikasi shaxslari ham, xorijiy shaxslar ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:

a) fuqarolar (ular huquqbazarlik sodir etilgan paytda o'n olti yosha to'lganda);

b) mansabdar shaxslar (agar ular huquqbazarlik sodir etgan paytda ularning xizmat vazifalariga Bojxona Kodeksi va O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash kirsa);

v) yuridik shaxslar (mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);

g) yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 15-bulimi 134-172-moddalarida bojxona haqidagi qonunlar buzilishi turlari va ular buzilganligi uchun javobgarlik belgilangan.

Fuqarolar va mansabdar shaxslarning javobgarligi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdar shaxslar ma'muriy javobgar bo'ladilar, ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari bo'lган taqdirda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Huquqni buzuvchi (jismoni shaxs) bilan bojxona organi (yuridik shaxs) o'rtasida o'zaro munosabatlar paydo bo'lganda, huquq buzish mavzusi esa fuqaroga tegishli tovar bo'lganda bojxona qoidalaring buzilishi fuqaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestati chaqirib olinishi mumkin. Mansabdar shaxslar, agar ular tomonidan huquqni buzish sodir etishi paytda Bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash ularning xizmat majburiyatlariga kirsa, bojxona qoidalari buzilganligi uchun javob beradi.

Yuridik shaxslarning javobgarligi. Yuridik shaxslar va yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan Bojxona kodeksining 134-172-moddalarida nazarda tutilgan bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya eki malaka attestatini chaqirib olish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qo'llaniladi.

Korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan ular o'z xizmat vazifalarini bajarish chog'ida sodir etilgan bojxonaga oid qonun hujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fuqaro (yyukni oluvchi, jo'natuvchi, tashuvchi, saqllovchi)ning ishi bilan bog'liq hamda ularning manfaatlari yo'lida va tovarlari bilan sodir etilgan bojxonona qoidalaring buzilishi sifatida tavsiflanadi. Ushbu holda yuridik shaxslar sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi.

Korxona, tashkilot yoki fuqaroga qarashli bo'lган tovar qonunni buzish ashyosi hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bo'lмаган taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi.

Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar beriladi (Bkning 132-moddasiga muvofiq):

1. Jarima. Jarima ma'muriy huquqbazarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbazarlik sodir etilgan vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbazarlik uchun esa huquqbazarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tovarlar va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan jarima ko'rinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda huquqbazarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) narxi tushuniladi.

2. Bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organi tomonidan berilgan lisenziyani yoki malaka attestatini chaqirib olish. Lisenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish bojxona omborlari, bojsiz savdo do'konlari, erkin omborlar, vaqtincha saqlash omborlariga, shuningdek, bojxona brokeri, bojxona tashuvchisiga eki bojxona rasmiylashtiruvi mutahassisiga ular tomonidan bojxona qoidalari buzilganligi uchun, agar ushbu

huquqbuzarliklar ko'rsatib o'tilgan shaxslar tomonidan lisenziya yoki malaka attestati bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan sodir etilgan bo'lsa, qo'llanilishi mumkin.

3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish. Musodara qilish – bojxona qoidalari buzilishi ob'ekti hisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekinga olib qo'yilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Jarima asosiy jazo sifatida qo'llaniladi, BK ning 132-moddasi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan jazolar esa, ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin.

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs tomonidan bojxona haqidagi qonun hujjatlari bir necha marta bo'zilsa, har bir huquqbuzarlik uchun alohida jazo beriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo berilishi javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni boj to'lovlarini to'lash va Bojxona Kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo belgilash muddatlari. Bojxona organi tomonidan muayyan faoliyat turlarin amalga oshirish uchun berilgan lisenziya yoki malaka attestatini qaytarib olish hamda jarima ko'rinishida jazo belgilash bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish holati aniqlangan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay, lekin u sodir etilgan kundan boshlab uch yildan kechiktirmay, budgetga bojxona to'lovlarini to'lamaslik bilan bog'liq ishlar bo'yicha – besh yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilish ko'rinishidagi jazo bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish sodir etilgan eki aniqlangan vaqt dan hamda u asosiy yoki qo'shimcha jazo ekanligidan qat'iy nazar qo'llaniladi.

Tovarlar va transport vositalarini g'ayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'grisidagi ishlarni yyuritish bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan Bojxona kodeksiga muvofiq, Kodeksda tartibga solinmagan hollarda esa ma'muriy javobgarlik to'grisidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilganligi to'g'risidagi ishlarni yyuritish bojxona qoidalari buzilganligi to'g'risida bayonnomalardan boshlanadi. Bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan bojxona qoidalari buzilganligi belgilari aniqlanishi bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi haqida ish yyuritilishiga asos bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'grisidagi kodeksining 262-moddasiga muvofiq (keyingi urinlarda UzR MJK deb ataladi), UzR MJKning 227-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlar bojxona organlariga tegishlidir.

Ma'muriy huquqbazarliklar to'g'risidagi ishlarni yyuritish vazifalari quyidagilar hisoblanadi: har bir ishning holatini o'z vaqtida, har tomonlama to'liq va holis aniqlash, uni qonun hujjatlariga muvofiq hal etish, chiqarilgan qaror ijro etilishini ta'minlash, shuningdek ma'muriy huquqbazarlik sodir etilishi sabablari va unga ko'maklashuvchi shart-sharoitlarni aniqlash, huquubazarliklarning oldini olish, fuqarolarni Konstitusiyaga va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga rioya qilish ruhida tarbiyalash, qonunchilikni mustahkamlash.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni yyuritish quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi:

- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini aniqlash va ularga barham berish, birlamchi materiallarni, huquqbazarliklar to'g'risidagi habarlarni tekshirish, aniqlangan fakt va huquq buzish holatlari, huquq buzuvchining shaxsini aniqlash, isbotlar to'plash va tekshirish bo'yicha prosessual harakatlarni yyuritish, tekshirish materiallarini ko'rib chiqish va uning natijalari bo'yicha qaror qabul qilish;
- ish materiallarini ko'rib chiqishga tayyorlash;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'grisidagi ishlar bo'yicha qarorlar ijrosi;
- huquq buzishlarning oldini olish bo'yicha takliflar, ahborot va habarlar kiritish, ular sodir etilishiga ko'maklashuvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda tartibga solishning boshqa chora-tadbirlari.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 276-moddasiga muvofiq, ma'muriy huquqbazarlik tog'risidagi ishga oid dalillar har qanday faktik ma'lumotlardan iborat bo'lib, organlar (mansabdor shaxslar) shu ma'lumotlarga asoslanib ma'muriy huquqbazarlik holati yuz bergan yoki bermaganligini,

muayyan shaxsning uni sodir etishda aybdorligini va ishni to'g'ri ko'rib chiqish uchun ahamiyatli bo'lган boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda aniqlaydi.

Bu ma'lumotlar quyidagi vositalar: bojxona haqidagi qonun hujjatlari to'g'risidagi bayyonna, javobgarlikka tortilayotgan shaxsning tushuntirishlari, jabrlanuvchi, guvohlarning ko'rsatuvi, ekspert hulosasi, ashayoviy dalillar, ashyo va hujjatlarni olib ko'yish to'g'risidagi tuzilgan bayonna, shuningdek, boshqa materiallar bilan belgilanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni bojxona organining mansabdar shaxsi huquqbazarlik aniqlangan joyda yoki yuqori bojxona organining ruhsati bilan – huquqbazarlik sodir etilgan joyda yuritadi. Bojxona qoidalari buzilishi to'grisidagi ishlarni yyuritish uchun bir bojxona organidan boshqasiga berish masalalari ular uchun yuqori turuvchi O'zbekiston Respublikasi bojxona organi tomonidan hal etiladi.

O'zbekiston Respublikasining yuqori turuvchi bojxona organi bojxona qoidalari buzilishi to'g'risidagi har qanday ishni yyuritish uchun o'ziga qabul qilishi yoki uni ushbu maqsadlar uchun O'zbekiston Respublikasining istalgan quyi bojxona organlariga berishi mumkin.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni yyuritish u boshlangan kundan e'tiboran bir oy muddatdan kechikmay tugallanishi lozim.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritish muddati zarur hollarda bojxona organining boshlig'i tomonidan yuridik shaxslarga va yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan to'rt oygacha uzaytirilishi mumkin (UzR Bojxona kodeksining 175-moddasi).

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ishlar davlat tilida yoki ushbu joydagi ko'pchilik aholi tilida yyuritiladi. Ishda ishtirok etuvchi, ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan shaxslar uchun ish materiallari bilan to'lik tanishish va uni ko'rib chiqishda tarjimon orqali ish bilan mazmunan tanishish, shuningdek, ona tilida so'zga chiqish huquqi ta'minlanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish materiallarida mavjud bo'lган ma'lumotlar ish ko'rib chiqilgunga qadar oshkor qilinmaydi. Quyidagi holatlar mavjud bo'lган taqdirda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi ish yyuritish boshlanmasligi, boshlangan ish esa to'htatilishi kerak:

1. Voqea yoki bojxona huquqbuzarligi tarkibi mavjud bo'limganda;
2. Bojxona qoidalari buzilishi sodir etilgan paytda shaxs un olti yoshga to'limganda;
3. Bojxona haqidagi qonun hujjalarning buzilishini sodir etgan shaxs aqli butun bo'limganda;
4. Shaxs zarur mudofaa eki eng ohirgi chora holatida ish ko'rganda;
5. Bojxona qoidalari buzilganligi uchun jazo qo'llash bartaraf etilgan taqdirda amnistiya chiqarilganda;
6. Bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun javobgarlikni belgilovchi hujjat bekor qilinganda;
7. Ishni ko'rib chiqish paytiga kelib, bojxona haqidagi qonun hujjalarning buzilganligi uchun jazo berish muddatlari tugaganda;
8. Javobgarlikka tortiluvchi shaxsga nisbatan bir faktning o'zi bo'yicha jazo qo'llash to'g'risida qaror yohud bojxona haqidagi qonun hujjalarning buzilishi to'g'risidagi ishni tuhtatish haqida belgilangan tartibda bekor qilinmagan qaror mavjud bo'lganda, shuningdek, usha bir faktning o'zi bo'yicha jinoiy ish mavjud bo'lganda;
9. Unga nisbatan ish yyuritish boshlangan shaxs vafot etganda.

Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalar. Bojxona haqidagi qonun hujjalari buzilganligi fakti bo'yicha hamda zarur harakatlarni sodir etish paytda bojxona organining mansabdor shaxsi qonun hujjalarda belgilanadigan shaklda bayonnomalar tuzadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalarga to'plangan dalillar ko'shib qo'yiladi. Bojxona organining mansabdor shaxsi ish qonun hujjalarda belgilangan tartibda o'zil-kesil hal etilgunga qadar dalillarning shaklanishini ta'minlash choralarini ko'rishi shart.

Bojxona haqidagi qonun hujjalarning buzilishini aniqlash va to'htatish hamda dastlabki hujjalarni tuzish (bojxona haqidagi qonun hujjalarning buzilishi to'grisida Bayonnomalar tuzish, tushuntirishlar olish, huquqni buzish quroli yoki bevosita buyumi hisoblangan ashyolar va hujjalarni olib ko'yish, ularning saqlanishini ta'minlash, jarima undirish ta'minlanishi uchun buyumlarni olib qo'yish va boshqa harakatlar) bojxona postlarining operativ-inspektorlik tarkibi, kontrabandaga qarshi kurash, bojxona qoidalari buzilishiga qarshi kurash bo'limi va surishtiruv xodimlari, shuningdek huquq buzilishini bevosita aniqlagan bojxona hizmatlarining boshqa bo'linmalari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjalariiga rioya qilinishini tekshirish va ma'muriy bayonnomalar tuzish huquqi berilgan bojxona organlarining mansabdor shaxslariga quyidagi lavozimlarda ishlovchi shaxslar tegishli bo'ladi:

- O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining boshqarmalar, bo'limlar boshliqlari, bosh, katta inspektorlari va inspektorlari;

- hududiy bojxona hizmatlarining boshqarmalar, bo'limlar, bo'linmalar, bojxona postlari boshliqlari, bosh, katta inspektorlari va inspektorlari.

MJKning 279-moddasi, UzR Bkning 177-moddasi talablariga muvofiq bojxona qonunlari buzilishining har bir fakti bo'yicha ma'muriy huquqbazarlikni bevosita aniqlagan bojxona organi xodimi belgilangan shakl bo'yicha bayonnomaga tuzadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjalariining buzilishi to'g'risidagi bayonnomada quyidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi:

1. Bayonnomaga tuzilgan sana va joy.
2. Bayonnomani tuzgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi, otasining ismi.
3. Xuquqni buzgan shaxs to'grisidagi ma'lumotlar.
4. Safarning maqsadi, yo'nalish, poezd, avtomashina yoki boshqa transport vositasining tartib raqami, uning kimga tegishli ekanligi, borish yo'nalishi.
5. Sodir etilgan huquq buzish joyi, vaqt va mohiyati (fabo'la).
6. Mazkur huquq buzish uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjalari.
7. Olib qo'yilgan (ushlangan) ashyolar, boyliklar va hujjalari to'g'risidagi ma'lumotlar.
8. Xuquq buzuvchining tushuntirishi va ishni hal etish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlar.

Bojxona haqidagi qonun hujjalariining buzilishi aniqlanishining har bir holati va ular bo'yicha ko'rilgan choralar yuzasidan bojxona organi xodimi tomonidan raport yoziladi. Unda sodir etilgan huquq buzish aniqlanishining barcha holatlari (izlash usullari, yashirish usullari, nazorat qilishning tehnik vositalarini qo'llash, og'zaki so'rov natijasida olingan ma'lumotlar, bagaj va qo'lda olib uriladigan yo'jni rasmiylashtirish, shaxsan ko'zdan kechirish, transport vositasi, konteynerni ko'zdan kechirish, shuningdek ishga tegishli bo'lgan boshqa holatlari) aks ettirilishi kerak.

Agar huquq buzuvchining biror-bir nohuquqiy hatti-harakatlari bilan moddiy zarar yetkazilsa – raportda moddiy zarar kimga, qancha miqdorda, qay tarzda yetkazilganligi qiska, biroq batafsil bayon etiladi.

O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 285-288-moddalariga muvofiq, boshqa ta'sir ko'rsatish choralari qo'llanib bo'lidan keyin ma'muriy huquqbuzarlikni to'htatish, huquqbuzarning shaxsini aniqlash, basharti bayonnomaga tuzish zarur bo'lib, uni huquqbuzarlik sodir etilgan joyning o'zida tuzish imkonini bo'lmasdan taqdirda ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlar yuzasidan chiqarilgan qarorlarni ijro etish maqsadida mazkur shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turishga, shaxsni ko'rikdan o'tkazishga, uning ashyolari, transport vositalarini ko'zdan kechirishga va ashyo hamda hujjatlarni olib ko'yishga yo'l ko'yiladi.

UzR MJKning 287-moddasiga muvofiq bojxona organlari xodimlari UzR MJKning 198 va 227-moddalarida nazarda tutilgan huquq buzhishlar sodir etilganda, ma'muriy to'htatishni amalga oshirishlari mumkin. Ma'muriy to'htatish to'g'risida bayonnomaga tuziladi. Unda bayonnomaga tuzilgan sana va joy, lavozimi, bojxona organi, bayonnomani tuzgan shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi; ushlangan shaxs to'grisidagi ma'lumotlar; ushlash vaqt, joyi va asoslari; ushlangan shaxs olib kelingan vaqt va joy; ushlangan ozod qilingan vaqt; ushlash vaqtida qanday harakatlar qo'yilganligi ko'rsatiladi.

Bayonnomaga uni tuzgan shaxs, ushlangan shaxs, guvohlar, boshqa shaxslar bor bo'lganda ular ham imzo chekadilar. Ushlangan shaxs imzo chekishni rad etgan taqdirda bu haqda bayonnomada qayd etiladi. Ushlangan shaxsning iltimosiga ko'ra, bu haqda uning qarindoshlari, advokat, u ishlaydigan yoki o'qiydigan joy ma'muriyati habardor qilinadi. Voyaga yetmagan ushlanganligi to'grisida uning ota-onalari yoki ularning urnini bosuvchi shaxslar habardor qilinishi shart.

Bojxona organi xodimi tomonidan habar berilganligi to'grisida ma'muriy ushlash bayonnomasi huquq buzuvchi ushlanganligi to'g'risida kimga, qachon va qay tartibda habar berilganligi ko'rsatilgani holda tegishli yozuv qayd etiladi.

Bojxona nazorati, ko'zdan kechiruv paytida topilgan huquqbuzarlik quroli yoki bevosita buyumi bo'lgan tovarlar, transport vositalari, hujjatlar va boshqa buyumlar bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan holislardan hozirligida olib qo'yiladi. Olib qo'yilgan tovarlar, transport vositalari, hujjatlar va boshqa buyumlar ish

ko'rib chiqilgunga qadar bojxona organlari belgilagan joylarda saqlanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilgan taqdirda jarima hamda tovarlar va transport vositalarining qiymati undirilishini ta'minlash uchun huquqbuzardan, agar u O'zbekiston Respublikasi da doimiy yashash joyiga ega bo'lmasa va yuridik shaxsdan – agar u O'zbekiston Respublikasi hududida filial yoki vakolathonaga ega bo'lmasa, tovarlar va transport vositalari, O'zbekiston Respublikasi valyutasi va valyuta boyliklari olib qo'yishiga yo'l qo'yiladi.

Tovarlar, transport vositalari va boshqa asyolarni olib qo'yishning imkonni bo'lмаган taqdirda ulardan foydalanish va ularni tasarruf etish taqiqlanadi, ularning saqlanishi esa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ta'minlanadi.

Bojxona organining mansabdor shaxsi olib ko'yilgan tovarlar, transport vositalari va boshqa buyumlarni baholash paytidagi bozor narxlari bo'yicha baholab, ularning eskirganligini hisobga oladi. Zarur hollarda baholash mutahassis ishtirokida o'tkaziladi. Pul, obligasiyalar, cheklar, aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar nominal qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Bojxona organining mansabdor shaxsi bojxona haqidagi q onun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni yyuritish jarayonida dalillarni aniqlash va ularni qayd etish, ishga ahamiyati bo'lган boshqa holatlarni aniqlash uchun joyni, hududlarni, binolarni, transport vositalarini, ashyolar va hujjatlarni bojxona tekshiruvidan o'tkazishga haqlidir.

Bojxona tekshiruvi hududi, binosi, transport vositasi, ashyolari va hujjatlari tekshirilaetgan shaxs (uning vakili) ishtirokida kamida ikki guvoh hozirligida, zarur hollarda esa mutahassislar ishtirokida o'tkaziladi. Bojxona tekshiruvi o'tkazilishida qatnashayotgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlari tushuntiriladi.

Ekspertiza. Bojxona haqidagi qonunlar buzilishi to'g'risidagi ishlarni yyuritishda bojxona organi mansabdor shaxsining qarori bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ekspertriza tayinlanishi mumkin. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi to'g'risidagi ishni yuritayotgan bojxona organining mansabdor shaxsi qaror asosida va guvoхlar, zarur hollarda esa mutahassislar ishtirokida tovarlar va boshqa buyumlarning namunalari va nuxalarini olish, shuningdek ekspertriza o'tkazish uchun zarur bo'lган imzolar, dasthatlar, namunalarni olishga haqlidir.

Bkning 183-moddasi – Bojxona haqidagi qonun hujjalaringin buzilishi to'g'risidagi ishni yyuritishda qatnashuvchi shaxslar. Bojxona haqidagi qonun hujjalaringin buzilishi to'g'risidagi ishni yyuritishda javobgarlikka tortiluvchi shaxsdan tashqari, uning vakili, advokati, ekspert, mutahassis, tarjimon, guvoh, holis qatnashishlari mumkin.

Agar ishning natijasidan shaxsan, bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lalar, bojxona organining mansabdor shaxsi bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ishni yyuritishi, ekspert, mutahassis, tarjimon, holis esa ishni yyuritishda ishtirok etishi mumkin emas. Bu holda bojxona organining mansabdor shaxsi, ekspert, mutahassis, tarjimon, holis o'zini o'zi rad etishi shart, javobgarlikka tortilayotgan shaxs, uning vakili eki advokat esa bu shaxslarni qonun hujjalarda belgilangan tartibda rad qilishlari mumkin. Ekspert, mutahassis, tarjimonning uz kasbiga noloyikligi ayon bo'lib qolsa, ular ham rad qilinishi lozim. Rad qilish to'g'risida ariza berish ishni yyuritishni to'htatib qo'yaydi.

BKning 185-moddasi, MJKning 301-moddasi – Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqimlar. Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqimlar quyidagilardan iborat bo'ladi:

Guvochlari, ekspertlari, mutahassislar, tarjimonlar, holislarga to'lanadigan summalar;

Tekshiruv va inventarlash munosabati bilan sarflangan summalar;

Dalillarni saqlash, tashish (junatish) va tekshirish uchun sarflangan summalar;

Ishni yuritish va ko'rish munosabati bilan bojxona organi qilgan boshkq harajatlar.

Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqimlar jazo berish to'g'risidagi qaror kimga nisbatan chiqarilgan bo'lsa, shu shaxs zimmasiga yo'qlanadi. Agar bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bir nechta shaxsga jazo berilgan bo'lsa, ishni ko'rayotgan bojxona organining mansabdor shaxsi ularning har biri zimmasiga yo'qlanadigan chiqimlar miqdorini aniqlaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ishni yyuritish to'xtatilgan taqdirda yuzaga kelgan chiqimlar qonun hujjalarda belgilangan tartibda undirilishi lozim.

UzR BKning 186-moddasiga muvofiq bojxona haqqidagi qonun hujjalarni buzganlik to'g'risidagi ishlar:

Agar jazo chorasi tariqasida jarima, lisenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish chorasi, shuningdek qonun hujjatlarida nazarda tutilgan alohida hollarda tovarlarni musodara qilish chorasi qo'llanilsa, bojxona organi tomonidan ko'rildi.

Agar asosiy yoki qo'shimcha jazo chorasi tariqasida tovarlarni va transport vositalarini musodara qilish nazarda tutilsa, tegishli bojxona organi joylashgan yerdagi sud tomonidan kuriladi. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni ko'rish va bojxona organlari nomidan jazolarni qo'llashga bojxona organlarining boshliqlari va ularning o'rribbosarlari haqlidir.

MJKning 303-moddasiga muvofiq, organ (mansabdar shaxs) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishga tayyorlash paytida quyidagi masalalarni hal etishi kerak:

Mazkur ishni ko'rib chiqish uning vakolatiga tegishliligi. Jumladan, bojxona organi boshlig'i (boshliq o'rribbosari) MJKning 227-moddasiga muvofiq, shuningdek bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun BKning 134-172-moddalarini bo'yicha jarima ko'rinishidagi jazo qo'llangan, lisenziya yoki malaka attestati chaqirib olingan, shuningdek, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan istisno hollarda tovarlar musodara qilingan taqdirda UzR MJKning 262-moddasiga muvofiq qonun buzishlar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi va ular bo'yicha ma'muriy jazo qo'llaydi. Bojxona organiga qarashli bo'limgan materiallar taqdim etilgan taqdirda ular rasmiylashtirilganidan keyin bir kecha-kunduzda tegishli organga yyuboriladi. Bojxona organi boshlig'i (boshliqo'rribbosari) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomani tuzishda UzR MJKning 279, 280, 281-moddalarini talablariga rioya qilinganligiga va materiallar to'g'ri rasmiylashtirilganligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Xuquq buzuvchining qilmishi to'g'ri talqin qilinganligi; bojxona hqidagi qonunlar buzilishi sodir etilishida uning aybi mavjudligi va dalillarning to'likligi.

Zarur hollarda bojxona organining mansabdar shaxsi boshliqning ko'rsatmasiga ko'ra yoki huquq buzuvchining, jabrlanuvchi yoki guvohning iltimosi bilan ish holis ko'rib chiqilishi uchun ko'rib chikilayotgan ishga tegishli bo'lgan qo'shimcha ma'lumotlarni yoki boshqa materiallarni (isbotlarni) talab qilib olishi kerak, u ish bo'yicha qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallar borligiga ishonch hosil qilishi kerak.

Bojxona organi boshlig''i (o'rinnbosari) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqishda ularni rasmiylashtirishda yoki ularni ko'rib chiqishga tayyorlash jarayonida huquq buzuvchi, jabrlanuvchi, qonuniy vakil yoki advokat tomonidan iltimosnama berilgan-berilmaganligini, iltimosnama qondirilganligi yoki yo'qligini, agar qondirilmagan bo'lsa, nima sababdan qondirilmaganligini aniqlashi kerak.

Bojxona organi boshlig''i (o'rinnbosari) sanab o'tilgan masalalardan tashqari ma'muriy jazoni qo'llash muddatiga rioya qilinishi masalasini aniqlashi zarur. UzR MJKning 304-moddasiga muvofiq ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ish u sodir etilgan joy bo'yicha ko'rib chiqiladi, bu bojxona organlariga tegishli bo'lgan barcha ishlarga ham to'lik talluqlidir.

Ishni ko'rib chiqish mazkur ishni ko'rib chiqayotgan mansabdor shaxsni tanishtirishdan boshlanadi (MJKning 306-moddasi), ya'ni rahbar ishni ko'rib chiqish qatnashchilariga o'z mansabini, familiyasini va qaysi ish ko'rib chiqilishi kerakligini, ma'muriy javobgarlikka kim tortilayotganini e'lon qiladi, ko'rib chiqishda qatnashayotgan shaxslarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi (MJKning 294-302-moddalari), ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi bayonnomanı o'qib beradi. Huquq buzuvchining, guvohning, jabrlanuvchining, advokatning va ishni ko'rib chiqishda qatnashuvchi boshqa shaxslarning tushuntirishlari eshitiladi, isbotlar tekshiriladi, iltimosnomalar hal etiladi. Qoidaga ko'ra materiallarni ko'rib chiqishda tekshirishni amalga oshirgan, huquq buzilishini aniqlagan va ma'muriy huquq buzilishi to'g'risida hujjat yoki bayonnomaga tuzgan mansabdor shaxs hozir bo'lishi kerak.

UzR MJK 307-moddasi talablariga muvofiq, organ (mansabdor shaxs) ma'muriy huquqbazarlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqishda quyidagilarni aniqlashga majburdir:

a) ma'muriy bojxona huquqbazarligi sodir etilganmi yoki yo'q, ya'ni mazkur shaxsning qilmishida Bojxona kodeksining 129-moddasida belgilangan bojxona huquqni buzishi tushunchasi ostiga tashuvchi belgi mavjudmi yoki yo'q. Undan tashqari, huquqni buzish qasddan (MJKning 11-moddasi) yoki ehtiyyotsizlik tufayli (MJKning 12-moddasi) sodir etilganligi aniqlanishi kerak;

b) bojxona huquqni buzishi sodir etilgan vaqt va joy, ya'ni qonun hujjatlarida belgilangan (UzR BKning 133, 175-moddalari) materialni

rasmiylashtirish muddatlariga rioya qilinganmi, huquqni buzish sodir etilishi va javobgarlikka tortish muddati tamom bo'lmaganmi;

v) mazkur shaxs u sodir etilishida aybdormi, u ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerakmi, ya'ni UzR MJKning 13-17-moddalari va UzR BKning 130-131-moddalari talablariga rioya qilinganmi.

Agar mansabdor shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilsa, quyidagilarni aniqlash zarur:

Birinchidan, bo'zilish da'vo qilinayotgan buzish uning funksional vazifalari buzilishi, uning u yoki bu hisobot (moliya) hamda tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish va imzolashda vakolatini buzish hisoblanadimi;

Ikkinchidan, javobgarlikka tortilayotgan shaxs halq deputatlari, tuman, shahar, viloyat kengashining deputati eki UzR Oliy Majlisining deputati emasmi.

Agar huquqni buzuvchi intizomiy Ustavning amal qilishi tatbiq etiladigan harbiy hizmatchi yoki boshqa shaxs ekanligi aniqlansa, ma'muriy ta'sir ko'rsatish choralari UzR MJK ning 16-moddasi talablariga muvofiq ko'rildi.

Ma'muriy huquqbazarlikni sodir etgan horijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar MJKning 17-moddasiga muvofiq umumiyl asoslarda ma'muriy javobgarlikka tortilishi kerak. Immunitetga ega bo'lган shaxslarga nisbatan ma'muriy jazo UzR qatnashchisi hisoblangan xalqaro shartnomalar va bitimlarga zid bo'lmagan darajada qo'llaniladi.

UzR BKning 188-moddasiga muvofiq bojxona organi boshlig''i (boshliq o'rribosari) bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishni ko'rib chiqib, quyidagi qarorlardan birini chiqaradi:

Jarima solish to'g'risida;

Ish yyuritishni tugatish to'g'risida;

Jinoyat ishini kuzgatish va surishtiruv o'tkazish to'g'risida;

Xuquqbazarliklar to'g'risidagi materiallarni tegishli idoralar bo'yicha yyuborish to'g'risida;

Ishni qo'shimcha ravishda yyuritish (tekshirish) uchun qaytarish to'g'risida.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha qarorda quyidagilar bo'lishi kerak: qaror chiqargan bojxona organining nomi, mansabdor shaxsning familiyasi, ismi va otasining ismi, ish ko'rildigan sana; ishi ko'rileyotgan shaxsga doir ma'lumotlar, ishni ko'rish vaqtida aniqlangan holatlar bayoni; bojxona haqidagi

qonunlar buzilishi sodir etganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi me'yoriy hujjatlar (BK, MJK moddalari, Prezidentning farmoni, UzR Vazirlar Mahkamasining qarori), ish bo'yicha qabul qilingan qaror, qaror ustidan shikoyat qilish muddatlari va tartibiga doir ma'lumotlar. Pul jarimasi solishda summa qaror qabul qilgan bevosita rahbar tomonidan yozuv bilan yoziladi. Tuzatish, o'chirish, tozalash va hokazolarga yo'l ko'yilmaydi.

Ish bo'yicha qarorda olib qo'yilgan ashyolar va hujjatlar to'g'risidagi, shuningdek, ushlangan transport vositalari haqidagi masala hal etilishi kerak. Qarorga bojxona organi boshlig'i (o'rribbosari) imzo chekadi va gerbli muhr bilan tasdiqlanadi. Bojxona organi boshlig'i (uning o'rribbosari) UzR MJKning 271-moddasida nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lган taqdirdagina ishni yyuritishni to'htatish to'grisida qaror qabul qilishi mumkin. Bunda qarorda mazkur modda va qo'llanilgan me'eriy hujjatning tegishli bandiga havola qilingan holda ishni yyuritish to'htatilganligi to'g'risida batafsil yozuv qayd etiladi.

Ma'muriy (bojxona) huquqni buzishi to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ishni ko'rib chiqish tamom bo'lgach, darhol e'lon qilinadi. Huquqni buzuvchi u qaysi bojxona huquqini buzgani uchun UzR BKning 132-moddasida nazarda tutilgan jazoga duchor qilinayotganligini aniq bilishi kerak. Qaror nusxasi uch kun ichida unga nisbatan qaror chikarilgan shaxsga, shuningdek uning iltimosiga ko'ra jabrlanuvchiga topshiriladi yoki yyuboriladi. Qaror nusxasi tilhat ostida topshiriladi, agar u jo'natilsa, bu haqda ishda tegishli yozuv qayd etiladi. Ma'muriy jazo qo'llanilishi javobgarlikka tortiluvchi shaxsni boj to'lovlarini to'lash majburiyatidan va Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarishdan ozod qilmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror ustidan yuqori turuvchi bojxona organiga (mansabdor shaxsga) eki bojxona organi joylashgan erdag'i sudga un kun muddatda berilishi mumkin. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha qaror chiqargan bojxona organi orqali berilgan shikoyat uch sutka ichida tegishlicha yuqori turuvchi bojxona organiga yoki sudga yyuboriladi.

Bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi to'g'risidagi ish bo'yicha prokuror tomonidan qarorga protest chiqarilishi mumkin (UzR MJKning 317-moddasi). «Proko'ratura to'g'risida»gi UzR qonuniga muvofiq (25-modda), protest organ (mansabdor shaxs)ga kelib tushgan paytdan boshlab o'n kun muddatda ko'rib chiqilishi kerak. Protestni

ko'rib chiqish natijalari to'g'risida zudlik bilan prokurorga yozma shaklda ma'lum qilinadi. Protest rad etilgan taqdirda qaror chiqargan bojxona organining mansabdar shaxsi uni tegishli me'eriy hujjatga havola qilgan holda asoslashi kerak.

Belgilangan muddatda shikoyat berish yoki prokuror tomonidan protest keltirish ma'muriy (bojxona) huquqni buzish to'g'risidagi qarorning ijrosini, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, shikoyat yoki protest ko'rib chiqilgunga qadar tuhtatib qo'yadi (BKning 189-moddasi).

Yuqori turuvchi bojxona organi boshlig'i bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qaror ustidan berilgan shikoyatni yoki prokuorning protestni ko'rish vaqtida quyidagi hal qiluv qarorlaridan birini qabul qiladi:

- a) qarorni o'zgarishsiz qoldiradi, shikoyat yoki protestni esa qanoatlantirmaydi;
- b) qarorni bekor qiladi va ishni yangidan ko'rish uchun yuboradi;
- v) qarorni bekor qiladi va ish yyuritishni tugatadi;
- g) bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo chorasi kuchaytirmagan holda uni UzR Bkda nazarda tutilgan doirada o'zgartiradi.

Bojxona organining hal qiluv qarori qaror shaqlida rasmiylashtiriladi. Qaror nusxasi uch kun ichida manfaatdor shaxsga yyuboriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qarorni bekor qilish yoki o'zgartirishga quyidagilar (UzR BKning 191-moddasi) asos bo'ladi:

- a) ishning mansabdar shaxs tomonidan ko'rib chiqilishining to'lik emasligi yoki bir hil emasligi, ya'ni ishni birlamchi ko'rib chiqishda sodir etilgan huquqni buzishning barcha holatlari o'rganilmagan, ish bo'yicha asosli iltimosnomalar va isbotlar hisobga olinmagan va boshqalar;

- b) mansabdar shaxs (organ boshlig'i yoki uning o'rinnbosari)ning qarori bilan MJK, BK mahsus qismlari va ma'muriy javobgarlikni nazarda tutuvchi boshqa normativ hujjatlari normalari, ishning haqiqiy holatlari o'rtasidagi nomuvovofoiklik, ya'ni chiqarilgan qarorda ma'muriy jazo chorasi ushbu huquqni buzish uchun nazarda tutilgan tegishli modda sanksiyalari doirasida bo'lishi kerak. Agar qaror ikki yoki undan ortiq huquqni buzishning jami bo'yicha qabul qilingan bo'lsa, u holda u MJKning 34-moddasi talablariga muvofiq bo'lishi kerak;

v) jazo qo'llashning qonunchilikda belgilangan tartibi buzilishi, ya'ni bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi to'g'risidagi ishni yuritish qoidalarining jiddiy ravishda buzilishi, jumladan, ko'rib chiqish muddatlariga rioya qilinmagan, belgilanmagan shaklda bayonnomaga tuzilgan va qaror chiqarilgan, ishni ko'rib chiqish qatnashchilarining tushuntirishlari, ashyoviy dalillarni rasmiylashtirishga ko'yiladigan qoidalar va talablarga rioya qilinmagan, tarjimon ta'minlanmagan (zarurat bo'lganda) va BKning XVI bobida va UzR MJKning XXIII bobida nazarda tutilgan boshqa talablar.

Yuqori turuvchi bojxona organi boshlig'i ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ish bo'yicha qarorga shikoyat yoki prokuror protesti yuzasidan qaror qqabul qiladi, unda u chiqarilgan vaqt va joy, shikoyat yoki protestni ko'rib chiquvchi mansabdor shaxs, prokuror va boshqa qatnashuvchi shaxslar; shikoyat bergen shaxs yoki protest keltirgan prokuror; ma'muriy (bojxona) huquqni buzishi to'grisidagi ish bo'yicha shikoyat berilgan yoki protest keltirilgan qarorning mohiyati, shikoyat yoki protest bo'yicha chiqarilgan qaror va hal qiluv qarorining asoslanishi (me'eriy hujjatga havola qilgan holda qanday qaror qabul qilinganligi, ushbu qarorni kim bajarishi kerakligi aniq ko'rsatilgan holda). Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi to'g'risidagi qaror bo'yicha shikoyat yoki protest uzasidan qaror nusxasi uch kun muddatda unga nisbatan ushbu qaror chiqarilgan shaxsga, jabrlanuvchiga uning iltimosiga ko'ra yyuboriladi. Protestni ko'rib chiqish natijalari to'grisida prokurorga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

BKning 192-moddasiga muvofiq bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha chiqarilgan qarorni bekor qilib, ish yyuritishning tugatilishi undirilgan pul summalarining, olib ko'yilgan va musodara qilingan ashyolarning qaytarilishiga, shuningdek avval qabul qilingan qaror bilan bog'lik boshqa cheklashlar bekor qilinishiga olib keladi. Buyumni qaytarishning imkonini bo'limgan taqdirda, uning qiymati qoplanadi, shuningdek, agar mazkur buyumlar tadbirkorlik uchun mo'ljallangan bo'lsa, boy berilgan foyda qaytariladi (UzR Fuqarolik kodeksining 10, 14, 15-moddalariga muvofiq).

Bojxona organlarining jarima solish to'g'risidagi qarorini ijro etish UzR BKning 193-198-moddalari (XI bulim) talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritish tartibi.
2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritishni ta'minlash.
3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalar.
4. Bojhona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bojxona organining qarori.
5. Bojxona haqidagi qonunlarni buzish tushunchasi.
6. Bojxona haqidagi qonunlarni buzganligi uchun jazo choralarini qo'llash tartibi.
7. Bojxona qonunlarini buzgan holatda tovarlarni musodara qilish tartibi.
8. Bojxona Kodeksining 192 moddasi to'g'risida gapiring.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi, Bojxona kodeksi, T., «Iqtisodiyot va xuquq dunyosi», 2016 y.
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
3. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.
4. Таможенное право. Экзаменационные ответы. Шпаргалки. – М.: BUKLAYH, 2014 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.
2. UzR bojxona ishiga oid me'eriylar.
3. К.Ф. Скворкова «Расследование контрабанды», М., Юрист, 2014 г.
4. Таможенное дело, Учебник, 2014 г. [www.professiya.ru](http://www.professiya.ru).

### **2.4. Bojxona organlarida surishtiruvni tashkil etish.**

Jinoyat ob'ekti – bu jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlardir.

Jinoyatning quyidagi ko'rinishdagi ob'ektlari mavjud:

1. Jinoyatning umumiy ob'ekti deb, jinoyat qonuni bilan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabatlar yig'indisiga aytiladi. Masalan: shaxs, uni huquq va erkinliklari; jamiyat va davlat manfaatlari; mulk; tabiiy muhit; tinchlik; insoniyat havfsizligi. Jinoyatni umumiy ob'ekti yordamida jinoyat huquqining ijtimoiy siyosiy mazmuni, jinoiy tajovuzkorlikning ijtimoiy havflilik hususiyati belgilab beriladi. Umumiy ob'ekt jinoyat va boshqa huquqbazarliklar o'rtasidagi tafovutni belgilab olish imkonini beradi.

2. Turdosh ob'ekt jinoyat qonunini jinoyatlarning muayyan ko'rinishlaridan muhofaza etadigan, mohiyatiga ko'ra, bir toifadagi ijtimoiy munosabatlar guruhidan iborat. Ayni u yoki bu guruhga oid ijtimoiy munosabatlarning muhimligi jinoyat kodeksining mahsus qismida jinoyatlarning ayrim guruhini izchil joylanishini aniqlab beradi.

3. Bevosita ob'ekt muayyan jinoyat turidan muhofaza etiladigan ijtimoiy munosabat bo'lib, ayni uning o'zi jinoyatga baho berishda belgilab olinishi lozim.

Ko'p ob'ektli jinoyatlarda bevosita ob'ekt doirasida asosiy, qo'shimcha va fakultativ ob'ektlarni ajratadilar. Mazkur tasnif tajovuzning muayyan turidan himoya qilish uchun quyilgan ijtimoiy munosabatlarning qiyosiy ahamiyatiga asoslanadi.

Asosiy bevosita ob'ekt – bu qonun chiqaruvchining muayyan huquqiy normani tuzishda, eng avvalo, jinoyat qonuni muhofaza qilishga intilishga qo'yadigan ijtimoiy munosabatdir. Ayni asosiy bevosita ob'ekt jinoyatning ijtimoiy havflilik hususiyatini, uning mahsus qism tizimidagi urnini aniqlaydi va turdosh ob'ektning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Qo'shimcha bevosita ob'ekt asosiy bevosita ob'ektga tajovuz etilganida muqarrar zarar etadigan ijtimoiy munosabatdir. Mazkur ob'ekt jinoyat tarkibining myukarrar alomati bo'lib, u qilmishga baho berishga ta'sir etadi.

Fakultativ bevosita ob'ekt muayyan jinoyat tarkibining zaruriy alomati bo'limgan lekin mavjud jinoyatning sodir etilishida havf ostida qoladigan ijtimoiy munosabatdir.

Jinoyatning ob'ektiv tomoni deyilganida shaxsning ongli hattiharakati va irodaviy hulq-atvori tushuniladi. Jinoyatning ob'ektiv tomoni quyidagi belgilarni uz ichiga oladi:

Qilmish (harakat eki harakatsizlik);

Jinoiy oqibat;

Qilmish va jinoiy oqibatlar o'rtasidagi sababiy bog'lanish;

Jinoyatning sodir etilish vaqt;

Jinoyatning sodir etilish joyi;  
Jinoyatning sodir etilish vaziyati;  
Jinoyatning sodir etilish usuli;  
Jinoyatning sodir etilish quroli;  
Jinoyatning sodir etilish vositasi.

Xarakat deb, shaxsning ijtimoiy havfli, irodaviy faol hulq-atvori tushuniladi. Xarakatsizlik – ijtimoiy havfli, faol bo’lmagan shaxsning me’yoriy hujjatlarda bajarish uchun ko’rsatilgan muayyan harakatlarni bajarmaganligidan iborat hulq-atvordir.

Jinoiy oqibat – bu jinoiy-huquqiy muhofaza etiladigan, ijtimoiy munosabat ob’ektlari elementlariga ijtimoiy havfli qilmish natijasidagi yetkazilgan zarardir. Ijtimoiy havfli hatti-harakat sodir etgan shaxsning qilmishi harakati va harakatsizligi bilan jinoyat natijasida yetkazilgan jinoiy oqibat o’rtasidagi bog’liqlik, sababiy bog’lanish deb tushuniladi.

Jinoyatning sodir etilish vaqt deb, yil, oy, hafta kun va tunning muayyan qismiga, u yoki bu voqeа sodir etilishi natijasida mahsus sharoitlarni vujudga keltiradigan davrga aytildi. Jinoyatning sodir etilish joyi deganda jinoiy voqeа sodir etilgan muayyan hudud tushuniladi.

Jinoyatning sodir etilish vaziyati deganda jinoyat sodir etilgan cheklangan hudud tushunilib, unda insonning moddiy predmetlari, tabiiy iklim va boshqa omillarning ijtimoiy havfli qilmish darajasiga ta’sir etishi jinoiy huquqiy ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, jinoyatning sodir etilish vaziyati jinoyatning ijtimoiy havflilik darajasini kuchaytiradigan yoki kamaytiradigan ob’ektiv belgilarni o’z ichiga oladi. Masalan, quroloq-dori, harbiy tehnika va boshqalar.

Jinoyatni sodir etish usuli deganda, shaxsning jinoiy niyatini amalga oshirish uchun qo’llagan uslubi «ish yo’li» muayyan harakati va harakatlari majmuasi tushuniladi. Usul – jinoiy qilmishning namoyon bo’lish shaqlidir. Jinoyat quroli deb jinoyat sodir etilishida foydalananiladigan predmetlar tushuniladi. Masalan, aybdorning talontaroj qilingan mulkni tashish uchun foydalangan shaxsiy avtotransporti, agar u ushbu jinoyatning sodir etilishini ta’minlagan bo’lsa, jinoyat quroli deb tan olinishi mumkin. Jinoyatni sodir etish vositalari deganda, jinoyatni amalga oshirishni yengillashtiruvchi predmet tushuniladi.

Jinoyatni sodir etgan shaxs jinoyatning sub’ekti. Jinoyat sodir etgan shaxs jinoyat sub’ekti bo’lishi uchun, u jinoyat eshiga etgan bo’lishi, qilingan jinoiy hatti-harakatlariga javob bera olishi, ya’ni «aqli raso» shaxs bo’lishi lozim. Aks holda u, jinoyatning sub’ekti bo’la

olmaydi. Jinoyatning sub'ektiv tomoni deyilganida shaxsning o'zi sodir etgan ijtimoiy havfli kilmishga va uning oqibatlariga bo'lgan ruhiy munosabati tushuniladi. Jinoyatning sub'ektiv tomoni quyidagi belgilarni o'z ichiga oladi:

1. Ayb – shaxs o'zi sodir etgan ijtimoiy havfli qilmishiga va uning jinoiy oqibatlariga qasd yoki ehtiyotsizlik shaqlidagi ruhiy munosabatni bildiradi.

2. Motiv – jinoiy qilmish sodir etishga qasd qildiruvchi anglab yetilgan tuygu. Motiv doim jinoyatdan oldin paydo bo'ladi va uning maqsadini belgilaydi.

3. Maqsad – jinoiy qilmishning sodir etilishi mobaynida sub'ekt etishishi uchun intiladigan fikriy natijadir. Motiv va maqsadning yig'indisi aybni vujudga keltiradi.

Jinoyat-prosessual qonunchiligi bo'yicha surishiruv – bu jinoyat sodir etganligi to'g'risida kelib tushgan ma'lumotlarga asosan prosessual faoliyatni amalga oshirish vakolati berilgan organ. Quyidagilar surishtiruv organlari hisoblanadi:

milisiya;

harbiy qismlar, qo'shilmalarning komandirlari, harbiy muassasalar va harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari, ularga busunuvchi harbiy o'quv yurtlarining boshliqlari, ularga buysunuvchi harbiy hizmatchilar, shuningdek o'quv mashklari o'tkazilayotgan vaqtda harbiy hizmatga majburlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha; O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari xodimlarining hizmat vazifasini bajarish bilan bog'lik jinoyatlari yoki qism, qo'shilma, muassasa yoki o'quv yurti joylashgan erda sodir etilgan jinoyatlariga doir ishlar bo'yicha;

milliy havfsizlik hizmati organlari, qonunga ko'ra ularning yyuritishiga berilgan ishlar bo'yicha;

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi jazoni ijro etish tizimini boshqarish organlarining boshliqlari, qamoq tarzidagi jazoni ijro etish muassasalarining, jazoni ijro etish koloniyalari, tarbiya koloniyalari, tergov izolyatorlari va turmalarning boshliqlari, shu muassasalar xodimlari hizmatni o'tashni belgilangan tartibiga qarshi qilgan jinoyatlariga doir ishlar, huddi shuningdek mazkur muassasalar hududida sodir etilgan boshqa jinoyatlarga doir ishlar bo'yicha;

Davlat eng'indan nazorat qilish organlari (yong'lnlarga doir va yong'inga qarshi qoidalarni buzganlikka doir ishlar bo'yicha);

Chegarani qo'riklash organlari – davlat chegarasini buzganlikka doir ishlar bo'yicha;

Olis safarda bo'lgan dengiz kemalarining kapitanlari;

Davlat bojxona hizmati organlari, O'zbekiston Respublikasi Bosh proko'raturasi huzuridagi Soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti va uning joylardagi bo'linmalari – tegishinchalbojxona va soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlikka doir ishlar bo'yicha.

Surishtiruvning vazifalari:

1. Jinoyatning oldini olish va unga yo'l qo'ymaslik.
2. Dalillarni toplash va saqlash.
3. Jinoyat sodir etishda gumon qilinganlarni ushslash va yashiringan gumon qilinuvchilarni hamda ayblanuvchilarni qidirib topish.
4. Jinoyat tufayli yetkazilgan moddiy ziyon qoplanishini ta'minlash uchun kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakatlarini yyuritishdan iborat.

Surishtiruv organlarining majburiyatlarini bajarish bo'yicha faoliyatini ikki yo'naliishga bo'lish mumkin:

1. Jinoyat – prosessual yo'naliish.
2. Tezkor – qidiruv yo'naliish.

Surishtiruv organlarining jinoyat-prosessual faoliyatida, surishtiruv shaqlida dastlabki tergov o'tkazish asosiy o'rinni egallaydi. Jinoyat jarayonida surishtiruv organlarining prosessual hujjatlari tergovchining hujjatlari kabi yuridik ahamiyatga ega.

Surishtiruv asosan quyidagi hollarda boshlangan hisoblanadi:

1. Jinoyat ishini kuzgatish uchun sabablar va asoslar yetarli bo'lgan taqdirda surishtiruvchi jinoyat ishini qo'zgatish va ish yurishi uchun qabul qilingan qaror bojxona boshqarmasi boshlig'i yoki uning o'rindbosariga tasdiqlatilgan paytdan boshlab;

2. Surishtiruv organi boshlig'i yoki prokuorning Jinoyat kodeksining konkret moddasi bo'yicha kuzgatilgan jinoyat ishining surishtiruvchi olib, ish yyurituvchiga qabul qilish to'g'risidagi qabul qilingan paytdan boshlab;

Surishtiruvchi ishni o'z yurituviga olganidan so'ng, jinoyat-prosessual qonunida qayd etilgan huquq va majburiyatlardan foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Surishtiruv organining boshlig'i jinoyat ishini kuzgatishga, bu ishni o'zining ish yurituviga qabul qilish va surishtiruvni boshlashga yoki o'ziga buysunuvchi boshqa xodimga

surishtiruv yyuritishni toptirishga ish qo'zgatishni rad etishga, arizani, habarni tergovga tegishli ekanligiga ko'ra o'tkazishga haqlidir.

Oliy yuridik ma'lumotga ega bo'lib, bojxona maskanlarida bir yildan kam ishlamagan bojxona xodimi surishtiruvchi bo'lishi mumkin. Surishtiruvchi – muayyan huquq va erkinliklarga ega bo'lган prosessual shaxsdir. Zero, hududiy bojxona boshqarmalari inspektorlari, katta inspektorlari va bosh inspektorlari – surishtiruvchilari Davlat bojxona qo'mitasi nomenklaturasiga kirmaydigan lavozimlar hisoblanadi.

Surishtiruv organining boshlig''i jinoyat ishini qo'zgatib surishtiruv harakatlari olib borish jarayonida unga berilgan vakolatlarga amal qiladi.

Surishtiruvchining qarorini tasdiqlash. Surishtiruvchining qarori surishtiruv organi boshlig''i (yoki uning o'rribosari) tomonidan tasdiqlanishi lozim. Surishtiruv organi boshlig''ining yozma ko'rsatmasi surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruvchi ko'rsatmaga norozi bo'lsa, ko'rsatmani bajarishni to'htatmay turib, mazkur ko'rsatma ustidan prokurorga shikoyat qilishga haqli.

Prokurorning yozma ko'rsatmasi surishtiruv organining boshlig''i va surishtiruvchi uchun majburiydir. Surishtiruv organining boshlig''i va surishtiruvchi prokuror ko'rsatmasiga norozi bo'lsa, ko'rsatmani bajarishni to'htatmay turib uning ustidan yuqori turuvchi prokurorga shikoyat qilishga haqlidir. Surishtiruvchi jinoyat sodir etilganligi to'g'risida sabab va asoslar yyetarli bo'lган barcha hollarda jinoyat ishini ko'zg'atishi shart.

Jinoyat ishini qo'zgatish uchun:

1. shaxslarning arizalari;
2. korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoa birlashmalari va mansabdor shaxslar bergen habarlar;
3. ommaviy ahborot vositalari bergen habarlar;
4. jinoyat sodir etganligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar va izlarni surishtiruv organi, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning bevosita o'zi aniqlashi;
5. aybini buyniga olish haqidagi arz sabab bo'ladi.

Jinoyat belgilari mavjudligini ko'rsatuvchi ma'lumotlar jinoyat ishini ko'zg'atish uchun asos bo'ladi.

Surishtiruvchi, jinoyatga oid ma'lumotlar olingan yoki bunday ma'lumotlarni bevosita o'zlari aniqlagan holda, quyidagi qarolardan birini qabul qiladi:

1. jinoyat ishini qo'zgatish haqida;
2. ishni qo'zgatishni rad etish haqida;

3. ariza yoki habarni tergovga tegishli ekanligiga qarab yyuborish haqida.

Jinoyat ishini qo'zgatish uchun sabablar va asoslar yyetarli bo'lган taqdirda surishtiruvchi jinoyat ishini ko'zg'atish to'g'risida qaror chiqaradi. Surishtiruvchi tomonidan chiqarilgan qaror bojxona boshqarmasi boshlig'i tomonidan tasdiqlanadi. Qarorda:

- jinoyat ishini ko'zg'atish uchun sabab va asoslar;
- Jinoyat kodeksining mazkur jinoyatni nazarda tutuvchi moddasi;
- ishni o'z yyurituvchiga olgan mansabdor shaxs ko'rsatiladi.

Jinoyat ishini ko'zg'atish haqidagi qaror uch qismdan: kirish, tavsif va hulosadan iborat bo'ladi. Kirish qismida qaror qachon, kim tomonidan, qayerda chiqarilganligi, tavsif qismida esa jinoyat ishi qo'zgatishning asosi va sabablari ko'rsatiladi, hulosa qismida Jinoyat kodeksining qaysi moddasi asosida jinoyat ishi qo'zg'atilayotganligi, uning keyingi harakatlari haqida ma'lumotlar qayd etiladi. Surishtiruvchining jinoyat ishini kuzgatish va ish yurituviga qabul qilish haqidagi qarori prokuror tomonidan tasdiqlanmaydi, lekin bu qarorning nusxasi unga yyuborilishi shart.

Surishtiruvchi jinoyat ishi yuzasidan ikkita asos mavjud bo'lгandagina tergov harakatlarini yyuritishi mumkin:

1. *Faktik asos* ya'ni, jinoyat sodir etilishi bilan jinoyat-prosessual qonunchiligidan ko'rsatib o'tilgan holatlarni vujudga kelishi;

2. *Xyukyuki asos* ya'ni har qanday tergov harakatlarini o'tkazish qoidalarini jinoyat-prosessual qonunchiligidan huquqiy jihatdan tartibga solingani. Masalan, jinoyat ishi yuzasidan «o'zlashtirish», tergov harakatini o'tkazish, ilgari so'roq qilingan ikki shaxs ko'rsatmalari o'rtasida jiddiy qarama-qarshilik vujudga kelishi natijasida o'zlashtirish tergov harakatini o'tkazish tartibi va qoidalari O'zbekiston Respublikasi JPKning 122, 124-moddalarida huquqiy jihatdan asoslanganligining o'zi huquqiy asosdir.

Surishtiruvchi tergov harakatini o'tkazishda quyidagi vazifalarni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi:

- 1) hodisa sodir bo'lган joydagi holatlar bilan shaxsan tanishish;
- 2) ish bo'yicha ahamiyatli bo'lган dalillarni izlar va predmetlarni topish, qayd qilish va olib ketish;
- 3) jinoiy voqeа natijasida yuz bergen o'zgarishlarni topish;
- 4) jinoyat vokeasi holatlari bo'yicha surishtiruvchini qiziktiruvchi masalalarni hal qilish, TMB bilan bog'liq masalalar, jinoyat sodir etilgan

joydagi bo'lishi mumkin bo'lgan shaxslarning ushbu jinoyatga aloqadorligini aniqlash;

5) hususiy tahminlarni ilgari surish va ularni tekshirish.

Bevosita jinoyatchilar yoki qidirilishi kerak o'kishilar doirasini ko'rsatuvchi ma'lumotlarni topish;

Surishtiruvchi guvohni, jabrlanuvchini, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini dastlabki tergov o'tkazilayotgan joyda yoki so'roq qilinuvchi qayerda bo'lsa, usha joyda so'roq qiladi.

Jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik narsa va hujjatlarning aynan kimda va qayerda ekanligi ma'lum bo'lib, ularni qidirishning hojati bo'lmasa, ularni surishtiruvchi olib qo'yishga haqlidir.

Surishtiruvchi biror turar joy, hizmat, ishlab chiqarish binosi yoki biror shaxsda ish uchun ahamiyatli bo'lgan ashyoviy dalil va hujjatlar borligiga yyetarli asoslangandagina tintuv tergov harakatini o'tkazishga haqlidir.

Odatda surishtiruvchi tomonidan tintuv o'tkazish to'g'risida chiqarilgan qaror prokurorning ruhsati bo'lishini taqazo etadi. Ammo, kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda prokurorning ruhsatisiz chiqarilgan qaror asosida tintuv, tergov harakati o'tkazilishi mumkin. Bunday holatlarda prokurorga tintuv o'tkazilganligi to'g'risida 24 soat ichida yozma ravishda habar qilinishi kerak.

Ekspertning hulosasi yyetarli darajada aniq bo'lmay, kamchiliklarni to'ldirish uchun qo'shimcha tekshirish o'tkazishga zarurat bo'lmasa yoki ekspert foydalangan usullarga anqlik kiritish zarur bo'lib qolsa, surishtiruvchi so'roq qilishning umumiyligini qoidalariga rioya etgani holda ekspertni so'roq qilishi mumkin.

Jinoyat ishi bo'yicha olingan ashoyviy dalillarni surishtiruvchi, holislari (zarur bo'lsa mutahassis), ishtirokida ko'zdan kechiradi va ko'zdan kechirganligi to'grisida bayonnomaga tuzadi. Ko'zdan kechirish bayonnomasida ashyoviy dalillarni ishga taalluqlilagini ko'rsatuvchi muayyan belgilari va ularning boshqa ashyolardan farqlovchi belgilari ko'rsatilishi lozim. Aks holda mazkur bayonnomaga huquqiy jihatdan daliliy kuchini yo'qotadi.

Jinoyat jarayoni ishtirokchisi tergov harakatlarini amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan, o'ziga yyyuklatilgan majburiyatlarini bajarmayotgan bo'lsa, shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchining kelgusi jinoiy faoliyatining oldini olish va hyukm ijrosini ta'minlash uchun ehtiyoj sezilsa, surishtiruvchi jinoyat-prosessual kodeksida belgilangan tartibda majburlov choralarini qo'llashga haqlidir.

Prosessual majburlov choralarini qo'llash surishtiruvchining bevosita vakolati hisoblanadi.

Surishtiruvchi gumon qilinuvchiga nisbatan ushlab turish, qamoqda saqlash, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish tarzidagi prosessual majburlov chorasi qo'llaganida bu haqda 24 soatdan kechiktirmasdan uning oila a'zolaridan biriga, ular bo'lman taqdirda qarindoshlariga yoki yaqin kishilariga habar berishi, shuningdek, bu haqda ish yoki o'qish joyiga ma'lum qilishi shart.

Ushlab turilgan, qamoqda saqlanayotgan yoki tibbiy muassasaga joylashtirilgan shaxs boshqa davlatning fuqarosi bo'lsa, Yuqorida ko'rsatilgan muddat ichida UzR Tashqi ishlar vazirligiga habar berilishi shart. Xabarnomaning nusxasi ishga ilova qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida jinoyat ishlarini yyuritish tartibi Jinoyat-prosessual kodeksi bilan belgilanadi.

Jinoyat ishlarini yyuritishning Jinoyat-prosessual kodeksida belgilangan tartibi barcha sud, proko'ratura, tergov, surishtiruv organlari, advokatura, shuningdek, fuqarolar uchun ham yagona hamda majburiydir.

Jinoyat-prosessual faoliyatning profilaktika borasidagi vazifasi, avvalo, jinoyatni tez va to'liq ochish, uni sodir etgan shaxslarni adolatli jazolash, ish kuzgatish, tergov qilish va uni sudda ko'rish jarayonida qonunni to'g'ri qo'llash orqali ta'minlanadi.

Jinoyat-prosessual qonun hujjatlarida prosessual me'rlarning kuchga kirish paytini aniqlashning quyidagi usullari mavjud:

Birinchidan, me'rlar qabul qilingan va e'lon qilingan vaqt dan e'tiboran kuchga kiradi;

Ikkinchidan, kuchga kirish vaqtি Respublika Oliy Majlisining Ahborotnomasi yoki «Xalq so'zi» gazetasida e'lon qilinganidan 10 kun keyin belgilanadi;

Uchinchidan, jinoyat-prosessual me'riy hujjat to'g'ridan-to'g'ri uning o'zida yoki jinoyat-prosessual kodeksida bo'lgani kabi, ana shu hujjatning tasdigi qonunda ko'rsatilgan paytdan e'tiboran kuchga kiradi.

Davlat hududi deganda yer yuzasining ichki va suv hududlarining havo hududini qo'shgan holda davlat chegaralari doirasidagi qismi, shuningdek, ochiq dengiz va o'zgalarning suv hududlarida turgan harbiy hamda boshqa dengiz kemalari, davlat sarhadlaridan tashqaridagi fazoda bo'lgan havo kemalari va elchihonalarning hududi tushuniladi.

Fuqarolik – shaxsning muayyan davlatga mansubligi bo'lib, davlat unga nisbatan uz hyukmini o'tkazadi va uni Konstitusiyada ko'rsatilgan

huquqlari va burchlari bilan ta'minlaydi, uning huquqini ushbu davlat ichida va tashqarisida muhofaza qiladi. Fuqarolik shaxsning muayyan davlat bilan barqaror, doimiy siyosiy huquqiy aloqasidir. Bu aloqa ularning huquqlari va burchlari bilan ifodalanadi. Shaxsning Fuqarolik holati davlat tomonidan berilgan alohida hujjat «Fuqarolik pasporti» bilan belgilab qo'yiladi.

Chet el fuqarosi deganda – O'zbekiston fuqarosi bo'limgan va o'zining chet el fuqaroligini isbotlovchi dalillari bo'lgan shaxs tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi hududida yashab turgani holda, O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'limgan, chet davlat fuqaroligiga mansubligini isbotlaydigan dalillari bo'limgan shaxslar tushuniladi. Chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'limgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida qilgan jinoiy, ma'muriy (bojxona qonun hujjatlarining buzilishi) kabi huquqbuzarlik ishlari uchun O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan bir hil asosda javobgarlikka tortiladilar.

Surishtiruvchi jinoyat alomatlari aniqlangan holda, uz vakolati doirasida jinoyat ishini kuzgatishi, jinoiy hodisani, jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsni aniqlash va uni jazolash uchun qonunda nazarda tutilgan barcha choralarini ko'rishi shart.

Jinoyat ishlarini yuritish uzbek, korakalpok tillarida eki muayyan joydagи ko'pchilik aholi suzlashadigan tilda olib boriladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi eki sudlanuvchi uning jinoyat sodir etishda aybdorligi qonunda nazarda tutilgan tartibda isbotlangunga va qonuniy sud hyukmi bilan aniqlangunga qadar aybsiz hisoblanadi. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi eki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlab berishi shart emas.

Jinoyat ishlari bo'yicha odil sudlovnii amalga oshirish ma'suliyatni O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasiga muvofiq faqat sudlarga taallyukli bo'lib, ular birinchi instansiya, kasasiya va nazorat tartibida jinoyat ishini ko'rib chiqish huquqiga ega bo'lgan organ sanaladi. Suddan tashqari, hech bir organ, muassasa, tashkilot odil sudlovnii amalga oshirish, shaxsni aybdor hisoblab jazo berish huquqiga ega emas.

Dastlabki tergov dastlabki tekshiruvning alohida shaqli hisoblanadi. Surishtiruv dastlabki tergovning boshlang'ich bosqichidir. Jinoyat ishi bo'yicha dastlabki tergovni proko'ratura, ichki ishlar organlarining va milliy havfsizlik hizmatining tergovchilari olib boradilar. Tergovchi surishtiruv organlariga yozma shaklda topshiriq va ko'rsatmalarni surishtiruv organi rahbari orqali beradi. Ularning bajarilishi majburiydir.

Tergovchining ish urituvida bo'lgan jinoyat ishi materiallari bo'yicha surishtiruvchi zimmasiga tergovchining tergov va qidiruv harakatlarini o'tkazish bo'yicha topshiriqlarini bajarish hamda unga faoliyat jarayonida kumaklashish majburiyati yo'qlatiladi.

Gumon qilinuvchi jinoyat sodir etgani to'grisida ma'lumotlar yetarli bo'lsada, bu ma'lumotlarni uni ishda ayblanuvchi tariqasida ishtirot etishga jalb qilish uchun yetarli bo'lмаган shaxsdir. Shaxsni gumon qilinuvchi tariqasida e'tirof etish to'grisida surishtiruvchi, tergovchi eki prokuror qaror chikaradi.

Gumon qilinuvchi har bir ishda emas, faqat dastlabki tergov bosqichida, 10 sutkadan oshmagan muddatda ishtirot etadi va jinoyat-prosessual faoliyatning mustaqil sub'ektiga aylanadi. Qonunga ko'ra, ayblov e'lon qilingunga qadar gumon qilinuvchiga nisbatan qamoqqa olish ehtiyot chorasi qo'llanilganidagina emas, balki boshqa ehtiyot choralarining istalgan bittasi qo'llanilganida ham gumon qilinuvchi deb hisoblanadi. Gumon qilinuvchi:

- o'zining nimada gumon qilinayotganligini bilish;
- ushlanganidan keyin 24 soatdan kechiktirmay So'roq qilinishini talab qilish;
- o'ziga nisbatan qo'yilgan gumon hususida va ishning boshqa har qanday holatlari bo'yicha ko'rsatmalar berish;
- o'z ona tilidan va tarjimon hizmatidan foydalanish;
- uni gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'grisidagi qaror ma'lum qilingan paytdan eki u ushlangan paytdan boshlab himoyachi olish va So'roq tugaganidan so'ng u bilan holis uchrashish;
- huquqlarini himoya qilishni shaxsan o'zi amalga oshirish;
- iltimosnoma berish va rad qilish;
- dalillar taqdim qilish;
- surishtiruvchi eki tergovchining ruhsati bilan tergov harakatlarida ishtirot etish;
- yarashuv to'grisidagi ishlar bo'yicha sud majlislarida ishtirot etish;
- surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudsarning harakatlari va qarorlari ustidan shikoyatlar berish *huquqiga* egadir.

Gumon qilinuvchi: surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning chaqiruviga binoan hozir bo'lishi, surishtiruvda va dastlabki tergovda ishtirot etishdan bosh tortmasligi;

- haqikatni aniqlashda dalillarni yo'q qilish, sohtalashtirish, guvohlarni kundirishga urinish va qonunga hilof boshqa harakatlar bilan tuskinlik kilmasligi;

- surishtiruvchi, tergovchi va prokurorning guvohlantirish, ekspert tekshiruvi uchun namunalar olish, ekspertiza o'tkazish uchun tibbiy muassasaga joylashtirish to'grisidagi qarorlari va Jinoyat-prosessual kodeksida nazarda tutilgan tegishli prosessual qarorlarning ijro etilishiga tuskinlik kilmasligi, ishning tergov qilinishida tartibga rioya etishi shart.

Gumon qilinuvchi zimmasiga ko'rsatuv berish, shuningdek o'zining jinoyatga aloqador emasligini eki ishning boshqa biror holatlarini isbotlash majburiyati yyuklanishi mumkin emas.

Ximoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining huquq va qonuniy manfaatlarini qonunda belgilangan tartibda himoya qilishni amalga oshirishga hamda ularga kerakli yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega bo'lган shaxsdir.

Ishda himoyachi sifatida: advokatlar, himoyachi sifatida qatnashish uchun mahsus ruhsatnomaga ega bo'lган shaxslar;

- jamoat birlashmalarining o'z a'zolarining ishlari bo'yicha vakillari qatnashishlari mumkin. Gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining yaqin karindoshlari eki qonuniy vakillari, shuningdek boshqa shaxslar himoyachi sifatida ishtirok etishga tergovchining qarori va sud ajrimi bo'yicha yo'l qo'yilishi mumkin.

Ximoyachining ishda ishtirok etishiga fuqaroga ayblov e'lon qilingan vaqtdan boshlab eki u gumon qilinuvchi deb e'tirof etilganligi to'grisidagi qaror e'lon qilingan paytdan yohud u ushlangan paytdan boshlab ruhsat etiladi.

Ximoyachi ishtirok etishi shart, - deb topilgan taqdirda, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud ayblanuvchining himoyalanish huquqini amalda ta'minlash choralarini ko'rishi lozim.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror eki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi eki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda kiynalishi mumkin degan hulosaga kelsa, himoyachini ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.

Jinoyat ishi bo'yicha biror holatni bilish, aniqlashga kumaklashishi mumkin bo'lган har qanday shaxs guvoh sifatida ko'rsatuv berish uchun chaqirilishi mumkin.

Shaxs ishga doir ma'lumotlar haqida boshqa shaxslar ma'lumoti, hujjatlar orqali habar topgan taqdirda ham guvoh sifatida So'roq

qilinishi mumkin. Ammo bu holda guvoh o'ziga ma'lum holatni aniq ko'rsatishi lozim.

Xulosa berish uchun zarur bilimga ega bo'lган har qanday shaxs ekspert sifatida chaqirilishi mumkin.

Surishtiruvchining funksiyasini (agar mutahassisligi bo'yicha mahsus bilimi ekspert darajasida bo'lsa ham) ekspert funksiyalari bilan kushish mumkin emas. Ish uritaetgan organ tomonidan chikarilgan, qaror bilan tayinlangan shaxs prosessual tartibda ekspert hisoblanadi. Ekspert etib tayinlangan shaxs kaerda ishlashidan qat'iy nazar mahsus huquqiy holat bo'yicha mansabdor shaxs hisoblanadi.

Surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasini o'tkazishda dalillarni topish va mustahkamlashda surishtiruvchiga, tergovchiga, prokurorga va sudga yordam berish uchun mutahassis chaqiriladi. Surishtiruv harakatlarini olib borishda ilmiy-tehnik vositalar (magnitofon, videomagnitofon, kinoga olish apparatlar va boshqa apparatlarni) qo'llash uchun mutahassis chaqirilishi mumkin.

Tarjimon quyidagi hollarda chaqiriladi:

1. Guman qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchi eki jabrlanuvchi, fuqaroviy da'vogar, fuqaroviy javobgar yohud ularning vakillari, guvoh, ekspert, mutahassis ish tilni bilmasa eki yetarli darajada tushunmasa, kar-soqov bo'lsa;

2. Biror matnni boshqa tildan tarjima qilishga zarurat bo'lsa;

Tarjimonga tegishli qoidalar ish yuritishda ishtirot etish uchun taklif qilingan, kar yoki soqovning imo-ishoralarini tushunadigan shaxsga nisbatan ham qo'llaniladi.

Tarjimon etib tayinlanadigan shaxsga quyidagi talablar qo'yiladi:

a) ishni yuritish uchun bilish zarur bo'lган tillarda erkin gapira olish;

b) ishning natijasidan manfaatdor bo'lmaslik.

Xolislardan tergov yoki boshqa harakatlar o'tkazilganini, uni o'tkazish jarayoni va natijalarini tasdiqlash uchun Jinoyat-prosessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda surishtiruvchi, tergovchi, prokuror tomonidan chaqiriladi.

Tergov harakatlarini yuritishda ishtirot etish uchun, ishning natijalaridan manfaatdor bo'lмаган, kamida ikki nafar voyaga etgan fuqaro chaqirilishi lozim. Tergov harakatlarini boshlashdan oldin surishtiruvchi, tergovchi eki prokuror holislarga ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi. Xolis o'zi ishtirot etgan tergov harakatini

yyuritish bilan bog'lik holatlar bo'yicha guvoh tariqasida so'roq qilinishi mumkin.

Ijtimoiy havfli kilmishning yuz bergan bermaganligini, bunda sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va jarayonni to'gri hal qilishda ahamiyatga molik boshqa holatlarni qonunda belgilangan tartibda surishtiruvchi, tergovchi va sudlarning aniqlanishiga asos bo'ladigan har qanday haqiqiy ma'lumotlar jinoyat ishi bo'yicha *d a l i l* hisoblanadi.

Operativ-qidiruv yo'li bilan to'plangan ma'lumotlarning ahamiyati shundan iboratki, ular tergov tusmonlarini ilgari surish, ularni tekshirish, prosessual harakatlarni amalga oshirish yoki ularga tayyorgarlik ko'rishda ishlatilsa ham, dalil sifatida tan olinmaydi, chunki ular prosessual manbalardan bo'lib, dalil kuchiga ega bo'lmaydi.

Operativ-qidiruv yo'li bilan to'plangan ma'lumotlar dastlabki tekshirish davomida surishtiruvchi, tergovchi va prokuror tomonidan jinoyat-prosessual qonunchiligiga binoan prosessual rasmiylashtirilgan taqdirdagina *d a l i l* kuchiga ega bo'lishi mumkin.

Bevosita dalillar – shaxsning aybini (aybsizligini) yoki isbotlanishi lozim bo'lган hollarning haqiqatga to'gri eki noto'gri ekanini aniqlaydi. Bevosita dalil mazmunan isbotlanishi lozim bo'lган holatga doimo mos bo'ladi. Bevosita dalillar bilan ishlaganda (masalan, jinoyatni o'z ko'zi bilan kurgan shaxsdan ko'rsatma olganda) asosiy vazifa bu dalillar real vokellikka to'gri kelishini tekshirishdan va to'liq bo'lishini aniqlashdan iborat.

Bilvosita dalil isbotlash predmetiga mansub bo'lmasada, aynan shu predmetga oid biror holatni tasdiqlashga qaratilgan. Bilvosita dalil jumlasiga ham aniq ma'lumotlar kiradi. Ular shaxsni vokea sodir bo'lган joyda eki unga yaqin erda bo'lганligini, ayblanuvchi ma'lum tajriba va kunikmalarga egaligidan darak beradi (masalan, shaxs ma'lum bilimga ega, jismoniy soglom, konining tipi va guruhi topilgan kon izlariga monandligi, jinoyat quollarini ishlatish malakasi, jinoyat sodir etishdagi maqsadi, hayot tarzi) va boshqa shunga uhshash ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Asl va hosila dalillarni o'zaro farqi shundaki, faktik ma'lumotlarni, jinoyatni o'z ko'zi bilan kurgan guvoh baen etsa, asl nusxadagi hujjatlarda ma'lumotlar aks etgan bo'lsa, daliliy ashyo vokea sodir etilgan joydan olingan bo'lsa, ularning hammasi asl dalillar sifatida tan olinadi. O'zga shaxsdan eshitgan ahborotni baen qilgan guvohning ko'rsatmalari, hujjatning kuchirib yozilgan nusxasida aks etgan

mu'lumotlar, izning qolipida aks etgan belgilari hosila dalillar sifatida tan olinadi.

Isbot qilish qonuniy, asoslangan va adolatli hal qilish uchun ahamiyatga ega bo'lgan holatlar to'grisidagi haqiqatni aniqlash maqsadida dalillarni tuplash, tekshirish va baholashdan iboratdir. Isbot qilish JPK moddalarining talablariga mos bo'lishi lozim. Bu qoidaga amal qilmaslik jinoyat ishi bo'yicha yigilgan ma'lumotlarni *noqonuniy* deb topishga sabab bo'lishi mumkin.

Isbot qilishni surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud amalga oshiradi. Isbot qilishda quyidagilar taqiqlanadi:

1) shaxslarning hayoti va sogligi uchun havfli bo'lgan yoki ularning sha'ni, qadr-qimmatini kamsituvchi hatti-harakatlarni sodir etish;

2) zo'rlik, po'pisa qilish, aldash va qonunga hilof boshqa yo'llar bilan ko'rsatma, tushuntirish, hulosalar olishga, eksperimental harakatlarni bajarishga, sohta hujjatlar yoki buyumlar tayyorlanishiga va berilishiga erishish;

3) tungi vaqtida, ya'ni kech soat 22<sup>oo</sup> dan ertalab soat 6<sup>oo</sup> gacha tergov harakatlari olib borish. Tayyorlanayotgan yoki sodir etilayotgan jinoyatni oldini olish, jinoyat izi yo'qolishiga yoki gumon qilinuvchining qochib ketishiga yo'l qo'ymaslik (eksperiment jarayonida tekshirilayotgan hodisaning holatini qaytadan tiklash zaruriyati bo'lgan hollar bundan mustasno).

Tergov va sud harakatlari bilan bog'lik ishlar bajarilayotganida surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sudlarda va ishda mutahassis yoki ekspert sifatida ishtirok etayotgan shifokorlardan boshqa shaxslarning o'zga jinsdagi shaxsni yalang'och qilib echintirish chog'ida hozir bo'lishlari taqiqlanadi.

Bayonnomalar yuritish uchun ma'suliyat surishtiruv va dastlabki tergov bosqichida surishtiruvchi va tergovchi, sudda esa raislik qiluvchi va sud majlisi kotibi zimmasiga yo'qlatiladi.

Dalillarni mustahkamlashning asosiy vositasi Bayonnomma tuzish hisoblanadi. Yordamchi usullar esa, tergov qatnashchilarining tergov harakatida qanday ahborot bergenliklarini video, kino, ovoz ezish tehnikasi orqali, foydalanish fotosuratga tushirish, qoliplar tayyorlash, nusxa olish, rejalar, chizmalar tayyorlash va ahborotlarni aks ettirishning boshqa usullaridan iborat.

Tergov yoki sud harakatining borishi va natijalari aks ettirilgan fotosuratlar, fonogrammalar, videoyozuvlardan, kinotasvirlar, qoliplar, nusxalar, rejalar, chizmalar Bayonnomaga ilova qilinadi. Xar qaysi

ilovada tergov yoki sud harakatining nomi, o'tkazilgan joyi, sanasi ko'rsatilgan va izohlovchi matn bo'lishi lozim. Bu izohlovchi matnni *s u r i sh t i r u v c h i* o'z imzosi bilan tasdiqlaydi. Surishtiruvchi jarayon ishtirokchilaridan birortasining yoki boshqa shaxslarning Jinoyat-prosessual kodeksida nazarda tutilgan hollarda tergov harakatlari Bayonnomasiga imzo chekishdan bosh tortganligi to'grisidagi *b a y o n n o m a* to'ldirilib, uni o'z imzosi bilan tasdiqlaydi.

Bayonnomaga imzo chekishdan bosh tortgan shaxs bosh tortish sababini tushuntirishga haqli. Bu tushuntirish Bayonnomaga kiritilishi lozim. Tergov yoki sud harakati ishtirokchisi o'zining jismoniy nyuksoni tufayli Bayonnomani o'qib, imzolay olmasa, Bayonnomani uning roziligi bilan himoyachi, vakil yoki mazkur shaxs ishonadigan boshqa fuqaro o'qib beradi va imzo chekadi. Bu haqida Bayonnomaga yozib qo'yiladi.

Kelib chiqishini, kimga tegishlilagini, ma'lum maqsadlarda foydalilanligi yoki foydalanishga yaroqliligi, qo'ldan qo'liga o'tganligi yoki turgan joyi o'zgarganligi, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon ta'sir etganligini aniqlash mumkin bo'lgan fizikaviy alomatlar yoki belgilarga, shuningdek, ish holatlarini aniqlashga hizmat qiladigan har qanday belgilarga ega bo'lgan narsa *a sh y o v i y d a l i l* hisoblanadi. Xujjatni ashyoviy dalil (yozma dalil) sifatida ish materiallarga qo'shib qo'yish uchun surishtiruvchi buyumni ashyoviy dalil (yozma dalil) deb e'tirof etish va jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yish to'grisida alohida *q a r o r* chiqaradi.

Mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan so'z, raqam yoki boshqa shaklda yozilgan va ish uchun ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni saqlash, o'zgartirish, taqdim etish uchun mo'ljallangan hujjat yoki boshqa yozuvlar *y o z m a d a l i l* hisoblanadi.

Surishtiruv olib borish jarayonida o'tkazilgan tergov harakatlari Bayonnomasiga kiritilgan ilovalar ham yozma dalil bo'lib hisoblanadi. Yozma dalillar qatoriga jadvallar, chizmalar, sxemalar, foto va kino hujjatlar, videotasmalar, fonogrammalar, shuningdek, magnit tasmada va qog'ozli asosda elektron hisoblash mashinalari yoki boshqa elektron hisoblash tehnikasi orqali tuziladigan hujjatlar ham qo'shiladi.

Xujjatni ashyoviy dalil (yozma dalil) sifatida ish materiallariga qo'shib qo'yish uchun surishtiruvchi narsani ashyoviy dalil (yozma dalil) deb e'tirof etishi va jinoyat ishi materiallariga qo'shib qo'yishi to'grisida alohida *q a r o r* chiqaradi. Jinoyat haqidagi imzosiz, qalbaki imzolangan yoki shaxs nomidan yozilgan uydurma hat, ariza

yoki boshqa anonim habarlar jinoyat ishini qo'zgatish uchun sabab bo'la olmaydi. Jinoyat ishini qo'zgatish uchun faqat aniq manbalardan olingan ma'lumot sabab bo'la oladi. Jinoyat sodir etilganligi yoki unga tayyorgarlik ko'rيلayotgani haqida ma'lumot kimdan, qachon va qay yo'sinda olingani biror shubha tug'dirsagina aniqlanishi shart.

Jinoyatga oid arizalar, habarlar va boshqa ma'lumotlar ro'yhatga olinishi, uch sutkadan kechiktirmasdan, jinoyat ishini qo'zgatish uchun *s a b a b* qonuniyligini va asoslar yetarli ekanligini bevosita yoki surishtiruv organlari yordamida tekshirish zaruriyati bo'lgan taqdirda, 10 sutkadan kechiktirmasdan ko'rib chiqilishi lozim. Ushbu muddatlar jinoyatga oid habarning olingan paytidan boshlab to ishni qo'zgatish yoki qo'zgatishni rad qilish to'grisida qaror chiqarilgunga qadar vaqt ni o'z ichiga oladi.

Jinoyat ishi yuzasidan surishtiruv 10 sutkadan oshmagan muddatda tamomlanishi lozim. Surishtiruvchi jinoyat ishini tergovchiga o'tkazishi bilan ish tamomlanadi. Quyidagi hollarda surishtiruvchi jarayon muddatining o'tishini kutmasdan ishni darhol tergovchiga o'tkazishi lozim:

- 1) og'ir yoki o'ta og'ir jinoyat aniqlangan bo'lsa;
- 2) muayyan shaxsning ayblanuvchi tariqasida jarayonga jalb qilish uchun asoslar yetarli bo'lsa; ishni tugatish uchun asoslar yetarli bo'lsa;
- 3) tergovchi ish bilan bevosita shug'ullanishga talab qilgan bo'lsa surishtiruvchi ishni tergovchiga o'tkazish haqida *k a r o r* chiqaradi.

Og'ir va o'ta og'ir jinoyat sodir etilganligi aniqlangan bo'lsa, (O'zR JKning 182-moddasining birinchi va ikkinchi bandlari bo'yicha sodir etilganligi aniqlansa), surishtiruvchi ishni tergovchiga o'tkazish qaroriga ushbu jinoyatning ta'rifini ham kiritadi va shunga asosan ishni tergovchiga o'tkazadi. Og'ir va o'ta og'ir jinoyat bo'yicha dastlabki tergov harakatlari zudlik bilan olib borilishi kerak, bunda tergovchiga surishtiruv organi tegishli tergov va tezkor-qidiruv choralarini ko'rish bilan yordam beradi hamda u o'z vaqtida tergovchining topshiriqlarini amalga oshirishi lozim.

So'roqning umumiyl davom etish vaqtini bir kunda 8 soatdan oshmasligi lozim. Dam olish va ovqatlanish uchun beriladigan bir soat tanaffus hisobga kirmaydi. Tergov harakatlari ertalab soat 6<sup>oo</sup> dan kechqurun soat 22<sup>oo</sup> gacha davom etishi mumkin, shunga ko'ra agar So'roq qilish soat 6<sup>oo</sup> da boshlangan bo'lsa, uning muddati soat 15<sup>oo</sup> dan oshmasligi kerak.

Surishtiruv va dastlabki tergov o'tkazish jarayonida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ushlangan, So'roq qilish uchun chaqirilgan, qamoqqa olingan yoki majburiy keltirilganidan keyin darhol yoki 24 soatdan kechiktirmay So'roq qilinishi kerak. Bu talab buzilganligi natijasida gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining noqonuniy manfaatlari va prosessual huquqlari cheklangan deb hisoblanishi shart. Kechiktirib bo'lmaydigan tergov harakati sifatida hodisa sodir bo'lган joyni ko'zdan kechirish tergov harakatini o'tkazish; Xodisa sodir bo'lган joyni ko'zdan kechirish dastlabki va kechiktirib bo'lmas tergov harakatlariga mansub bo'lib, u jinoyat ishini qo'zgatishdan avval ham o'tkazilishi mumkin. Bunda ko'zdan kechirish o'tkazilganidan so'ng kechi bilan 72 soatda, alohida hollarda esa 10 kun ichida jinoyat ishini qo'zgatish haqida yoki qo'zgatishni rad qilish to'grisida qaror qabul qilinishi lozim.

Olib qo'yish yoki tintuv o'tkazish to'grisidagi qaror va Bayonnomaning nusxasi yoki sud majlisining ijro etish to'grisidagi Bayonnomasidan ko'chirma tintuv o'tkazilgan shaxsga yoki uning voyaga etgan oila a'zolariga, ular bo'lmanan taqdirda esa, tegishli hokimlik yohud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi vakiliga topshirilib, tilhat olinadi. Zarur hollarda mazkur shaxslarga olib qo'yilayotgan hujjatlarning asl nusxalari beriladi.

Ish uchun ahamiyatli holatlar to'grisidagi ma'lumotlarni fan, tehnika, san'at yoki kasb sohasi bo'yicha bilimi bo'lган shaxs o'tkazadigan mahsus tekshirish orqali olish mumkin bo'lгanda ekspertiza tayinlanadi. Ekspertiza dalillarni qo'lga kiritish uchun o'tkaziladigan prosessual harakatdir. Ekspert oldiga qo'yiladigan savollar va uning hulosasi ekspertning mahsus bilimi doirasi me'erida bo'lishi kerak.

Ekspertizani ekspertiza muassasalarining, boshqa davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining mutahassislari yoki surishtiruvchi, tergovchi sud tayinlangan bilimdon shaxslar o'tkazadi. Ekspert etib tayinlanadigan shaxslar ikki guruhga bo'linadi:

- a) ekspertiza muassasasida faoliyat yurituvchi xodimlar (ekspertlar);
- b) ekspertiza muassasalariga va ularning xodimlariga aloqasi bo'lmanan bilimdon shaxslar.

Ekspertiza ob'ektlariga tadqiq etilayotgan ob'ektlar kiradi. Jinoyat ishi bo'yicha olingan ashyoviy dalillar va ekspert tekshiruvi uchun olingan namunalar; ekspertiza orqali aniqlanadigan predmetlar – tirik odamning jismi, ruhiy holati, murda, hujjatlar ham kirishi mumkin.

Qo'shimcha ekspertiza ekspert hulosasidagi kamchiliklarni to'ldirish uchun tayinlanadi va shu ekspertning o'zi yoki boshqa ekspert tomonidan o'tkaziladi.

Ekspertning hulosasi asoslantirilmagan yoki uning to'g'rilingiga shubha tugilgan hollarda, unga asos qilib olingan dalillar ishonarsiz, deb topilganda, ekspertiza o'tkazishning prosessual qoidalari jiddiy buzilganda qayta ekspertiza tayinlanadi. Qayta ekspertiza o'tkazish tayinlanganida ekspert oldiga ilgari foydalanilgan tekshirish usullarining ilmiy asoslanganligi to'grisida masala qo'yilishi mumkin.

Ekspertiza hay'ati yigini aynan bir sohaga mansub bo'lган mutahassislar tomonidan surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qarori, yohud sudning ajrimiga asosan o'ta murakkab vaziyatlarda o'tkaziladi. Ekspertlar o'rtasida kelishmovchilik ro'y beraganida har bir ekspert kelishmovchilik chiqqan barcha yoki ayrim masalalar bo'yicha alohida hulosa beradi.

Ekspert tekshiruvini to'la yoki qisman o'tkazishni ekspertlar tarkibiga kirmagan shaxslarning bajarishga yo'l qo'yilmaydi. Agar jinoyat ishi uchun ahamiyatga molik biror holatni turli ilm sohalaridan foydalaniб, bir necha tekshiruv o'tkazish orqaligina aniqlash mumkin bo'lsa, surishtiruvchi tomonidan kompleks ekspertiza tayinlanadi.

Prosessual majburlov choralarini qo'llash Jinoyat-prosessual kodeksida ikki asosga ega:

1. Ishni qo'zgatishdan avval prosessual majburlov chorasini qo'llash.
2. Prosessual majburlov chorasini faqat qo'zgatilgan jinoyat ishi bo'yicha qo'llash.

Ushlab turish jinoyatni sodir etishda gumon qilinayotgan shaxsni, uning jinoiy faoliyat bilan shug'ullanishiga barham berish, qochib ketishning, dalillarni yashirish va yo'q qilib yuborishning oldini olish maqsadida qisqa muddatli ozodlikdan mahrum qilishdan iborat. Ushlab turish jinoyat ishi ko'zgatilgunga qadar ham, ish qo'zgatilgandan keyin ham amalga oshirilishi mumkin. Ish qo'zgatilganidan keyin ushlab turishga surishtiruvchining qaroriga muvofiq yo'l qo'yiladi.

Jinoyatni sodir etishda gumon qilingan shaxs quyidagi asoslar mavjud bo'lgandagina ushlab turilishi mumkin:

1. Shaxs jinoyat ustida yoki bevosita uni sodir etganidan keyin qo'lga olinsa;
2. Jinoyat shohidlari, shu jumladan, jabrlanuvchilar uni jinoyat sodir etgan shaxs tariqasida to'gridan-to'gri ko'rsatsalar.

3. Uning o'zida yoki kiyimida, enida yoki uyida sodir etilgan jinoyatning aniq izlari topilsa.

4. Shaxsning jinoyat sodir etishda gumon qilish uchun yetarli asos mavjud bo'lib, u qochishga urinsa yoki doimiy yashaydigan joyi yo'q, shaxsi noma'lum bo'lsa.

Ushlab turish, qamoqda saqlash ehtiyot chorasidan shu bilan farq qiladiki, ushlab turishni dastlab tergov jarayonida yoki ishni qo'zgatishdan avval qo'llash mumkin bo'lsa, qamoqda saqlash ehtiyot chorasini jinoyat jarayonining har qanday bosqichida amalga oshirish mumkin.

Deputatlar, sudyalar va prokurorlar ushlab turilishi hamda milisiyaga yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organga olib kelinishi mumkin emas. Agarda, deputatlar, suda va prokurorlar jinoyat ustida yoki uni sodir etganidan keyin qo'lga tushsa, Yuqorida qayd qilingan «taqiq» o'z kuchini yo'qotadi.

Ushlab turishning asosli ekanligini tekshirish, hujjatlarni talab qilish va ko'zdan kechirish ushlangan shaxs milisiya muassasasi yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organ tomonidan keltirilgan vaqtadan boshlab 24 soatgacha o'tkazilishi lozim.

Ushlab turilgan shaxs huquqni muhofaza qiluvchi organga keltirilgandan so'ng boshliqning ko'rsatmasiga binoan navbatchilik qismining navbatchisi yoki boshqa boshliq tayinlagan xodim darhol ushlab turish Bayonnomasini to'zadi. Bayonnomada: kimning, kim tomonidan, qachon, qanday holatda, qonunda ko'rsatilgan qanday asoslarga ko'ra ushlangani, ushlangan shaxs qanday jinoyatni sodir etganlikda gumon qilinayotganligi, navbatchilik qismiga qachon olib kelingani aks ettirilishi lozim. Ushlab turish muddati navbatchilik qismiga olib kelingan vaqtadan boshlab 72 soatdan ortiq davom etishi mumkin emas.

Jinoyat sodir etishda gumon qilinib ushlab turilgan shaxslar, basharti:

- 1) jinoyat sodir etganligi haqida gumon tasdiqlanmasa;
- 2) ushlab turilgan shaxsga nisbatan qamoqqa olish tarzida ehtiyot chorasini qo'llash zarurati bo'lmasa;

3) belgilangan ushlab turish muddati tugagan bo'lsa, ozod qilinadilar.

Ushlab turilgan shaxsni ozod qilish surishtiruvchi, tergovchi, prokurorning qaroriga yohud sudning ajrimiga binoan ushlab turilganlar saqlanadigan ob'ektning boshlig'i tomonidan darhol amalga oshiriladi.

Ehtiyyot choralariga quyidagilar kiradi:

- munosib hulq-atvorda bo'lish to'grisidagi tilhat;
- shaxsiy kafillik; jamoat birlashmasi yoki jamoaning kafilligi;
- garov;
- qamoqqa olish;
- voyaga etmaganlarni ko'zatuvga olish uchun topshirish;
- harbiy hizmatchining hulq-atvori ustidan qo'mondonlik ko'zatuvi.

Bir shaxsga nisbatan bir vaqtning o'zida ana shu choralardan faqat bittasi qo'llanilishiga yo'l qo'yiladi.

Jinoyat ishini yuritish munosabati bilan shaxslar surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud tomonidan begilangan tartibda aynan ko'rsatilgan vaqtda hozir bo'lishlari shart. Uzrsiz sabablarga ko'ra, chaqirilgan shaxslar kelmaganlari taqdirda majburiy keltiriladilar. Majburiy keltirish gumon qilinuvchining, ayblanuvi, sudlanuvchi, jabrlanuvchi, guvohlarning prosessual harakatlarda yoki sud majlisida ishtirok etishini ta'minlash uchun agar ular o'zrsiz sababga ko'ra kelishdan bosh tortganligi aniqlangan taqdirda qo'llaniladi.

Gumon qilinuvchi, ayblanuvi, sudlanuvchilarni oldindan chaqiruvsiz majburiy keltirish ular surishtiruv, dastlabki tergov va suddan yashirinib urgan bo'lsalar yoki aniq yashash joyi bo'lmanan taqdirda qo'llanilishi mumkin. Guvohga yoki jabrlanuvchiga nisbatan majburiy keltirishning qo'llanilgani ularning ko'rsatma berishdan bosh tortganligi uchun qonunda belgilangan javobgarliklaridan ozod etmaydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Jinoyat ob'ekti va uning ob'ektiv tomoni.
2. Jinoyatning sub'ekti va sub'ektiv tomoni.
3. Jinoyat ishini qo'zgatish sabablari va asoslari.
4. Gumon qilinuvchi va uning huquqlari.
5. Jinoyat ishi bo'yicha dalillar.
6. Kontrabanda jinoyati nima?
7. Quroq – yarog olib o'tish jinoyati nima?
8. Pornografiya va uni targib qiluvchi filmlar, gazeta, jurnallar va vositalarni olib o'tishga qarshi kurash.
9. Respublikamizdan tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan asarlarni olib chiqib ketilishiga qarshi kurash.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1.O'zbekiston Respublikasi, Bojxona kodeksi, T., «Iqtisodiyot va xuquq dunyosi», 2016 y..

2. Пилеев Б.Б. Комментарии к таможенному кодексу РФ. М.:TK, 2013г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.

2. O'zbekiston Respublikasi bojxona ishiga oid me'eriylujatlar.

3.К.Ф. Скворкова «Расследование контрабанды», М., Юрист, 2014 г.

4. Таможенное дело, Учебник, 2014 г. [www.professiya.ru](http://www.professiya.ru)..

## **2.5. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish.**

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari faoliyatining ko'lami va harakterining o'zgarishi bojxona tizimidan tashqi savdoda ro'y berayotgan, oldindan bashorat qilinishi qiyin bo'lgan va murakkablashib borayotgan vaziyatlarga moslashishni talab etadi. Bu esa o'z navbatida bojxona qonunchiligini takomillashtirish jarayonlarida o'z aksini topadi. Xususan, 1998 yilning 1 martidan amal qilayotgan O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksiga muvofiq, bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'kon, erkin omborlar tashkil etish, bojxona hududida qayta ishslash, bojxona nazorati ostida qayta ishslash, bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash rejimlaridan foydalanish hamda bojxona tashuvchisi va bojxona brokeri sifatida faoliyat yuritish uchun bojxona organlari tomonidan lisenziyalar berish belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining «Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq, lisenziya talab qilinadigan faoliyat turlari ro'yhati tasdiqlangan va mazkur ro'yhatga bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do'kon tashkil etish kiritilgan.

Ushbu ro'yhatdan bojxona hududida qayta ishslash, bojxona nazorati ostida qayta ishslash, bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash rejimlaridan foydalanish hamda bojxona tashuvchisi va bojxona brokeri sifatida faoliyat yuritish shartlari olib tashlanganligi sababli, ularning

yangi tartiblarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi va ular yangi Qonun loyihasida o'z aksini topdi.

Bojxona kodeksidagi «Tovarlarni qayta ishlash uchun lisenziya berish shartlari» (66-modda), «Bojxona brokeri sifatida faoliyat olib borish uchun lisenziya olish shartlari» (67-modda), «Bojxona tashuvchisi sifatida faoliyat olib borish uchun lisenziya olish shartlari» (68-modda) kodeksning «Amalga oshirilishini nazorat qilish bojxona organlariga yyuklatilgan faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini beruvchi ruhsatnomalar» to'g'risidagi 6-bobiga mos ravishda, yangi Qonun loyihasining 31-33, 64 va 101-moddalariga o'tkazildi.

Loyihada «tovar» tushunchasiga va qayta ishlashga ruhsat berish prosedurasiga aniqlik kiritilishi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga qulaylik yaratadi va u «Faoliyatning ayrim turlarini lisenziyalash to'g'risida»gi Qonun talablariga zid emas. Kiritilgan ushbu aniqlik bojxona organlari tomonidan shartnama shartlarining bajarilishi ustidan nazoratni kuchaytirish imkonini beradi hamda eksport potensialining o'sishiga ijobji ta'sir ko'rsatadi.

Shu bilan birga, hom ashyni olib kirishda bojxona to'lovlarining undirilmasligi qayta ishlash rejimini qo'llashni kengayishiga va qayta ishlash korxonalari pul mablag'larini vaqtincha blokirovka qilmasdan (mo'zlatmasdan) respublikaning sanoat qudratini oshirishda to'liq foydalanishga ko'maklashadi.

Bundan tashqari, bojxona tashuvchilar, bojxona brokyerlari va bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutahassislarining bojxona qonunchiligini bo'zganligi uchun javobgarligi va faoliyat turlarining shartlariga aniqlik kiritildi.

Mazkur loyiha bo'yicha tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalamaslik yoki ularni noto'g'ri deklarasiyalash (bojxona kodeksining 164-moddasi) va Bojxona to'lovlaridan g'ayriqonuniy ozod qilishga yoki ularni kamaytirishga qaratilgan hatti-harakatlar (bojxona kodeksining 167-moddasi) sodir etganlik uchun javobgarlik faqat Kodeksning 167-moddasi bilan tasniflanadi va javobgarlikka tortiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritish tartibi.
2. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ishlarni yyuritishni ta'minlash.
3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bayonnomalar.

4. Bojhona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to'g'risidagi ish bo'yicha bojxona organining qarori.
5. Bojxona haqidagi qonunlarni buzish tushunchasi.
6. Bojxona haqidagi qonunlarni buzganligi uchun jazo choralarini qo'llash tartibi.
7. Bojxona qonunlarini buzgan holatda tovarlarni musodara qilish tartibi.
8. Bojxona Kodeksining 192 moddasi to'g'risida gapiring.

**Asosiy adabiyotlar:**

3. O'zbekiston Respublikasi, Bojxona kodeksi, T., «Iqtisodiyot va xuquq dunyosi», 2016 y.
4. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
2. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.
5. Таможенное право

### **III BOB Xalqaro savdo va uni rivojlanish tarixida bojxona hizmatining to'tgan o'rni.**

#### **3.1. Xalqaro savdo siyosatini takomillashuvi va davlat iqtisodiy havfsizligi.**

Mamlakat o'rtasida xalqaro savdo munosabatlarni rivojlanishi, ular tomonidan har hil integrasion tuzilmalarni tashkil qilinishiga olib keldi. Keyingi un yilliklarda butun dunyo xo'jaligini qamrab olgan zamonaviy liberallashtirish jarayonlari o'zaro bog'lik ikki tendensiya bilan aniqlanadilar. Birinchidan xalqaro iqtisodiy munosabatlarni proteksionistik to'siqlardan sekin asta halos bo'lishi bo'lsa, ikkinchidan o'zaro iqtisodiy munosabatlarni liberallahdir. Bu jarayon bir guruh davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik ittifoqlari yoki ochiq savdo zonalarini tashkil etish ko'rinishida amalga oshiriladi. Misol uchun AQSh, Kanada va Meksika davlatlari o'rtasida Shimoliy Amerika erkin savdo zonasini tashkil etilgan. Xuddi shunday hududiy tashkilot ACEAH Osiyo Tinch okeani mintaqadagi davlatlar o'rtasida tashkil etilgan. Maistrih Kelishuvini va Yevropa iqtisodiy hududni tashkil etish bo'yicha shartnomani imzolanishi natijasida Yevropadagi bir guruh davlatlar yangi integrallashgan jamiyatga qadam qo'ydilar.

Davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integrallashuv jarayonlarini tobora rivojlanib borishi ularni iqtisodiyotlarini rivojlanish darajasidagi tafovutlarni sekin asta kamayib borishiga olib keladi. Bunday tafovutlarni kamayib borishi esa bu davlatlar tashki iqtisodiy aloqalarni yanada erkinlashuviga, iqtisodiyotlarni ochiqlik darajasini oshishiga olib keladi.

Ochiq iqtisodiy hududlar iqtisodiyoti tashqi dunyoga ochiqlikni eng yuqori darajasiga egadir. Ularda tashqil etilgan bojxona, Soliq va investisiyalarini jalb etish jarayonini tezlatadi.

Ochiq iqtisodiy hududlarni amalda dunyo ho'jaligi bo'yicha harakat qilib urgan kapitallarni ushlab qoluvchi tutqichlar, kopkonlar desa bo'ladi. Ochiq iqtisodiy hududlar, mamlakat ichida iqtisodiy jarayonlarni jadallashtirish maqsadida chet el kapitalini jalb etish bilan bir qatorda, yana quyidagi uchta asosiy masalalarni hal etish uchun hizmat qiladi:

- eksportga tovarlar ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali valyuta tushumlarini oshirish;
- ish bilan bandlikni oshirish;

- ochiq iktichodiy zonalarni yangi ho'jalik yuritish usullarini tajribadan o'tkazish, yangi ishlab chiqarish tehnologiyalarini sinab ko'rish poligoniga aylantirish.

Mamlakat hududida ochiq iqtisodiy zonalarni tashqil etishni yana bir sababi, mamlakat o'z iqtisodiyotini chet el kapitali uchun butunlay ochishdan manfaatdor emasligidadir. Ochiq iqtisodiy zonalarni tashqil etish dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, ochiq iqtisodiy zonalarni tashqil etish bir tomondan davlat iqtisodiyotini butunlay ho'jaligiga integrasiyalashuvini tezlatsa, ikkinchi tomondan bu hududlarda ishlab sikerishni ba'zi bir turlarini rivojlantirish maqsadida imtiyozlar yaratishdir. Erkin iqtisodiy hududlarni tarixi 1510 yildan boshlanadi. Shu yili ispan konkistadori Basko Hunes de Balbao panama kirkogiga tushdi va ikki okeanning ajratib turuvchi buynida o'z sheriklari bilan birgalikda «tijorat portiga» asos soldi. Xuddi shu erda dunyo tajribasida birinchi marta bojxona ko'rigan o'tkazish qo'llanildi.

Xozirgi kunda EIX lar iqtisodiy rivojlanish jihatdan har hil bo'lган davlatlarda, yangi industrial davlatlarda, rivojlanayotgan davlatlarda, shuningdek bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan davlatlarda mavjuddirlar.

Agarda 1960 yil bu davlatlarda EIX lar soni 2 tagacha teng bo'lган bo'lса, 1975 yili ular soni 79 tani, 1981 yili 96 tani, 1985 yili 264 tani, 90- yillarni o'rtalariga kelib ularni soni 900 tadan oshib ketdi. EIX lar orqali dunyo savdo oboroti hajmini 10% o'tadi, ularda eksport va import hajmini usish darajasi juda yuqoridir. BMT ni trans – milliy korparasiyalar bo'yicha markazi mutahasislarni baholashiga 90- yillarni o'rtalariga kelib EIX da mashgul bo'lганlar soni 3 mln kishidan oshib ketgan.

Dunyo tajribasida EIX larni hilma – hil turlari mavjud bo'lib, ularni har biri Yuqorida Yuqorida keltirilgan umumiy hususiyatlar bilan birga o'ziga hos hususiyatlarga ham egadir. O'ziga hos hususiyatlar har bir alohida holda ko'pgina omillar, omillar to'plami bilan ifodalanadi.

Bunday omillar qatoriga quyidagilarni ko'rsatish mumkin: joylashish joyi; konfigurasiysi; EIX joylashgan hududni kattaligi; ishlab chiqarish va boshqa resurslarni mavjudligi va sifati; shu resurslardan foydalanishda tabiiy, iqtisodiy va boshqa sharoitlarini o'ziga hos hususiyatlari; EIX larni tashqil etilishida davlatni o'z oldiga va EIX oldiga kuygan masalalari; EIXlarda davlat tomonidan ruhsat etilgan ho'jalik faoliyatları; hududlarni milliy karamligi va boshqalar.

EIX lar bilan bir qatorda dne tajribasida uni alohida turi – offsher hududlari mavjuddir. Xuddi ana shunday hududni tarifi Kiota

konvensiyasida berilgan. Bunday hududlar uchun quyidagi uchta belgi taallyuklidir:

Birinchidan, ular dunyo bozoriga hizmat ko'rsatish uchun tashqil etiladilar;

Ikkinchidan, ularga mamlakatni boshqa hududlarida amalda bo'lган Soliq normalari va bojxona chegaralari taallyukli emas;

Uchinchidan, ular ma'lum ma'noda «erkin» bo'lishlaridan qat'iy nazar, ularga tashqi iqtisodiy aloqalarni davlat tomonidan tartibga solish tegishli bo'ladi.

Yevropada shunday hududlardan birinchisi 50- yillarni ohirlarida Irlandiyada vujudga keldi, shundan keyin ular asosan rivojlanetgan davlatlarda tarkala boshladilar, ular importni urnini bosishdan eksport ishlab chiqarishga o'tishni asosiy quroli sifatida kullay boshladilar.

Shunga uhshash hududlarni 80- yillarni o'rtalariga kelib ommaviyligi osha boshladi. Bunga sabab iqtisodiyoti eksportga qaratilgan bir qator rivojlanayotgan davlatlarni yangi industrial davlatlar qatoriga kirishidir.

Ochiq ikimsodiy hududlarni tashqiliy funksional tuzilishi rang barangdir. Ba'zida ularni sinflash juda qiyindir. Chunki bir turdag'i ochiq iqtisodiy hudud o'zida bir necha turdag'i ochiq iqtisodiy hududlarni hususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Shunga qaramay Rossiyalik mutahasislar tomonidan ishlab chiqarilgan uslubiyatga asosan ochiq iqtisodiy hususiyatlarni ho'jalik ihtisoslashuvi belgilashga asosan quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin

Ochiq iqtisodiy hududlarni birinchi guruhi savdo hududlari guruhi deb atalib, bu guruhga erkin bojxona, bond omborlari, erkin portlar, erkin savdo hududlari kabi ochiq iqtisodiy hududlar kiradi.

Ochiq iqtisodiy hududlarni eng sodda shaqli – bu erkin bojxona hududlaridir. Bu turdag'i ochiq iqtisodiy hududlar mohiyatiga, tashqil etilish tarixiga ko'ra ochiq iqtisodiy hududlarni birinchi avlodiga mansubdir. Ular 17-18 asrlardan ben mavjuddirlar. Bunday hududlarni tashqil etilishi davlatlar o'rtaсидаги savdo-sotiqni rivojlantirshga hizmat qilganlar. Buyyuk Temur davlatda ham «Buyyuk ipak yo'lida» shunday hududlar tashqil etilgan. Bu guruhga kiruvchi «erkinbojxona hududlari eksportiga mo'ljallangan tovarlarni saqlash, ularga bir muncha ishlov berish, hamda tovarlarni sotuvga tayyorlash maqsadida tashqil etilganlar. Erkin portlar esa davlatlarni dengiz portlarida, bu erga chet davlatlarni savdo kemalarini jalb etish, bu erda ularga, kemalardagi tovarlarga bir muncha ishlov berish maqsadida tashqil etilganlar. Bu

guruhga kiruvchi erkin savdo hududlari esa davlatlar o'rtasidagi savdo-sotiq jarayonlarini yanada rivojlantirish, iqtisodiyotlarini rivojlantirishga kumaklashish maqsadida tashqil etilganlar. Misol uchun MDX davlatlaridan untasi, ya'ni Rossiya, Ueraina, Belorus Respublikasi, Gro'ziya, Moldava, Ozarbayjo hamda Markaziy Osiyo respublikalari o'rtasida imzolangan shartnomaga asosan erkin savdo hududi tashqil etilgan. Bu hudud shartnomani imzolagan davlatlar hududlaridan iboratdir. Shartnomaga asosan bu hududlarda ishlab chiqarilgan tovarlardan ularni import qilinayotgan bojxona bojlari undirilmaydi. Ochiq savdo hududlarini, ochiq iqtisodiy hududlarni birinchi avlodi deyilishiga sabab bu hududlarda davlatlararo savdo-sotiqni rivojlanishi bu hududlarda savdo-sotiqni rivojlanishiga hizmat qiluvchi tarmoqlarni ishlab chiqarishni rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Ochiq savdo hududlarda ochiq iqtisodiy hududlarni dunyoda keng tarkalgan turidir. Bunday hududlar AQSh da ko'p tarkalgan. 1934 yilda AQSh da tashqi savdo zonalari to'grisida qonunni qabul qilinishi bunday zonalarni tashqil etish jarayonlarini tezlatib ubordi. Qonunga asosan davlat hududida faoliyat ko'rsataetgan erkin savdo zonalari umumie ahamiyatga ega bo'lgan va mahsus(subzonalarga) bo'linadi.

Umumiy ahamiyatga ega bo'lgan zonalar katta bo'limgan joyni egallab (bir necha kv km), ularda olib kirlgan tovarlarni joylashtirish, ya'ni sortirovka, markirovka, qaytadan ishlov berish amlga oshiriladi.

Subzonalar esa alohida katta kompaniyalar uchun tashqil etilib ularda eksportga mo'ljallangan va importni urnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqariladi. Subzonalar erkin savdo zonalari bilan importni urnini bosadigan iovarlar ishlab chiqaruvchi zonalarni kombinasiyasi natijasida hosil bo'lgan. 90- yillarni o'rtalariga kelib AQSh da 500 yaqin erkin savdo zonalari mavjud edi.

Savdo ombor hududlari tarkibida mutahasislar tashqi savdo hududlari (AQSh), erkin bojxona hududlari (Bengriya, Ugoslaviya), erkin bojsiz hududlarni ajratadilar(Bolgariya) va erkin portlar(Germaniya). Savdo ombori hududlari nafaqat tovarlarni qabul qilish, saqlash (odatda 1 yilgacha muddatga) keyinyaalik ularni sotib olish va sotish uchun qayta ishslash uchun tashqil etiladilar., balki shuningdek tovarlarni iste'mol hususiyatlarini yahshilovchi jarayonlarni amalga oshirish uchun ham tashqil etiladilar.

Ularni teritoriyalaridan korxonalar bojxona bojlarini shuningdek tovarlarni iste'mol hususiyatlarini yahshilanishi natijasida qo'shilgan qiymat soligini undirilmagan holda keng ravishda kurgazma faoliyati

bilan shug'ullanishlari , savdo-sotiqni tashqil etishlari, bank va chugo'rtta hizmatlarini tklif etishlari mumkin.

Bunday hududlar qatoriga bojsiz dyukonlar d'uti-frila ham kiradi. Bular katta aeroportlar va dengiz portlarida tashqil etilib ularda bojsiz tovarlar chakana savdosi malga oshiriladi. Shuning uchun ular ko'p hollarda konsignasion omborlar, honalarni kurgazmalar o'tkazish uchun ijaraga berish orqali qo'shimcha valyuta tushumlarini ta'minlaydiganlar.

Barcha savdo ombor hududlari asosan dare va dengiz portlprida, temir yo'l o'zellarida, aeroportlarda, ya'ni tovarlar va yo'lovchilarni tranziti joylarida. Ular hamma vaqt mamlakat iqtisodiy hududidan bojxona va davlat chegarasi orqali ajratilgandir.

Erkin portlar – savdo ombor hududini turi sifatida aytib utilgan funksiyalardan tashqari ortish, tushirish, qaytadan ortish amallarini bajaradilar.

Savdo hududlari taraqqiyoti jarayonida tranzit savdosini engillashtirish vazifalari qatoriga qo'shimcha ichki bozorga mo'ljallangan tovarlarni ishlab chiqarish vazifalarini amalga oshiradilar.

Sanoat-ishlab chiqarish hududlari ochiq iqtisodiy hududlarni ikkinchi avlodiga mansub bo'lib, ular ochiq savdo zonalarini evolusiyasi natijasida hosil bo'lganlar. Sanoat ishlab chiqarish zonalari mahsus bojxona rejimlari o'rnatilgan territoriyalarda tashqil etiladi va ularda eksport uchun importni urnini bosadigan tovarlar ishlab chiqariladi. Bu zona chub'ektlari Soliq va moliya imtiyozlari beriladi. Xozirgi kunda dunyoda ayniqla rivojlanayotgan davlatlarda eksport ishlab chiqarish zonalari keng tarkalgandir. Bunday zonalarni hozirgi zamonmodeli 1959 yil Irlandiyani Shenon aeroportida tashqil etilgan ochiq iqtisodiy zonadan boshlanadi. Bunday zonalarni tashqil qilishdan ayniqla chngi industrial davlatlar ko'p samara kurdilar.

Eksport ishlab sikarish zonalarini tashqil etish rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyoti bilan bog'likdir. Chunki 60- yillarni o'rtalarida bu bu davlatlarda eksportni qo'llab quvvatlash, yangi ish joylarini tashqil etish msalalari paydo bo'ldi.

Tehnika – tadbik etish iqtisodiy hududlar ochiq iqtisodiy hududlarni uchinchi avlodiga mansub bo'lib, ular ko'pincha o'z-o'zidan yoki davlat tomonidan yirik ilmiy markazlar atrofida tashqil etiladilar. Ularda milliy va horijiy ilmiy tekshirish, loyihalash institutlari, ilmiy ishlab chiqarish firmalari yigiladi va ularni hammasi yagona Soliq va moliya imtiyozlari tizimidan foydalanadilar.

Bunday hududlarni tashqil etilishi ishlab sikerish jarayonlarini yangi zamonaviy tehnologiyalar asosida yanada takomillashtirish, ishlab chiqarishni samaradorligini oshirish, ishlab chiqarilayotgan tovarlarni dunyo bozorlaridagi raqobatdoshlik darajasini oshirish imkonini beradi.

Ishlab chiqarishni rivojlanishi va unga hizmat qiluvchi ilmiy tehnika markazlarini tashqil etilishi bu korxona va tashqilotlarga bank, sug'o'rtta va boshqa turdag'i hizmatlar ko'rsatuvchi tuzilmalarni rivojlantirishni taqazo qiladi. Shuning natijasida ochiq iqtisodiy hududlarni navbatdagi avlodi – servis hududlari tashqil etilgan. Servis hududlarga offshor zonalari va Soliq gavnalari ularda yaratilgan moliya – valyuta fiskal rejimlari bo'yicha yaratilgan imtiyozlar bilan o'ziga tadbirkorni jalg' etadi.

Offshor hududida ro'yhatdan o'tgan Soliq va boshqa imtiyozlarga da'vogar firmalarga qo'yiladigan talablardan biri, ularni offshor zona joylashgan davlatni rezidenti bo'lmasligi uni hududida foyda olmaslik. Soliq gavanlarini offshor hududlaridan farqi shundaki uni hududidagi barcha firmalar birday barcha turdag'i yoki ayrim turdag'i faoliyatları uchun Soliq imtiyozlaridan foydalanadilar. Xozirgi kunda dunyoda 300 dan ziyod offshor markazlari mavjuddir. Ularning ichidan 70 ga yaqini Soliq gavanlaridir. Anchadan beri offshor hududlar tashqil topgan davlatlar qatoriga Lihtenshteyn, Panama, Homand orollari, Antil orollari, Gonkong, Liberiya, Irlandiya, Shvesariya davlatlari kiradi.

Offshor hududlarida joylashgan ishlab chiqarish, savdo, bank, sug'o'rtta va boshqa kompaniyalar umuman Soliq to'lashdan ozod etilganlar yoki uncha katta bo'limgan soliqqa tortiladilar. Offshor hududlaridagi imtiyozli rejim na faqat Soliqqa tortilmaslik, undirilayotgan Soliq miqdorini kamligi bilan, balki valyuta bo'yicha chegaralshni yo'qligi foydani erkin ravishda olib chiqib ketish, chet el investorlari uchun bojxona bojlari va yig'imlarini yo'qligi va boshqa turdag'i yengilliklar bilan harakterlanadi.

Ochiq iqtisodiy hududlarni keyingi turi bu kompleks hududlaridir. Bu hududlar mamlakat hududida mavjud bo'lgan umumiy rejimdan farqli o'laroq o'ziga hos imtiyozli rejimlarga ega bo'lgan ma'muriy teritorial bo'linmalarga aytildi. Bular qatoriga Xitoyda tashkil etilgan 5 ta mahsus iqtisodiy hududlar, Braziliyadagi «Manaus», Argentinadagi «Olovli er», hamda rivojlangan davlatlar tomonidan depressiya hududlarida tashkil etiteg'an komples zonalari kiradi.

90- yillardan boshlab davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlanishi, ularni bir – biriga bog'liklik darajasini oshishi,

davlatlarda mavjud u yoki bu turdagи resurslardan unumli foydalanish maqsadida xalqaro iqtisodiy hududlar tashkil etila boshlandi. Xozirgi kunda Tumangan (Tumansyan) xalqaro iqtisodiy hududni tashkil etish bo'yicha loyiha tayyorlangan. Bu ochiq iqtisodiy hududni Rossiya, Xitoy va Koreya halq demokratik respublikalarini chegaralarini to'tashgan joyida tashkil etish mo'ljallangan. Loyiha 20 yilga mo'ljallangan bo'lib, uni qiymati birinchi bosqichda 90- 110 mlrd dollar miqdorida baholanayapti.

### **Nazorat savollari:**

1. Mamlakatning iqtisodiy havfsizligi nima?
2. Iqtisodiy havfsizlikni ta'minlash omillari.
3. Ochiq iqtisodiy hududlar va ularni mamlakat iqtisodiy rivojidagi o'rni.
4. Ochiq iqtisodiy hududlarni turkumlanishi.
5. Iqtisodiyoti o'tish davrida bo'lgan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni o'rni nimada?
6. Rivojlangan mamlakatlarda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilish tarixi.
7. Offshor hududlar va ularni mamlakat iqtisodiy havfsizligiga ta'siri qanday?
8. O'zbekiston Respublikasi erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etilish tarixi qanday?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. Б.Г. Свинухов – Таможенно-тарифное регулирование БЭД, М., Экономист, 2004 г
3. Э.Ф. Авдокушин – Международное экономические отношения. М: ИБЦ «Маркетинг», 1997 г.
- 4.Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- М, 2001г.
5. И.П. Фоминский – Международное экономическое отношение, учебник, М., Экономист, 2004 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» gi Qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001 y

2. Х.А. Миклашёвская, А.Б. Хлопов – Международная экономика, Ш-изд., М., Дело-Сервис, 2004 г.

### **3.2. Tashqi savdo bojxona statistikasi va uning asosiy vazifasi.**

Bojxona statistikasi tashqi savdoda, shuningdek bojxona to’lovlarini hisobga olish va tahlil qilish, kontrabandaga qarshi kurash va bojxona qoidalari buzilishi, nosavdo oboroti va hokazolar bilan bog’liq mahsus sohalarda o’z berayotgan hodisalarda o’z berayotgan hodisalar va jarayonlarning miqdor jihatini o’rganadi. Davlat statistikasidan farq qilgan holda bojxona statistikasida barcha dastlabki ahborot eng quyi darajadan eng uqori darajagacha beriladi, biroq unda ko’rsatkichlar jami ancha kam. Quyidagilar bojxona statistikasining **asosiy vazifasi** hisoblanadi:

- Mamlakat eksport va importi to’g’risidagi ma’lumotlarning to’liq va ishonchli hisobga olinishini ta’minlash;
- Tashqi savdo rivojlanishi tamoyili, eksport va import tuzilmasini, tovar oqimlari harakatini makroiqtisodiy vaziyat tahlili bilan birgalikda tahlil qilish;
- Davlat hokimiyyati oliy organlari tomonidan bojxona siyosati hamda tashqi savdoni davlat tomonidan boshqarish sohasida qarorlar qabul qilinishida ularni ahborot bilan ta’minlash;
- Respublika bozori kon’unkturasi tahlili;
- Davlat budgetiga boj to’lvlari tushumi ustidan nazarat qilish;
- Bojxona organlari vakolatlari doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;
- Savdo va to’lov balanslarining ayrim moddalarini tuzish uchun ma’lumotlarni yig’ish va ularni qayta ishlash;
- MDX mamlakatlari o’rtasida tashqi savdo bojxona statistikasi bo’yicha ahborotni o’zoqroq ayirboshlashni ta’mirlash;
- Davlat bojxona siyosatidan kelib chiquvchi boshlqa vazifalar.

Bojxona statistikasi tashqi savdo bojxona statistikasiga va mahsus bojxona statistikasiga bo’linadi.

Mamlakatning tashqi savdo oboroti, ya’ni tovarlar eksporti va importi ularning miqdor va qiymat ifodasida, shuningdek eksport va importning jo’g’rofiy yo’nalishi («tovart - mamlakat», «mamlakat - tovar») *tashqi savdo bojxona statistikasining* kuzatishi va o’rganishi mavzusi hisoblanadi.

Tashqi savdo bojxona statistikasida **eksport** deganda olib kirilishi majburiy bo’lmagan mamlakatda ishlab chiqarilgan, etishtirilgan yoki

qazib olingan tovarlarning mamlakatdan olib chiqilishi tushuniladi. Bunda mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar sirasiga, shuningdek mamlakatga olib kelinadigan hamda ularning asosiy sifat va tehnik tavsiyalarini o'zgartiruvchi ishlov beriladigan chet elda ishlab chiqarilgan tovarlar ham tegishli bo'ladi. Tovarlar eksporti moddiy boyliklarning milliy zahiralarini kamaytiradi (eksport tovarlarni sotishdan olingan tushum – to'lov balansining kirim qismi).

**Import** deganda mamlakatga tovarlar olib kirilishi tushuniladi. Importga mamlakatning ichida ist'emol qilishga, qayta eksport qilishga mo'ljallangan tovarlar va mamlakat tashkilotlari uchun chet elda harid qilingan tovarlar kiritiladi. Tovarlar importi moddiy boyliklarning milliy zahiralarini ko'paytiradi.

Mamlakatning bojaxona chegarasi orqali olib o'tishda tovarlarga deklarasiya to'ldirishda O'zbekiston Respublikasi da foydalaniladigan Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TH) da keltirilgan eksport va import tovarlar tashqi savdo bojaxona statistikasida kuzatishning bevosita ob'ektlari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Bojaxona Kodeksining 7 – moddasiga muvofiq tovarlar deganda har qanday ko'char mol – mulk, shu jumladan valyuta va valyuta boyliklari, elektr, issiqlik energiyalari va energiyaning boshqa turlari, xalqaro yyuk tashishlarda foydalaniladigan transport vositalaridan boshqa transport vositalari, intellektual mulk ob'ektlari, oldi – sotti va ayirboshlash ob'ektlari hisoblanuvchi bajarilgan ishlarning, ko'rsatilgan hizmatlarning natijalari tushuniladi. Bundan tashqari, tashqi savdo bojaxona statistikasida quyidagilarning hisobi yuritiladi:

- To'lov vositasi hisoblanmaydigan tanga bo'limgan oltin va kumush;
- Xadya, tyokin yordam sifatida badallar hisobiga BMT tehnik ko'maklashish jamg'armasiga yetkazib beriladigan tovarlar;
- Xarbiy maqsaddagi tovarlar;
- Elektr energiyasi, suv, tovarlarni (neft, gaz) quvurlar orqali yetkazib berish;
- Xorijiy kemalar, samoletlar va yyuk avtomobilari uchun sotilgan hamda tegishlicha mamlakat kemalari, samoletlari va yyuk avtomobilari uchun chet elda sotib olingan bunker yoqilg'i, yonilg'i, oziq - ovqat va materiallar;

- Bir yilga va undan ko'p vaqtga ijaraga olingan tovarlar (yetkazib berish vaqtida ijaraga olingan tovarning to'liq qiymati bo'yicha hisobga olinadi);
  - Mamlakatga olib kelingan holda qayta eksport qilinadigan tovarlar;
  - qo'shma korxonalarining ustav jamg'armasi hisobiga olib kirilgan (olib chiqilgan) tovarlar;
  - tovarlar olib kirilishi va olib chiqilishi vaqtidan qat'iy nazar mamlakat hududida va chet elda o'tkaziladigan yarmakalar, ko'rgazmalar va boshqalarda sotilgan (sotib olingan) tovarlar;
  - olib kirilishi va olib chiqilishi vaqtidan qat'iy nazar konsignatorlar orqali sotilgan (sotib olingan) tovarlar;
  - olib chiqilgan (olib kirilgan) kino, tele, video va audio mahsulotlar, lisenziyalar haqini to'lash ham shu jumlaga kiradi;
  - muomalada bo'lмаган qimmatli qog'ozlar, banknotlar va tangalar (ularning tijorat qiymati bo'yicha hisobga olinadi);
  - ishlov berish maqsadida olib kirilgan (olib chiqilgan) tovarlar;
  - chet eldag'i tashkilotlar iste'moli uchun eksport – import operasiyalarini amalga oshiruvchi boshqa mamlakatlar tashkilotlari kontraktlari bo'yicha sotib olingan tovarlar va tegishlicha mamlakatda horijiy tashkilotlar iste'moli uchun kontraktlar bo'yicha sotilgan tovarlar;
  - shaxsiy tusddagi pochta jo'natmalarini baholash qiymati bo'yicha (jo'natmada ko'rsatilgan qiymat);
  - musodara qilingan import tovarlar;
  - muayyan muddat tamom bo'lgach bir hil nomdagi tovarlarni qaytarish shartlarida olib chiqilgan (olib kirilgan) tovarlar (tovar ssudasi).

Davlat chegarasi orqali tovarlar olib o'tilishi bilan bog'liq bir qancha operasiyalar tashqi savdo hajmiga kiritilmaydi va binobarin, bojxona statistikasida hisobga olinmaydi. Bunday tovarlarga quyidagilar tegishlidir:

- monetar oltin, ya'ni milliy va xalqaro banklar almashtiradigan oltin;
- muomaladagi qimmatli qog'ozlar, banknotlar va tangalar;
- mamlakat hududi orqali o'tuvchi tranzit horijiy tovarlar;
- mamlakatga olib kirilmaydigan qayta eksport qilinadigan tovarlar;

- vaqtincha olib chiqiladigan va tegishlicha olib turiladigan tovarlar (jumladan, ko'rgazmalar, yarmarkalar va konsignasiya uchun mo'ljallangan tovarlarning sotilmaydigan qismi), poygalar, ugurishlar va shunga o'hshashlarda qatnashishi uchun vaqtincha olib chiqiladigan va olib kiriladigan hayvonlar; prokat uchun chet elga olib chiqiladigan hamda qaytib olib kiriladigan vatan kino va telefilmlari; savdo namunalari sifatida olib chiqiladigan va olib kiriladigan tovarlar;
- chet elga vaqtincha olib chiqiladigan va olib kiriladigan qaytariladigan idish. Konteynerlar va transport vositalari hamda ularning qaytarilishi;
- yo'lovchilarining shaxsiy bagaji, chet eldag'i elchihonalar, diplomatik missiyalar, vakolathonalar, savdo vakolathonalari va boshqa tashkilotlar uchun mo'ljallangan ashyolar (hizmat va shaxsiy) (chet elda mamlakat bilan uning tashkilotlari o'rtasida tovarlar harakati tovarlarning mamlakat ichidagi harakati deb tushuniladi);
- bir yildan kam muddatga ijaraga olingan tovarlar;
- to'zatish uchun jo'natiladigan hamda to'zatishdan keyin qaytariladigan transport vositalari va asbob – uskunalar;
- eksport uchun tayyorlagan tovarlar, biroqmamlakat tashkilotlariga ulardagi mavjud o'z valyuta mablag'lari hisobiga sotilgan tovarlar;
- mamlakat hududidagi horijiy haridorlarga (elchihonalar, vakolathonalar, savdo vakolathonalari) horijiy valyutaga ulgurji va chakana savdo orqali sotilgan tovarlar;
- ijaraga olingan ko'chmas mulk (binolar, yer va boshqalar);
- mamlakat ichida qo'shma korxonalar va tashkilotlar tomonidan sotiladigan (sotib olinadigan) tovarlar;
- davlat chegarasi bilan cheklangan hudud doirasida erkin zonada (erkin zonadan) olib o'tiladigan tovarlar.

Tashqi savdo statistikasi ahborotida eksport va import miqdori va qiymati, tashqi avdo balanslari saldosi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'ladi hamda u yoki bu tovarning ishlab chiqarilgan mamlakati va yetkazib beriladigan mamlakati to'g'risida, yetkazib berish shartlari, narxlar va boshqalar haqida tasavvur beradi.

Pul ifodasida hisoblab chiqilgan eksport va import asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblanadi. Uning negizida tashqi savdo samaradorligi aniqlanadi, tashqi savdo balansi saldosi, mamlakat to'lov balansida tashqi savdoning o'rni va ahamiyati belgilanadi. Tashqi savdoda

muomalada bo'luvchi tovarlar hisobi nafaqat qiymat, balki miqdor ko'rsatkichlari orqali amalga oshiriladi, bu aniq bitishuv narxlari yoki o'rtacha statistik narxlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Tashqi savdo bojxona statistikasini shakllantirish uchun quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

Xisobot davri;

Tovar oqimi yo'nalishi (olib kirish yoki olib chiqish);

Olib kirishda tovar ishlab chiqarilgan mamlakat; olib chiqishda tovar yetkazib beriladigan mamlakat;

Statistika qiymati;

Tovar kodi va nomi;

Netto og'irlik;

O'lchashning qo'shimcha birliklari kodi va nomi;

O'lchashning qo'shimcha birliklari bo'yicha miqdor;

Bitishuv hususiyati;

Bojxona rejimi turi;

Tovar jo'natuvchi (oluvchi)ning toifasi;

Mintaqa.

Keltirilgan ko'rsatkichlar faqat tashqi savdo statistikasi bo'yicha vaqtiga – vaqtiga bilan materiallarni e'lon qilish vatayyorlash imkonini beribgina qolmay, balki har hil tahliliy tadqiqotlar tayyorlash, shu jumladan, mintaqalar bo'yicha tashqi savdo rivojlanishi to'g'risidagi ma'lumotlarni olish, shuningdek tashqi iqtisodiy aloqalar qatnashchilarini toifalari bo'yicha eksport – import operasiyalar tahlilini o'tkazish imkonini beradi.

Muayyan davrda eksport va importda o'z berayotgan o'zgarishlarni to'liq tahlil qilish uchun eksport va import fizik hajmi indeksi ko'rsatkichlaridan (tovarlar narxlari o'zgarishidan qat'iy nazar eksport va import hajmlari dinamikasini aks ettiradi) va eksport import o'rtacha narxlari indeksi (narxlari o'zgarishining tovarning umumiyligi qiymatiga ta'sirini aks ettiradi) ko'rsatkichlaridan foydalanish nazarda tutiladi.

Eksport – import operasiyalarining qiymat hajmi, tashqi savdo hamkorli mamlakati valyutasida ifodalangan kliring operasiyalari ham shu jumлага kiradi, O'zbekiston Respublikasi Markazi banki ma'lumotlari bo'yicha valyuta kurslari asosida AQSh dollariga qayta hisoblanadi.

Agar kontrakt horijiy valyutada imzolangan bo'lsa, u holda ushbu valyuta AQSh dollariga va tegishlicha so'mga qayta hisoblanadi, agar

kontrakt so'mda imzolangan bo'lsa, so'm AQSh dollariga qayta hisoblanadi. Xorijiy valyutani so'mga va AQSh dollariga qayta hisoblash O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha amalga oshiriladi.

Tyokin yordam tartibidagi eksport – import operasiyalarini, tovar ayirboshlash (barter) operasiyalarini baholash tegishli mamlakatlarning bozoridagi tovarlar narxlari yoki tijorat asosidagi eksport – import operasiyalar amalga oshiriladigan bir nomdagi tovarlar narxlari bo'yicha amalga oshirladi. Agar baholash AQSh dollarida emas, balki boshqa valyutalarda bajarilgan bo'lsa, u holda ushbu valyutalar ham horijiy valyutalar kurslari asosida AQSh dollariga qayta hisoblanadi. Bundan quyidagi algoritm bo'yicha tovarning statistika qiymatini hisoblab chiqish mumkin bo'ladi. bu holda statistika qiymatini chiqarish formulasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi:

Tovarlar eksporti (importi)ning jug'rofiy taqsimlanishi mamlakatlar bo'yicha tovarlar kelib chiqishi va iste'mol qilinishi belgilariga muvofiq bajariladi:

- eksport tovarlar boradigan (iste'mol qilinadigan) mamlakat bo'yicha aks ettiriladi;
- import tovar kelib chiqqan (ishlab chiqarilgan) mamlakat bo'yicha aks ettiriladi.

*Tovar boradigan (iste'mol qilinadigan) mamlakat* deganda tovar iste'mol qilish, foydalanish yoki keyinchalik ishlov berish uchun mo'ljallangan yyuklash paytida pirovard mamlakat sifatida ma'lum bo'lgan mamlakat tushuniladi.

*Tovarning kelib chiqishi (ishlab chiqarilgan) mamlakat* sifatida tovarlar ishlab chiqarilgan yoki ishlov berilgan mamlakat tushuniladi.

*Savdo qiluvchi mamlakat* deganda, qaysi davlatga tegishliligidan qat'iy nazar tovarni sotgan yoki sotib olgan savdo qiluvchi shaxs hududida turgan mamlakatni tushunish zarur

Butlovchi asbob – uskunalar yetkazib berilishini hisobga olish kodlar ko'rsatilgan holda bojxona yyuk deklarasiyasi bo'yicha alohida asbob – uskunalar hiobiga o'hshash yuritiladi.

Suv, temiryo'l, avtomobil, havoda tashishlar bo'yicha eksport va import hisobi quyidagicha yuritiladi:

- eksport bo'yicha – chegara bojxonasiagi bojxona yuk deklarasiyasi shtempelida qo'yilgan chegara orqali chiqarishga ruhsatnomasi sanasi bo'yicha;

- import bo'yicha – ichki iste'mol uchun yyukni chiqarishga bojxona yuk deklarasiyasidagi bojxona ruhsatnomasi sanasi bo'yicha;
- quvurlar orqali yetkazib beriladigan tovarlar, shuningdek elektr energiyasi eksporti yoki importi sanasi sifatida quvur yoki elektr quvuri chegara yoki boshqa nazorat taqsimlash punktlarida tuzilgan qabul qilish – topshirish dalolatnomasidagi sana qabul qilinadi;
- tovarlarni pochta orqali jo'natishda – pochta kvitansiyasi sanasi bo'yicha.

Bojxona statistikasi, tashqi savdo statistikasidan tashqari, shuningdek *mahsus bojxona statistikasini* ham o'z ichiga oladi. U quyidagi bo'limlardan iboratdir:

1) *bojxona yuk deklarasiyalari bazasi* tashqi savdo bojxona statistikasi bilan hisobga olinadigan bojxona rejimi bo'yicha tovarlar olib chiqilishi va olib kiritilishini tavsiflaydi;

2) *bojxona to'lovlari* TIF daromadlarini shakllantirishda bojxona to'lovlari miqdorini tavsiflaydi. Bunda hisob bojxona to'lovlari turlari bo'yicha yuritiladi: import boj, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, yig'imlarning boshqa turlari

3) miqdor va qiymat ifodasida eksport tovarlari hisobi bo'yicha *valyuta nazorati*, valyuta tushumi muddatlari va summalarini, import tovarlar hisobini har bir kontrakt bo'yicha naqd horijiy valyutani hisobga olgan holda;

4) *musodara qilingan tovarlar* tashqi savdo oborotida, shuningdek jismoniy shaxslar tomonidan takroran bojxona qoidalari buzilishi va kontrabanda hollari, musodara qilingan ashyolar qiymatini, undirilgan jarimalar summasini tavsiflaydi;

5) *xalqaro pochta jo'natmalar* O'zbekistondan chiqarilgan va O'zbekistonga qo'yilgan jo'natmalar va boshqa pochta jo'natmalar hisobini ifodalaydi;

6) *xalqaro tashishlar* bojxona chegarasidan o'tuvchi transport vositalari hisobini aks ettiradi;

7) *yo'lovchilar oboroti* O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali o'tgan jismoniy shaxslar hisobini aks ettiradi.

Bojxona statistikasidan tashqari, yuqorida aytilganidek, tashqi iqtisodiy aloqlar statistikasi o'z ichiga hizmatlar bilan savdo qilish statistikasini ham oladi.

Xizmatlar - anglanadigan ashyolardan farq qiluvchi «mahsulotlar»dir. Ular transport, kommunikasion, qurilish, sug'o'rta, moliya, komput er va ahborot hizmatlarini, reklama, buhgalteriya hisobi,

boshqaruv maslahatlarini va boshqalarni qamrab oladi. Bitishuv tuzishda tomonlar o'zaro kelishgan bozor narxi hizmatlar qiymatini belgilash uchun asos hisoblanadi. Tashqi savdoda hizmatlar hisobi bilan davlat statistika organlari shug'ullanadi.

Xalqaro amaliyotda oldi – sotti bitishuvlari tovar yetkazib berishning har hil tijorat shartlarida sodir etiladi. Xalqaro savdo palatasi tomonidan belgilangan savdo atamalarini talqin etishning xalqaro qoidalari («Inkoterms – 90») asosida tovarni bir mamlakatdan boshqasiga yetkazib berish bo'yicha sotuvchi va haridor o'rtasida paydo bo'lувчи ко'плаб holatlar ko'rib chiqiladigan iqtisodiy adabiyot yetarli miqdorda mavjud. Bunda, tovarlarning statistika qiymati hisob – kitobida foydalaniladigan yagona bazis tovarlarni yetkazib berishning tijorat shartlariga bog'liq narxlarni yagona qayta hisoblab chiqish uslubiyati bilan bog'liq masalalar qarab chiqilmaydi. Yagona bazis qayta hisoblab chiqish sotuvchi tomonidan haridorga taqdim etilgan hisob varaq - faktura (invoys)ga u kontraktda qayd etilgan tovarni yetkazib berishning tijorat shartlariga muvofiq ko'radian harajatlarinigina kiritadi. Ushbu harajatlar asosida valyutada ifodalangan tovarlarning deklarasiyalanadigan turkumining haqiqiy qiymati shakllanadi.

Tashqi iqtisodiy bitishuvlarda tovarlar yetkazib berishning har hil tijorat shartlarini hamda tovar narxi shakllanishining shu bilan bog'liq turli prinsiplarini hisobga olgan holda tovar aylanishi bo'yicha yig'ma ma'lumotlar olish uchun tovarlar qiymati bo'yicha ma'lumotlarni shunchaqi jamlash noto'g'ri bo'lgan bo'lur edi, chunki ushbu qiymat baholari turlicha bo'lib, o'ziga narx tuzilmasini shakllantirishning har hil jihatlarini kiritadi. Bir hil tovar harid qilish joyida bir hil narxga (masalan, sotuvchining omboridan harid qilishda), jo'natish portida boshqa narxga (balandroq), kelish portida uchinchi bir narxga (yanada balandroq) ega bo'ladi, chunki tovar ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga tomon borishi davomida uning qiymati yetkazib berish, sug'o'rtta va boshqa ustama harajatlar qiymati hisobiga oshib boradi.

Tashqi savdo oborotining qiymat baholanishida qiyosiy ma'lumotlarni olish uchun tovar qiymatini yagona bazisga keltirish zarur:

- eksport qilinadigan tovarlarni – eksport qiluvchi mamlakatning FKB (franko – kema – borti) yoki FRCh (franko - chegara) shartlari negizida (yetkazib berish joyi);

- import qilinadigan tovarlarni – import qiluvchi mamlakat chegarasi QSF (qiymat, sug'o'rta va fraht) yoki TST (tashish va sug'o'rta yetkazib berish joyigacha to'langan) shartlari negizida.

FKB (bortda erkin) toifasi – sotish shartidir. Unga muvofiq tovar narxiga uning qiymati hamda yetkazib berish va tovarni kema bortiga yuylash harajatlari kiritiladi.

QSF (qiymat, sug'o'rta va fraht) toifasi – tovarni sotish shartidir. Unga muvofiq tovar narxiga uning qiymati hamda tovarni sug'o'rtalash va import qiluvchi mamlakat portigacha yetkazib berish harajatlari kiritiladi.

QSF shartlarida sotilgan tovarlar eksport bo'yicha FKB shartlari bo'yicha hisobga olinadi. Ushbu holda narxlar narxdan tovarni borish joyigacha transportda tashish va sug'o'rta bo'yicha harajatlar chiqarib tashlanishi yo'li bilan FKBda qayta hisoblanadi.

FKB shartlarida sotib olingan tovarlar import bo'yicha QSF shartlariga ko'ra hisobga olinadi. Ushbu holda tovarning qiymati boshqa mamlakat hududi bo'ylab tovarlarni transportda tashish va sug'o'rta bo'yicha harajatlar qo'shilishi yo'li bilan QSF shartlarida qayta hisoblanadi.

Tovarlar yetkazib berishning tijorat shartlarini bir hilda talqin qilish maqsadida Xalqaro savdo palatasi tomonidan «Savdo atamalarini talqin qilishning xalqaro qoidalari» (Inkoterms) ishlab chiqilgan. Inkoterms birinchi marta 1936 yilda tashqi savdoda eng ko'p uchraydigan atamalarni talqin qilishning xalqaro qoidalari jamini belgilash maqsadida ishlab chiqilgan edi. So'ngra 1953, 1967, 1980 yillarda unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Xozirgi vaqtida «Inkoterms» 1990 yilgi tahrirda amal qiladi. «

Inkoterms»ning har bir sharti javobgarlikning barcha turlari haridorga yyuklanishidan boshlabbarcha javobgarlikni sotuvchi tortadigan vaziyatlargacha bo'lган shartlarni o'z ichiga oluvchi sotuvchi va haridor o'rtasidagi tavakkalchiliklar, harajatlar va javobgarlikning alohida taqsimlanishini anglatadi.

Tovarni yetkazib berishni tijorat shartlari, shuningdek bazis shartlar ham deb ataladi, chunki ular tovarni eksport qiluvchi sotuvchidan import qiluvchi haridorga yetkazib berish bilan bog'liq harajatlarni kim ko'tarishiga bog'liq ravishda tovar bitishuvining bazis (asos bo'luvchi) narxini belgilaydi.

Bitishuv narxiga tovarni yetkazib berishning tijorat sharti (shartnoma) bo'yicha o'z majburiyatlariga muvofiq sotuvchi zimmasiga

oladigan hamda ularni hisob varaq - fakturaga kiritadigan harajatlar kiritiladi.

Bojxona ishini yuritishning xalqaro qoidalariga o'tilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi hududida kontraktlarni «Inkoterms - 90» qoidalariga mos keluvchi yetkazib berishning tijorat shartlari o'n uch turi asosida tuzish mumkin. Ushbu tasniflagich shundan iboratki, barcha o'n uch atama harf bilan belgilanishida E, F, C, D lotin harflaridan biri bilan boshlanadi. Ularni umumiy tasnifga ega bo'lgan to'rt guruh bo'yicha tasniflangan.

**EXW (EX WORKS) - «zavoddan» - EXB**

«Zavoddan» degan so'z tovar o'z korxonasida (masalan, zavodda, fabrikada, omborda va hokazolarda) haridor ihtiyyoriga berilgan paytda yetkazib berish bo'yicha sotuvchi o'z majburiyatini bajarganligini anglatadi. Xususan, sotuvchi haridor tomonidan berilgan transport vositasiga tovar yyuklanganligi uchun yoki agar o'zgacha hol qayd etilmagan bo'lsa, eksport boj to'langanligi uchun javob bermaydi. Xaridor tovar sotuvchi korxonasidan yetkazib berish joyigacha yetkazib berish bilan bog'liq bircha harajatlar va tavakkalchiliklarni ko'taradi.

Atamalarning tavsifi	yetkazib berish	Guruuning qisqacha
belgilanishi lotin, rus	ning tijorat shartlari	
1 – GURUX – E GURUXI		

EXW EXB	zavoddan	Jo'natish guruhi. Sotuvchi tovarni bevosita yyuklash joyida sotadi. Eksport qiluvchi mamlakat yyuklash joyidan boshlab haridor tovarni o'z omboriga etkazish bo'yicha barcha harajatlarni ko'taradi. Eksport va import rasmiyatchiliklarini haridor to'laydi.
---------	----------	---

2 – GURUX – F – GURUXI		
FCA FRP	franko - tashuvchi	Eksport qiluvchi chegarasidan boshlab import qiluvchi

chegarasigacha asosiy tashish  
haridor tomonidan to'lanadi.

FAC FAS	Kema borti bo'ylab franko	
FOB FOB	Kema bortida franko	Ushbu guruhda sotuvchi tovarni tashuvchiga haridorning ko'rsatmalariga muvofig berishga majburdir. Tashish shartnomasini tuzish va tashuvchini ko'rsatish haridorning vazifasiga kiradi. Ushbu guruhda eksport rasmiyatchiliklarini sotuvchi to'laydi, FAS shartlaridan tashqari. Import rasmiyatchiliklarini haridor to'laydi.

Quyida F guruhi shartlarining qisqacha tavsifi keltiriladi.

*FCA – «franko tashuvchi» - FRP*

«Franko – tashuvchi» sotuvchi yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bojxona tozalashidan o'tgan tovarni eksport paytida haridor tomonidan tayinlangan tashuvchi ihtiyoriga kelishilgan joyda yoki punktda bergandan keyin bajarishini anglatadi. Agar haridor yetkazib berishning aniq punktini ko'rsatmagan bo'lsa, sotuvchi qayd etilgan tuman doirasidagi joyni tanlashi mumkin, u erda tashuvchi tovarni o'z javobgarligi ostiga oladi. Tashuvchi bilan kontrakt tuzish uchun (ham temiryo'lida, ham havo transportida tashishda) sotuvchining ham ko'maklashishi talab qilingan taqdirda, sotuvchi tavakkal qilib va haridor hisobiga ish ko'rishi mumkin. Ushbu atamadan tashishlarning har qanday turi, shu jumladan aralash tashishlar uchun foydalanimli mumkin. «Tashuvchi» tashish to'g'risidagi kontrakt bo'yicha tovarni temir yo'lida, avtotransportda, havo yoki suv yo'li bilan tashish va bunda yordam berish majburiyatini o'z zimmasiga olgan istalgan yuridik shaxsni anglatadi.

*FAC – «Kema borti bo'ylab erkin» - FAS*

«Kema borti bo'ylab erkin» atamasi tovar sohilda kema borti bo'ylab yoki yuuklashning kelishilgan portida lihterlarda joylashtirilganda yetkazib berish bo'yicha sotuvchi o'z majburiyatlarini bajarganligini anglatadi. Bunda haridor shu paytdan boshlab tovarning

nobud bo'lishi yoki shikastlanishiga doir tavakkalchiliklarni ko'tarishi nazarda to'tiladi. FAS shartlariga ko'ra haridor eksport uchun tovarni bojxona tozalashidan o'tkazishi talab etiladi. Ushbu atamadan, agar haridor eksport paytida bojxona rasmiyatchiliklarini to'g'ridan – to'g'ri yoki bevosita bajara olmasa foydalanish mumkin emas.

#### FOB – «Kema bortida erkin» - FOB

«Kema bortida erkin» atamasi sotuvchi tovar yyuklashning ko'rsatilgan portida kema ihtiyyoriga o'tgan paytda yetkazib berish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarganligini anglatadi. Bu tovar shu paytdan boshlab duch kelishi mumkin bo'lgan nobud bo'lishi yoki shikastlanishi bilan bog'liq barcha harajatlar va tavakkalchiliklarni haridor ko'tarishini anglatadi. FOB shartlari tovarning bojxona tozalashi o'tkazilishi majburiyatini yyuklaydi. Sotuvchi tovarni eksport qilishda bojxona tozashini o'tkazishni talab etiladi.

Atamalarning belgilanishi lotin, rus	Yetkazib berishning tijorat shartlari nomi.	Guruhning qisqacha tavsifi
<b>3- GURUX – S GURUXI</b>		
CFR KAF	Qiymat va fraht	Eksport qiluvchining import qiluvchining asosiy tashish uchun haq to'lanadi
CIF SIF	Qiymat, sug'o'rta va fraht	
CPT PRO	Tashish haqi to'langan (yetkazib beri joyi)	Tovarni yetkazib berish joyigacha olib borish harajatlariga haq to'lash sotuvchining majburiyatlariga kiradi
SIP PSO	Tashish haqi to'langan (yetkazib berish joyi)	Sotuvchi, shuningdek sug'o'rta bo'yicha to'lovlarni ham o'z zimmasiga oladi, agar «sug'o'rta» atamasi yetkazib berishning tijorat sharti nomiga kirma. Eksport rasmiyatchiliklarini sotuvchi, import rasmiyatchiliklarini haridor

C guruhiga kiruvchi yetkazib berishning har bir tijorat shartlarining qisqacha tavsifini keltiramiz.

*CFR - «qiymat va fraht» - KAF*

«Qiymat va fraht» atamasi sotuvchi tovarni haridor mamlakatidagi yetkazib berishning ko'rsatilgan portiga yetkazib berish uchun zarur bo'lган barcha harajatlar va fraht haqini to'lashi zarurligini anglatadi. Tovarni yetkazib berish portida tushirish bo'yicha harajatlarni haridor ko'taradi. U shuningdek, agar mavjud bo'lsa, sug'o'rta polisi haqini ham to'laydi. Eksport rasmiyatchiliklari haqini sotuvchi, import rasmiyatchiliklari haridor to'laydi.

*CIF – «qiymat, sug'o'rta va fraht» - SIF*

Yetkazib berishning mazkur tijorat sharti bo'yicha sotuvchining majburiyatiga haridor mamlakatida joylashgan yetkazib berishning ko'rsatilgan portiga tovarni yetkazib berish kiradi. Sotuvchining majburiyatiga, shuningdek tovarni sug'o'rta qilish ham kiradi. Eksport rasmiyatchiliklari uchun sotuvchi, import rasmiyatchiliklari uchun haridor haq to'laydi.

*CPT – «tashish haqi (yetkazib berish joyigacha)»*

*to 'langan – PRO*

«Tashish haqi (yetkazib berish joyigacha) to'langan» atamasi sotuvchi tovarni haridor mamlakatida joylashgan ko'rsatilgan yetkazib berish joyigacha etkazish uchun javob berishini hamda tovarni haridorning omboriga etkazuvchi tashuvchining ihtiyyoriga berishni anglatadi. Eksport rasmiyatchiliklari uchun sotuvchi haq to'laydi. Import rasmiyatchiliklari uchun, shuningdek, agar sug'o'rta polisi bor bo'lsa, yyuk sug'o'rtalanganligi uchun haridor haq to'laydi.

*CIP – «tashish va sug'o'rta (yetkazib berish joyigacha) to 'langan» - PSO.*

Ushbu tijorat sharti bo'yicha sotuvchining majburiyati haridor mamlakatida joylashgan tegishli yetkazib berish joyigacha tovarni yetkazib berishdan, shuningdek o'z hisobidan yyuk sug'o'rtalanishini ta'minlashdan iboratdir. Eksport rasmiyatchiliklari uchun sotuvchi, import rasmiyatchiliklari uchun haridor haq to'laydi.

Atamalarni g belgilanishi lotin, rus	Yetkazib berishning tijorat shartlari nomi.	Guruuning qisqacha tavsifi
<b>4- GURUX – D GURUXI</b>		
DAF FRG	Chegaragacha yetkazib berish	Sotuvchi tovarni chegaradagi punktga (o'zining, haridorning, uchinchi

		tomonning) punktga yetkazib beradi (ko'rsatilgan)
DEC PPS	Kemadan yetkazib berish	Sotuvchi tovari haridor mamlakatiga yetkazib berish bo'yicha barcha harajatlarni ko'tarishga, shuningdek sug'o'rtta polisini to'lashga majburdir
DEQ PSP	Qirg'oqdan yetkazib berish	
DDU FHO	Boj to'lamasdan yetkazib berish	
DDP FOP	Boj to'lab yetkazib berish	Eksport rasmiyatchiliklari sotuvchi, import rasmiyatchiliklari uchun haridor haq to'laydi, DEK («qirg'oqdan yetkazib berish») va DDP («boj to'lagan holda yetkazib berish») dan tashqari

Quyida D guruhi yetkazib berish shartlarining qisqacha tavsifi keltiriladi.

#### **Nazorat savollari:**

1. Bojaxona statistikasi deganda nimani tushunasiz?
2. Mahsus bojaxona statistikasi nima?
3. Bojaxona statistikasida tovarlarni hisobga olish tartibi?
4. Bojaxona statistikasini olib borishda bojaxona deklorasiyasini ahamiyati
5. FOB shartida tovarlarni yetkazib berish tartibi.
6. Tulov balansi va uni aniqlash tartibi qanday?
7. FAS shartida tovarlarni yetkazib berish tartibi qanday?
8. DDP shartida tovarlarni yetkazib berish tartibi.
9. Xalqaro pochta junatmalarini statistikasi?
10. Bojaxona ishida bojaxona statistikasini urni.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojaxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil

2. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 у.
4. Эршов А.Д. Международное таможенное отношения: учеб. пособ. IBESEP, 2000 г.
5. Хазаренко Б.М., Хазаренко К.С. Таможенное обслуживание внешнеэкономической деятельности– М.: Экзамен, 2001 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Б.Г. Драганова Осново таможенного дела. М., Экономика, 1998 г.
2. Г.В. Арутурян. «Правовое регулирование таможенных платежей»учеб.пособие, М., Юриспруденция, 2000 г.
3. И.Б. Малкова – Мировая экономика, В вопросах и ответах. М., Проспект, 2004 г.
4. Таможенное дело, Учебник, 2004г. [www.professiya.ru/textbook - condetailhtml?13/12-6](http://www.professiya.ru/textbook - condetailhtml?13/12-6) K.
5. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi vebssayti
6. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi vebssayti

### **3.3. Mintaqalararo savdo iqtisodiy munosabatlar va O'zbekiston Respublikasini iqtisodiy munosabatlarni samaradorligi.**

Iqtisodiy hamkorlikka intilayotgan dunyo hamjamiyatidagi mamlakatlarning boshlang'ich shart-sharoitlari turli darajada bo'lishi bunga asosdir. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, bu borada O'zbekiston ham ochiq Iqtisodiyot tarafdori sifatida, jahon ho'jaligiga integrasiyalashuvida muayyan siyosatga egadir.

O'zbekiston EI kabi uushma bilan bevosita aloqalarni rivojlantirish orqali bir vaqtning o'zida a'zo mamlakatlarining 375 mln. kishilik yirik bozoriga keng yo'l ochilishi tabiiy va O'zbekiston bunday bozorga o'z mahsulotlari bilan kirishda birinchi navbatda manfaatdor bo'lishi kerak.

Yevropa ittifoqini va u orqali bizning mamlakatimiz uchun butun Garbni, yuksak tehnologiyalar va investisiyalar manbai, hozirgi zamon demokratiyasi va inson huquqlari ramzi sifatida ko'rish mumkin. Bularning barchasi hozirda ko'pgina ko'rsatkichlar bo'yicha barqaror rivojlanayotgan va buyyuk davlat bo'lish maqsadida yangilanish va taraqqiyotning o'zining strategik vazifasi qilib olgan mamlakatimiz uchun zarurdir.

Asosiy natija va hulosalar.

Kelib chiqish tabiatni, tarkibi amal qilishiga ko'ra Yevropa Ittifoqi boshqa xalqaro tashkilotlardan farq qiladi. Uning supranasional institutlari huquqiy o'zligi a'zo davlatlarnikidan farq qilgan holda siyosat yuritishga va qonunchilik qulay tarmoqni ta'minlaydi. Xamjamiyat, Yevropada juda katta iqtisodiy talofatni keltirgan va kit'ani ikki super hokimiyatlar tomonidan boshqarilgan bir-biriga qarshi bloklarning ustivorligi holatda qoldirgan, ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda shakllandi.

Yevropada o'z bergen va hozirda ham o'zining yangi kirralari bilan davom etayotgan integrasiya jarayonini tahlil kili shorqali quyidagi hulosalarni ta'kidlash maqsadga muvofiq.

1. Integrasiyon tajriba nafaqat ikki va undan ortiq davlatlar o'rta sidagi bojxona tariflari, Soliq imtiyozlari va huquqiy aktlarning uyg'unlashuvini, balki mamlakatlar orasida kapital, ishlab chiqarish vositalari va hizmatlarning erkin olib o'tishiga olib keluvchi kerak bo'lsa, ta'minlovchi o'zaro manfaatli mexanizmlarning amalgaga oshirilishini o'z ichiga oladi. a) ya'ni, bu bilan biz aytmokchimizki, agar davlatlar o'zaro iqtisodiy munosabatlarni ikki tomonlama sado kelishuvi asosida rivojlantirsa, bu hali integrasiyani anglatmaydi. v) u biror bir davlat o'z hududining bir qismini aytaylik elektrik – energiya bilan ta'minlash maqsadida boshqa bir aynan shu mahsulotni ishlab chiqarishda ihtisoslashgan mamlakatning energetika sohasiga o'z investisiyalarni yo'naltirilgan va buning oqibatida yetarli ijobjiy natijaga erishgan tarzdagina vujudga keladi.

2. Pirovard maqsaddga erishish yo'lida ishlab chiqarilgan qoidalar integrasiyon jarayon qatnashchilarining barchasi tomonidan birdek qabul qilinadi.

3. Xar bir davlat tomonidan o'z oldiga qo'yilgan iqtisodiy manfaatlariga erishish uchun bunday harakteriga hamkorlik jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy va siyosiy sohada o'zaro qarama – qarshiliklarga barham berishga to'g'ri keladi.

4. Integrasiya ihtisoslashuvi o'zaro tuldiruvchidik hususiyatiga ega bo'lishi kerak.

Integrasiyon jarayon tarkibida eng asosiy shu hususiyatlar kuzatilgan taqdirdagina Iqtisodiyotlarning haqiqiy yaqinlashuvi haqida so'z yuritsa bo'ladi.

Integrasiyon jarayonni tahlil qilishda, barcha hususiyatlarni umumlashtirilgan holda, quyidagi (Sxema 1)ni keltirish mumkin. Unga

ko'ra Yevropa integrasiyasi avval o'zaki integrasiyani amalga oshirish orqali keyinchalik ushbu jarayonni chuqurlashtirishga erishdi. Bu orqali turli hil iqtisodiy yondashuvga ega bo'lган mamlakatlarning asosiy maqsadlari, savdodan, raqobatning hususiyatlari va keng qamrovli Iqtisodiyotdan iloji boricha samarali foydalanish evaziga foyda ko'rish. Sxematik tarzda bu quyidagicha kurinishga ega.

Quyidagi sxemadan shuni ko'rish mumkinki, dastlabki bosqichda o'zaro iqtisodiy munosabat ma'lum munosabat ma'lum mahsulot bozoriga asoslangan tarzda, ularni ochiq raqobat sharoitida ishlashini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Bu erda oddiydan murakkabga tomon harakat yuz beradi. Iqtisodiy munosabatlар ko'lami kengayib borgan sari davlatlar o'rtasida ro'y beradigan ham moliyaviy ham iqtisodiy operasiyalar salmogi ham oshib boradi. Bu esa o'z navbatida iktisod va moliya sohasidagi standart va tuzumlarni asta-sekin uyg'unlashib borishini taqozo etadi.

Yevropa davlatlarining iqtisodiy o'sishiga, hyukumatlararo darajada ro'y berayotgan integrasion jarayonlar juda jiddiy ta'sir kuchiga ega. Xo'jalik aloqalarining tobora rivojlanib, o'sib borishi va iqtisodiy sub'ktlarning ko'proq o'zaro bir-biriga bog'likligi iqtisodiy hayotning asosiy sohalarida yagona siyosatining olib borilishi zaruriyatini tug'dirdi, qaysiki o'z navbatida ho'jalik hayotini tartibga solishning yagona mexanizmining yaratilishiga olib keladi.

Birinchi navbatda iqtisodiy integrasiyaning komensiyyasiga tarkibiy qism sifatiga qarash o'rinci. Iqtisodiy integrasiya hodisa yoki jarayonning holatini belgilaovchi ilgari alohida bo'lган Iqtisodiyotlarning yuksakroq tadbirlar borasidagi kombinasiyani o'z ichga oladi. Unifikasiya natijasidagi daraja va ko'lamdan kelib chiqqan holda integrasiyaning turlarini belgilash mumkin bo'ladi. Shu bois, to'liq iqtisodiy integrasiya bilan tarif va savdo borasidagi umumiyligi kelishuv va o'zining hamroh dunyoning qolgan qismiga nisbatan kamsitish elementi bilan harakterlangan regional integrasiya kabi institutlar o'rtasida farqni belgilash mumkin. Iqtisodiy integrasiyaga erishishning yo'llaridan biri bu, tovarlar, hizmatlar va ishlab chiqarish omillarining erkin oqib o'tishini ta'minlash uchun to'siqlarni olib tashlash va masalalarmi raqobat va bozor dastaklarining ihtiiyoriga qoldirish. Shunday bo'lsa ham bu o'z tabiatiga ko'ra asosan salbiy jarayon bilan birga kuzatilishi mumkin.

Iqtisodiy integrasiyaning eng sodda ko'rinishi preferensial tarif kelishuvlari hollarida yuzaga keladi. Bu a'zo mamlakatlar bilan savdodagiga qaraganda pastrok bo'lishini tahmin qiladi.

Erkin savdo hududlarida, kelishuvga kirgan tomonlar o'zaro mahsulotlar bilan savdodagi himoyani butunlay olib tashlashga kelishadilar, Lekin bir vaqtning o'zida chetdan kelayotgan mahsulotlarga nisbatan himoya darajasini aniqlashda mustaqillikka egadirlar. Bunga o'zining asl mohiyatiga ko'ra Yevropa Erkin Savdo Assosiasiyasi (EESA) erkin misol bo'la oladi. erkin savdo hududlari o'z mohiyatiga ko'ra qisman bo'lishi, shu ko'rinishdaki, ya'ni faqat belgilangan iqtisodiy sektorlarni o'z ichiga olishi mumkin. EKPX shu nuqtadagi hodisa edi, chunki u faqat ikkita sanoat tarmoqlarini o'z ichiga oladi va erkin savdo hududlari kategoriyasiga, dastlabki paytda uchinchi mamlakatlardan importga qarshi umumiy himoya darjasini bo'limganligi uchun to'gri keladi. Xuddi shuningdek EESA ham qisman edi, chunki qishloq ho'jaligi savdosi ko'p jihatdan istisno qilingandi. Xar holda shuni ta'kidlash kerakki, ichki savdoni erkinlashtirish shuningdek, kvota cheklanislari va «notarif to'siqlar» HT deb nom olgan boshqa bir qator himoya shakllarini ham olib tashlashni taqozo etadi.

Iqtisodiy integrasiyaning ustunliklari haqida gap borganda eng muhim bu butun integrasion jarayonini harakatlantiruvchi goyadir, chunki integrasiya odatda o'z a'zolarining foydalari uchun hizmat qilib, ularni yuqori yashash darajasiga ega bo'lishga olib keladi. Ustivorlik borasida integrasiya bojxona ittifoqi bosqichida konsentrasiya qilgan holda mulohaza va munozara qilish qulayroq. Iqtisodchilar bojxona ittifoqini doim universal erkin savdoga o'rindbosar va tomonlar uchun foydali deb hisoblasalarda, bu borada hozirgi davrgacha argumentlar mavjud. Masalan, bojxona ittifoqi blok mikesidagi erkin savdoni, birok agar kelgusida tegishli siyosatlar qabul qilinmasa dunyoning qolgan qismiga nisbatan diskriminasiyani anglatadi. Shuning uchun ham uning savdoni yaratish va savdoni qaytarish effektlari foydali yoki foydasiz bo'lishi mumkin. EIning shakllanishi va so'nggi o'rinda kengayishi jarayoni dunyoning qolgan qismiga nisbatan o'zaro a'zo mamlakatlar o'rtasida savdosidagi ulushining oshishi bilan hamohangdir. Shu tariqa, 1958 yildan 1972 yilga qadar dastlabki EX a'zo davlatlariaro savdo 15 foiz hisobida usdi, a'zo bo'limgan davlatlar bilan esa 8,5 foizni tashkil etdi. EXni tuzishning savdosida effektlarini hisoblash yuzasidan qilingan harakatlar 1970 yilga qadar hamjamiyat ichra savdo 8-15 mlrd AQSh

dollariga kengaygani ko'rsatadi. Bu ishlab chiqarilgan mahulotlar bilan savdoning o'rtacha 15-30 foizga oshganini aks ettiradi. Shuningdek, Robson (Robson, 1987) o'z hisobida sanoat ishlab chiqarishdagi savdoni yaratish, savdoni qaytarishga nisbatan bir necha barobar ko'p edi deb ta'kidlasa, bunga qarshi Balassa (Balassa, 1975) qishloq ho'jaligidagi savdoni qaytarish 1,3 mlrd AQSh dollarini tashkil etganini ko'rsatish mumkin. Shunday bo'lsa ham umumiylis hisobda a'zo bo'limgan davlatlar bilan savdoda, savdoni qaytarishdan ko'ra tashqi savdoni yaratilishi, ijobjiy ta'sirga ega bo'lgan. 1980 yilga qadar savdoni yaratish effekti natijasida keng kulamli Iqtisodiyotlardan kelgan foyda umumiylis Yal'ning 3-6 foizini tashkil etgan.

Savdoni yaratish va savdoni qaytarish effektlaridan kelib chiqqan holda, prefensial bo'limgan arifga e'tibor berish juda muhim ahamiyat kasb, chunki:

1. Yuqori harajatli mahsulotni taklif etuvchi foydasiga hizmat qiluvchi savdo diskriminasiyasining mavjud bo'lmasligi holatida hech qanday savdoni qaytarish yuzaga kelmaydi.

2. Bojaxona ittifoqi tuzish natijasida savdoni yaratishdan keladigan foydani, faqat bitta kamrok harajatli (hamkor davlat, Germaniya) dan emas balki, eng kam harajatli mahsulotni taklif etuvchi (bizning misolda AQSh) dan kelishi evaziga maksimallashtirish mumkin.

Bojaxona ittifoqini tashkil etayotgan davlatlar umumiylis tashqi tarifning makbul darajasini o'rnatishga alohida e'tiborni qaratishlari orqali savdoni qaytarishning oldini olishlari mumkin.

Savdoni yaratishdan keladigan foydani oshirishga erishish quyidagi sharoitlarning ta'minlanishini talab etadi:

1. A'zo davlatlar orasida tari bilan himoyalangan faoliyatlarida ekstensiv o'hshashlik va bir-biriga bog'liklik;

2. A'zo davlatlar o'rtasida himoyalangan mahsulotlarni ishlab chiqarish harajatlardagi keng farqlanish;

Shu o'rinda savdoni qaytarish effektlarini minimallashtirish uchun quyidagilar mavjud bo'lishi kerak:

1. Ittifoq a'zolari soni ko'p bo'lishi va shu tariqa savdosi qaytarilishi mumkin bo'lgan mamlakatlar sonining kam bo'lishi;

2. Dastlab ishlab chiqarishga nisbatan savdoning past darajada bo'lishi;

3. Kelajakda bojaxona ittifoqi doirasida hamkor buluvchi mamlakatlar o'rtasida savdoning ulushi yuqori bo'lishi. Boshqacha qilib

aytganda, bojxona ittifoqi hozirgi vaqtida Iqtisodiyotlari raqobatdosh birok salohiyat jihatdan bir-birini tuldiruvchi mamlakatlar o'rtasida shakllanishi kerak.

Umumiy bozor ishlab chiqarish omillarining erkin harjatini o'z ichiga oladi. bunday holatda asosiy foyda omillar o'zlarining en yuqori daromad keltiradigan va yuksak iqtisodiy farovonlikni ishlab chiqaradigan hududlariga erkin oqib o'tish hususiyatiga egadirlar. Bunday holatda iqtisodiy integrasiya darajasini 1) davlatlararo ishlab chiqarish omillari bahosi va narxlarni solishtirish; 2) a'zo mamlakatlar savdo holatlari va sharoitlarini baholash; orqali aniqlash mumkin bo'ladi.

Umumiy bozorni tashkil etish dasturi EI doirasida tovarlar, hizmatlar, kapital va insonlarning erkin harakatini ta'minlash natijasida ittifoq YaMM 5 foizga usishini ko'zda to'tgan edi. Xakikatda esa, bu ko'rsatkich (1990 yil bozor narxlarida) 1992 yilda 1 foizni, 1993 yil – 0,6, 1994 yil – 2,8,, 1995 yil – 2,5 va 1996 yil – 1,5 foizni tashkil etdi.

### **Nazorat savollari:**

1. Iqtisodiy integrasiya va uning asosiy bosqichlari.
2. Yevropa iqtisodiy integrasiyasining tarixi.
3. Yevropa iqtisodiy integrasiyasining hozirgi kundagi pirovard natijalari.
4. Iqtisodiy integrasiyaning eng sodda ko'rinishi.
5. Iqtisodiy integrasiyaning asosiy omillari.
6. MDX davlatlari o'rtasidagi integration jarayonlarni holati.
7. Markaziy Osie davlatlari o'rtasidagi iqtisodiy integrasiya qachon boshlangan?
8. O'zbekiston Respublikasining Yevropa Ittifoqi davlatlari bilan hamkorligi.
9. Iqtisodiy integrasiyaning bosqichlari to'grisida gapiring?
10. Yagona yoki umumiy bozor deganda nimani tushunasiz?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. Международное экономические отношения. Учебник,М: Проспект, 2014 г

3.Э.Ф. Авдокушин – Международное экономические отношения.  
М: ИБЦ «Маркетинг», 1997 г

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.Э.П. Бабин – Осново внешэкономической политики. Москва:  
Экономика, 1997г
2. И.И. Думулен – Всемирная торговая организация. М:  
Экономика, 2003 г.
3. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для  
Узбекистана. Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2000 г.
4. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi vebssayti
5. [www.bilimdon.o'z](http://www.bilimdon.o'z). O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta  
mahsusus ta'lif Vazirligi vebssayti
6. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi vebssayti

### **3.4. Milliy iqtisodiyot manfaatlarini himoya qilishda bojxona organlarining asosiy vazifalari.**

Tashqi iqtisodiy aloqa degani -bu bir mamlakat hududidagi yuridik  
va fizik shaxslari ikkinchi bir mamlakat hududidagi yuridik va fizik  
shahlari bilan iqtisodiy aloqasi tashqi iqtisodiy faoliyat deyiladi.

TIFni ab'ekti bo'lib O'zbekiston Respublikasi Bojxona  
chegarasidan olib o'tilayotgani tovarlar va transport vositalari hisoblansa  
sub'ekti bo'lib esa shu operasiyalarni amalga oshiraetgan yuridik va  
fizik shahlar hisoblanadi.

TIFni tashkil etuvchilar bo'lib xalqaro savdo, xalqaro mehnat  
taksimoti, xalqaro ishchi kuchi migrasiyasi, xalqaro kapital migrasiyasi  
hisoblanadi. Xalqaro savdo o'z navbatida ikkiga tashkil etuvchisidan  
iboratdir Bular eksport va import operasiyalaridir.

TIFni tartibga solishni ikki hil usuli mavjud bo'lib Bular tarif va  
notarif usullardir. Yuqorida ko'rsatilgan barcha jarayonlarni nazorat  
qilish bir qator davlat organlari zimmasiga uyo'qlatilagn shu davlat  
organlaridan biri O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona  
Qo'mitasidir.

1997 yil O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi uchun burilish  
yili bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston  
Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'grisida» 1997  
yil 8 iuldag'i PF-1815-sonli farmoni chiqarildi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini huquqiy asoslari «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» «Davlat bojxona hizmati to'grisida» 1997 yil 29 avgustdagি O'zbekiston Respublikasi Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iuldagи 374 son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'grisidagi nizom bilan belgilanadi.

Bojxona organlari o'z faoliyati davrida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga «davlat bojxona hizmati to'grisida»gi Qonunga, boshqa qonun hujjatlariga, O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga amal qiladi

Davlvt bojxona qo'mitasi o'zbekistan vakolatlari doirasida yagona bojxona siyosati o'tkazilishini, bojxona ishlari to'grisidagi qonunchilikka rioya etilishini Davlat bojxona Qo'mitasining organlari tizimini samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

Bojxona organlari qonunchilikka muvofiq O'zbekiston faoliyatini joylardagi davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 374-sun 30 - iul 1997 yildagi qaroriga asosan Davlat bojxona Qo'mitasining asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilandi:

Respublikamizning iqtisodiy manfaatlarini himoyalashva belgilangan vakolatlar doirasida uning hafsizligini ta'minlash:

Respublikamizda bojxona siysatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish:

Bojxona qonunlariga rioya qilish ustidan nazorat o'tkazish:

Respublikamizning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishga kumaklashish:

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarni ta'minlash:

Boj poshlinalari, Soliqlar va boj to'lovlarini undirish:

Kontrabanda va bojxona qoidalalarini buzilishiga qarshi kurash.

Mahsus bojxona statistikasini olib borish.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona tekshiruvini ta'minlash va qonunlarda ko'rsatilgan boshqa vazifalar.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni bajarish orqali bojxona organlari davlat iqtisodiyotini rivojlantirishga, hususan milliy ishlab chiqaruvchilarni, chet el raqobatchilaridan himoya qilish, aholini salomatligiga zarar keltiruvchi tovar moddiy boyliklarini kirib kelishini

oldini olishga hizmat qiladi. Shulardan kelib chiqqan holda bojxona organlarini vazifalarini proteksionistik va fiskal vazifalargi ajratish mumkin.

Bojxona organlari davlat iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha vazifalarni bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgani tovar moddiy boyliklaridan belgilangan miqdordagi bojxona to'lovlarini undirish orqali amalga oshiradi, hususan O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgani tovar moddiy boyliklaridan 9 turdag'i bojxona to'lovlarini undiriladi.

Bojxona to'lovlarini birinchi turi bo'lib bu bojxona boji hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi «Boj tarifi to'grisida» gi qonunni 2-moddasiga asosan boj tarifi deb O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib utilaetgan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga asosan undiriladigan boj stavkalarining to'plamiga aytiladi. O'z navbatida boj tarifini o'zini quyidagi funksiyalarni bajaradi.

Proteksionistik (Ichki ishlabchiqaruvchilarga homiylik funksiyasi.)

Fiskal ( Davlat budgetini daromad qismini mablag bilan to'ldirish).

Savdo siyosiy funksiyasi.

Savdo siyosiy funksiyasi bu shundayki bunda iqtisodiy aloqa qiladigan mamlakat bojxona to'lovlarini hisoblashda faqatgina iqtisodiy hisob kitoblardan emas balki mamlakatlar o'rtaсидagi siyosiy muvozanat hisobga olinadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Milliy iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. TIF deganda nimani tushunasiz?
3. TIF ni tashkil etuvchilariga nimalar kiradi?
4. TIF ob'ekti deganda nimani tushunasiz?
5. TIF sub'ekti deganda nima tushunasiz?
6. TIF tartibga solishda bojxona organlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat
7. «Boj tarifi» nima va u qanday funksiyalarni bajaradi?
8. «Boj tarifi» ni proteksionistik funksiyasi nima?
9. «Boj tarifi» ni fiskal funksiyasi nima?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
3. В.Драганов «Основа таможенного дела», М., 1998

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida» gi Qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2001 y
2. Международное экономическое отношение Mejdunarodno'e ekonomicheskie otnosheniya, Учебник, под.ред И. Фоминсконского, Экономист 2004 г
- 3.Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г
- 4.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УHITI, 2004 г.
5. Драганов Б. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.
6. Под общ. Редакцией У. Камилова «Основа таможенного дела», Т.,ГТК РУз, 1998 г.
7. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi vebsayti
8. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi vebsayti

## **IV BOB Bojxona organlari faoliyatida bojxona nazoratini tashkil etish yo'llari.**

### **4.1.Bojxona nazorati tushunchasi, uning shakllari va amalga oshirish tartibi.**

O'zbekiston Respublikasi Bojxona hizmati o'z faoliyatida ichki va tashqi siyosatni tarkibiy qismi hisoblanuvchi yagona bojxona siyosatini amalga oshirib kelmoqda. Bojxona hizmatini asosiy maqsadlari O'zbekiston Respublikasi bojhonga hududidan samarali bojxona nazoratini hamda tovarlar ayriboshlashni tartibga solishni ta'minlashdan iqtisodiyotning rivojlanishini ragbatlantirishdan, ichki bozorni himoyalashdan iborat bo'lib, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarin undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan iborat.

Bojxona nazorati – qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidir. Bojxona rejimi – O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari makomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmuidir.

Bojxona nazorati maqsadi - O'zbekiston Respublikasi Bojxona qonunchiligini, Bojxona tarifi to'grisidagi qonunini va boshqa qonun va normativ aktlarni shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy masalalariga tegishli Xalqaro shartnomalarni bajarishda Xalqaro normalarga rioya qilingan holda faoliyat ko'rsatadi.

Bojxona nazorati ob'ekti- bojxona hududidan o'tayotgan tovarlar, transport vositalari. ular to'grisida hujjat va malumotlar, tovar va transport vositalariga tegishli jismoniy va yuridik shaxslar, bojxona brokyerlari, deklarantlar ularning hujjati va ular tovarlar va transport vositalariga nisbatan tanlagan bojxona rejimlari shulardan iborat.

Bojxona nazroti asosan bojxona zonasida tashkil qilinadi. Bojxona zonasi Bojxona hududi atrofi va Bojxona organi tomonidan aniqlangan, bojxona organi joylashgan erlarda, bojxona rasmiylashtirish joylari hisoblanadi.

Bojxona nazorati jarayonida- tovarlarning harakati, uning ishlab chiqarilishi jarayoni, saqlash, sotilishi, sotib olinishi, yyukanishi, tushirilishi, joylanishi, sug'o'rtasi, va boshqalar ko'rish mumkin. Bu tovarlarni qaysi davlatdan kelib chiqishini, bojxona qiymatini, va TIA

TN asosida to'gri aniqlash bojxona nazorati asosiy funksiyalaridan hisoblanadi.

Bojxona nazorati sub'ekti - O'zbekiston bojxona organlari tizimi hisoblanib, bojxona ma'sul xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular Bojxona va TIA tartibiga tegishli qonun, qaror va normativ aktalr asosida ish yuritishadi.

Ayrim ob'ektlarda bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona organlari olidinda chora tadbir ko'rishi kerak bo'ladi.

tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirish vaqtি va joyini aniqlash;

tovarlarni etkazish uchun marshrutini va muddatini belgilash;

tovarlarni etkazishda bojxona nazoratini o'rnatish (plomba, pechat va boshqa belgilar);

bojxona nazoratini amalga oshirish uchun tehnologik sxemalarni ishlab chiqish;

Tovarlarni harakati, uni saqlanishi yoki bironbir rejimga joylashishda qaror qabul qilish;

- TIA qatnashchilari to'grisida ma'lumotlarga ega bo'lish va ular tomonidan qonun va normativ aktlarni bajarilishini nazorat qilish;

- bojxona chegarasidan tovralarni va transport vositalarni o'tkazishda hujjatlarni va shunga tegishli shaxslarni nazoratdan o'tkazish.

Bu chora tadbirlar huquqnihimoya qilish, ya'ni huquqbuzarlikni oldini olishda, fiskal masalalrini to'la tyukis bajarilishida muhim rol uynaydi.

Bojxona nazorati:

- tashqi savdo sotiq opreasiyalarini bajarishda sharoit yaratib berish;

- davlat bojxona chegarasidan o'tayotgan tovarlar va transport vositalarga nisbatan ob'ektiv qaror qabul qilish.

- kontrabanda va bojxona Soliq qonun buzarligiga qarshi, qurol aslaha, o'q dori, portlash moddalari, narkotik moddalri, arheologik qazilmalar, tarixiy madaniy buyumlarni noqonuniy yo'l bilan o'tishini olidini olish;

- bojxona va Soliq to'lovlarini to'liq va o'z vaqtida to'latish;

- bojxona va mahsus statistikasini amalga oshirish;

- bojxona o'z huquq doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish;

- tashqi iqtisodiy aloqalar tovar nomenklaturasini qo'llash kabi masalalrini hal qiladi.

Unumli bojxona nazoratiga erishish, tovarlarni va transport vositalirini qoniqarli rasmiylashtirish mahsuli desa bo'ladi.

Bojxona nazoratini tashkil qilish va bojxona rasmiylashtirish - bojxona organlari tomonidan davlat bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini o'tkazishda amalga oshiradigan kompleks harakatlari tushuniladi.

Bu kompleks harakatlar bojxona infrastrukturasi tashkil qilib bojxona nazoratini kengroq qamrab oladi. Bundan tashqari Bojxona nazoratini tashkil qilish va bojxona rasmiylashtirish quydagi masalalni hal qiladi:

- bojxona chegarasini kesib o'tishda ma'lum vaqtini va joyini belgilaydi- Tovarlarni va transport vositalarni shu joylardan ish vaqtida o'tishga ruhsat beriladi;

- bojxona nazoratini va rasmiylashtirishni vaqtini va joyini belgilaydi - kirib kelgan tovarlar va tr. vos-lari bojxona nazoratiga olinadi va bojxona chegarasidan chiqib ketgandan so'ng bojxona nazorati olinadi. Bojxona rasmiylashtiruvchi - asosi deklarant tomonidan rejimlardan birini tanlagan holda bojxona organiga taqdim etishidir. Bojxona rasmiylashtiruvchi bojxona organlari bilan kelishilgan holda ish vaqtidan holi va boshqa yerda bajarish mumkin. (tashkilotlarida va kurilish ob'ektlarida)

- bojxona organlariga, tovarlarni, transport vositalirni, hujjatlarni taqdim qilish vaqtin, joyi va mexanizmini belgilaydi - bojxona territoriyasiga kirib kelgan yyuk ma'lum rejimlardan birini tanlaguncha va to'lovlarni va boshk organ nazoratidan kechguncha vaqtincha omborhonaga joylashtiriladi. Spirtilik ichimliklar va tamaki mahsulotlar faqat bojxona organi ta'sis etgan bojxona omborhonalarida saqlashi mumkin va bojxona rasmiylashtiruvchi faqat bojxona vaqtincha saqlash omborhonalarini joyi bo'ladi..

Bojxona chegaralarida avtotransport, temir yo'l transporta o'tish joylarida va taeragohlarda yyyuklarni va tr. vos-lari nazorat qilish, rasmiylashtirish, chegara qo'shinlari, ichki ishlar boshqarmalari va boshqa organlar bilan tehnologik sxemalarini ishlab chiqadi.

Bojxona nazoratini to'gri tashkil qilgandagina va nazorat qilishda qatnashuvchi organlarining birgalikda harakat qilishlari nazoratini unumli bilishini ta'minlaydi. Nazoratni tashkil qilishning asosiy masalalaridan bojxona va uning infrastrukturalarini tashqi iqtisodiy aloqalari qatnashchilari doimiy faoliyat ko'rsatib kelayotgan yerlarda va ularni bojxona chegarasidan qatnash yyerlarida ham joylashtirish.

Bojxona nazoratini birinchi navbatda bojxona va bojxona postlarini, maqsadi, prinsiplari, asosiy yo'nalishi, bojxona organlarining va postlarning ichki hamjihatligini tashkil qilib berish kerak. Bojxona nazoratining tashkil qilishda bojxona brokyerlari, bojxona va vaqtinchalik saqlash omborlari egalari bojxona operasiyalarini amalga oshirishda bojxona xodimlari ishini yengillashtiradi. Regionda bojxona nazoratini tashkil qilishda quydagilarga amal qilish kerak:

1. Bojxona organi tomonidan qilinadigan ishlar miqdori (TIA kitnashchilar soni, bojxona nazoratiga olinadigan tovarlar transport vositalari);
2. Bojxona nazoratini va bojxona rasmiylashtiruvi aniqlash, kerakli asbob uskanalar va anjomlar bilan ta'minlash.
3. Bojxona organing hizmatchilar shtatini belgilash.
4. Mo'tahassilarni tanlash va ularni yikitish;
5. Moddiy tehnika bazasini tashkil qilish;
6. Bojxona organlari orasida o'zviy aloqa o'rnatish;
7. Bojxona organlarining bojxona nazoratini tashkil qilishda hamma shart-sharoitalr yaratib berish.

Tovarlarni va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazishda qatnashuvchi organlar bilan birlashtirishda, Bojxona nazoratni tashkil qilish uchun tehnologik sxema quydagagi tadbirlarni o'z ichiga oladi:

- Bojxona hududiga kirishda va chiqishda ;
1. tovarlar, transport vositalarini va shaxslarni bojxona chegarasidan o'tishi to'grisidagi habar berish;
  2. bojxona organiga tovarlarni, transport vositalarni va ular ga tegishli hujjatlarni taqdim etish;
  3. bojxona qonuniga binoan taqdim etilgan hujjatlarni rasmiylashtirish uchun qabul qilish, ko'riganidan o'tkazish;
  4. yyuklarni manzilga etkazish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish etguncha nazorat olish;
  5. boshqa bojxona organlaridan yuborilgan yyuklarni nazorat ostiga olish;
  6. bojxona organlarini yyuklarni manzilga etkazilganligi yoki etkazilmaganligi to'grisida habar berish;
  7. tovralarni vaqtinchalik, bojxona omboriga joylashtirish;
  8. bojxona organi tomonidan BUB ni qabul qilish;
  9. BUB qabul qilingandan so'ng bojxona nazoratini o'rnatish va rasmiylashtirish;

10. bojxona rasmiylashtiruv natijasida qaror qabul qilinishi.

Bularning har bir punktini bojxona qonunchiligi va boshqa normativ aktlar asosida bajariladi.

Bojxona nazoratini tehnologik sxemasini takomillashtirish quydagi tadbirlarni ko'rish mumkin:

1. bojxona nazoratini tashkil qilishni takomillashtirish;

2. tovralar va transport vositalarini ko'rige muddatini kamaytiri va sifatini oshirish;

3. bojxona to'lovlarini muddatini qisqartirish ;

5. mamlakatga va Iqtisodiyotga zarar keltirishning olidini olish;

Bojxona qonunchiligi bojxona nazoratining quydagi shakllarda o'tkazish belgilangan;

1. bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lган hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish - bu hujjatlar asosan uch guruh bo'linadi;

- transport, tijoriy, bojxona va boshqalar;

- transport jujjalr - yuuk varaqalari, konosament, manifest, yo'l varaqasi;

- tijoriy hujjatlar - shartnomalar, bitimlar, invoyslar, faktura hisoblari. yuuk varaqalari,

- bojxona hujjatlari - bojxona tomonidan beriladigan lisenziyalar, mutahasislik atesstati, yetkazish varaqasi, bojxona qiymati Bayonnomasi, bojxona qiymatini korrektivlash, BUB, konteyner va transport vositalarini bojxona nazorati ostida yuuk tashishga ruhsat guvohnomasi.

- boshqa hujjatlar - shaxslarni nizomi, TIA qatnashchisi sertifikati va varaqasi, boshqa organlarning ruhsati- veterenar, fitosanitariya va madaniyat ishlari boshqarma ruhsatnomalari.

2. jismoniy va mansabdor shaxslarni surab - surishtirish ;

3. bojxona ko'riganidan o'tkazish - taqdim etilgan hujjatlar asosida tovar va transport vositalarini chegaradan o'tishini qonuniyligiga ishonch hosil qilib, bojxona hududiga man etilgan yuuklarni kirishini oldini olish. Bojxona ko'rige - tovar nomini, sonini, agar kerak bo'lsa sifatini aniqlash va transport vositalarini esa hujjatsiz yuuklarni olib o'tishi mumkin bo'lган sirli joylarini aniqlash. Bu ishlarda tehnik vositalarini qo'llash kerak bo'ladi. Ko'riklarni quydagi turlarda o'tkazish mumkin:

- qiyoslash ko'rige, yuukni taqdim etilgan BUB, kelib chiqqan sertifikati, va boshqa hujjatlar, tashqi qiyoslash asosida;

- yyukni sonini aniqlash ko'rigi (joylarni hammasini ochilib yokii qisman)
  - tovaralarni ekspertiza yoki tekshirish uchun ma'lum qismini olib ko'rigidan o'tkazish;
    - kontrabanda yyuklarini berkitilgan sirli joylarni aniqlashga qaratilagan ko'ríg.

Doimiy ko'rigidan o'tkaziladigan yyuklar quydagilar:

- aksiz tovarlari;
- b)boj to'loviga tushadigan tovarlar;
- v)lisensiya, kvota to'siqlariga ega tovarlar;
- g)TIA TH ning kodida gumon;
- d)shaxslarga nisbatan informasiya.

4. tovarlar va transport vositalari. binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qiyoslash (muhr, rasmga olish, belgilash va boshqalar)

5. tovaralar va transport vositalarini hisobga olish - bu nazoratning qo'llanishining asosiy sababi bojxona organi zimmasiga TIA statistikani yuritish yyuklatilgan.

6. bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan yohud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yyuklatilgan faoliyat amalga oshirilayotgan hududlar, (vaqtincha, bojxona, erkin omborhonalarini, erkin zonalarni, va boshqalar) binolar va boshqa joylarni tekshirish;

7. shaxsni ko'zdan kechirish - bojxona chegarasi orqali o'tayotgan yohud bojxona nazorati zonasida yoki xalqaro aloqa uchun ochiq aeroportning tranzit zonasida turgan jismoniy shaxs qonun hujjatlarini buzish ob'ektlari hisoblanuvchi tovarlarni o'z enida yashirayapti va ko'rsatmayapti deb hisoblashga asoslar bo'lgan taqdirda, bojxona organi mansabdor shaxsning qaroriga binoan o'tkaziladi. Bojxona organlari faoliyatida bojxona nazoratini tashkil etishda iqtisodiy havfsizlik davlat havfsizligining juda muhim tarkibiy qismi bo'lib hisoblanadi. U eng muhim boyliklar ustidan davlat nazoratini tashkil etishni, tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish sharoitida tashqi savdo jarayonlarini tartibga solishni, mamlakat iqtisodiyotini jahon ho'jaligi iqtisodiyotiga integrallashuvini jadallashtirishni nazarda tutadi.

Bojxona organlari mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini turli davlat vositalari yordamida tartibga solib, mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlashga ulkan hissa qo'shadilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tashqi savdoga asoslanadi, chunki bunday faoliyat tufayli mamlakatlar o'z ishlab chiqarish resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatiga egadirlar. Tashqi savdo orqali jahon bozorining tovar va hizmatlarga talabi muayyan davlatning ichki bozoriga o'tkaziladi, bu esa ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga imkon yaratadi, bu, o'z navbatida, sanoat, qishloq ho'jaligi, savdo, moliya muassasalari va hizmatlar sohasini rivojlantirishga olib keladi.

Lekin shuni ta'kidlash lozimki, tashqi iqtisodiy faoliyatni kengaytirish maqsadida bo'lgan o'tish davrini boshidan kechirayotgan har bir mamlakat o'zining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida davlat aralashuviga muhtojdir.<sup>1</sup> Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish – bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar samarasi va dinamikasini oshirish maqsadida mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish to'g'risidagi chora-tadbirlar tizimidir.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish va uning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilishda bojxona ishini oqilona tashkil etish muhim rol o'yndaydi, unga O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosati, tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi orqali olib o'tish, bojxona to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazorati tartibi va shartlari kiradi.

Bojxona organlarining tashqi iqtsiodiy faoliyatni tartibga solishdagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- yuridik va jismoniy shaxslarning huquqlari va Qonun bilan muhofaza qilinadigan manfaatlarini himoya qilish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va o'z vakolatlari doirasida mamlakatning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash;
- bojxona siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish;
- bojxona qonunchiligiga rioya qilinishini nazorat ostiga olish;
- bojxona to'lovlarini undirish;
  - tekshirilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazishni ta'minlash;

<sup>1</sup> I.A.Xamidov, A.M.Alimov «O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyat asoslari», T.: Adabiyot jamg'armasi, 2001 yil, 28-bet.

- bojxona qonunlarining buzilishini, shuningdek, kontrabandaning oldini olish, aniqlash va barham berish;
- bojxona statistikasi va tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini yuritish;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalaridan kelib chiquvchi bojxona ishiga oid majburiyatlarining bajarilishini ta'minlash.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalardan – bojxona siyosatini amaliyotga joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etuvchi bojxona organlarining huquqlari va majburiyatları kelib chiqadi. Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

- tovarlar va transport vositalarini tekshirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda esa jismoniy shaxslarni ko'rikdan o'tkazish;
- yuridik va jismoniy shaxslardan – bojxona tekshiruvidan o'tkazish uchun tovarlar va transport vositalarini, shuningdek, kerakli hujjatlar ko'rsatishni talab qilish;
- valyuta nazoratini amalga oshirish;
- moliyaviy, bank va boshqa tashkilotlardan, shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslardan eksport-import operasiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni hada qonunchilikda belgilangan boshqa ahborotlarni olish;
- bojxona nazoratini o'tkazish maqsadida, tovarlar va boshqa buyumlardan probalar va namunalar olish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar joylashgan hududlar va binolarga belgilangan tartibda kirish;
- bojxona qonunchiligi buzilganligi haqidagi materiallarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish va qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy va yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish;
- bojxonaga oid huquqbazarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo'yish;
- eksport qilinishi man etilgan buyumlar va mahsulotlar O'zbekiston Respublikasi dan tashqariga olib chiqib ketilaetganda, shuningdek, aksiz markalari qo'yilmagan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilganda, transportirovka (xalqaro tranzit bundan mustasno) qilinganda ularni musodara etish haqida qaror qabul qilish;
- surishtiruv o'tkazish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- bojxonaga oid huquqbo'zarlarni aniqlashga hizmat qiladigan tehnikaviy va mahsus vositalarni qo'llash;

- bojxona organlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham egadirlar.

Bojxona organlarining huquqlarini o'rganib chiqib, ularning belgilangan majburiyatlariga e'tiborni qaratmaslik mumkin emas. Shunday qilib, bojxona organlari:

-yagona davlat bojxona siyosatini ro'ebga chiqarishda ishtirok etishga;

- bojxona haqidagi Qonun hujjatlariga rioya etilishi, bojxona to'lovlarining to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishini nazorat qilishga;

- davlat havfsizligini, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning hayoti va sog'ligini himoya qilish, atrof-muhitni muhofaza etish chora-tadbirlarining amalga oshirilishiga ko'maklashishga;

- bojxona haqidagi qonun hujjatlarini qo'llash bo'yicha belgilangan tartibda uslubiy ko'rsatmalar va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish hamda ularni nashr etishga;

- yuridik va jismoniy shaxslarni, tovarlar va transport vositalarini olib o'tish hamda bojxona chegarasidan o'tish vaqtidagi huquqlari va majburiyatları to'g'risida o'z vaqtida habardor qilishga;

- faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini beradigan mahsus ruhsatnomalar(lisenziyalar)ni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda berishga;

- o'z hizmat vazifalarini bajarishlari tufayli o'zlariga ma'lum bo'lib qolgan davlat siri va tijorat siri hisoblangan ahborotlarni oshkor etmaslikka majburdirlar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Xyukumati mamlakatning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash maqsadida bojxona organlariga katta ishonch bildirib, ularning zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalarni yyuklagan.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona nazorati tushunchasi.
2. Bojhon a nazorati shakllari.
3. Bojxona nazoratining ahamiyati.
4. Yuridik va fizik shaxslarni bojxona nazoratidan o'tkazish.
5. Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan o'tkazish.
6. Ogzaki So'roqdan o'tkazish tartibi.
7. Qaysi holatlarda jismoniy shaxslar ogzaki surab surishtiriladi?

8. Qaysi holatlarda jismoniy shaxslar qayta tekshiriladi?
9. Qayta tekshirish natijasida aniqlangan qoida buzarlik holati bo'yicha bojxona xodimi qaysi ishlarni bajarishi lozim?
10. Jismoniy shaxslardan bojxona nazorati uchun qanday hujjatlar talab qilinadi?

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasining qonuni «O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'grisida». Toshkent, 2000 yil, 26 may.
- 3.O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi Toshkent, 2016 y.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.Международное экономическое отношение, Учебник, под.ред И. Фоминского, Экономист 2004 г
2. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г
- 3.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УHITI, 2004 г.
4. Драганов Б. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.
5. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi vebsayti

#### **4.2. Bojxona nazoratining o'ziga hos hususiyatlari.**

Bojxona organlari bojxona nazoratini o'tkazishda, qoida tariqasida, nazoratning qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash uchun yetarli bo'lган shakllarini qo'llaydilar, bu bojxona nazoratini tashkil qilishning prinsipidir.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo'llamaslik yoki ulardan ozod qilinishini bildirmaydi. Masalan Respublikada bojxona imtiyoziga ega bo'lган Chet el diplomatlari va vakolathonalari yoki ularga tenglashtirilgan chet davlat vakillari agar ish o'zasida davlat bojxona chegarasidan utsa, Vena konvensiyasi asosida hamma bojxona ko'riganidan ozod qilinadi jumladan shaxsiy ko'riganidan ham. Bu holda bojxona nazoratining faqat hujjatlarni tekshirish shakli qo'llaniladi.

Zarurat bo'lganda bojxona organlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, bojxona nazoratining Kodeksda belgilangan barcha shakllardan foydalanish mumkin.

Bojxona nazoratini o'tkazish bojxona chegarasidan o'tayotgan tovarlarni harakteri, qiymati tanlangan bojxona rejimidan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Masalan, erkin muomalaga chiqarish, reimport va bojxona ombori rejimida Respublika bojxona hududiga kiritilgan tovarlarning bojxona ramiylashtiruvini amalga oshiraetgan bojxona hizmatchisi kamida 50% ni ko'rigan o'tkazishi lozim bo'ladi sharoitlar:

- tovarti kodi yoki uni nomi va qilib chiqqan davlatning nomlari hujjatlarda turlicha tariflangan bo'lsa;
- bir tovar transportida turli tovarlarning yyuklanishi va ichida yuqori foizli tovarlarni aniqlash.

Agar tovarlarga bojga va Soliqqa tortilmagan bo'lsa bojxona nazoratining qiyoslash usulin qo'llanishi mumkin.

Bojxona nazoratini u yoki bu shakllarini qo'llash bojxona mas'ul xodimi o'z hohishiga binoan o'tkazishi mumkin.

Bojxona organlari bojxona nazoratini tashkil qilishda respublika man etilagan buyumlarni kirib kelishiga qarshi qaratilgan bo'lsa bunaqa nazorat yyuklarni 100% ko'rigan o'tkazishi kerak bo'ladi. Bunaqa nazoratlarni asosan vaqt vaqt bilan havo transportlarini, yo'lovchilari, ularning bagaji va qo'l yyuklari bilan o'tkazib turilishi kerak. Xamma havo transportlarini va yo'lovchilarni 100% ko'rigan o'tkazish jismoniy mumkin emas, shuning uchun asosiy ko'rig reyslarni kaerdan kelishi ularning yo'lovchilari olib kelayotgan tovarlarni harakteri, va boshqalar sabab bo'ladi. Bojxona nazorati prinsipi asosida tanlangan shakl o'zining inson huquqiga va salo-matligia putur etmasligi kerak. Shuning uchun shaxsni ko'zdan kechirish bojxona ko'rigining ohrigi shaqli hisoblanadi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar hizmat vazifalarini bajarish bilan bog'lik holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tayotgan bo'lsalar. Bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy transport havo kemalari, shuningdek o'zi urib kelayotgan harbiy tehnikasi bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Bojxona organi tomonidan bojxona chegarasidan o'tayotgan O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tgan Chet davlatlarning

diplomatlari, konsullari, savdo, va xalqaro tashkilot vakillari rasmiylashtirushi vaqtida anglashilmovchiliklar ko'proq uchraydi, noto'g'ri qarorlar qabul qilinishi natijasida har hil muammolarni kelib chiqishiga olib keladi. Shuning uchun avvalom bor Bojxona hizmatchisi Xalqaro huquqiy normativ hujjatlar bilan tanishgan bo'lishi va ular asosida bojxona rasmiylashtirushi ishlarini bilishi kerak.

Chet davlatlarning O'zbekiston Respublikasi hududidagi diplomatiya vakolathonalari bojxona chegarasidan olib o'tishning belgilangan tartibga rioya etgan taqdirda vakolathonalar va muassasalarning rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlarni bojxona ko'riganidan va to'lovlaridan ozod etiladi.

Diplomatiya vakolathonasining diplomatiya agentlari, Chet davlatlarining konsullik muassasalariga va ularning mansabdor shaxslariga, shuningdek ularning oila a'zolariga (diplomatiya jamoasining boshlig'i va a'zolari, ma'muriy - tehnik hodilari), shuningdek ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarosi bo'limgan oila a'zolari o'zlarining shaxsiy foydalanishiga mo'ljallangan tovarlarini, shu jumladan ro'zg'orni bir qadar butlab olishga kerakli tovarlarni bojxona chegarasidan bojxona to'lovlaridan ozod etilgan holda olib o'tish belgilangan tartibiga rioya qilib O'zbekiston Respublikasiga olib kiriladi.

Ko'rsatilgan shaxslarning shaxsiy yyuki unda shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallanmagan tovarlar yoki olib kirish va olib chiqish qonun hujjatlarida yoki xalqaro shartnomalarda takkilangan yohud karantin va boshqa mahsus qoidalar bilan tartibga solinadigan tovarlar bor deb tahmin qilishga yetarli asoslar mavjud bo'lagn taqdirda bojxona ko'riganidan ozod qilinmaydi. Bunday tekshiruv faqat diplomatiya agenti yoki uning vakolatli vakili ishtirokida o'tkaziladi. Chet davlat diplomatiya vakolathonasining ma'muriy- tehnik va hizmat ko'rsatuvchi xodimlariga diplomatiya agentlariga beriladigan imtiyozlari har bir chet davlat bilan tuzilgan mahsus bitim asosida va ular bilan munosabatlardagi hamjihatlik prinsipidan kelib chiqib tatbiq etilishi mumkin.

Diplomatiya va konsullik pochta qoplaridan iborat yyuk donalari yaqqol ko'zga tashlanadigan tashqi belgilarga ega bo'lib, ushbu donalarining hususiyati aks ettirmogi lozim, ya'ni faqat rasmiy hat habarlar va rasmiy foydalanish uchun mo'ljallangan hujjatlar yoki tovralar bo'lishi mumkin. Diplomatiya va konsullik pochta qoplari ochilishi ham, ushlab turilishi ham mumkin emas, pochta qopida man

etilgan narsalarni mavjudligiga jiddiy asoslar bo'lgan taqdirda bojxona organining chet davlat vakolathonasi yoki konsullik muassasasi vakilidan pochta kopini ochishni talab qilishga haqli.

Chet davlatlarining diplomatiya va konsullik kuryerlari o'zlarining shaxsiy foydalanishlari uchun mo'ljallangan tovarlarni o'zaro kelishuv asosida bojxona ko'riganidan o'tkazishdan va boj to'lovlaridan ozod qilishni amalga oshirishi mumkin. Bojxona hududi orqali tranzit bo'lib o'tadigan diplomatiya agenlari, konsullik mansabdor shaxslar, chet davlat vakillari va delegasiya va ularning oila a'zolariga beriladigan imtiyozar O'zbekiston Respublikasida ro'yhatdan o'tgan Chet davlatlar diplomatiya va konsullik muassasi agentlariga berilgan imtiyozlarga tengdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona nazoratining o'tkazishda o'ziga hos hususiyatlар qanday?
2. Bojxona nazoratini o'tkazish tartibi.
3. Chet fuqarolarini bojxona nazoratidan o'tkazish.
4. Bojxona nazoratini zonalar bo'yicha amalga oshirish deganda nimani tushunasiz?
5. Bojxona nazoratida tehnik vositalarni urni qanday baholanadi?
6. Bojxona nazoratida «Metallodetektor» larni to'tgan urni.
7. Bojxona nazoratidan chet el delegasiyalarini o'tkazish tartibi qanday?
8. Gumanitar yuuklarni bojxona nazoratidan o'tkazishni o'ziga hususiyatlari qanday.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. O'zbekiston Respublikasining qonuni «Bojxona hizmati to'grisida» Toshkent, 1997 y. 29 avgust.
3. O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksi Toshkent, 2016 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Международное экономическое отношение Mejdunarodno'e ekonomicheskie otnosheniya, Учебник, под.ред И. Фоминского, Экономист 2004 г
2. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001

3. Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УХИТИ, 2004 г.
4. Драганов Б. «Основа таможенного дела», М., 1998 г.
5. Под общ. Редакцией У. Камилова «Основа таможенного дела», Т., ГТК РУз, 1998 г.
6. Xalqaro yuk tashishda «Karnet TIR» varaqasini qo'llash, Xalqaro bojxona konvensiyasi 1975 y. Vena.
7. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi vebsayti
5. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi vebsayti

#### **4.3. Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish.**

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 39-moddasiga asosan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazorati bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan quyidagi yo'llar bilan o'tkaziladi:<sup>1</sup>

- bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lган hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;
- jismoniy shaxslarni og'zaki so'rab-surishtirish;
- bojxona ko'riganidan o'tkazish;
- tovarlar, transport vositalari, binolar va boshqa joylarni bojxona tomonidan qieslash;
- tovarlar va transport vositalarini hisobga olish;
- hisobga olish va hisobot tizimini tekshirish;
- bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lган tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lган ehud nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yyuklatilgan faoliyat amalga oshirilaetgan hududlar, binolar va boshqa joylarni tekshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa shakllarda.

O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi 41-moddasiga muvofiq, tovarlar va transport vositalari bojxona rejimiga muvofiq bojxona nazorati boshlangan paytdan boshlab u tugagunga qadar bojxona nazorati ostida bo'ladi.

Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirishda tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran; bojxona hududidan tovarlar

---

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining bojhona kodeksi, T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2016 yil, 12-bet

va transport vositalarini olib chiqishda – bojxona deklarasiyasi qabul qilib olingan paytdan e'tiboran boshlanadi, tovarlar va transport vositalarini erkin muomalaga chiqargan paytda esa yakunlanadi.

Biroq, tovarlar va transport vositalari chiqarilishidan qat'iy nazar, ularga nisbatan bojxona nazorati, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari yoki ijro etilishi O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari zimmasiga yyuklangan xalqaro shartnomalar buzilganligi mavjud deb hisoblash uchun yetarlicha asos bo'lsa, istalgan vaqtida o'tkazilishi mumkin. Mazkur qoida BKning 51-moddasida bayon qilingan.<sup>1</sup>

Ko'rsatib o'tilgan holatda bojxona organlari tovarlar va transport vositalari mavjudligini tekshirishlari, ularni takroriy bojxona ko'riganidan o'tkazishlari, bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qaytadan tekshirishlari, hujjatlarni va tashqi iqtisodiy hamda mazkur tovarlar bilan bundan keyingi tijorat operasiyalariga tegishli bo'lgan boshqa ahborotlarni tekshirishlari zarur. Tekshirish deklarant, mazkur operasiyalariga bevosita va bilvosita aloqador bo'lgan istalgan boshqa shaxs joylashgan joyda o'tkazilishi mumkin.

Shuni ta'kidlash mumkinki, BK ning 40-moddasi uchinchi hatboshisiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari bojxona nazoratini amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasining bojxona organlari ruhsatisiz chiqib ketgan transpot vositalarini ajburiy ravishda to'htatish, dengiz, daryo va havo kemalarini majburiy ravishda orqaga qaytarishga haqlidir, chet el kemalari va davlatlarning hududida turgan kemalar bundan mustasno.

Deklarant va tovarlar hamda transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan boshqa shaxslar yoki ularning vakillari tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish paytida hozir bo'lishga haqlidir. Shu bilan birga, bojxona organlari ko'rsatib o'tilgan shaxslarni ko'zdan kechirish paytida hozir bo'lishlari talab qilishlari mumkin. Tashuvchining vakili, mahsus vakolat berilgan shaxsi bo'lмаган тақдирда, transport vositasini boshqaruvchi jismoniy shaxs bojxona maqsadlari uchun vakolatli shaxs deb hisoblanadi, (BKning 44-oddasi, 2-hatboshi).

Bojxona organi yuqorida sanab o'tilgan shaxsla yo'qligida , quyidagi hollarda tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga haqlidir:

-ko'rsatilgan shaxslar tovarlar va transport vositalari taqdim etilganidan so'ng o'n kun o'tganidan keyin kelmagan bo'lsa;

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining bojhona kodeksi, T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998 yil, 27-bet.

-davlat habsizligi, jamoat tartibiga, inson hayoti va sog'ligiga , hayvonot va o'simliklar, atrof tabiiy muhitga, O'zbekiston Respublikasining badiiyb tarixiy va arheologik boyliklari saqlanishiga havf mavjud bo'lganda va kechiktirib bo'lmaydigan boshqa hollarda;

-tovarlar xalqaro pochta jo'natmalari orqali yuborilgan bo'lsa;

-tovarlar va transport vositalari ular jolylashtirilgan bojxona rejimini bo'zgan holda bojxona hududida qoldirilgan bo'lsa.

Bojxona nazorati o'tkazilayotganida inson, hayvonot va o'simliklar hayoti va sog'ligi uchun havfsiz bo'lgan hamda tovarlar va transport vositalariga ziyon yetkazmaydigan tehnikaviy va boshqa vositalar qo'llanilishi mumkin. Bojxona nazoratini o'tkazish qoidalariga O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Shaxslarga, ularning tovarlari va transport vositalariga g'ayri qonuniy zarar yetkazmaslik bojxona nazoratini o'tkazishning umumiyligi qoidasi hisoblanadi.

Shu bilan birga Bojxona Kodeksi bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod qilingan aniq sub'ektlarni belgilaydi. BKning 50-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisи deputatlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining shaxsiy bagaji, agar azkur shaxslar hizmat vazifasini bajarish bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tayotgan bo'lsalar, bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi. Shuningdek chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy-transport havo kemalari, shuningdek o'zi yurib kelayotgan harbiy tehnikasi bojxona tekshiruvidan ozod qilinadi.

Bojxona Kodeksining 42-moddasida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegaralari bo'ylab, bojxona rasmiylashtiruvchi joylarida, bojxona organlari joylashgan joylarda, shuningdek qonun hujjatlari bilan belgilangan boshqa joylarda bojxona nazorati zonalari tashkil etiladi.

Bunday zonalarda va ularning chegaralari doiralarida ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini amalga oshirishga, shuningdek ularning chegaralari orqali transport vositalari, tovarlar va shaxslarni, shu jumladan boshqa davlat organlarining mansabdor shaxslarini olib o'tishga O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining ruhsati bilan va nazorati ostida yo'l qo'yiladi, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.<sup>1</sup>

Bojxona rasmiyatchiliklari va tartiblari tovar mamlakat bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan boshlanadi. Tovarlar va transport

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining bojhona kodeksi, T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1998 yil, 23-bet.

vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan oldingi tartiblar davlatlarning qonun hujjatlari va bir qancha xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ko'pincha chegarani kesib o'tgan va mamlakatning bojxona hududiga kelgan transport vositalari va yyuklar ular bojxona rasmiylashtiruvidan o'tiladigan va bojxona deklarasiyasi taqdim etiladigan punktgacha muayyan yo'lni bosib o'tishlariga to'g'ri keladi. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning qoidalarida tovarlar va transport vositalari mamlakat chegarasini kesib o'tar ekan, transport vositasi ko'zdan kechirilgandan va transport vositasi va yyuklar birhillashtirilgandan keyin eng qisqa muddatda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tish uchun eng yaqin bojxona muassasiga borishi nazarda tutiladi. Ushbu holatda amal qiluvchi asosiy huquqiy qoida tovarlar va transport vositalari ular bu yo'lni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishlari yoki yo'qligidan qat'iy nazar, bojxona nazorati ostida bosib o'tishlaridan iboratdir.

Xalqaro qoidalar bojxona deklarasiyasi taqdim etilgunga qadar amal qiluvchi bojxona rasmiyatichiliklari eng kam bo'lismeni va barcha mamlakatlarning tovarlari va transport vositalariga nisbatan bir hilda qo'llanilishini, tashqi savdo uchun to'siq yaratmasligini talab qiladi. Kirish bojxonasi tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishi kerak bo'lgan joydan boshqa joyda joylashgan hollarda bojxona ma'murlari faqat chegarani kesib o'tishda transport vositalari va yyuklarni birhillashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni – transport va tovarga ilova qilingan hujjatlarni talab qilishga haqlidirlar.

Bojxona qonuniga binoan bojxona nazorati O'zbekiston bojxona chegarasiga kirib kelishi bilan boshlanadi. Shunday qilib milliy yoki horijiy kema mamlakatning suv hududiga kirib kelishi bilan bojxona nazoratiga olinadi. Shuning bilan birga kemadagi yoki passajir va yyuklar ham bojxona nazoratida bo'lib bojxona organi tomonidan rasmiylashtiruv ishlari tugagandan so'ng bojxona nazorati olinadi. Tovar va transport vositalarini Bojxona chegarasidan chiqib ketishda Bojxona hizmatchisi rasmiylashtiruv ishlarini tugatib chiqib ketayotgan shaxsga topshirgan vaqtdan boshlanadi. Bojxona postlari o'z hizmat vazifalarini port kapitanlari va boshliqlari, chegara qo'shinlari, IIB organlari, fitosanitariya, veterenar, ekologiya, hizmati va madaniy edgorliklarni nazorat kilushi boshqarmalar bilan hamjihatlikda bajarishi mumkin. Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi jarayoni Yuqorida ko'rsatilgan hizmatlar bilan birgalikda TEXHOLOGIK SXEMA asosida o'tadi. Tehnologik sxemalar:

- savdo, passajir, baliq tutuvchi, baliqni qayta ishlovchi milliy va horijiy kemalarni kirishi va ketishini nazorat qilish ;
- eksport va import yyuklarini nazorat qilishni va omborda saqlash;
- jismoniy shaxslarni va ularni yyuklarini nazorat qilish masalalari yuzasidan ishlab chiqqan bo'lishi kerak.

Portlarda bojxona nazoratini va rasmiylashtiru ishlarini tashkil qilish bilan bojxona posti shug'ullanadi. Bojxona nazoratini chet elga chiquvchi hamma kemalar ustidan olib boriladi, harbiy kemalar bundan mustasno. Kemalarni rasmiylashtiruvi qo'shma kommissiya ( yuqorida ko'rsatilgan hizmat va nozortchilar) tomonidan o'tkaziladi. Xalqaro marshrut bilan qatnaydigan passajir kemalar belgilangan vaqtida nazoratdan kechiriladi, qolgan kemalarni port boshlig'i kelish, ketish va turish vaqlari to'grisida bojxona va boshqa organlarni bir oylik plan ichida avvaldan habar berishi lozim. Masalan kemalarni portga kirishi va portdan chiqishi quydagicha amalga oshadi milliy va horijiy kemalar kapitani portga kirishdan 48 soat oldin birinchi va ikkinchisini 24 soat oldin habar beradi.

Bojxona organi tomonidan portlarda hizmatni tashkil qilishda kirish va chiqishni nazorat qilish rejimi o'rnatilishi kerak bo'ladi. Xar bir yyuk port territoriyasiga tovar trnasport nakladnoyi yoki yyuklash orderi asosida kiritiladi. Qabul qilinmagan yyuklar ma'sul xodim asoslangan sababga ko'ra port territoriyasidan chiqib ketishi kerak. Port territoriyasiga kirayotgan o't o'chiruvchi avtotransportlar, sanitarlar transportda bemalol kirib kelishi mumkin Lekin kirishda hamma qatori bojxona ko'rigan dan va nazoratidan o'tkaziladi. Port territoriyasiga temir yo'l vagonlari kirishda va chiqishda bojxona nazoratidan o'tadi.

Bojxona nazoratini amalga oshiraetgan Bojxona organlari chet elga qatnaydigan kemalarni quydagagi yo'l bilan nazorat qilishadi:

- kema hujjatlarini tekshirish;
- kemadagi yyuklangan tovrga tegishli hujjatlarni tekshirish;
- kemaning turar va tehnik honalarini tovarlarni bagajlarni yo'lovchilarning qo'lidagi yyuklarni ko'rigan dan o'tkazish;
- yoki ekipajga tegishli shaxsiy buyumlarni tekshirish;
- mamlakat hududiga va hududidan man etilgan buyumlarni kirishini va chiqishini oldini olish sifatida kemanining pinhona joylarini ko'rigan dan o'tkazish.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun kapitan tomonidan quydagagi hujjatlar taqdim etiladi;

- Bosh Bayonnomma (Generalnaya deklarasiya) - asosiy hujjat bo'lib, unda kemaning nomi, qaysi mamlakatga tegishli, ro'yhatdan o'tganligi, og'irligi, kapitan ismi, familiyasi, portdagi agentning familiyasi va adresi, tovarlarning qisqacha tarifi, yo'lovchilar soni, qisqacha reys haqida ma'lumot, portdan ketish va portga borish vaqtini ko'rsatilan;
  - Yuk Bayonnomasi - asosiy hujjat kemaning nomi va qaysi mamlakatga tegishli, kapitan familiyasi, yuuklarni soni, tovarlarni nomi, konosametlar nomeri, tovarlarni yuuklangan port nomi, yuuklarni tushirish porti nomi.
  - Kema tovar zahirasi Bayonnomasi - bu hujjat kemadagi oziq ovqatlar zahirasi, yo'lovchi va yoki ekipaj uchun sotiladigan tovarlar nomi, yoqilg'i moy, suv, kema uchun moddiy tehnika va alohida tamaki va spirit ichimliklari yoki ekipaj uchun yetarli miqdorda bo'lishi kerak.
  - Kema ro'yhati – yoki ekipaj ro'yhati har bir yoki ekipaj a'zosi to'grisida ma'lumot tugilgan yili, joyi, millati jujjatlarini raqami, hujjatni kapitan yoki unining o'rribbosari qo'l qo'yishi mumkin.
  - Yo'lovchilar ro'yhati - asosiy hujjat, kemadagi yo'lovchilar ro'yhati, nomi familiyasi, millati, tugilgan yili, joyi, qaysi portdan kemaga o'tirdi qaysi portda qolishi.
  - Qurollar ro'yhati - asosiy hujjat qurollar soni, zavod nomeri, qurol egasi nomi. Kemalarni portlarda to'htash vaqtida kemadan yoki ekipajni kemadan tashqariga chiqarmasligini kapitan ta'minlashi lozim.
  - Narkotik moddali dori darmonlar ro'yhati - Kema ichidagi shunday dori darmonlar ro'yhati kema kapitani tomonidan saqlanadi.
  - Valyuta ma'lumotnomasi - Kema kassasida milliy va horijiy valyuta miqdori.
  - Konasament- bojaxona hujjatlarining asosiyalaridan hisoblanib kemaga qabul qilingan yuuklar to'g'risida ma'lumot to'plangan bo'ladi. Konasament yuuk tashuvchi bilan yuukni oluvchi o'rtasida huquqni belgilovchi hujjat hisoblanadi.
  - yuuk manifiesti - konasamentalar ro'yhati.
- Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarni hammasi kema kapitani, yoki o'rribbosari tomonidan imzolanib, kema muhiri qo'yilgan bo'lsa u yuridik kuchga ega deb hisoblanadi.
- Kema yoki ekipaji yoki yo'lovchilarni bagaji kemaning o'zida yoki alohida ajratilgan joyda bojaxona ko'rigin o'tkazish mumkin. Kemani ko'riganidan o'tkazish vaqtida bojaxona hizmatchilari tomonidan boj olish, yuuklarni tushirishni nazoratga olish va boshqa nazorat ishlarini olib borishadi. Yuqoridagi hujjatlarni ko'rib chiqib natijasini Bosh

Bayonnomada Bojxona guruhi ro'yhati yoki ekipajni kamchiliklari bo'lsa bu to'grisia ham ma'lumot beriladi. Nazorat va ko'rig natijasi to'grisida guruh boshlig'i iga raport beriladi. Guruh boshlig'i kapitanga ko'rig va nazoratni tamom bo'lgani to'grisida elon qiladi va guruh kemadan nazoratni oladi. Bojxona organi (posti) har bir kemaga «Kema ishi» papkasi tutilib kelgan kema ketguncha bojxona nazoratidan olinguncha hujjatlar nazoratda saqlanadi.

Temir yo'l transportida yo'lovchi va yyuk tashishini bojxona nazoratini chegara va ichki bojxona organlari quydagi erlarda amalga oshiradi:

- chegara t-yo'l stansiyasida;
- chegarani o'zida joylashgan nazorat postlarida;
- Davlat chegarasidan chegara t-yo'l stansiyasiga urishda;

Ichki bojxona postlari mahsus ajratilgan t-yo'l stansiyalarining tovar hovlilarida bojxona nazoratini amalga oshirishadi.

Jismoniy shaxslarni bojxona rasmiylashtirushi quydagi joylarda amalga oshiriladi;

- yo'lovchi poezdining vagonlarida;
- chegarada joylashgan t-yo'l vokzallarida.

Bojxona nazorati tehnologiya kompleksida bir qator t-yo'l hizmati qatnashadi:

Mamlakatdan chiqishda;

- bojxona nazorati yo'nalihi, pochta, telegraf, telefon va bank bulimlari;
- t-yo'l transportiga hizmat ko'rsatish korhaonasi bagaji va yyuklarni bojxona rasmiylashtirushi yo'nalihi;
- chegara nazorat qilish yo'nalihi;
- jismoniy shaxsda qurol yarokni nazorat qilish yo'nalihi - havfsizlik yo'nalihi.

Bojxona nazoratining yo'lovchilar bagaji va kul yyukining ko'rigidan o'tkazilaetgan vaqtida jonivorlar yoki o'simliklar bo'lsa veterenar va fitosanitariya hizmati xodimlarini taklif qilinadi.

Mamlakatga kirishda;

- chegara nazorat qilish yo'nalihi;
- yyuklarni va bagajlarni olish yo'nalihi;
- jonivor va o'simliklarni nazorat qilish yo'nalihi.

Bojxona nazoratini amalga oshirishda chegarada ramiylashtiruv tehnologik sxemasini ishlab chiqishda bojxona organi, chegara kushini, fitosanitarlar, veterenarlar va boshqalar chegara t-yo'l stansiya boshlig'i

boshchiligidagi va unga buysinadigan yuk bulimi boshliqlari, passajirlar bulimi, navbatchilar bulimi boshliqlari ishtirok etadilar. Xar bir t - yo'l stansiyalarda chegara t- yo'l stansiyasi boshlig'i bojxona organi va chegara kushini boshlig'i bilan birgalikda bojxona va chegara nazoratini amalga oshirishi uchun territoriya, yo'llarni, maydonchalarni va honalarni ajratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan joylarda bojxona va chegara nazoratini sifatli o'tishini ta'minlash uchun bu yerlarga kirishi man etilgan shaxslarni, kotrabanda tovarlarini va transport vositasining chegaradan noqonuniy o'tishini oldini olish uchun bojxona va chegara qo'shinlaridan qo'shimcha nazorat rejimini o'rnatishi mumkin. Xalqaro reysga qatnovchi poezdlar ko'rig maydonchasida qolib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Kuzatuvchi va kutib oluvchilarni bojxona va passport nazorati zallariga qo'ymaslikni va passajirlarni poezdan tushirish va chiqarish, pochta, bagaj, va boshqa buyumlarni yyuklash va tushirish faqat bojxona organi va chegara qo'shinlari ruhsati bilan amalga oshiriladi. Bojxona zonasiga t-yo'l stansiyasi hizmatchilari va boshqa organlar xodimlari bojxona organi tomonidan berilgan ruhsatnomalar asosida kirib chiqilishi mumkin.

Chegara t-yo'l nazorat posti - bu ko'rig maydonchasi bo'lib ikkita yoki to'rtta temir yo'lga ega bo'lgan panjara va kerak bo'lsa signalizasiyalar o'rnatilgan bo'lib 50-60 vagon ko'rigidan o'tkazilishi mumkin bo'lgan nazorta zonasidir. Chegara t-yo'l nazorat posti chet elga chiqib ketayotgan va chet eldan kelayotgan passajir poezdlarini tashqarisidan va ichidan, yyuklangan yyukhonalirini nazoratdan o'tkazishiga sharoit yaratilgan bo'lishi kerak.

Yuk tashuvchi poezdlarni nazoratdan o'tkazishda vagonlarni, konteynerlarni, plombasini t-yo'l vakili bilan birgalikd o'chib ko'rigidan o'tkazib, ochilganligi to'grisida akt to'zilib kommissiyada ishtirok etilgan vakillar tomonidan imzolanadi. Chegara t-yo'l nazorat postida rasmiylashtirilagan, passajir va yuk tashuvchi t-yo'l transportlarini mahsus kitoblarda ro'yhat qilib boriladi.

Vokzallarda va boshqa stansiyalarda hizmatni tashkil qilish asosan bojxona va boshqa hizmatlar uchun kerakli honalar, bojxona va passport nazoratlarini o'tkazish uchun zallar ajratilib ularni kerakli asbob uskunalar o'rnatilgan bo'lishi kerak, bundan tashqari shaxsiy ko'rig o'tkazish honasi ham bo'lishi shart. Xorijdan kelayotgan va horija ketayotgan jismoniy shaxslar bojxona va passport nazoratini bagaj va qo'l yyukini zallarda qolganlar poezdlarni ichida o'tkaziladi. Poezdlarda

ketayotgan passajirlarni va ularni bagaji va kul yyuklarini poezdan tushirib, ya'ni ko'rig zallarda va mahsus tehnikalardan foydalanishni bojxona ma'sul xodimi o'zi hal qilishi lozim. Poezdagi ko'rig nazorat ishlari, poezdning t-yo'l stansiyasida turishi vaqtin chegaralanganligi uchun ko'proq tajriba talab qiladi. Chegara t-yo'l stansiyalarda bojxona organlari tomonidan ikki turli ko'rig nazorat ishlari olib boriladi. -

- kundalik hizmat - bu bojxona organlari tomonidan bajariladigan kunlik nazoratlari va kontrabanda, bojxona qonunini buzishga qarshi kurash va shu erda hizmat ko'rsatayotgan bojxona xodimlarini himoya qilish asosiy tushuncha hisoblanadi.

- mahsus operasiya - bu IIB, Soliq, organlari, chegara qo'shinlari, bilan birgalikda o'tkaziladigan operasiya.

Xorijga ketayotgan va horijdan kelayotgan Tovar poezdlari va ularda tashiladigan yyuklar bojxona nazorati ostida bo'ladi. Lokomotiv transport vositasi sifatida chegara bojxona postida rasmiylashtiriladi, yyuklari esa chegara yoki ichki bojxona postlarida rasmiylashtiruvi mumkin. Nazorat postlarida (bojxona chegara posti va chegara t-yo'l stansiyasi) yyuklarni ko'riganidan o'tkazish, poezdlar brigadasini rasmiylashtiradi va kerak bo'lsa chegara t-yo'l stansiyalarigacha kuzatib qo'yishi mumkin. Ko'riglar chiqish parklarida, nazorat postlarida, ichki bojxonalarda, t- yo'l stansiyalari mahsus ajratilgan t- yo'laklarda o'tkazish mumkin, t-yo'l hujjatlarini esa teh kontoralarda tekshirish mumkin.

Chegarada joylashgan bojxona postlari tovarlarni bojxona hududiga kirib kelayotganda yyuklarni etkazish varaqasi asosida yyuk oluvchi qaysi bojxona zonasida joylashgan bo'lsa u postga bojxona rasmiylashtiruv ishlarini bajarish uchun jo'natiladi va iloji boricha bojxona qiyoslash shakllari qo'llaniladi. Vagonlarni ma'lum soni to'plangandan so'ng jo'natilishidan oldin tehnik ko'rigiga taqdim etiladi.

Yuklarni bojxona hududidan olib chiqishda chegara postlariga ichki bojxona organlari tomonidan to'liq rasmiylashtirilgan holda etib keladi, rasmiylashtirmagan yyuklarini chegara postlari tomonidan bajariladi.

Bojxona organi talabiga binoan temir yo'l tovarlarni va transport vositalarini bojxona ko'rigiga taqdim etishlari kerak bo'lsa vagonlarni ajratish, konteynerlarni platformadan olish, uni ochish tushirish va ortish va boshqa ishlarni bajarishi lozim. Ko'rig vaqtida mahsus vagonlarni kuzatuvchilarini hizmat honalarini mamlakatdan olib chiqishi va olib kirishi man etilgan va Bayonnoma da ko'rsatilmagan buyumlarni borligini aniqlash uchun o'tkaziladi. Bundan tashqari qo'riqchilarni

qurol olib urishiga ruhsatnomalari tekshiriladi. Xar bir vagon ko'rigida ikki inspektor qatnashishi kerak.

***Xalqaro havo transportida bojxona nazorati xalqaro tayyorgohda o'tkaziladi jumladan:***

- tovarlarni xalqaro yo'lovchilar yo'nalihidagi bojxona nazorati;
- tovralarni xalqaro yyuk tashish yo'nalihidagi bojxona nazorati;
- havo transportini nazorat qilish yo'nalihi;
- tayyorgoh hududini nazorat qilish yo'nalihi.

Tayyorgohda yo'lovchilarni yyuklarni va qo'lidagi yyuklarni bojxona rasmiylashtiruvi alohida ajratilgan zallarda o'tkaziladi. Uchish zalida bojxona hizmati aviakompaniyalar chiptalarni ro'yhatdan o'tkazish stollaridan oldinda joylashadi, shuning uchun yo'lovchi avval bojxona nazoratidan o'tib keyin chiptani, bagajlarini va qo'l yyukini ro'yhatdan o'tkaziladi, pasport nazoratiga o'tiladi va ohirgi etapda mahsus nazorat yo'lovchining bagajida qo'l yyukida o'zida qurol aslaha yoki portlovchi moddalarni yo'qligini anqlash maqsadida o'tkaziladi.

Qo'nish zallarida bojxona nazorati eng ohirgi etapda o'tkaziladi. Uchib kelgan yo'lovchilar pasport nazorati o'tkazilgandan so'ng bagajlarini olib bojxona nazorati sari yo'l olishadi.

Tovarlarni bojxona ramiylashtiruvi boshqa transportlarda rasmiylashtiruvlaridan farq qilmaydi.

Noqonuniy yyuklarni bojxona hududiga va bojxona hududidan olib chiqishini oldini olish maqsadida bojxona nazoratidan tashqari boshqa nazorat organlari bilan birgalikda havo kemalarini tekshirish amalga oshiriladi.

Chet el havo kemalarini ko'riganidan o'tkazish uchun xalqaro normativ hujjatlar asosan yetarli va jiddiy asos bo'lishi shart.

Tayyorgoh territoriyasining hammasi va yo'lovchilar zallari bojxona hududi hisoblanadi. Bojxona qonunchiligi havo transportini ko'rig vaqtি belgilanmagan faqat uchish jadvalidan kelib chiqqan holda va tovar va transport vositalarini bojxona hududidan o'tish to'grisidagi qonunga asosan rasmiylashtiruvi amalga oshiriladi. Xavo transporti bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi ob'ekti hisoblanadi (ekspluatasiya uchun yonilg'i ehtiyyot kiyim, asbob uskuna, va moddiy tehnika taminoti. )

Xavo transporti 1944 yil Chikago konvensiyasi asosida xalqaro hujjat Bosh Bayonnomma (Generalnoy deklarasii):

- uchish marshruti xalqaro hisoblansa;
- bojxona organiga berilgan havo transportining aniqlangan xalqaro uchish marshrutining o'zgartirmasligi to'grisidagi hati bo'lsa;

Uchish vazifalari normal holda bo'lishi uchun enilgi ehtiyoj kiyim, asbob uskuna, va moddiy tehnika taminoti bosh Bayonnomada ko'rsatilishi kerak.

### **Avtomobil transporti harakatining bojaxona nazorati ikkiga bo'linadi:**

- yyuk tashiydigan avtotransportlarni tovari bilan va tovarlarni tushirilgandan so'ng;
- yyuklar ustidan bojaxona nazorati.

Bojaxona nazorati chegaradan o'tish punktlarida manzillarda shoh yo'llardan o'tishlarda amalga oshiriladi.

Avtotransportlarni bojaxona nazorati quydagi maqsadni ko'zlaydi;

- tovarlarni bojaxona nazoratidan berkitish maqsadida mahsus pinhona yyerlarini aniqlash;

- transport vositalarni chegara hududlaridan faqat xalqaro yo'lovchilarni va yyuklarni tashish maqsadida o'tkazish;
- transport vositalarda bojaxona yyukini tashishga tehnik tomondan mo'ljallanganligini nazorat qilish.

Transport vositalarini bojaxona organi tomonidan nazorat uyuştirganda yyuk avtotransporta, avtobus, ekspeditorlarni bagajlarini va qo'l yyuklarini jismoniy shaxsga bo'lgan tartibni qo'llash lozim bo'ladi.

Shoh yo'llar o'tish yyerlarida avtotransportlarni bojaxona nazoratidan o'tkazish va rasmiylashtiruvi quydagicha o'tkaziladi;

- transport vositasining bojaxona va chegara nazorat zonasiga kirib kelishi bilan avtotransportga va yyukka hujjatlarni bojaxona oraning ma'sul hodimiga beradi;
- bojaxona ma'sul xodimi berilgan hujjatlarni tekshirib yyukni ramiylashtiriv taritbini va joyini aniqlaydi;
- bojaxona ma'sul xodimi bojaxona nazoratining shakllaridan qaysi birini qo'llash to'grisda qaror qabul qilish;
- haydovchi va yo'lovchilar o'zi bilan bo'lgan yyuklarini bojaxona nazoratidan va rasmiylashtiruvidan o'tkazish;
- transport vositasini va undagi yyukni bojaxona nazoratidan va rasmiylashtiruvidan o'tkazish;
- transport vositasining va yyukning hujjatlarini qaytib berish;
- transport vositasini hudud ichiga yoki hudud tashqarisiga qo'yish.

Bojaxona bilan bir vaqtda pasport va boshqa hizmatlar nazorati tehnologiya sxemasi asosida o'tkaziladi.

Yo'lovchi avtotransportini bojxona nazoratiga olish va uni rasmiylashtirish quydagicha tartibda o'tadi;

- tashuvchining kirish yoki chiqish to'grisidagi murojati va u taqdim etgan transport vositasining hujjati shaxsiy va yo'lovchilar hujjatlarini bojxona va chegara zonasiga kirganda bojxona mas'ul xodimiga taqdim etish;

- haydovchining va yo'lovchilarning bagaji va qo'l yyuki bojxona nazorati ostiga olish va rasmiylashtirish;

- avtotransportni bojxona rasmiylashtirushi va nazorati;

- haydovchining va yo'lovchilarning rasmiylashtirilgan bagaji va qo'l yyukidan bojxona nazoratini olish.

Yyuk tashish transport vositalarida quydagi hujjatlarni taqdim etish haydovchiga yyuklatilgan;

yyuk junatish uchun komplekt hujjatlar, SMR. Invoys, MDP kitobi, avtotransportning teknik ro'yhati va xalqaro yyuk tashish uchun ruhsat etilgan hujjatlari;

passajir transport vositalari uchun komplekt hujjatlar, ro'yhatdan o'tkazilganligi to'grisidagi hujjatlari, sug'o'rta polisi, turistlarni yoki ro'yhati, Bojxona mas'ul xodimi hujjatlarni tekshirib bo'lgandan so'ng bitta yoki bir nechta qaror qabul qilishi mumkin.

A. yyuk tashishda: t - vositasini chiqarish, trasnport vositasini muhrlarini hujjatlarga qiyoslab, t- vositasini bojxona ko'rigidan o'tkazib chiqarish, t- vositasini chiqarmaslik. Bir vaqt ni o'zida yyukka nisbatan quydagi qarorni qabul qilish mumkin; yyuklarni hammasini yoki qisman ko'rigidan o'tkazish, yyuklarni chegara postlarida rasmiylashtirish uchun vaqtinchalik omborhonaga joylashtirish yoki yyukni yetkazish varaqasi asosida bojxona nazorati zonasiga jo'natish.

Transport hizmatchilarining bagajlari va qo'l yyuklari jismoniy shaxsga nisbatan tartib qo'llaniladi.

B. Yo'lovchi transportida: t- vositasini, yo'lovchilarni va ularni bagajini va qo'l yyuklarini chiqarish, t- vositasini, yo'lovchilarni va ularni bagajini va qo'l yyuklarini chiqarish, ko'rig zallarida rasmiylashtirish, transport vositasini ko'rigidan o'tkazish.

Trasnport vositalarini ko'rigidan o'tkazish - tehnik nuqtai nazardan qiyin opreasiya va yuqori mutahassislikni talab qiladi va avtotransportni konstryuktiv tomonlarini puhta bilish talab qilinadi. T-vositasini ko'rigidan o'tkazish bojxona rejim zonasida kerakli tehnik asbob uskunalar bilan jihozlangan bo'lishi kerak.

### **Nazorat savollari:**

1. Suv transport vositasini bojxona nazoratidan o'tkazish.
2. Temir yo'l transportini bojxona nazoratidan o'tkazish.
3. Avtomobil tarnsportini bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi.
4. Suv transportida pasajirlar tashish va uni nazorat qilish tartibi?
5. Suv transporti orqali «Xavfli» yyuklarni tashish va tashish ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish.
6. Suv transporti orqali xalqaro junatmalarni tashishda bojxona nazorati o'rnatish.
7. Xavo transportida pasajirlar tashish va uning ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish.
8. Xavo transporti orqali tashilayotgan yyuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish.
9. Temir yo'l orqali tashilayotgan yyuklarni bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi.
10. Avtomobil transporti orqali pasajirlar tashish ustidan bojxona nazoratini o'rnatish.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b..
2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2016 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi Kodeksi.
4. Международное экономическое отношение, Учебник, под.ред И. Фоминсконского, Экономист 2004 г
5. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001

Г

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. Davlat Bojxona Qo'mitasining 2003 yil 9 noyabr 289-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan surishtiruvni amalga oshirish tartibi to'g'risida»gi uslubiy qo'llanma va «Bojxona organlarida daliliy ashyolarni saqlash» tartibi.
2. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi veb-sayti
3. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi veb-sayti

#### **4.4. Bojxona rasmiylashtiruvi va uning tartibi.**

Bojxona rasmiyatchiliklari va tartiblari tovar mamlakat chegarasini kesib o'tgan paytdan boshlanadi.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan oldingi tartiblar (bojxona deklarasiyasi taqdim etilgunga qadar) davlatlarning qonun hujjatlari va bir qancha xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ko'pincha chegarani kesib o'tgan va mamlakat bojxona hududiga kelgan transport vositalari va yyuklar ular bojxona rasmiylashtiruvidan o'tiladigan va bojxona deklarasiyasi taqdim etiladigan punktgacha muayyan yo'lni bosib o'tishlariga to'g'ri keladi. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning qoidalarida tovarlar va transport vositalari mamlakat chegarasini kesib o'tar ekan, transport vositasi ko'zdan kechirilgandan va transport vositasi va yyuklar birhillashtirilgandan keyin eng qisqa muddatda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tish uchun eng yaqin bojxona muassasiga borishi nazarda tutiladi. Ushbu holatda amal qiluvchi asosiy huquqiy qoida tovarlar va transport vositalari ular bu yo'lni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishlari yoki yo'qligidan qat'iy nazar, bojxona nazorati ostida bosib o'tishlaridan iboratdir.

Xalqaro qoidalar bojxona deklarasiyasi taqdim etilgunga qadar amal qiluvchi bojxona rasmiyatchiliklari eng kam bo'lishini va barcha mamlakatlarning tovarlari va transport vositalariga nisbatan bir hilda qo'llanilishini, tashqi savdo uchun to'siq yaratmasligini talab etadi. Kirish bojxonasi tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishi kerak bo'lgan joydan boshqa joyda joylashgan hollarda bojxona ma'murlari faqat chegarani kesib o'tishda transport vositalari va yyuklarni birhillashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni – transport va tovarga ilova qilingan hujjatlarni talab qilishga haqlidirlar. Bunda, odatda, bojxona ma'murlariga yyuk o'rinnari soni, uning markirovkasi, og'irligi va nomi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan hujjatlar, shuningdek transport vositalarini birhillashtirish uchun zarur bo'lgan hujjatlari kifoyadir.

Kioto konvensiyasi tavsiyalari bojxona deklarasiyasi taqdim etilgunga qadar bojxona rasmiyatchiliklari eng kam, xalqaro savdo uchun eng kam noqulaylik yaratuvchi oddiy bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlar uchun taqdim etiladigan hujjatlar horijiy tilda taqdim etilgan taqdirda bojxona, odatda, ularning o'z milliy tiliga tarjima qilinishini talab qilmasligi kerak.

Ko'pchilik mamlakatlarda amal qiluvchi qoidalar, shuningdek quyidagilarni nazarda tutadi:

Yyuklar va transport vositalari mamalakat bojxona chegarasini kesib o'tishi mumkin bo'lgan punktlar milliy qonun hujjatlari bilan belgilanadi;

Yyukni tashuvchi yyuklar bojxona rasmiylashtirushi punktiga shikastlanmasdan yoki tovarlarning o'rami, tashqi ko'rinishi va hususiyati o'zgartirilmamasdan tashilishi uchun javobgar bo'ladi;

Yyuk bojxonaga uning ish vaqtidan tashqari paytda kelgan taqdirda, bojxona ma'murlari qo'shimcha haq evaziga bojxonani ochishlari va transport vositalari hamda yyuklarni o'tkazib yuborishlari kerak (agar buni yyuk egasi yoki tashuvchi iltimos qilsa);

Bojxona ma'murlari horijiy bojxona hizmati tamg'asini tan olishlari, biroq, bojxona rasmiylashtirushi punktiga borayotgan yyukka o'z tamg'alarini qo'yishlari mumkin;

Import qilinayotgan mamlakatning bojxona hududiga borish yo'lida avariya o'z bergen, yyuk shikastlangan yoki nobud bo'lgan taqdirda, bojxona ma'murlari tomonidan e'tirof etiladigan dalolatnomalar tuzilishi kerak.

Maqsadi ichki iste'mol yoki eksport uchun yyuklarning bojxona rasmiylashtirushi operasiyalar majmuidan iborat. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: bojxona deklarasiyasini va unga ilova qilingan hujjatlarni taqdim etish, ularni tekshirish va qabul qilish, tovarlarni bojxonaga taqdim etish va ularning bojxona nazoratidan o'tkazilish ehtimoli, bojlar va yig'imlar hisoblab chiqilish va to'lanishi, tovarlarning bojxona tomonidan chiqarilishi.

Dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida bojxona rasmiylashtirushi ham chegara bojxona muassasalari, ham mamlakatning bojxona hududi ichida joylashgan bojxona muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Eksport va imoprty yuqularini o'tkazish bo'yicha operasiyalarni amalga oshiruvchi bojxonalar ro'yhati muntazam ravishda e'lon qilinadi. Ko'pchilik mamlakatlarda tovarlarning ayrim o'ziga hos toifalarini (olmos va brilliantlar, san'at buyumlari va osori atiqalar va ayrim boshqa buyumlar) bojxona nazoratidan malakali xodimlarga ega bo'lган, buning uchun mahsus mo'ljallangan bojxona muassasalari tomonidan o'tkazishni nazarda tutuvchi tartib amal qiladi.

**Yyuklarni deklarasiyalash** (bojxona deklarasiyasini taqdim etish)  
– bojxona rasmiylashtiruvining majburiy tartibidir. Ko'pchilik davlatlarda deklarant (bojxona deklarasiyasini to'ldiruvchi va beruvchi

shaxs) nafaqat yyuk egasi, balki uning nomidan yyukni tasarruf qiluvchi, tovarlar va transport vositalarini bojxona nazoratidan va rasmiylashtiruvidan o'tkazish uchun bojxona organiga taqdim qiluvchi boshqa shaxs (transport agenti, bojxona brokeri va boshqalar) bo'lishi mumkinligini nazarda tutuvchi tartib amal qiladi. Odatda, bunday shaxslar doirasi milliy qonun hujjatlari bilan belgilanadi va ancha keng bo'lishi mumkin. Deklarant barcha hollarda bojxona deklarasiyasida mavjud bo'lган ma'lumotlarning ishonchliligi va boj hamda boshqa yig'imlar to'lanishi uchun bojxona ma'murlari oldida javob beruvchi shaxs hisoblanadi. Deklarant tovarlarga deklarasiya taqdim etishda qiyinchiliklarga duch kelgan hollarda «bojxona ma'murlari unga o'zlaridagi mavjud istalgan zarur ahborotni taqdim etishlari hamda bojxona deklarasiyasi to'ldirilishida deklarantga ko'maklashishlari kerak» (Kioto Konvensiyasi, B. 1 - ilova). Bojxona hizmatlarining ushbu turi ayrim mamlakatlarda pulli tusga ega bo'lishi mumkin. Yyuk deklarasiyasining rasmiy ish qog'ozlari ham sotilishi mumkin.

Deklarasiya tekshirilgandan va qabul qilingandan keyin **yyuklar bojxona tekshiruvidan o'tkazilishi** (ya'ni ular bojxona ma'murlari tomonidan fizik inspeksiya qilinishi) mumkin. Bojxona tekshiruvining asosiy maqsadi – bojxona ma'murlariga taqdim etilgan yukning bojxona deklarasiyasi va unga ilova qilingan hujjatlarda ta'rifga muvofiqligini aniqlashdir.

Xalqaro normalar bilan bojxona tekshiruvi bojxona deklarsiyasi berilgan va u qabul qilinganidan keyin eng qisqa muddatda o'tkazilishi belgilangan. Bir qancha hollarda milliy qonunchilik yyuk va transpor vositalarining barcha bojxona rasmiylashtiruvini, shu jumladan ularning fizik inspeksiya qilinishini o'tkazish uchun aniq cheklangan muddatlarni belgilaydi. Kioto Konvensiyasi yyukning boshqa vakolatli ma'murlar (karattin, sanitariya va inspeksiyalarning boshqa turlari) tomonidan inspeksiya qilinishi bojxona tekshiruvi paytida o'tkazilishini tavsiya qiladi.

Ko'pchilik davlatlarda qonunchilik yyukning bojxona tekshiruvi majburiyligini belgilamaydi, biroq, ushbu huquq bojxona ma'murlariga beriladi, har bir aniq holatda masalani hal etishni ularga qoldiradi.

Ko'pchilik davlatlarning bojxona ma'murlari yyukni tekshirish bojxona deklarasiyasini tekshirgan va qabul qilib olgan bojxona hizmatchisi tomonidan amalgalashirishi qoidasiga rioya qiladi. Yyuklarning ayrim toifalarini tekshirish ekspertlar jalb qilinishini,

bojxona laboratoriyalardan foydalanishni talab qilishi mumkin. Bir qancha mamlakatlar amaliyoti boshqa choralarni ham, masalan, yyuklarning ayrim toifalarini o'tkazish ihtisoslashtirilgan hizmatlar va bojxonalar tashkil etilishini nazarda tutadi. Bu haqdagi ahborot bojxona hizmatlari tomonidan beriladi va e'lon qilinishi shart.

Ko'pchilik mamlakatlarning qoidalari bojxona tekshiruvida deklarant (yoki uning vakili) hozir bo'lishini talab etadi. O'z navbatida, bu, deklarant yyuk tekshiriladigan joyga etkazishi kerakligini, uni idishdan chiqarishni, keyin o'rav - joylashni va tekshirish o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa operasiyalar o'tkazishi kerakligini anglatadi. Agar ushbu operasiyalarni bojxona ma'murlari bajargan hollarda deklarant harajatlar haqini to'laydi.

Ko'pchilik davlatlarning qoidalari tovarlar deklarantring talabiga ko'ra bojxona ma'murlari tomonidan quyidagi manzillarda inspeksiya qilinishini belgilaydi:

A). Bojxona deklarasiyasi taqdim etilgan bojxona muassasasi hududida;

B). Boshqa bojxona muassasasida;

B). Deklarant (eksport qiluvchi yoki import qiluvchi) binosida, shu jumladan yetkazib berish punktida;

G). Yyukning buzilishini yoki odamlarga boshqa biror zarar etkazilishini istisno qiluvchi (qorong'i bino, sovutgich va boshqalar) mahsus jihozlangan binoda. Agar bu ko'shimcha harajatlar bilan bog'liq bo'lsa, haqini deklarant to'laydi.

Kioto Konvensiyasi qatnashchi mamlakatlar bojxona ma'murlariga tanlab tekshirishni tavsiya qiladi, ayniqsa quyidagi hollarda:

A). Eksport yoki import operasiyalari muntazam ravishda yyukni chegaradan olib o'tishning barcha qoidalari bajaruvchi bir korxona yoki jismoniy shaxs tomonidan sodir etilsa;

B). Deklarasiyada va unga ilova qilingan hujjatlardagi ma'lumotlarni tekshirish oson bo'lsa;

B). import (yoki eksport) bojlari va soliqlar stavkalari ko'p bo'lmasa.

Bojxona ma'murlari zarur hollarda tovarlar namunalarini tekshirish uchun olishlari mumkin. Odatta, ular boj stavkasini belgilash maqsadida tovarni tavsiflash to'g'risidagi masalani boshqacha tarzda hal etish mumkin bo'lмаган hollarda nusxalar va namunalar oladilar. Barcha mamlakatlar qonunchiligi ushbu masalani hal etishni bojxona

ma'murlari ihtiyoriga qoldiradi. Biroq, yuukni nusxa va namunalar olish tugallangungacha chiqarishga ruhsat beriladi

Yuuklarning tbojxona rasmiylashtiruvini jadallashtirish maqsadida xalqaro amaliyotda turli davlatlar bojxona hizmatlari o'rtasida hamkorlik, hamkorlik qiluvchi mamlakatlar bojxona ma'murlari tomonidan amalga oshirilgan rasmiylashtirishni o'zaro tan olish to'g'risidagi bitimlar keng qo'llanilmokda. Ushbu holda bojxona ma'murlari transport hujjaligiga tegishli belgi qo'yadilar va yukni o'tkazadilar. Bunday tizim bojxona rasmiylashtiruvi bilan bog'liq chiqimlarni jiddiy ravishda qisqartiradi.

**Bojlar va yig'implarni hisob chiqish va to'lash** odatda, bojxona deklarasiyasi taqdim etilgan va bojxona rasmiylashtiruvi amalga oshirilgan bojxona muassasasida o'tkaziladi. Biroq, bojxona ma'murlari boj va yig'implar to'lanadigan boshqa muassasani ham ko'rsatishlari mumkin. Qoidaga ko'ra, bojlar va yig'implar bojxona ma'murlari tovarni o'tkazganga qadar to'lanadi. Biroq, xalqaro amaliyotda ushbu jihatlarni kattik qo'llash qabul qilinmagan. Ko'plab mamlakatlarning bojxona qoidalari boj to'lovchining iltimosiga ko'ra boj va yig'implar to'lanishi kechitirilishiga yo'l qo'yadi. Bunday amaliyot, jumladan, muntazam ravishda tovarlarni import qiluvchi shaxslarga nisbatan amal qiladi. Bojxona muassasalari boj to'lanishini kechiktirishga ruhsat berar ekan, to'lovchidan to'lovchidan kafolat yoki ta'minlashni talab qilishi mumkin.

Boj va boshqa yig'implar to'lanadigan sana turli mamlakatlar qonunchiligi tomonidan turlicha belgilanadi:

A). Bojxona deklarasiyasi berilishining ro'yhatdan o'tkazilgan sanasi bo'yicha ;

B). Bojxonada qayd etilgan bojxona deklarasiyasi qabul qilingan sanasi bo'yicha;

B). tovar bojxonaga haqiqatda taqdim etilgan sana bo'yicha (ba'zan – tekshirish sanasi bo'yicha).

Boj to'langanligini tasdiqlab, bojxona deklarasiyasi nusxasiga belgi qo'yadi. Ushbu nusxa deklarantda qoladi yoki unga boj to'langanligini tasdiqlovchi hujjat beriladi.

Ichki iste'mol yoki eksport uchun bojxona tomonidan tovarning chiqarilishi o'zida bojxona rasmiylashtiruvining yakunlovchi operasiyasini ifodalaydi. Biroq, xalqaro amaliyot va Kioto Konvensiyasi tavsiyalari ushbu operasiyani tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi vaqtiga ko'ra ohirgisi deb hisoblamaydi. Yuuk bojxona tomonidan

yuqorida aytib o'tilgan barcha operasiyalar tugallangunga qadar chiqarishi mumkin. Agar bojxona ma'murlari bojxona tozalashi bilan bog'liq barcha operasiyalarni deklarant bajarishiga ishonsalar, ular tovarni deklarant bojxona uchun maqbul bo'lган tovarga ilova qilingan hujjatlar yoki tovar to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar mavjud bo'lган boshqa rasmiy hujjatni taqdim etishi sharti bilan chiqarishlari mumkin.

Kioto Konvensiyasi to'g'ridan to'g'ri bojxona ma'murlariga, agar bojxona tekshiruvi darhol o'tkazilishi mumkin bo'lmasa, tovarni operasiyalar tugallangunga qadar chiqarishni tavsiya qiladi. Masalan, ekspert chaqirilgan va uning hulosasini ko'tish zarur bo'lган holda yoki namunalar (nusxalar) tahlili natijalari mahsus laboratoriyadan kelishini ko'tish zarur bo'lган hollarda, deklarant, agar boj ekspertiza natijasida oshsa, qo'shimcha boj to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

Jahonda hamma joyda boj solig'i darajasi pasayishidan keyin bojxona rasmiylashtiruvi va tadbirlarini soddalashtirish va birhillashtirish, ko'plab operasiyalarni ma'lumotlar va hujjatlarni ishslash tehnik, shu jumladan elektron vositalar ihtiiyoriga topshirish jarayoni bormoqda.

Jahon bojxona tashkiloti va Yevropa bojxonasining faoliyati jahoning ko'plab mamlakatlarida komputer tizimi tashkil etilishiga ko'maklashdi. Kioto Konvensiyasi bojxona maqsadlarida komputerlarni qo'llashga nisbatan mahsus ilova bilan to'ldirildi. Ilova bojxona rasmiylashtiruvini jadallashtirish, u bilan bog'liq moddiy chiqimlarni qisqartirish (ya'ni amalda bojxona deklarasiyasini to'ldirmasdan), paydo bo'lувчи to'rachilik to'siqlarini bartaraf etish uchun zamonaviy elektron tehnikani qo'llash bo'yicha tavsiyalar beradi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona haqidagi qonun hujjatlariga muvofiq, bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishi kerak. Uni o'tkazish tartibi va shartlari BK ning IV «Bojxona rasmiylashtiruvi» bulimida bayon qilingan qoidalar va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari, shu jumladan Davlat bojxona qo'mitasining me'yoriy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

Bojxona kodeksida «bojxona rasmiylashtiruvi» tushunchasiga quyidagicha ta'rif beriladi: tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan operasiyalar majmui. Biroq, mazkur tushuncha mohiyatini aniqlash uchun quyidagi ancha keng ta'rif maqsadga muvofiq hisoblanadi: **bojxona rasmiylashtiruvi** –

tovarlarni olib o'tuvchi shaxslar va bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan tovarlar va transport vositalarining muayyan bojxona rejimi ostida olib o'tilishi yoki ushbu rejim amal qilishining tugallanishi maqsadida Bojxona kodeksi bilan belgilangan tartibda va shartlarda amalga oshiriladigan, o'zaro bog'liq tashkiliy – huquqiy va tehnik tadbirlar tizimidir.

Bojxona rasmiylashtirushi tovarlar va transport vositalarining chegara orqali olib o'tilishining qonuniyligini belgilash va tasdiqlash imkoniyatini beradi, tovarlarning olib o'tilishi tartibiga rioya qilishga ko'maklashadi, tashqi savdo bitishuvlari qonuniyligini tasdiqlaydi hamda boshqa choralar bilan birgalikda bojxona nazoratini amalga oshirishini ta'minlaydi.

BK ning 75 – moddasiga muvofiq, bojxona rasmiylashtirushi bojxona organi faoliyat ko'rsatadigan zonadagi shu maqsad uchun ajratilgan, tovarlarni jo'natuvchi yoki oluvchi ehud ularning tarkibiy bo'linmasi joylashgan erlarda bojxona organining ish vaqtida amalga oshiriladi.

Manfaatdor shaxsning yozma iltimosnomasiga binoan uning hisobidan va bojxona organining roziligi bilan bojxona rasmiylashtirushi boshqa joylarda va bojxona organining ish vaqtidan tashqari vaqtida amalga oshirishi mumkin.

Bojxona organilari joylashgan yerlarda emas, balki bevosita o'z hududlarida yoki binolarida bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazishdan manfaatdor bo'lган yuridik va jismoniy shaxslar bu organlarga hizmat va maishiy binolarini, uskunalar hamda aloqa vositalarini bepul berib qo'yadilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududida hududiy boshqarmalardan va ihtisoslashtirilgan bojxona komplekslaridan iborat Davlat bojxona qo'mitasi organlari tizimi ish ko'radi. Shunday qilib bizning davlatimiz hududida ro'yhatga olingan har qanday yuridik shaxs biror bir bojxona organi faoliyati zonasida bo'ladi va o'sha yerda mazkur yuridik shaxslarning tovarlari va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkaziladi.

Bojxona organi tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini bojxona deklarasiyasi qabul qilingan hamda barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan paytdan boshlab o'n kundan kechiktirmay amalga oshiradi. Tabiiy ofatlar, avariylar, faloqatlar paytida zarur bo'lган tovarlar, jonivorlar, tez bo'ziladigan tovarlar, radioaktiv materiallar, habarlar va ommaviy ahborot maqsadlari

uchun boshqa materiallar, O'zbekiston Respublikasining qonun chiqarish, ijro etish va sud hokimiyati yuqori organlari nomiga yuborilayotgan tovarlar, insonparvarlik yordami sifatida yuborilayotgan tovarlar va shunga o'hshash boshqa tovarlar O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda ularning bojxona rasmiylashtiruvi soddalashtirilgan va ustuvor tartibda amalga oshiriladi. Mazkur muddatlar davlatning boshqa organlari tovarlar va transport vositalarini nazorat qilishi uchun zarur bo'lgan vaqt ni o'z ichiga olmaydi (BKning 76-moddasi).

BKning 77-moddasiga muvofiq bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar va ularning vakillari bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida ishtirok etishga haqlidir. Bojxona organi mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa, mazkur shaxslar va ularning vakilliri bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida hozir bo'lislari va rasmiylashtirishni amalga oshirishda ularga zarur yordam ko'rsatishlari shart.

Tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar deganda mamlakat qonunlariga muvofiq o'z nomidan deklarasiya to'ldirish, tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda yuridik ahamiyatga ega hatti – harakatni amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan ularni bojxona chegarasi orqali olib o'tuvchi bojxona brokeri tushuniladi.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari ko'rsatib o'tilgan shaxslarga ularning iltimosiga ko'ra bojxona rasmiylashtiruvi o'tkaziladigan joyda bo'lismi va rasmiylashtiruv o'tkazilishi ustidan bevosita kuzatish imkoniyatini berishi kerak.

Bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tuvchi shaxs, tashuvchi, ombor egasi yoki tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan boshqa shaxs bojxona organining talabiga binoan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlarni transportda tashish, tortishni yoki ularning miqdorini boshqacha tarzda aniqlashni, ortish, tushirish, qayta tushirish, buzilgan o'rovlarni to'zatish, o'rovlarni ochish, tovarlar va transport vositalarini o'rash yoki qayta o'rashni, shuningdek bunday tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan binolar, idishlar va boshqa joylarni ochishni o'z hisobidan amalga toshirishi shart.

Agar tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan bo'lsa yuqorida ko'rsatilgan

operasiyalar bojxona organining ruhsati bilangina amalga oshiriladi (BKning 78-moddasi).

BKning 79-moddasiga muvofiq bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish uchun bojxona organlari, ularning ruhsati bilan esa tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar va davlat nazoratini amalga oshiruvchi boshqa organlar bojxona nazorati ostida turgan tovarlardan ularni tekshirish (ekspertiza qilish) uchun namunalar va nusxalar olishga haqlidirlar.

Tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar tovarlardan namunalar va nusxalar olish vaqtida hozir bo'ladilar va bojxona organlarining mansabdor shaxslariga yordam ko'rsatadilar, shuningdek namunalar va nusxalar tekshirish natijalari bilan tanishadilar.

Tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxsning tashabbusi bilan bojxona organlari tomonidan tovarlardan namunalar va nusxalar olish, shuningdek namunalar va nusxalarni tekshirish natijasida yuzaga kelgan harajatlarni ana shu shaxs to'laydi.

Namunalar va nusxalar olish tartibi, ularning tekshirish va tasarruf etish muddatlari, shuningdek tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlarning nusxalari va namunalari tadqiqot o'tkazish uchun zarur eng kam miqdorda tanlanadi. Husha va namunalar miqdori bojxona organlari tomonidan tovarlarning hususiyatlari va hossalaridan, tadqiqod o'tkazish turlari va shartlaridan kelib chiqib belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi DBQ ning har bir mintaqaviy boshqarmasi tarkibida bojxona ekspert laboratoriysi ishlaydi, ularning faoliyati yuksak darajada tahlil qilish imkonini beruvchi zamonaviy tehnika va laboratoriya uskunalari bilan jihozlangan DBKning Markaziy bojxona ekspert laboratoriysi muvofiqlashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi DBQ Markaziy bojxona ekspert laboratoriysi eng avvalo iste'molchilarning huquqlarini himoya qilishga va tovarlar kodlarining TIF TH ga muvofiq to'g'ri qo'llanilishini nazorat qilishga da'vat etilgandir. Bu esa bojxona to'lovlarini undirishga ta'sir ko'rsatadi. Markaziy bojxona ekspert laboratoriysi zarurat bo'lganda bojxona rasmiylashtiruvi paytida tovarga taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazadi.

Markaziy bojxona ekspert laboratoriysi o'z faoliyatida respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida ish ko'rib qonun hujjatlariga va O'zbekiston Respublikasi DBQning normativ hujjatlariga amal qiladi.

BKning 80-moddasiga muvofiq bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi veterinariya, fitosanitariya, ekologiya nazorati va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat nazoratining boshqa turlari amalga oshirilganidan keyin tugaydi.

Qonun hujjatlarida tovarlar va transport vositalarining bojxona chegarasi orqali olib o'tilishiga faqat davlat nazoratining har hil turlarini amalga oshirish sharti bilan yo'l qo'yilishi hollari belgilangan. Ularga tirik hayvonlar va hayvonot dunyosi boshqa ob'ektlariga nisbatan veterinariya nazorati, o'simlik mahsulotlariga nisbatan fitosanitariya nazorati, davlat chegara nazorati, olib chiqilishida sertifikatlanishi shart bo'lgan tovarlarning havfsizligi uchun davlat nazorati va ularning belgilangan tadbirdarga muvofiqligi, shuningdek davlatning tashkilotlar va fuqarolarning qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakat hududiga tovarlarning ayrim turlari olib kirilishida uning iqtisodiy va ekologik havfsizligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan davlat nazoratining boshqa turlari kiradi.

Buning uchun vakolat berilgan tashkilotlar tomonidan beriladigan hamda bojxona organlarining mansabdor shaxslariga tovarlarni bayonot berilgan bojxona rejimlariga muvofiq chiqarish imkonini beradigan qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan hujjatlar davlat nazoratining ko'rsatib o'tilgan turlari amalga oshirilishi natijasi hisoblanadi.

Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat nazorati ko'rsatib o'tilgan turlarining amalga oshirili bojxona rasmiylashtiruvi tugallanganligi, ya'ni tovarlarni u yoki bu bojxona rejimi ostida joylashtirish to'g'risida yohud bojxona rejimi amal qilishining tugallanganligi to'g'risidagi qarorning bojxona organi mansabdor shaxsi tomonidan rasmiylashtirilishi tugallanganligi sharti hisoblanadi.

BKning 81-moddasiga muvofiq tabiiy ofatlar, faloqatlar, haloqatlar o'z berganda zarur bo'ladigan tovarlarni, tirik hayvonlar, tez bo'ziladigan tovarlar, radioaktiv materiallar, ommaviy ahborot uchun zarur habarlar va boshqa materiallarni O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining oliy organlari nomiga yuborilayotgan tovarlarni, shuningdek insonparvarlik yordami sifatida yuborilayotgan tovarlarni va boshqa shunga o'hshash tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tishda ularning bojxona rasmiylashtiruvi soddalashtirilgan tartibda va birinchi o'rinda amlaga oshiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibini qo'llanish shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Soddalashtirilgan tartib qo'llaniladigan hollarning keltirilgan ro'yhati to'la to'kis deb hisoblanmaydi. Bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibi qo'llanilishi hollari va shartlarini aniqlash eng avvalo jamoat manfaatlarini, shuningdek tovarlarning hususiyatlari va hosalarini hisobga olgan holda tovarlarning olib kirilishi va olib chiqilishi maqsadlariga bog'liq bo'ladi.

Soddalashtirilgan tartib bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibini va uni amalga oshirish vaqtini qisqartirishni nazarda tutadi, biroq bu BK da belgilangan bojxona rasmiylashtiruvining asosiy prisiplari doirasida va unga rioya qilgan holda bajarilishi kerak.

Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalaridan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno (BKning 82-moddasi). Ushbu qoidaning bajarilmasligi bojxona haqidagi qonunlar buzilishi hisoblanadi va BKning 144-moddasida nazarda tutilgan ma'muriy javobgarlikka olib keladi.

Asosiy bojxona rasmiylashtiruvini ta'minlash va uni tezlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksida dastlabki bojxona rasmiylashtiruvi bilan bir vaqtida kechadigan dastlabki operasiyalar nazarda tutilgan.

*Dastlabki operasiyalar* - tovarlar va transport vositalarini bojxonada rasmiylashtirishning tarkibiy qismi bo'lib, ular birgalikda dastlabki bojxona rasmiylashtiruvini ifodalaydi. Ular asosiy bojxona rasmiylashtiruvidan, tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimi ostida joylashtirilishidan oldin amalga oshiriladi.

Asosiy bojxona rasmiylashtiruvi boshlanishidan oldin va tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilishidan oldin bojxona rejimiga taalluqli barcha harakatlar dastlabki operasiyalarga tegishli bo'ladi. Masalan, bojxona to'lovlarini ta'minlash sifatida pul mablag'larining bojxona organi depozitiga o'tkazilishi, vaqtinchalik deklarasiyalar rasmiylashtirilishi, ichki bojxona tranziti tartibi, tovarlarni vaqtincha saqlash uchun omborga joylashtirish va boshqalar bunga misol bo'ladi.

Dastlabki operasiyalar chog'ida bojxona organlari dastlab bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshiradilar. Bu rasmiylashtiruv bunday olib kirish va olib chiqish man etilgan tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish va olib chiqishga yo'l

qo'ymaslikka, shuningdek tovarlar va transport vositalarini bojxona maqsadlari uchun birhillashtirishga qaratilgan bo'ladi.

BKning 84-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga tovarlar va transport vositalarini olib kirishda, shu jumladan erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududidan tovarlar va transport vositalarini olib kirishda tashuvchi bojxona chegarasini kesib o'tish to'g'risida bojxona organini habardor qiladi.

Tovarlar va transport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqilayotgan tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs bu tovarlar va transport vositalarini olib chiqish niyati to'g'risida bojxona organlarini oldindan habardor qiladi. Bojxona organi habarnomani qayd etadi va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun tovarlar hamda transport vositalari keltirilishi lozim bo'lган vaqt va joyni tayin qiladi. Agar tovarlarni olib o'tuvchi shaxs ushbu habarni yetkazmasa, bu vazifa tashuvchi zimmasiga yo'qlatiladi.

BK ushbu moddasining talablari O'zbekiston Respublikasining hududida joylashgan port yoki aeroportda to'htamay bojxona hududini kesib o'tadigan dengiz, daryo va havo kemalariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Xabarnomaning asosiy vazifasi - O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali o'tadigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash va ularni bojxonada rasmiylashtirish.

84 – moddada nazarda tutilgan habarnoma berilganidan keyin tashuvchi BK talablariga rioya etgan holda tovarlar, transport vositalari va ularga tegishli hujjatlarni bojxona organiga belgilangan joyga yetkazib keltirishi va kelganidan keyin shu joyda turishi shart (BKning 85-moddasi).

Tovarlar, transport vositalari va ularga hujjatlarni yetkazib berish yo'naliш va tashish shartlari hisobga olingan holda bojxona organi tomonidan belgilangan muddatlarda o'tkaziladi.

Agar tovarlar, transport vositalari va ularga doir hujjatlarni yetkazib berishda tashuvchi haloqat yoki yengib bo'lmaydigan kuch ta'siri ostida BK ning 85 – moddasida nazarda tutilgan majburiyatlarini bajara olmasa, u tovarlar va transport vositalarining saqlanishini ta'minlash va ulardan ruhsat berilmagan foydalanishga yo'l qo'ymaslik choralarini ko'radi hamda ushbu holatlar, tovarlar va transport vositalari turgan joy to'g'risidagi eng yaqin bojxona organiga zudlik bilan habar

beradi, shuningdek bojxona organining mansabdor shaxsini ushbu tovarlar va transport vositalari turgan joyga olib keladi.

Bojxona organi bojxona nazroratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan chora tadbirlarni belgilaydi. Tashuvchi ko'radigan harajatlar bojxona organi tomonidan qoplanmaydi.

Tovarlar va transport vositalari yetkazib keltirilgan joyda bojxona organiga ko'rsatiladi, ulaga tegishli hujjatlар topshiriladi. Ko'rsatish tovarlar va transport vositalari keltirilganidan keyin kechi bilan 30 minut ichida, tovarlar va transport vositalari bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda yetkazib keltirilgan taqdirda, bojxona organining ish vaqtি boshlanganidan keyin ko'pi bilan 30 minut ichida ular keltirilganligi haqida habar qilishdan iboratdir (BKning 86-moddasi).

Tovarlar ko'rsatilganidan keyin tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar yoki ularning vakillari tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish maqsadida bojxona organining ruhsati bilan ulardan namunalar va nuxsalar olishlari mumkin.

Tayin qilingan joyga bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda keltirilgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazorati zonasida joylashtiriladi.

BKning 86-moddasi talablarida nazarda tutilgan harakatlar yoki holatlar oqibatida vujudga kelgan tashuvchining harajatlari tashuvchining o'z hisobiga eziladi va bojxona organlari tomonidan qoplanmaydi.

Tovarlar va transport vositalarini ular yetkazib beriladigan joyda taqdim etishning asosiy vazifasi – bojxona nazorati amalga oshirilishini ta'minlash hamda tovarlar va transport vositalarini ular yetkazib berilgan faoliyat mintaqasidagi bojxona organida bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish.

BKning 87-moddasiga muvofiq, tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgunga qadar qisqa deklarasiya qo'llanilishi mumkin.

Bojxona organining ruhsati bilan qisqa deklarasiya sifatida transport, tijorat hujjatlari va boshqa hujjatlardan, shu jumladan xalqaro tashishlarni amalga oshirish chog'ida qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan hujjatlardan foydalaniishi mumkin.

Qisqa deklarasiya tashuvchi tomonidan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatish bilan bir vaqtida yoki bojxona organining ruhsati bilan tovarlar va transport vositalari ko'rsatilganidan keyin yigirma to'rt soat ichida topshiriladi. Agar tovarlar ko'rsatilgan muddat ichida

muayyan bojxona rejimiga joylashtirilsa, qisqa deklarasiya topshirilmaydi.

Tashuvchi tomonidan qisqa deklarasiya topshirish vakolati berilgan shaxs bo'lmasa, kapitan, haydovchi yoki transport vositasini boshqaruvchi boshqa shaxs bojxona organlari uchun shunday shaxs deb hisoblanadi.

Tashuvchining vakili qisqa deklarasiyani rasmiylashtirishda bojxona organlariga yordam ko'rsatishi shart.

Qisqa deklarasianing shaqli, unda ko'rsatilishi lozim bo'lган ma'lumotlarning ro'yhati va uni berish tartibi bojxona organlari tomonidan belgilanadi.

Qisqacha deklarasiyani qo'llash tashuvchining majburiyati emas, balki uning huquqi hisoblanadi, vaqtincha saqlash omboridan foydalananish tartibi yoki reglamentiga muvofiq yoki bojxona organining talabiga ko'ra uning qo'llanilishi majburiy hisoblangan hollar bundan mustasno.

Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgunga qadar tovarlar va transport vositalari uchun bojxona organlari oldida, shu jumladan boj to'lovlarini to'lash uchun tashuvchi javob beradi, BKning 84-moddasi ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

### **Tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalash**

BKning 89-moddasi moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan yoki bojxona rejimi o'zgartilaetgan tovarlar va transport vositalari, shuningdek boshqa tovarlar va transport vositalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bojxona organiga deklarasiya topshirilishi lozim.

**Deklarasiyalash** - tovarlar va transport vositalarini muayyan bojxona rejimi ostiga joylashtirish bo'yicha va boshlanishi asosiy bojxona rasmiylashtiruvni boshlanadigan payt bo'lган bunday rejim amal qilishi tugallanilishi bo'yicha tartibning tarkibiy qismi hisoblanadi. Deklarasiyalashning asosiy vazifasi – asosiy bojxona rasmiylashtiruvini ta'minlashdir.

Deklarasiyalash tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi, ular joylashtiriladigan bojxona rejimi haqidagi aniq ma'lumotlarni, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lган boshqa ma'lumotlarni belgilangan shaklda bayon etish orqali amalga oshiriladi.

Deklarasiyalashning shakli va tartibi, shuningdek bojxona deklarasiyasida ko'rsatilagan ma'lumotlarning ro'yhati qonun hujjalarda belgilanadi (BKning 90-moddasi).

Xozirgi vaqtida deklarasiyalashning uch shakli nazarda tutilgan:

- Og'zaki shakli (bir qator hollarda jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga nisbatan);
- Yozma shakli (deklarasiyalashning asosiy shaqli);
- Ma'lumotlarni ahborotning magnitda joylashtiriladigan ko'rinishda mashina o'qiydigan qilib uzatish shakli (bojxona yyuk deklarasiyasidan foydalanilgan holda deklarasiyalash hollari yozma shakl bilan birgalikda foydalaniladi).

BKning 91-moddasiga muvofiq, tovarlar uchun tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilayotgan bojxona organiga deklarasiya topshiriladi.

Tovarlarni tashiydigan transport vositalari tovarlar bilan bir vaqtida deklarasiyalanadi.

Yyuksiz transport vositalari va yo'lovchilarni tashiyotgan transport vositalari O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tish vaqtida deklarasiyalanadi.

Dengiz, dare va havo kemalari O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidagi o'zi etib kelgan port yoki aeroport yohud O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidagi o'zi jo'nab ketgan port yoki aeroportda deklarasiyalanadi.

BKning 92-moddasi bilan bojxona deklarasiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshirilishi belgilanadi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko'rsatilgan kundan e'tiboran o'n besh kundan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlaridagi tovarlarni qo'l yyuki va bagaj holida O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o'tishda bojxona deklarasiyasi tovarlarni ko'rsatish bilan bir vaqtida amalga topshiriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin ko'pi bilan uch soat, bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tishiga ko'pi bilan uch soat qolganda deklarasiyalanadi.

Yuqorida ko'rsatilgan muddatlar bojxona organlari belgilaydigan tartibda va shartlarda uzaytirilishi mumkin.

Shuni nazarda tutish kerakki, ushbu muddatlar, shuningdek bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar bojxona organiga taqdim etilishini belgilaydi, ular bilan birgalikda bojxona deklarasiyasi topshirilishi kerak.

Bojxona organi bojxona deklarasiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas.

Bojxona deklarasiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab, u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi (BKning 93-moddasi).

Qabul qilish deganda, belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladigan bojxona deklarasiyasi qabul qilinishini rasmiylashtirish tartibi tushuniladi. Bojxona yyuk deklarasiyäsining qabul qilinishi bojxona organi mansabdor shaxslari tomonidan unda bayon qilingan ma'lumotlarni tekshirish boshlangunga qadar amalga oshiriladi.

BKning 94-moddasiga muvofiq bojxona deklarasiyasini taqdim etish bilan bir vaqtida bojxona organiga boshqa zarur hujjatlar ham topshiriladi. Bojxona organi bojxona deklarasiyasi va taqdim etilgan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan ma'lumotlar va qo'shimcha ma'lumotlar ro'yhati qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Bojxona organi yetishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilashga haqli.

Bojxona organining ruhsati bilan xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan chet tillarda tuzilgan hujjatlar taqdim etilishi mumkin.

Bojxona deklarasiyasi ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organining ruhsati bilan deklarant tomonidan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi, topshirilgan bojxona deklarasiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

O'zgartirish, to'ldirish yoki qaytarib olish faqatgina:

- Bojxona deklarasiyasini tekshirish boshlanguniga qadar;
- tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar;
- ko'rsatilgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi bojxona organi tomonidan aniqlanguniga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona deklarasiyasini o'zgartirish yoki to'ldirish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z tashabbusi bilan, shaxsning topshirig'i yoki iltimosiga binoan yozma bojxona deklarasiyasini to'ldirishga, bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan

ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirishga haqli emas, bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma'lumotlarni bojxona deklarasiyasiga kiritish hollari, shuningdek agar mashinada ishlov berish uchun foydalilaniladigan kodli ma'lumotlar bojxona deklarasiyasida kodsiz ko'rinishda mavjud bo'lsa, kodli ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish bundan mustasno (BKning 95-moddasi).

Qayd etilganidek, qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab bojxona deklarasiyasi yuridik ahamiyatga ega bo'lган faktlar to'g'risida guvohlik beruvchi hujjatga aylanadi. Biroq, deklarasiyalash jarayoni deklarantdan deklarasiyalanadigan tovarlar va transport vositalari to'g'risida ko'p miqdordagi ma'lumotlarni bojxona deklarasiyasiga juda ko'p ma'lumotlar, shu jumladan kodlashtirilgan ma'lumotlar kiritilishini nazarda tutuvchi ancha murakkab shaklda bayon qilinishini talab qiluvchi murakkab operasiya ekan, ko'rsatib o'tilgan holat bojxona deklarasiyasini to'ldirish paytida hatolar va nuqsonlarga olib kelishi havfi katta.

Ushbu holatni hisobga olgan holda deklarantga bojxona deklarasiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zgartirish va to'ldirish, shuningdek topshirilgan bojxona deklarasiyasini olish huquqi berilgan. Biroq, BKning 95-moddasi da qayd qilingan shartlarga rioya qilingan holda ushbu huquqni amalga oshirishi mumkin.

Agar deklarant alohida sabablar tufayli bat afsil bojxona deklarasiyasini taqdim eta olmasa, bojxona organi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda muvaqqat yoki to'liq bo'lмаган bojxona deklarasiyasini taqdim etish uchun ruhsat berishga haqli, bunda muvaqqat yoki to'liq bo'lмаган bojxona deklarasiyasida bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lган asosiy ma'lumotlar bayon etilishi va yetishmayotgan ma'lumotlar bojxona organi belgilaydigan muddatlarda taqdim etilishi shart qilib qo'yiladi (BKning 96-moddasi).

BKning 97-moddasiga muvofiq ayni bir shaxs tomonidan ayni bir hil tovarlar va transport vositalari muntazam ravishda olib o'tilsa, bojxona organi muayyan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar va transport vositalariga bitta bojxona deklarasiyasi berilishiga ruhsat etishi mumkin.

Davriy bojxona deklarasiyasini topshirish hollari va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlar va transport vositalarini vaqt – vaqt bilan bojxona deklarasiyasini topshirishdan foydalangan holda deklarasiyalashning mohiyati muayyan davrda bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan

tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlarni berish imkoniyatidan iboratdir. Ushbu tovarlar va transport vositalaridan ularni olib o'tuvchi shaxslar davriy bojxona deklarasiyasidan foydalanadigan bojxona rasmiylashtiruvi tugallangandan keyin ular joylashtiriladigan bojxona rejimiga muvofiq foydalanadi. Tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvi tugallanguniga qadar tovarlar va transport vositalaridan foydalanish va ularni tasarruf qilishning bunday hollari BKning 82-moddasasi bilan belgilangan umumiy qoidadan istisnolardan biri hisoblanadi.

BKning 98-moddasiga muvofiq bojxona organlari tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalashning soddalashtirilgan tartibini belgilab qo'yishga haqli.

Tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalashning soddalashtirilgan tartibi mazmuni deklarasiyalashning shunday tartibidan iboratki, bunda tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalashga tegishli bo'lgan talablar va qoidalardan istalgani amal qilmasligi mumkin yohud soddalashtirilishi yoki engillashtirishi mumkin.

BK ning 99-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsiga deklarant bo'lishi mumkin, jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlarida tovarlar olib o'tish hollari va bojxona organlari belgilaydigan boshqa hollar bundan mustasno.

Deklarant, u bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri bo'lishidan qat'iy nazar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha vazifalarni bajaradi va to'liq javobgar bo'ladi.

BKning 100 – moddasasi qoidalariغا muvofiq deklarant bojxona deklarasiyasini topshirguniga qadar bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga, bojxona organining ruhsati bilan namunalar va nuxxalar olishga haqli. Agar ular tovarlarga doir bojxona deklarasiyasida hisobga olingan bo'lsa, namunalar va nuxxalar olinganida ular haqida alohida bojxona deklarasiyasi taqdim etilmaydi.

Tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalash chog'ida deklarant:

- BK da nazarda tutilgan tartibga muvofiq tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalashga va bojxona organiga bojxona deklarasiyasini topshirishga;

- bojxona organining talabiga binoan deklarasiyalanaetgan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatishga;
- bojxona organiga bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lган hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishga;
- bojxona to'lovlarini to'lashga;
- bojxona organlariga bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda yordam berishga majburdir.

Qonun hujjatlarida deklaranning boshqa huquq va majburiyatlar ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.

Tovarlarning bojxona chegarasi orqali olib o'tilishi va ularning bojxonada rasmiylashtirilishi bilan bog'liq muammolarni kompleks hal qilish uchun bojxona brokyerlari instituti joriy etilgan.

BKdagi mavjud normalar tovarlar bojxona organi orqali olib o'tilishi jarayonida tovarlarni kuzatib borish, shu jumladan hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish va professional maslahat berish bo'yicha amaliy hizmatlar majmuini ko'rsatuvchi **bojxona brokeri** sifatidagi faoliyat uchun huquqiy asos yaratadi.

BK ning 101 – moddasiga muvofiq bojxona organining lisenziyasini olgan O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxsi bojxona brokeri bo'lishi mumkin. Bojxona brokeri o'zini vakil qilgan shaxs hisobidan va uning topshirig'iga binoan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operasiyalarni o'z nomidan o'tkazish va bojxona ishi sohasida boshqa vositachilik vazifalarini bajarishga haqli.

Bojxona brokeri bilan uni vakil qilgan shaxsning o'zaro munosabatlari notarial tasdiqlangan shartnomaga asosida quriladi.

Bojxona brokerining bojxona organlari oldidagi huquqlari va majburiyatlar uni vakil qilgan shaxs bilan tuzilgan shartnomada cheklab qo'yilishi mumkin emas.

Bojxona organining malaka attestatiga ega bo'lgan, bunga bojxona brokeri tomonidan vakolat berilgan mutahassis deklarant nomidan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Deklarant bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutahassisning bojxona organlari oldidagi majburiyatlarini cheklab qo'yishi mumkin emas.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona rasmiylashtiruvi deganda nima tushunasiz?
2. Bojxona rasmiylashtiruvi uchun talab qilinadigan hujjatlar nechta guruhga bo'linadi

3. Tijorat hujjatlariga nimalar kiradi?
4. Transport huddatlariga nimalar kiradi?
5. Bojxona hujjatlariga nimalar kiradi?
6. Boshqa hujjatlar guruhiqa qaysi hujjatlar kiradi?
7. Bojxona rasmiylashtirivida bojxona yuk bayonnomasini urni?
8. Bojxona rasmiylashtirivida T-6 bayonnomasini urni qanday?

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b..
2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2006 yil.
3. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.
4. Международное экономическое отношение, Учебник, под.ред И. Фоминского, Экономист 2004 г

#### **4.5.Bojxona nazoratining tehnika vositalari.**

Bojxona hizmatida qo'llaniladigan radio to'lqinlarni aniqlab beradigan tizim haqida so'z uritadigan bo'lsak birinchi navbatda radioqarshi deganda nima tushuniladi? Radiohalakitlar – radio to'lqinlarga qarshi harakitlarning turlaridan biri. Radiohalakit davlat radiostansiyalardan uzatilayotgan radioto'lqinlarga qarshi harakat deb dushman yoki rakib tomonidan o'zining radio vositalaridan foydalanib davlat radiostasiyalardan uzatilayotgan informasiyani buzishi yoki qabul qilishini qiyinlashtirishi yoki umuman radioto'lqinlarni qabul qiluvchi anennalarga yo'l qo'ymaslikka qaratilgan tadbir deb tushuniladi. Radiohalakitga qarshi harakatni amalda qo'llash rakib tomonidan birinchidan, tehnik vositalarini samarali ishlatishini pasaytiradi. Bu esa kushinlarning boshqarishini tubdan chalgitadi yoki o'zgartiradi. Radiohalakitga qarshi harakat radioshowqinlarni sun'iy ravishda paydo qilish, hamda radiodezinformasiyaga va lokasiyaga qarshi maskirovkalarni tashkil qilish yo'li bilan amalga oshiriladi. Radiohala-kit harakatlar deganda, kizikuvchi qarama-qarshi tomon bilan kelishilmagan holda qabul qiluvchi radiokanalda elektrosignalarni paydo kiiish tushuniladi. Kelib chiqishiga karab radiohalakitlar /pomehlar/ kasddan yoki tasodifan qilinadigan radiohalakitlarga bo'linadi.

Kasddan radiohalakit paydo qilish deganda, rakib tomonidan radioga qarshi harakat sodir etish tushuniladi.

Tasodifan paydo qilingan radiohalakitlar deganda, dushman tomonidan sodir etilayotgan radioqarshilik bilan boshqa tehnik vositalar tomonidan, ya'ni kushni radiolokasiey stansiyasining ishlashi, momakaldiroklar va boshqalar tushuniladi. Bundan tashqarish, mas-kirovka uchun paydo qilinadigan radiohalakitlar mavjuddir. Bu esa radiohalakitlar RLS ekranlarida yaar hil nurlar kurinadi, bu o'z navbatida kuzatish ishlarini qiyinlashtiradi. Maskirovka shovqini avtomatik kuzatishlar sistemasini qisman yokito'la bo'zilishlariga olib keladi.

Radiohalakitlarni paydo qilish turlarini shundayki, u paydo bo'lishi hususiyatiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi: aktiv halakitlar, passiv halakitlar, aralash halakitlar, Aktiv halakitlar dvganda, chetdan, ya'ni, elektromagnit tebranish /radioo'zatkichlar, momakaldiroklar/ orqali paydo bo'ladigan radiohalakitlar tushuniladi.

Passiv halakitlar deganda, RLSning nurlanishi tufayli elektromagnit tebranislarni qaytarixdan paydo bo'lgan halakitlar tushuniladi, Aralash halakitlar deganda aktiv va passiv radiohalakitlar harakatidan paydo bo'ladigan halakitlar tushuniladi. Radiohalakitlarning mahsus apparatlarga ta'sir etish darajasiga tushuncha.

Ta'sir qilish hususiyatlari bo'yicha radiohalakitlar quyidagilarga bo'linadi:

- 1 . Sekin harakatdagi halakitlar
- 2 . O'rtacha harakatdagi halakitlar
- 3 . Kuchli harakatdagi halakitlar

Sekin harakatdagi halakitlar deganda, tehnik vositalardan foydalanish va halakitlardan himoyalanish, nishonni aniq kuzatish yoki aniqlashga yahshi imkoniyat yaratadi.

O'rtacha radiohalakitlar deganda, tehnik vositalrdan foydalanish va halakitlardan himoyalanish, nishonni aniq kuzatish yoki aniqlashga imkon beradi, Lekin bu ishni amalga oshirishni juda qiyinlashtiradi» Kuchli radiohalakitlar esa aksincha bu harakatlarda nishonlarni na kuzatishga, na aniqlashga imkon beradi.

Aktiv radiohalakivlarning modulyasiya turidan qat'iy nazar klassifikasiyasi kuidagicha:

Aktiv radiohalakitlar modulyasiya turidan qat'iy nazar, modulyasiyalaganmagan, amplitudali modulyasiyalangan va chastotali modulyasiyalanganlarga bo'linadi. Modulyasiyalangan radiohalakitlar - halakitgich signallar shunday harakatda ro'y beradiki, bunda doimiy Umaks va chastota  $F_n$  amplituda orqali tuhtovsiz yuqori chastotali

tebranishlar ro'y berib turadi. Ushbu radiohalakitning chastotalsh spektri chastota  $F_n$ ning bitta tebranishidan iborat bo'ladi. Amplitudali modulyasiyalangan radiohalakit harakat bunda - radiohalakit signali yuqori tebranishli  $F_n$  chastotaga ega bo'lib, uning amplitudasi ma'lum qonunga asosan o'zgarib turadi.

Agar amplituda sinusoid qoidasiga asosan o'zgarib tursa, bunda radiohalakitlar amplitudasi bo'yicha sinusoidli modulyasiyalangan deb hisoblanadi. Uning spektr chastotasining kengligi  $F_n$  q 2  $F_m$  ga teng bo'ladi.

Shovqinlar haqida umumiylar tushunchalar. Shovqinlar deganda yukri chastotali, modullangan (amplituda yoki chastotada) tebranishlarga ega bo'lgan to'lqinlarga aytildi. To'g'ri shovqinlar yuqori chastotadagi, keng poyalosalardagi shovqinli kuchlanishlarii o'zida aks ettiradi. Bundan kuchlanishda chastota va shovqinlarning quvvati hamma spektrlar bo'yicha teng taqsimlanadi.

Radiolokasiyaga qarshi radioshowqin turlari. Radiolokasiyaga qarshi qatlamlar o'zlarining tarkibida shu ob'ektdan radioto'lqinlarni qaytarish hususiyatiga ega bo'lgan moddalar bilan qoplangandir. Ular 2 tipda bo'ladi:

1. Interferension qoplamlar asosan unga yuborilgan radio-to'lqinlarni oz-ozdan qaytarish hususiyatiga ega bo'lgan materiallardan tayyorlanadi. Ushbu qoplaming qalinligi uzatilayotgan radio-to'lqinning to'lqin o'zunligini 4 ga bulinganiga teng. Bu holda katlamdan qaytaetgan radioto'lqinlar interferensiyalanadi. Interferension koplamlar sifatida karbonilli temir bilan aralashtirilgan kauchyukdan foydalanish mumkin. Ba'zi bir interferension katamlar radio-to'lqinlar yordamida qaytarilgash energiyani 400 martagacha nursizlantirishi mumkin.

2. Har o'tuvchi qoplamlar asosan energiyani yahshi o'tadigan materiallardan tayyorlanadi. Bunday qoplamlarga kauchyukni tok o'tkazuvchi ko'l /sajey/ bilan aralashmasi misol bo'ladi. Har o'tuvchi qoplamlar radio to'lqinlarni quvvatini 90 %gacha kamaytirishi mumkin. Ayrim radio shovqinlar to'grisida tushuncha.


Radiolokasion stansiya (RLS) bor joyda ko'pincha to'satdan shovqinlar paydo bo'lishi mumkin. Shovqinnig tarqalish harakati bo'yicha impulsli, uzlyuksiz bo'lishi mumkin. Uning tahsir etish quvvati kuchli yoki kuchsiz bo'lishi mumkin. Shovqin hosil bo'lgan joyni aniqlana, ularni tehnik hamda tashkilotchilik yo'li bilan bartaraf qilish mumkin.

Radio shovqinlardan saqlanish metodlari.

Radioelektr asboblarni aktiv shovqinlarda saqlash uchun chastotali, spektrli, amplitudali signallardan foydalaniladi. Radioshovqinlardan himoya qilishning asosiy turlaridan biri bu - keng tarqaluvchan seleksiya. Ya'ni qabul qiluvchi va tarqaluvchi antennalardan foydalanishga yo'naltirilgan turidir. Ushbu antennalardan foydalanish raqib tomonini razvedka ishlarini olib borishga halaqit beradi. Bojxona organlarida ishlatiladigan radioperedatchikning blok sxemasi quydagicha tasvirlanadi 1-rasm.

Radio uzatuvchi qurilma radio to'lqinlarni nurlantirish va generasiya qilish uchun ishlatiladi. Radio uzatuvchi qurilma tarkibiga quyidagi asosiy elementlar kiradi.

1. Yuqori chastotali generator-elektromagnit to'lqinlarni hosil qiladi.
2. Boshqaruvchi qurilma (modulyator) yuqori chastotali tebranishlarni modulyasiya qilishga hizmat qiladi.
3. Anteno-fiderli qurilma. Elektromagnitli to'lqinlarni qabul qilish va nurlantirish uchun ishlatiladi.
4. Iste'mol manbasi (istochnik pitaniya).



**1-Rasm. Radiouzatuvchi qurilma blok-sxemasining tuzilishi**

Asosiy qurilma yuqori chastotali generatordir. Uning tarkibiga zadauhiy generator va bir yoki bir nechta quvvatni kuchaytiradigan qoplamlalar kiradi.

Peredatchikning amplitudali modulyasiyasini ta'riflari quydagicha.

Yuqori chastotali garmonik tebranish quyidagi uchta parametri bilan harakterlanadi:

1. Amplituda.
2. Chastota
3. Faza.

Elektromagnit tebranishli signallarni uzatuvchi qurilmada berish uchun Yuqorida ko'rsatilgan tebranish parametrlarini o'zgartirish orqali

hosil qilinadi. Elektromagnit tebranishlarining hohlagan bitta parametrining o'zgarish jarayoni modulyasiya deb atayaadi Amplitudali modulyasiya bu tok yuqori chastotasining modullangan signal kuchlanishi bilan birgalikdagi amplitudasining o'zgarishidir. Modullaydigan kuchlanishning yuqori chastotali tebranishga ta'sirini baholash uchun modulyasiya koeffisienta hizmat qiladi.

Peredatchikning chastotali modulyasiyasini ta'rifi. Chastotali modulyasiya bu doimiy tebranish amplitudasi asosida yuqori chastotali tebranish chastotasining maqullaydigan kuchlanish biran birga o'zgarishidir. Chastotali noudulyasiya tarkibidagi yuqori chastotali tebranishning modullay olgan kuchlanishga ta'sirini baholash uchun chastotali modulyasiya hizmat qiladi. U modullaydigan kuchlanish chastotasiadir. Chastotali modulyasiyada yuqori chastotali tebranish oraliq /tekuhaya/ fazasi amplituda bilan birgalikda sinusoidal qonun bo'yicha chastotali modulyasiyaning indeksiga teng holda uzlyuksiz o'zgaradi. Chastotali modullangan tebranishning spektr kengligi past chastotali modullangan kuchlanish amplituda bilan aniqlanadi.

Radio priemnikning asosiy parametrlarini ta'riflang.

Radio priemnikning asosiy kursatkichlariga quyidagilar kiradi: syozuvchanlik, saylanuvchanlik, o'tish palosasi na kuchlanish koeffisienta. Radio priemnikning sezgirligi deb, antennada elektromagnit signallarni (EDS) signallari bilan normal qabul qilishni ta'minlash harakteriga aytildi. Sezgirlik antennadagi yoki uning ekvivalentidagi foy-dali signal ulgani bilan harakterlanadi. Priemnik sezgirligi chegarasi deb, shunday sezgirlikka aytildiki, bunda foydali signaldan detektorlarga kirish shovqin. Radio priemnik saylanuvchanligi deb uning signal aralashmalaridagi va pomehlardagi foydali signal ajratish hususiyatiga aytildi. Radio priemnikning sezuvchanligi uning kuchayishi koeffisientaga bog'lik.

Yuqori chastotali kuchaytirgichning funksiyalarini ta'riflang. Elektrik tebranishlar quvvatini oshiradigan va unga ega bo'lgan qurilmaga kuchaytirgich deb ataladi. Xar hildagi kuchaytirgich sepidan ta'minlanadigan doimiy tok energiya manbasi ishlanish hisobiga signallar quvvatining kuchayishi hosil bo'ladi. Kuchaytirgich turli belgilari bo'yicha klassifikasiyalanadi: Asosiy belgilari bo'lib kuchaytirgich foydalanishi, yyuklama turi va yyuklama lampaga ulanish tartibi hisoblanadi. Kuchaytirgichning tuzilishi ko'pchilik hollarda yyuklama turiga, elektrik harakteristikasiga va uning sxemasiga bog'lik bo'ladi. Kuchaytirgichlar yuklama turiga qarab rezonansli Kuchaytirgichlar va periodik kuchaytirgichlarga bo'linadi. Yuqori

chastotali Kuchaytirgichlar radiolokasion priemniklarda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- 1.Radioimpulslarni quvvati va kuchlanishini kuchaytiradi.
- 2.Priemnikning shaxsiy halaqitning foydali signaliga nisbati kuchaytirib, priemnik sezuvchanligini oshiradi.

Vizual kuzatish tehnik vositalarini ta’rifi quydagicha. Vizual kuzatish tehnika vositalari - bu bino va boshqa joylardagi nazorat ostida bo’lgan bojxona hududlardagi va bojxona zonalaridagi tezkor vaziyat ustidan kuzatuvni ta’minlovchi bojxona nazoratining tehnik vositalari sinfidir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: optik ko’zatuv priborlari - molekulyarli va stereo trubalar, tungi kuzatish priborlari, hamda televidenie lokal /epik/ sistemalari - yagona nazorat puli va nazorat monitorlari orqali masofadan boshqarish televizion kameralar tarmog’i. Audio-video ma’lumot tashuvlarni nazorat qilish tehnik vositasi quydagicha:

Audio-video ma’lumot tashuvlarni nazorat qilish tehnik vositalari bu audio-video ahborotlarni ko’rish, eshitish va o’chirishni ta’minlovchi bojxona nazoratini tehnik vositasi turidir. Bu magnit tashuvchilar /plenkalar, kompakt kassetalar, disklar, EXM disketalariga yozilgan audio-video ma’lumotlar o’chirgichlardir. Xamda foto- kinoplenkalar, slaydlar va mikrofishalardagi tasvirlar chiqarilganda ularni vizual nazoratini ta’minlaydigan tehnik vositalsrdir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: magnitofonlar, videomagnitofonlar, formatlarda yozuvchi pleyerlar, telemonitorlar, mahsus komputerli nazorat sistemalari, foto-kino-slayd-proektorlar, mikrofilmlarni ko’rish qurilmasi hamda audio-video ma’lumotlarni o’chirish qurilmasi. Audio-video ma’lumotlarni o’chirish qurilmasi – bu har hil turdagи magnit tashuvchilarga yozilgan ma’lumotlarni zudlik bilan o’chirishni ta’minlavchi mahsus priborlar. O’chirish kuchi tashqi o’zgarmas yoki o’zgaruvchan magnit maydoni bilan tashuvchiga qisqa muddatli ta’sir o’tkazish yo’li bilan ta’minlanadi.

#### Tezkor aloqa tehnik vositalari:

Tezkor aloqa tehnik vositalari - bu qisqa UKB radioaloqa apparaturalari yordamida bojxona nazorati prosessi ustidan tezkor boshqarishni ta’minlovchi bojxona nazoratining tehnik vositalari turidir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: stasionar /bazoviy/ avtomobil radioaloqa apparaturalari va boshqalar. Ular bojxona hizmati tomonidan alohida ajratilgan radio chastotalarga ishlaydi. Yuqori turuvchi va boshqa bojxona organlari bilan tezkor aloqa qilish uchun esa faksimilli aloqa apparaturalari ishlatiladi. Bu telefon aloqa kanali orqali hujjatlarni

o'zatish va qabul qilish mehanik avtomatik va elektron qurilmalar majmuasidir.

Ko'rikdan o'tkazish asboblari - bu bojxona nazoratini slesarlik, mehanizasiyalashgan asboblarni o'z ichiga oluvchi tehnik vositalari turidir. Bu tur bojxona nazorati jarayonida yyuk so'rovlari va detallarni demontaj, transport vositalari konstryuksiya elementlarini olish uchun zarur bo'lgan tehnologik operasiyalarni amalga oshirishga imkon beradigan turdir. Ko'rikdan o'tkazish asboblariga quyidagilar kiradi: toyka va nakidkali kalitlar to'plami, ombirlar, otvertkalar va shunga o'xshash asboblar.

Bojxona ta'minlovini qo'yish vositalari - bu davlat chegarasi orqali o'tayotgan abonent va hujjatlarga bojxona belgilari va tamg'alarmi qo'yishni ta'minlovchi mahsus uskunalar, materiallar kirafigan bojxona nazoratining tehnik vositalari guruhidir. Bu vositalarga quyidagilar kiradi: plombirotorlar, metall va plastmassa plombalar, turli qulflar, mahsus plombalash vintlari, shaxsiy muhrlar, shtamp yostiqchalari kabilar.

Qidiruv texnika vositalari quydagicha.

Ko'rik ko'zgulari - bojxona nazorati tehnika qidiruv vositalari kompleksining avtotransport ostini va ko'rish qiyin bo'lgan joylarini ko'rik qilish uchun mo'ljallangan, uzun dastakli, almashtirilib turiluvchi, har hil shakl va kattalikdagi teleskopik ko'zguli qo'l asboblar termasidir. Bu asbob mahsus qo'l yoritgichi va topilmalarni ilib olishga moslashtirilgan ilmoq bilan birga qo'llaniladi. Ayrim modeldagagi ko'rik ko'zgular dastagidagi yoritgich avtonom elektrik manbara ega bo'ladi.

Ko'rik shruplarini ta'riflang. Ko'rik shruplari – bojxona nazorati tehnika qidiruv vositalaridan bo'lib, ko'rik qilinayotgan ob'ektni /transport vositasining yumshoq o'rindiqlarini, yumshok upakovka o'ramlarni, korton qutilar va hokazolarni sanchib teshib ko'rish uchun mo'ljallangan moslama. Ular o'ziga hos uslubda toblangan metaldan, turli uzunlikda va qalinlikda tayyorlanadi. Shruplar ko'rilib yotgan ob'ekt tarkibidan namuna olish uchun mahsus shakldagi teshikka ega.

Ko'rik endoskoplari haqida tushuncha bering. Ko'rik endoskoplari - bojxona tehnika vositalarining tehnika qidiruv asboblari sinfiga oid optik uskunadir. Ular avtotransportni ko'rish qiyin bo'lgan joylarini va turli suyuqliklar to'ldirilgan idishlarni, shu jumladan, havfli suyuqliklar /benzin, moy, dizel yonilg'isi va shu kabilar/ solingen idishlarni ko'zdan kechirish uchun mo'ljallangan. Ko'rik endoskoplari 3 hil modifikasiyada ishlab chiqariladi:

1."Qattiq" /baroskoplar/ yorug'lik kuzatuvchi tolali yoritgichi va optik elementi o'rnatilgan, har hil uzunlikda va diametrda metall

trubka ko'rinishida bo'ladi.

2."Yarim qattiq".

3."Egiluvchan" /fleksoskoplar/ tolali optika asosida yaratilgan va ikkita yorug'lik uzatuvchi tolali chilvirga ega. Biri ko'rik qilinayotgan idish ichini yoritishga, ikkinchisi esa, ob'ektiv va okulyar yordamida nazorat qilishni bevosita amalga oshirish uchundir. Endoskoplarning I va 2 modifikasiyalari operativ qo'llanidishda ko'proq foydalaniadi.

Identifikasiya tehnika vositalari - bojxona nazorati tehnika vositasi bo'lib, hujjatlar, muhrlar, tamg'alar qimmatbaho metall va toshlarni asl nusxasi ekanligini aniqlash uchun qo'llaniladi. Shu jumladan, narkotik moddalarini birlamchi tekshirish, ayrim banknotlarni tekshirish uchun kerak, Bojxona tehnika nazoratining bu sinfiga quyidagilar kiradi: tehnik vositalar, bojxona hujjatlarini tekshirish, ultrabinafsha yoritgichlar, kimyoviy reaktivlar to'plami, qimmatbaho tomlar analizatori, qimmatbaho tomlar analizatori, qimmatbaho metallar namunali reaktivlar to'plami va narkotik moddalarini tezkor tahlil qiluvchi kimyoviy reaktivlar to'plami.

Bojxona hujjatlarini tekshirish tehnika vositalarini ta'riflang.

Bojxona hujjatlarini tekshirish tehnika vositalari - bojxona identifikasiyasi tehnika vositalari guruhi, bojxona nazorati davomida taqdim etilgan hujjatlarni asl nusxasi ekanligini, ulardagi tuzatmalarni, o'chirilgan joylarni, qalbakilashtirilgan yerlarini va hakazo tekshiruvini amalga oshirishni ta'minlaydi. Bu tehnika vositalari hujjatlarni tekshiruvdan o'tkazuvchi moslamalar, mitti mikroskoplar, ultrabinafsha cho'ntak yoritgichlarini o'z ichiga oladi. Keyingi paytlarda kombinasiya qilingan hujjatlarni tekshirish asbobi qo'llanilmoqda. Bu asbobda hujjatlarni luminissent eritish, qiya yo'naltirilgan nurlar, ultrabinafsha nurli lampalar, hamda ko'p marotaba kattalashtiruvchi lupalar yordamida tekshirish birgalikda qo'llanilmoqda.

Radiorazvedka - bu radioelektron sistema qurilmalaridan tarqatilayotgan elektromagnit to'lqin tebranishlarini ushlash yo'li bilan ularni joylashishi va qurilma asosiy ko'rsatkichlarini aniqlashga qaratilgan tadbirlar majmuidir. Radiorazvedka mahsus "Radiorazvedka stansiyasi" /RRS/ qurilmasi yordamida amalga oshiriladi va qurilma to'lqinlarni aniqlash, ularni ushlash va qabul qilingan radioelektron to'lqinlarni tahlil qilish imkoniyatlarini beradi.

Radiorazvedka stansiyasi qanday tuzilmalardan iborat?

Radiorazvedka stansiyasi qurilmasi razvedka qilinayotgan radioelektron sistema radioto'lqinlarini antena yordamida "ushlab" olinib radioto'lqin priemnik yordamida tegishli darajagacha kuchaytiriladi va mahsus qurilmalar/indiqator, signal analizatori yoki

hotiraga olish qurilmasi/ga o'zatib o'tkazib beradi. Bu qurilmalar yordamida radioto'lqinlarni aniqlanganligini belgilaydigan va tahlil qiladigan yoki hotira qurilmasiga qabul qilib keyinchalik tahlil qilish uchun hizmat qiladi.

Mahsus elektronrazvedka sistemasining razvedkalash belgilarini ko'rsating.

Razvedka qilinayotgan radioelektron qurilmalar radioto'lqinlarini quyidagi harakterli tomonlarini razvedkalash belgilari /razvednriznaki/ deb atash mumkin.

- radioelektron qurilma ish jarayonini
- radio yoki radiolokasion qurilma yo'nalishini
- qanday chastotada ekanligi
- modulyasiya turini
- impuls takrorlanishi chastotalarini uzunligi va formasini
- impuls seriyalarini takrorlanish chastotasi va uzunligini
- radioto'lqinlarni kodlanishi, quvvati va boshqalarni.

Bundan tashqari Razvedka qilinayotgan radioelektron qurilmaning aniqlangan belgilari orqali ularni turlari, belgilanishi, joylashuvi va ularni ta'sir etish uzoqligi darajasi, antena aylandi tezligi, diagrammalar yuborilishi kengligi va boshqa ko'rsatkichlarni bilish mumkin. Radioelektron qurilmalarini aniqlanishini quydagicha.

Radiorazvedka qurilmasi /RRS/ yordamida radioelektron qurilmalar tomonidan tarqatilayotgan elektromagnit tebranishlarni ushslash va qabul qilish yo'li bilan radioelektron qurilmalarni faoliyat ko'rsatayotganligini faktini aniqlash mumkin. Radioelektron qurilmalar ishslash faoliyatini ikki hil metod bilan aniqlash mumkin, ya'ni ular "qidiruvtsiz" va "qidiruvli" usullaridir.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxonada qo'llanilayotgan radioelektron qurilma ish jarayonini tushuntiring
2. Bojxonada qo'llanilayotgan radiolokasion qurilmaga tushuncha bering
3. radiolokasion qurilmada qaysi modulyasiya turi ishlatiladi
4. Bojxonada qo'llanilayotgan radioelektron qurilmalarda impuls takrorlanishi chastotalarini o' zunligi va formasini aniqlang
5. Bojxonada qo'llanilayotgan radioelektron qurilmalarda impuls seriyalarini takrorlanish chastotasi va uzunligini aniqlang

### **Asosiy abdiyotlar:**

1. Э.Ф. Авдокушин. Международное экономические отношения

- . М.: «Маркетинг», 1999.
2. Э.А.Берков., Э.Ф. Галанжи “ Учебное пособие в помощь слушателям, изучающим таможенное дело”. Москва. 1988 г.
  3. Б.Б. Буглай, Х.Х. Ливенсов « Международное экономическое отношения» - М., “Финансы и статистика”, 1997 г.

#### **4.6. Bojxona nazorati tizimida ekspertiza.**

Ushbu yo’riqnomaga O’zbekiston Respublikasi «Davlat bojxona hizmati to’grisida»gi Qonunning 5-moddasi, Bojxona kodeksining 79, 181, 182-moddalari, O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1997 yil 30 iuldagagi «O’zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo’mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to’grisida»gi 374сонли qarori asosida ishlab chiqilgan bo’lib, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish, shuningdek, bojxona qonunchiligi buzilishi holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish yoki yuritilish vakolati qonunbuzarliklar bo'yicha surishtiruv ishlarini o'tkazish jarayonida O'zbyukiston Respublikasi bojxona organlari tomonidan bojxona labaratoriyalarda ekspertiza tayinlash, o'tkazish, hulosa berish qoidalarini belgilab beradi.

Bojxona ekspertizasida qo’llanilgan terminlar va qisqartmalar:  
BKB-bojxona qoidalarini buzilishi.

TIF TN- Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi.

Laboratoriya – Markaziy bojxona laboratoriysi. Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriysi, hududiy bojxona laboratoriyalari.

Materiallar – hujjatlar, ekspertiza uchun zarur bo’lgan barcha ma'lumotlar, namuna va sinamalar.

Xududiy bojxona boshqarmalaridan tovarlar va ashyoviy dalillarni ekspertizadan o’tkazish uchun namuna (sinama)lar olish, ularni O’zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo’mitasining Markaziy bojxona laboratoriysi, hududiy bojxona laboratoriyalari va Oliy harbiy bojxona instituti Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasida (bundan keyin matn davomida – Laboratoriya yuborish), O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003 yil 29 avgustda 1269-raqam bilan ro’yhatga olingan «O’zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o’tilayotgani tovarlarning namuna va sinamalarini bojxona organlari tizimida tasarruf qilish tartibi to’grisida»gi yo’riqnomaga asosida amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratiga olinishi lozim bo'lgan barcha tovarlar va tovar hujjatlari hamda bojxona nazoratini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar bojxona ekspertizasi ob'ektlari bo'lishi mumkin.

Bojxona ekspertizasi quyidagi maqsadlarda o'tkaziladi:

tovarning TIF TN bo'yicha kod raqami to'gri tasniflanganligini nazorat qilish;

tovarni qayta ishlangandan so'ng uni (tasdiqlangan uslub asosida) identifikasiya qilish;

tovarning navi, turi, markasi, va asosiy sifat ko'rsatkichlarini tegishli organlar tomonidan berilgan rasmiy hujjatlar asosida nazorat qilish;

tovarni ishlab chiqarish tehnologiyasini o'rganish;

tovarning taqdim etilgan hujjatlar asosida kimyoviy tarkibi va zaharli moddalarga tegishli ekanligini o'rganish.

Yuqorida qo'yilgan masalalarni hal qilishda Laboratoriya bojxona ekspertizasining quyidagi turlari o'tkaziladi:

tovarlarning TIF TN bo'yicha tasniflanishi;

tovarshunoslik;

materialshunoslik;

identifikasion (shartnoma tuzishdan oldin tasdiqlangan va shartnomada ko'ratilgan uslub asosida):

kimyoviy va boshqalar.

Bojxona ekspertizalari:

tovarlarning bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida Laboratoriya;

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha yuzaga kelgan bahs-munozarali hollarni yechishda, O'zbekiston Respublikasining bojxona va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarining qarorlariga asosan, shuningdek O'zbekiston Respublikasining bojxona yoki boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarida hududiy bojxona laboratoriysi eksperti bergan hulosaga shubha tugilganda, murakkab hamda qayta ekspertizalar Markaziy bojxona laboratoriyasida va Tovarlarni kimyoviy tarkibi asosida sinflash va sertifikatlash laboratoriyasida shahodatlangan sohalari bo'yicha Laboratoriya o'tkaziladi.

Ekspertiza jarayonida ekspertlar bilan bir qatorda, soha mutahasislari ham qatnashishlari mumkin.

Ekspertiza Laboratoriya joylashgan manzilda o'tkaziladi. Zaruriyat tug'ilganda ekspertiza-tadqiqot ishlari boshqa joy (ilmiy-

tadqiqot muassasalari korxonalar va boshqa tashkilotlarda ham o'tkazilishi mumkin.

Bojxona ekspertizasini tayinlash

Bojxona ekspertizasi.

tovarning bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida bojxona organi boshlig'ining murojaat hati bilan (tovarlar ro'yhati 1-ilovada keltirilgan);

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi ko'zda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish va jinoiy ish bo'yicha o'tkazilayotgan dastlabki surishtiruv jarayonida mansabdor shaxs tomonidan qabul qilingan qarori asosida tayinlanadi.

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritayotgan marsabdor shaxsning ekspertiza tayinlash to'grisidagi qarori Davlat bojxona qo'mitasi raisi o'rribosari yoki hududiy bojxona boshqarma boshliqlari tomonidan tasdiqlanadi.

Qo'shimcha va qayta ekspertizalar yangi ekspertiza sifatida umumiy qoidalar asosida tayinlanadi.

Ekspertiza tayinlash to'grisidagi murojat hatida quyidagilar ko'rsatilishi lozim:

- ekspertiza tayinlagan bojxona organining nomi;
- ekspertiza tayinlangan sana;
- ekspertiza amalga oshiradigan Laboratoriya nomi;
- ekspertlar oldiga qo'yilgan savollar;
- ekspertizaga taqdim qilingan hujjatlar (raqami, berilgan sanasi, varaklar)

ekspertiza tayinlangan bojxona organining nomi, manzili, qaror qabul qilingan sana, ekspertizani o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarga tegishli BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish to'grisidagi yoki jinoiy ishning tartib raqami;

- ekspertizani tayinlash shaxsning mansabi, ismi-sharifi;
- ekspertiza amalga oshiradigan Laboratoriyaning nomi;
- ekspertiza o'tkazilishiga sabab bo'lgan asoslar;
- ekspertlar oldiga qo'yilgan savollar;
- ekspertizaga taqdim qilingan hujjatlar va ashyolar ro'yhati (materiallar, namuna (sinama)Lar, namuna (sinasa) olinganlik to'grisidagi dalolatnoma, bojxona yyuk deklarasiyasi, invois, tovar-transport hujjarlari konosament, sertifikatlar, davlat standartlari, tehnik shartlar, sifat sertifikatlari (mahsulot pasporti), tehnologik reglament,

chizmalar, fotosuratlar, kiyosiy tahlil uchun namuna (sinama)lar va ularga tegishli hujjatlar, ekspertiza ob'ektiga tegishli boshqa ma'lumotlar va ekspertiza o'tkazishga aloqador boshqa hujjatlar hamda ashyolar).

qo'shimcha va qayta ekspertizalar tayinlanganda dastlabki ekspert hulosasi va Ushbu hulosa berilishiga asos bo'lgan barcha, shuningdek, dastlabki ekspert hulosasi berilgandan so'ng kelib tushgan qo'shimcha materiallar.

O'zbekiston Respublikasi bojaxona organlarining qarori yoki murojaat hatiga asosan ekspertiza respublika hududida joylashgan ekspert muassasalari, Laboratoriya, shahodatlangan lavozimdag'i Davlat bojaxona qo'mitasi xodimlari tomonidan, hamda Fan-tehnika, san'at va boshqa sohalardagi mutahasislarni jalg qilgan holda oshirilishi mumkin.

Laboratoriya BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarini yuritish bo'yicha, bojaxona nazoratini amalga oshirish jarayonida o'tkaziladigan ekspertizalarda mulkchilik shaqli, idoraviy buysunish va tegishliligidan qat'iy nazar, har qanday davlat va nodavlat tashkilot, korxona mutahasislari, shu jumladan ekspert muassasalarining ekspertlarini jalg qilish huquqiga ega.

Mutaxasisni jalg qilish tartibi Ushbu mutahasis ishlayotgan muassasa tomonidan belgilanadi.

Ekspertiza boshqa ekspert muassasalarida o'tkazilganida, ekspertning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi asosida huquq va majburiyatları Ushbu ekspert muassasasining boshlig'i tomonidan tushintiriladi.

Laboratoriya boshlig'i ekspertizani o'z vaqtida va ushbu yo'riqnomaga talablariga aniq rioya qilgan holda o'tkazilishini nazorat qiladi.

Laboratoriya boshlig'i ekspertiza o'tkazish jarayonida:

Laboratoriyaga yo'llangan materiallarni qabul qiladi va yozma ravishda bir yoki bir nechta ekspertlarga ekspertiza o'tkazish to'grisida topshiriq beradi. Ularning huquq va majburiyatlarini tushuntiradi, bilgan holda yolg'on hulosa bergenlik, ekspertiza o'tkazishdan bosh tortish yoki rad qilish uchun javobgarlik to'grisida ogohlantiradi.

Ekspertiza o'tkazish muddatini belgilaydi. Agar 5 ish kunida ekspertizani to'liq o'tkazish imkoniyati bo'lmasa, bu haqida Davlat bojaxona qo'mitasi raisi o'rinosariga habar beradi va uning roziligi Bilan qo'shimcha 10 ish kunigacha muddat belgilaydi. Ekspertiza tayinlagan organiga ekspertiza uchun zarur bo'lgan qo'shimcha

materiallar talab qilib surovnama uborgan vaqtdan boshlab, Ushbu materiallar ekspertizaga taqdim qilingan yoki surovnomani rad qilish to'grisida habarnoma olingan kungacha bo'lган vaqt ekspertiza o'tkazish muddatiga kirmaydi.

Ekspertlarga iomiy-uslubiy yordam beradi, ekspertiza natijalari Bilan tanishadi va uning tahlilini nazorat qiladi.

Laboratoriya boshlig'inining yozma ko'rsatmasi va ekspertizaga taqdim qilingan materiallarni olganidan so'ng ekspert ekspertiza o'tkazishga kirishadi.

Ekspertiza o'tkazish uchun taqdim etilgan ma'lumotlar yetarli bo'lmasa, ekspert materiallarni qabul qilgan vaqtdan boshlab bir ish kuni davomida bu haqida Laboratoriya boshlig'iga yozma ravishda murojaat qiladi.

Ekspertiza qonunchilikda belgilangan tartibda rasmiylashtirilmagan materiallar taqdim etilganligi aniqlanganda Laboratoriya boshlig'i bu to'grida bir ish davomida ekspertizani tayinlagan organ yoki mansabdar shaxs kamchiliklarni bartaraf qilish uchun hech karday chora-tadbirlar qo'llamasa, u holda habar berilgan kundan boshlab besh ish kuni o'tgach, Laboratoriya boshlig'i ekspertning ekspertiza o'tkazish imkoniyati yo'qligi haqidagi habarnomasiga ilova qilgan holda, materiallarni qaytarib yuborish huquqiga ega. Laboratoriya boshlig'i ekspertiza tayinlagan organga:

Taqdim qilingan materiallar ekspertiha o'tkazish yoki ob'ektiv hulosa berish imkonini bermasa;

Ishni har tomonlama chyukur o'rganish uchun turli soha ihtisoslashgan ekspertlarni jalb qilish zaruriyati tug'ilsa, o'tkazilgan tadqiqotlar natijalarini umumlashtirish va umumiy hulosaga kelish maqsadida kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza o'tkazish tashkil qilinadi.

Laboratoriyada kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza o'tkazish uchun Laboratoriya boshlig'i ekspertlar hay'ati faoliyatini tashkil eti shva muvofiqlashtirishni taminlaydigan yetakchi ekspertni taminlaydi.

Ekspertlar hay'ati boshlig'i bo'lган etakchi ekspert BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha o'tkazilayotgan ekspertizada boshqa ekspertlar Bilan bir hildagi huquq va majburiyatlarga ega, hamda ekspertiza masalalarini hal etishda hech qanday ustunlikka ega emas.

Yetakchi ekspertning vazifasi kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza oldiga qo'yilgan vazifalarni ilmiy asoslangan vat ulik hal

qilinishi uchun ekspertlarning bilim va tajribalaridan imkonи boricha samarali foydalanishni tashkil etishdan iborat.

Kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza o'tkazilganda ekspertlar umumiy hulosaga kelsalar ular bitta hulosaga imzo qo'yadilar. Ekspertlarning fikrlari har hil har bir ekspert alohida hulosa beradi.

Xududiy bojxona laboratoriyalari belgilangan tartibda Markaziy bojxona laboratoriyasiga har oy yakuni bo'yicha hisobot beradi.

Ekspert hulosasi uch qismdan iborat: kirish, tadqiqot va yakuniy (2-ilova).

Xulosaning kirish qismida ekspertiza o'tkazish uchun tilhat bergen ekspertning ismi-sharifi va tilhat berilgan sana, hulosa qayd etilgan tartib raqami, hulosa berilgan sana, eksporter va importer haqida ma'lumot, tovar yoki namuna (sinama) nomi, materiallar ekspertizaga qabul qilingan sana va ro'yhati; ekspertizani amalga oshirish uchun asos (topshiriq, qaror, murojaat hati).

Qayta va qo'shimcha ekspertizalarni amalga oshirishda hulosaning kirish qismida dastlabki ekspertiza to'grisidagi ma'lumotlar ham keltiriladi (hulosa raqami, sanasi, kim tomonidan berilgan).

Kompleks yoki komissiyaviy ekspertiza o'tkazilayotganda hulosaning kirish qismida yetakchi ekspertning ismi-sharifi ko'rsatiladi. Kompleks yoki komissiyaviy ekspertizaga qo'yilgan umumiy savollarni yechishga ta'sir qiladigan alohida o'tkazilgan avvalgi ekspertizalar haqida ma'lumotlar keltiriladi.

Xulosaning tadqiqotlar qismida ekspertiza natijalari tavsiflab, shuningdek aniqlangan holatlar bo'yicha ilmiy-uslubiy tushintirishlar beriladi.

Xulosaning tadqiqotlar qismida quyidagilar ko'rsatiladi:

aniq ifodalangan va o'tkazilgan tadqiqot uslublari to'grisida ma'lumotlar;

qo'yilgan savollarni yechishda ekspert amal qilgan me'yoriy-ma'lumot materiallari (davlat standartlari, tehnik sharoitlar, buyryyuklar, ko'rsatmalar va boshqalar);

tovar namunalari va dastlabki ma'lumotlarni ko'zdan kechirish, tekshirish, tajriba o'tkazish natijalari;

ilovalar va ularga tegishli tushintirishlar.

Qo'shimcha ekspertiza o'tkazish jarayonida dastlabki ekspertiza natijalaridan foydalanilgan bo'lsa, bu haqida qo'shimcha ekspertiza hulosasining tadqiqotlar qismida ko'rsatilishi mumkin. Agar qayta

ekspertiza natijalari Bilan dastlabki ekspertiza natijalari bir-biriga mos kelmasa, buning sabablari ko'rsatilishi lozim.

Ekspert hulosasining yakuniy qismi aniq va ravshan ifodalanishi lozim.

Ekspertiza oldiga qo'yilgan ba'zi savol javob berishning imkonini bo'lmanan hollarda hulosada uning sabablari ko'rsatiladi.

BKBni oldini olish uchun beriladigan takliflar hulosaning yakuniy qismida ko'rsatilishi shart.

Xulosa ekspertizani bevosita o'tkazgan ekspert tomonidan imzolanadi va muhr bilan tasdiqlanadi.

Xulosaga jadvallar va grafiklar ilova tariqasida berilganida ular ham ekspert tomonidan imzolanadi va muhr Bilan tasdiqlanadi. Ushbu ilovalarda tegishli hulosaning tartib raqami va berilgan sanasi yozib qo'yiladi.

Xulosa va uning ilovalari ikki nusxada to'zilib, uning birinchi nusxasi ekspertiza tayinlagan organga yuboriladi, ikkinchi nusxasi Laboratoriyaga qoladi.

Komissiyaviy va kompleks ekspertizalar o'tkazilganda hulosa nusxalari soni ekspertiza tayinlagan organ va ekspertizada qatnashgan har bir ekspert muassasasiga yuborish uchun yetarli miqdorda tuzilishi lozim.

Ekspert hulosasining saqlanish muddati 3 yil.

Davlat bojxona qo'mitasi raisi o'rribosari (yoki hududiy bojxona boshqarmasi boshlig'i) tovarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lган shaxsning murojatiga va Laboratoriya boshlig'inining tavsiyanomasiga binoan, aynan bir korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tovarni ko'p ko'p sonli partiyalariga berilgan ijobjiy ekspert hulosasi asosida butun shartnomha hajmida tovarning bojxona rasmiylashtiruvini Laboratoriya ekspertizasisiz amalga oshirishga ruhsat berish huquqigi ega.

Xulosa berishning imkoniyati yo'qligi to'grisidagi habarnoma uch qismidan: kirish, asoslovchi va yakuniy qismlardan iborat bo'ladi.

Kirish qismida Ushbu yo'riqnomaning 32-bandida aks ettirilgan ma'lumotlar ko'rsatiladi.

Xabarnomaning asoslovchi qismida hulosa berishga imkon bermagan sabablari aniq keltiriladi.

Yakunlovchi qismida ekspert oldida qo'yilgan savollarga javob berish imkoniyati yo'qligi ko'rsatiladi.

Xulosa berish imkoniyati yo'qligi to'grisida habarnoma ekspert tomonidan imzolanadi, muhr bilan tasdiqlanadi va bir nusxasi ekspertiza

tomonidan imzolanadi, muhr bilan tasdiqlanadi va bir nusxa tayinlagan ekspertiza tayinlan organga yuboriladi ikkinchi nusxasi Laboratoriyada qoladi.

Ekspertlarning huquqlari va majburiyatları, shuningdek hulosa berishdan bosh tortganlik, bila turib noto'gri hulosa bergenlik uchun jiroiy javobgarlikka tortilishi to'grisida ogohlantirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ekspert oldiga qo'yilgan savollar va uning bergen hulosasi ekspertning mahsus bilimlari doirasidan tashqariga chiqish mumkin emas.

Ekspertning majburiyatları:

ekspertiza natijalarini ob'ektiv baholashdan kelib chiqib, o'z oldiga qo'yilgan savollar bo'yicha asoslangan holda, hulosa beradi;

agar taqdim etilgan ma'lumotlar ekspert oldiga qo'yilgan vazifani faqat dir qisminigina hal etish imkonini bersa, ekspertizaga taqdim etilgan materiallar ustida tadqiqotlar o'tkaziladi;

ekspertga Laboratoriyaning imkoniyat doirasida bo'lмаган vazifalarni hal etish topshirilgan bo'lsa, u holda buning sabablarini asoslab yozma javob beradi;

BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritayotgan mansabdor shaxs (surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudya)ning chaqiruvchmga asosan o'zi bergen hulosa yuzasidan tushintirishlar va o'zi bilgan qo'shimcha ma'lumotlarni beradi;

ekspertizani tayinlagan surishtiruv o'tkazayotgan organning ruhsatisiz BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha o'tkazilgan ekspertiza natijalarini yoki surishtiruv natijalarini oshkor qilmaydi;

ekspertiza o'tkazish jarayonida havfsizlik tehnikasiga rioxqa qiladi;

laboratoriya boshlig'ining yozma ravishda topshirigisiz materiallarning ekspertizasini o'tkazmaydi;

o'ziga topshirilgan ekspertizani amalga oshirish jarayonida Laboratoriya boshlig'ining ruhsatisiz boshqa mutahasislarni jalb etmaydi;

ekspert vakolat doirasida bo'lмаган masalalarni hal qilmaydi;

bojaxona nazoratini amalga oshirish jarayonida mutaxasis sifatida avval qatnashgan bojaxona eksperti mazkur tovar ekspertizasida ekspert sifatida qatnashmaydi.

Ekspert quyidagi huquqlarga ega:

ekspertiza ob'ekti bo'lgan materiallar (hujjatlar, namuna va sinamalar) bilan tanishish, tegishli joylardan ekspertiza uchun zarur materiallarni so'rab olish;

ob'ektiv hulosa berish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha materiallarni ekspertiza tayinlagan organ yoki mansabdor shaxsdan taqdim etilishini talab qilish;

taqdim etilgan materiallar ekspertiza o'tkazish uchun yetarli bo'lmasa, shuningdek ekspert oldiga qo'yilgan savollarni uning mahsus bilimlari asosida hal qilish mumkin bo'lmasa, hulosa berish imkoniyati yo'qligi to'grisida ma'lum qilish;

tovarlarni tegishli hujjatlarda aks ettirilgan ma'lumotlardan, boshqa mutahasislar hulosalaridan, BKB holatlari yuzasidan rasmiylashtirilgan ishlarni yuritish bo'yicha javobgarlikka tortilayotgan shaxslarning, shuningdek Ushbu ishlar bo'yicha guvohlarning bergen tushintirish va ko'rsatmalaridan, jinoiy ishlar bo'yicha guman qilinayotgan shaxslarning ko'rsatmalaridan va boshqa materiallardan foydalanish;

qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda e'tiroz bildirish;

bergan hulosadagi kamchiliklarni to'ldirish yoki qo'shimcha ekspertizani amalga oshirish.

Bojxona ekspertizasi natijasida tovarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga hos kodi BUDda noto'gri belgilanganligi aniqlasa Ushbu holat bojxona rahbariyatiga ma'lum qilinadi.

O'tkazilgan ekspertiza natijasida tovarning Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasiga hos kodi BUDda noto'gri belgilanganligi aniqlangan holat bojxona laboratoriyasida uritilgan kitobda qayd etiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona ekspertizasi deganda nima tushunasiz?
2. Tovarlarni biologik ekspertizadan o'tkazish?
3. Tovarlarni himik ekspertizadan o'tkazish.
4. Tovarlarning fizikaviy hususiyatlari?
5. Tovarlarni bojxona ekspertizasidan o'tkazish tartibi qanday?
6. Narkotik vositalarini bojxona ekspertizasi.
7. Dori - darmonlarni bojxona ekspertizadan o'tkazish tartibi.
8. Sa'nat asarlari va ularni bojxona ekspertizasidan o'tkazish.
9. Bojxona ekspertizasi uchun probalar olish.
10. Ozik-ovqat mahsulotlarini bojxona ekspertizasidan yuktkazish.

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2006 yil.
3. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y.
4. А.Д. Эршов Международное таможенное отношения : учеб. пособ. IBESEP, 2000 г.
5. Б.М. Хазаненко, К.С. Хазаненко Таможенное обслуживание внешнеэкономической деятельности – М.: Экзамен, 2001 г.

### **4.7.Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari.**

Bojxona rejimi - O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalrining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui. Bojxona rejimlarini ikki guruhga bo'lish mumkin:

birinchi guruhga erkin muomalaga chiqarish, eksport, reimport, reeksport rejimlarida tovarlar shaxsga ixtiyoriga to'liq o'tadi.

Ikkinci guruhda - bojxona organi tomonidan o'rnatilgan shartlarga rioya etilgan holda, tovaralardan ma'lum maqsadida foydalanish ko'zda tutilgan - Bojxona ombori, vaqtincha saqlash, Erkin bojxona va ombor zonasiga, vaqtinch olib kirish va olib chiqish, boj olinmaydigan savdo do'koniga, tranzit, qayta ishlash, yo'q qilish, davlat foydasiga voz kechish.

Ikkinci guruhdagi rejimlar ko'pchiligi maqsadi savdo sotiqni, ishlab chiqarishni, xalqaro transportni rivojlanishga va har hil iqtisodiy muomalarni yechishga qaratilgan.

**Erkin muomalaga chiqarish** shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar ularni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatsiz bu erda doimiy qoladi. Bu rejim import bojlarini, Soliqlarni va boshqa boj to'lovlarini to'lashni, iqtisodiy siyosat choralariga hamda boshqa chora tadbirlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar egalik qiluvchi shaxslar ixtiyoriga berilib bojxona nazorati olinadi va davlat qonunlari belgilangan tartibda boshqa rejimga o'tkazish mumkin bo'ladi. Erkin

muomalaga chiqarilgan tovarlar asosan horijiy davlatlardan savdo sotiq shaqlidagi kontraktlar asosida kelib tushadi.

Bu rejim o'ziga hos bir nechta hususiyatlari ega. Ayrim tashqi iqtisodiy aloqalar faoliyatida hayriya va tehnik yordam sifatida tovarlarni mamlakat shaxslari qabul qiladigan bo'lsa bojxona organi tomonidan bu tovarlarni erkin muomalaga chikairsh bojlardan va Soliqlardan ozod qilingan holda rasmiylashtiriladi. Agar mamlakat shaxslari hoiidan tuhfa sifatida tovar yoki transport vositalarini olsalar erkinmuomalaga bojxona to'lovlari to'liq to'langan holda amalag oshiriladi. Yana bir hususiyatlaridan erkin muomalag chiqarilagn tovarlar respublika tovari nomini oladi. Shuning uchun bu rejimdan boshqa rejimga o'tkazilgnada bu tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari va bojxona to'lovlari to'lash va boshqa chora tadbirlarga rioya etiladi.

**Reimport** shunday rejimki, bunda eksport rejimida bojxona hududidan olib chiqilgan O'zbekiston tovarlari import bojlarini, Soliqlarni to'lamasdan, shuningdek ularga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmagan holda belgilangan muddatlarda qayta olib kiriladi. Olib chiqilgan vaqtidan boshlab 10 yil ichida bojxona hududiga qaytarib olib kirilgan, tabiiy eskirish yohud normal tashish va saqlash sharoitlaridan kamayish oqibatidagi o'zgarishlar hamda qonun hujjatlarida belgilanadigan boshqa hollarni istisno etganda, olib chiqilgan paytda qanday bo'lsa. Shunday holatda turgan tovarlar reimport rejimiga joylashtiriladi.

Tovralarni eksport rejimida olib chiqilayotganda to'langan eksport boji va Soliqlari summusi, bu tovarlar olib chiqilgan paytdan boshlab uch yil ichida reimport rejimida qaytarib olib kirilgan taqdirda, bojxona organining taqdimnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda qaytariladi.

Tovaralar reimport qilinganda tovarlarni olib o'tayotgan shaxs tovarlarni olib chiqish chogida to'lov tarzida yoki boshqa imtiyozlar tufayli olgan summalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytaradi.

1. Tovralarni olib chiquvchi va olib kiruvchi bitta shaxs bo'lishi lozim;
2. Bojxona organiga eksport to'lovlari to'langan va rasmiylashtirilgan BUB to'lovlarnomalar va to'lovlarni bojxona organi hisobiga tushganligi yoki bu to'lovlardan o'z navbatida budgetga o'tkazilagni to'grisidagi hati bo'lishi lozim.

### 3. To'lovlarini qaytarish to'grisida ariza.

Tovralarni reimplort rejimida mamlakatdan qaysi shaxs olib chiqqaniga qaramasdan har qaysi shaxs olib kirishi mumkin.

Reimport rejimiga horijiy tovarlarni va respublika tovarlarni vaqtincha olib chiqish, tranzit, bojxona territoriyasidan tashqarida qayta ishslash rejimidagi tovarlarni kiriti bo'lmaydi.

### ***Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazishda bojxona yyuk bayonnomasini qo'llash***

Kioto konvensiyasi tavsiyalari bojxona deklarasiyasi taqdim etilgunga qadar bojxona rasmiyat chiliklari eng kam, xalqaro savdo uchun eng kam noqulaylik yaratuvchi oddiy bo'lishi kerakligini alohida ta'kidlaydi. Yuqorida aytib o'tilgan maqsadlar uchun taqdim etiladigan hujjatlar horijiy tilda taqdim etilgan taqdirda bojxona, odatda, ularning o'z milliy tiliga tarjima qilinishini talab qilmasligi kerak.

Ko'pchilik mamlakatlarda amal qiluvchi qoidalar, shuningdek, quyidagilarni nazarda tutadi:

- Yuklar va transport vositalari mamlakat bojxona chegarasini kesib o'tishi mumkin bo'lgan punktlar milliy qonun hujjatlari bilan belgilanadi;
- Yuzni tashuvchi yuksalar bojxona rasmiylashtiruvি punktiga shikastlanmasdan yoki tovarlarning o'rami, tashqi ko'rinishi va hususiyati o'zgartirilmamasdan tashilishi uchun javobgar bo'ladi;
- Yuk bojxonaga uning ish vaqtidan tashqari paytda kelgan taqdirda, bojxona ma'murlari qo'shimcha haq evaziga bojxonani ochishlari va transport vositalari hamda yuksalni o'tkazib yuborishlari kerak;
- Bojxona ma'murlari horijiy bojxona hizmati tamg'asini tan olishlari, biroq, bojxona rasmiylashtiruvি punktiga berayotgan yukska o'z tamg'alarini qo'yishlari mumkin;
- Import qilinayotgan mamlakatning bojxona hududiga borish yo'lida avariya o'z bergen, yuks shikastlangan yoki nobud bo'lgan taqdirda, bojxona ma'murlari tomonidan e'tirof etiladigan dalolatnomalar tuzilishi kerak.

Maqsadi ichki iste'mol yoki eksport uchun yuksalarning bojxona rasmiylashtiruvি operasiyalar majmuidan iborat. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: bojxona deklarasiyasini va unga ilova qilingan hujjatlarni taqdim etish, ularni tekshirish va qabul qilish, tovarlarni bojxona taqdim etish va ularning bojxona nazoratidan o'tkazilishi ehtimoli, bojlar va

yig’imlar hisoblab chiqilishi va to’lanishi, tovarlarning bojxona tomonidan chiqarilishi.

Dunyoning ko’pchilik mamlakatlarida bojxona rasmiylashtiruvi ham chegara bojxona muassasalari, ham mamlakatning bojxona hududi ichida joylashgan bojxona muassasalari tomonidan amalga oshiriladi. Eksport va import yyuklarini o’tkazish bo’yicha operasiyalarni amalga oshiruvchi bojxonalar ro’yhati muntazam ravishda e’lon qilinadi. Ko’pchilik mamlakatlarda tovarlarning ayrim o’ziga hos toifalarini bojxona nazoratidan malakali xodimlarga ega bo’lgan, buning uchun mahsus mo’ljallangan bojxona muassasalari tomonidan o’tkazishni nazarda tutuvchi tartib amal qiladi. O’zbekiston Respublikasining bojxona qonunchiligidagi bojxona organlarining tashqi iqtisodiy faoliyatni, shu jumladan tashqi savdo faoliyatini tartibga solish tizimidagi o’rni va ahamiyati belgilangan.<sup>1</sup> Shuningdek, bojxona ishiga oid qonunchilikda tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvi tehnologiyasi belgilangan.

Bojxona qonunchiligiga asosan **bojxona nazorati** – mamlakat bojxona organlari tomonidan bojxona ishiga oid qonunchilikka, hamda mamlakat qonunchiligi va mamlakatning horijiy mamlakatlar, xalqaro tashkilotlar bilan to’zgan shartnomalari talablariga rioya etilishini ta’minalash maqsadida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuasidir.


**Bojxona rasmiylashtiruvi** – tovarlar va transport vositalarini Aniq bir bojxona rejimi ostiga qo’yish va bu rejimning ta’sirini tugatilishi bilan bog’liq bo’lgan taomildir.

Bojxona chegarasi orqali, tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlari tomonidan, olib o’tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o’tkazish jarayonlarini bojxona organlari zimmasiga yyuklatilishining sababi shundaki, bojxona organlarida olib o’tilayotgan barcha tovarlar bo’yicha ma’lumotlarni yig’ish, ularni taqqoslash, qayd etish, hatoliklarni to’g’rilash, bojxona qoidalarini buzilishi bilan bog’liq bo’lgan vaziyatlarni aniqlash va bartaraf etish, qoidabuzarliklarga yuridik nuqtai nazardan baho berish imkoniyatlariga egadirlar.

Bojxona organlarining bojxona nazoratini o’tkazishdagi asosiy funksiyalari quyidagilardan iborat (1-rasm).

---

<sup>1</sup> O’zbekiston Respublikasining bojhona kodeksi, T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2016 yil, 8-9 betlar.



## **2-rasm. Bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona organlarining asosiy funksiyalari**

Bojxona nazorati ob'ektlariga:

- bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari;
- ular to'g'risidagi ma'lumotlar va hujjatlar;
- bu tovarlarga aloqasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar – tovar egalari, ularning topshiriqlari bo'yicha harakat qiluvchi shaxslar – bojxona brokyerlari, deklarantlar, bojxona tashuvchilari boshqalar, ularning hujjatlari. Joriy holatlarni tovarlar va transport vositalarini

bojxona chegarasi orqali olib o'tish bo'yicha belgilangan tartibga mos kelishi; tovarlar va transport vositalari uchun bojxona organlarining ruhsatiga ko'ra deklarantlar tomonidan tanlangan bojxona rejimlarini taqdim etish va ularga rioya etish.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasi ni bojxona hududida tashkil etiladi va amalga oshiriladi, eng avvalo bojxona nazorati zonalarida, shuningdek erkin hududlarda va erkin omborlarda amalga oshiriladi. Bojxona nazorati sub'ektlariga mamlakat bojxona organlari tizimi, bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tishga aloqador bo'lgan tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari, bojxona chegarasini kesib o'tuvchi va shaxsiy buyumlarini olib o'tuvchi va boshqa shaxslar bilan o'zaro aloqalarda hokimiyat vakillari funksiyasini bajaruvchi mansabdar shaxslar kiradi.<sup>1</sup> (2-rasm).


Bojxona nazorati sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona qonunchiligi talablariga rioya etishlarini tekshirishlari, bunday tekshirishlar uchun ma'lumotlar bazasini tayyorlash, qarorlar qabul qilish huquqiga egadirlar.

Bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish ularning bojxona chegarasidan o'tishlarini qonuniyligini aniqlash va taqiqlashdir.<sup>1</sup> Bojxona ishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo'lmiss bojxona nazorati tartibi va shakllarini amalda qo'llamaslik yoki noto'g'ri qo'llash tovar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvisiz olib o'tishga, bojxona qoidalarining buzilishiga olib keladi. Bu bilan o'z navbatida bojxona qoidabuzarliklari yuz beradi va Respublika budgetiga mablag'lar tushmay, mamlakat iqtisodiyotiga ziyon yetkazilishi mumkin.

Bojxona nazoratining maqsadi – O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to'g'risida»gi va «Davlat bojxona hizmati to'g'risida»gi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarda ko'rsatilgan huquqiy me'yorlar talablarining ijrosini ta'minlashdan iboratdir.

<sup>1</sup> В.Г.Драганов. «Основы таможенного дела». Учебник. М.: Экономика, 1998 г. 108-109-стр.

<sup>1</sup> В.Г.Драгонов. «Основы таможенного дела». Учебник. М.: Экономика, 1998 г. 103-106стр.



### 3-rasm. Bojxona nazoratining tashkiliy qismlari.

Bojxona nazorati asosan quyidagi jarayonlarni amalga oshirilganligini nazoratga oladi. Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilariga quyidagi vazifalarni bajarish talab etiladi:

- ho'jalik yurituvchi sub'ektlarni Tashqi iqtisodiy aloqala agentligidan ro'yhatdan o'tkazish;
- barcha turdagи TIF uchun shartnomalar tuzish;

- import va eksport tovarlar uchun mahsus lisenziyalar olish;
- kvotalash, mahsus ruhsatnomalar olish;
- tovar-transport hujjatlarini rasmiylashtirish;
- bojaxona to'lovlarini to'lash;
- tovarlarni belgilangan joyga o'z vaqtida etkazish;
- tovarlarni deklarasiyalash;
- tovarlarni vaqtincha saqlov omborlariga qo'yish;
- erkin muomalaga chiqarilgan tovarlar tasarrufidir.

O'zbekiston Respublikasi Bojaxona kodeksining 40-moddasida ko'rsatilishicha, O'zbekiston Respublikasining bojaxona chegarasi orqali olib o'tiladigan hamda shartli chiqarib yuborilgan tovar va transport vositalari bojaxona nazoratidan o'tkazilishi lozim. Bojaxona nazorati bojaxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan BKning 39-moddasiga asosan quyidagi shakllarda o'tkaziladi:

bojaxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish; bojaxona organlari tomonidan ko'rikdan o'tkazish (tovarlar va transport vositalarini ko'rikdan o'tkazish, shaxsni ko'rikdan o'tkazish); tovarlar va transport vositalarini hisobga olish; jismoniy va mansabdor shaxslarni og'zaki so'rab-surishtirish; hisobga olishni va hisobotni tekshirish; bojaxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan hududlar va vaqtinchalik saqlash omborlarini, bojaxona omborlarini, erkin omborlarni, boj olinmaydigan savdo do'konlarining honalarini, erkin hududlarni va boshqa joylarni ko'zdan kechirish.

Bojaxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish:

Bojaxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxslar, bojaxona organlaridagi zimmasiga nazorat qilish vazifasi yyuklatilgan shaxslarga taqdim etish tartibi bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan hujjatlar va ma'lumotlarni topshiradilar.

Bojaxona nazoratini amalga oshirish uchun bojaxona organlari banklardan, boshqa moliya-kredit muassasalaridan va ho'jalik yurituvchi sub'ektlardan eksport-import operasiyalari hamda nazorat qilinishi bojaxona organlari zimmasiga yyuklatilgan faoliyatning barcha turlariga doir ma'lumotlarni olishga haqlidir. Bojaxona nazorati uchun zarur bo'lgan hujjatlar shaxslar tomonidan kamida uch yil davomida saqlanishi lozim.

Xujjatlar va ma'lumotlar ro'yhati, ularni taqdim etish tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojaxona Qo'mitasining me'yoriy

hujjatlari bilan belgilanadi. Bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar belgilanishlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadilar: transport; savdo; bojxona; boshqa.

Transport hujjatlariga: nakladnoylar, konosamentlar, manifestlar, yo'l vedomostlari, o'zatiladigan vedomostlar, bagaj kvitansiyalari va boshqa hujjatlar kiradi.

Savdo hujjatlar: kontraktlar, shartnomalar, hisob-fakturalari, spesifikasiyalar, invoyslar, qadoqlash varaqlari va boshqalar.

Bojxona hujjatlari bojxona organlari tomonidan beriladigan yoki ular ishtirokida rasmiylashtiriladigan hujjatlar, misol uchun, bojxona omborini, vaqtinchalik saqlash omborini, boj olinmaydigan savdo do'konini ochish uchun beriladigan lisenziyalar; bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutahassis malaka attestati, yetkazib berishni nazorat qilish hujjati; bojxona qiymati deklarasiyasi, bojxona yyuk bayonnomasi, transport vositalariga (konteynyerlarga) bojxona nazorati ostida yyuk tashishlari uchun beriladigan guvohnomalar.

Boshqa hujjatlarga shaxslarni tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirish bo'yicha haq-huquqlarini tasdiqlovchi ta'sis hujjatlari, veterinar va fitosanitar nazoratini amalga oshiruvchi organlarning ruhsatnomasi; Madaniyat vazirligining ruhsatnomasi va shunga o'hshash hujjatlar kiradi.

Bunda bojxona organlarining mansabdor shaxslari bojxona ishiga aloqasi bor tashqi iqtisodiy va boshqa ho'jalik faoliyatiga tegishli bo'lgan ihmoriy hujjatni va ma'lumotni so'zsiz taqdim etilishini talab etishga haqlidirlar. O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tayotgan yoki nazorat qilish bojxona organlariga yyuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar bojxona organlariga bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etishlari lozim.

Bojxona nazoratining bu shaqli bojxona nazoratining boshqa shakllaridan: ko'zdan kechirish, tekshirish, hisobga olish va boshqalardan oldin o'tkazilishi mumkin. Lekin ba'zi bir hollarda bojxona nazorati faqat hujjatlarni tekshirish bilan chegaralanishi mumkin.

Bojxona organlari tomonidan ko'rikdan o'tkazish. Bojxona ko'riganidan o'tkazish – tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tilishining qonuniyligini tasdiqlash maqsadida

tovarlar va transport vositalarini haqiqatan tekshirish bilan bog'liq bo'lган ма'muriy hatti-harakatlardir.<sup>1</sup>

Ko'rikdan o'tkazish: tovarlar saqlanaetgan o'ramlar va tarani ochish, ularning nomlarini aniqlash, tovarlar sonini sanash; zarur hollarda – tovarning sifatini baholash; transport vositalarining tovarlarni mahfiy holatda saqlash uchun belgilangan joylarini tekshirish.

Yuqorida keltirilgan maqsadlarga erishish uchun bojxona nazorati tehnik vositalaridan foydalaniladi.

Tovarlar va transport vositalarini hisobga olish bojxona organlari tomonidan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan, bojxona omborlarida, vaqtinchalik saqlash omborlarida, bojxona tashuvchilari tomonidan tashilayotgan tovarlarning statistik hisobini amalga oshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Xususan, hisobga olish har hil qayd etish kitoblarini va jurnallarini olib borish orqali ham amalga oshiriladi. Bu kitoblarga tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

Jismoniy va mansabdor shaxslarni og'zaki so'rab surishtirish asosan, bojxona imtiyozlariga ega bo'lган jismoniy va mansabdor shaxslarga nisbatan qo'llanilib, ular quyidagilarni tashkil etadi:

- kerakli hujjatlarni to'ldirish;
- so'rab surishtirish;
- nazariy ko'rikdan o'tkazish;
- qisman ko'rikdan o'tkazish;
- to'la ko'rikdan o'tkazish;
- shaxsiy ko'rikdan o'tkazish;
- tehnik vositalarni qo'llash;
- kinologik hizmatdan foydalanishlardir.

Bojxona ko'riganidan o'tkazish: tovar va transport vositalarini bojxona ko'riganidan o'tkazish tovar, transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o'tishning qoidalarga mosligini aniqlash, ularni hisobga olish, boj, soliq, yig'imlar olish, shuningdek olib kirish, olib chiqish va tranzit qilish taqiqlangan tovarlarning bojxona chegarasi hamda bojxona hududi orqali tranzit tartibida o'tishining oldini olish uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tovar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lган shaxslar tovarlar hamda transport vositalarini ko'zdan kechirish paytidan

<sup>1</sup> Таможенный контроль. Принципы. М.: Благовест – , 2002 г., 10-стр

hozir bo'lishga haqlidir. Bojxona organlari mansabdar shaxslarning talabiga ko'ra tekshirish paytida hozir bo'lishlari shart.

Shaxsni ko'zdan kechirish bojxona chegarasi orqali o'tayotgan yohud bojxona nazorati zonasida, xalqaro aloqa uchun ochiq aeroportning tranzit zonasida turgan jismoniy shaxs qonun hujjatlarini buzish ob'ektlari hisoblanuvchi tovarlarni o'z yonida yashirayapti va ko'rsatayapti, deb hisoblashga asoslar bo'lган taqdirda bojxona organi mansabdar shaxsining qaroriga binoan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'tkaziladi.

Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazilayotgan tovarlar va transport vositalari, bojxona chegarasi orqali olib o'tishda biror bir bojxona rejimi ostiga qo'yilgan bo'ladilar. Bojxona rejimi – bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona maqsadlari uchun maqomini belgilovchi qoidalar majmuasidir.<sup>1</sup> Ular tovarlar va transport vositalarini bojxona nazorati va rasmiylashtiruvidan o'tkazish tehnologiyasiga tegishlidir.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga asosan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari quyidagi bojxona rejimlari ostiga qo'yilishi mumkin:

- tovarlarni erkin muomalaga chiqarish;
- reimport;
- eksport;
- reeksport;
- bojxona ombori;
- boj olinmaydigan savdo do'koni;
- bojxona hududida qayta ishslash;
- bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash;
- vaqtinchalik olib kirish (olib chiqish);
- erkin ombor;
- erkin bojxona zonasi;
- tranzit;
- yo'q qilish;
- davlat foydasiga voz kechish.

Bojxona rejimlarining ikkita asosiy guruhlarga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhg'a shunday bojxona rejimlari kiradiki, tovarlarni ular ostiga qo'yilishi, ularni butunlay tovarlarni bojxona chegarasi orqali

<sup>1</sup> M.Xalmedov, T.Pardaev va boshqalar. «O'zbekiston Respublikasida bojhona rejimlarini qo'llash asoslari». T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005 yil, 8-bet.

olib o'tayotgan shaxs ihtiyyoriga o'tishini ta'minlaydi. Bular tovarlarni erkin muomalaga chiqarish, eksport, reimport, reeksport bojxona rejimlaridir.

Ikkinchchi guruhga mansub bojxona rejimlari, bojxona organlari tomonidan belgilangan shartlarda tovarlarni aniq belgilangan maqsadlarga ishlatilishini belgilaydi. Bu guruhga bojxona ombori, boj olinmaydigan savdo do'koni, tranzit, vaqtinchalik olib kirish (olib chiqish), erkin bojxona zonasi, erkin ombor rejimlari kiradi.

Tovarlarning ayrim bojxona rejimlariga joylashtirilish muddati cheklangan: bu – tranzit, reimport, bojxona ombori, bojxona hududida qayta ishslash, reeksport, vaqtincha olib kirish (olib chiqish) kabi bojxona rejimlariga taalluqlidir.

Bir qator hollarda tovarlarni bojxona rejimlariga joylashtirish uchun tegishli bojxona organlaridan ruhsatnoma (lisensiya) olish talab etiladi (boj olinmaydigan savdo do'koni, erkin ombor, bojxona hududida va bojxona hududidan tashqarida qayta ishslash). Erkin bojxona zonasi faqat O'zbekiston Respublikasi hyukumatining qaroriga muvofiq joriy etiladi. Berilgan lisensiylar (ruhsatnomalar) bojxona organlari tomonidan bekor qilinishi, qaytarib olinishi yoki to'htatib qo'yilishi mumkin. Ushbu masalalar barcha bojxona rejimlari uchun yagona usulda (yo'sinda) hal qilinadi.

Agar lisensiya belgilangan tartibni bo'zgan holda yoki lisensiya to'liq bo'lмаган ehud noto'g'ri ma'lumotlar asosida berilgan bo'lib, ular lisensiya berish to'g'risida qaror qabul qilish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lган bo'lsa, lisensiya bekor qilinadi. Bekor qilish to'g'risidagi qaror lisensiya berilgan sanadan e'tiboran amal qiladi. Basharti, lisensiya egasi bojxona kodeksida belgilangan talablarga riosa qilmasa yoki ushbu lisensiya O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy siyosatiga mos kelmasa, bunday holatlarda mazkur ruhsatnoma qaytarib olinadi. Qaytarib olish – bu haqida qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran amal qiladi.<sup>1</sup>

Bojxona rejimini tanlash va o'zgartirish. Bojxona kodeksida bayon qilinishicha, shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining hususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'iy nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqlidir. Shunday qilib, tovarlarga

<sup>1</sup> Б.М. Хазаненко, К.С. Хазаненко Таможенное обслуживание внешнеэкономической деятельности – М.: Экзамен, 2001 г. 167-168 стр.

nisbatan bojxona rejimini tanlash va o'zgartirish – tovar olib o'tuvchi shaxsning asosiy imtiyozli huquqidir.

Bunday holatda bojxona organlarining vazifasi shundan iboratki, deklarant tomonidan tanlangan bojxona rejimiga aniq tovarni joylashtirish mumkinligi haqida qaror qabul qilishdir, ya'ni aniq tovarni bojxona rejimiga joylashtirishning iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiqligi va mumkinligini hisobga olgan holda, O'zbekiston Respublikasi DBQ tomonidan amaldagi huquqiy-me'yoriy negiz asosida belgilanadigan tovarni ushbu bojxona rejimiga joylashtirishning shart-sharoitlaridan kelib chiqib, mazkur bojxona rejimidan foydalanishga ruhsat beriladi yoki rad javobi olinadi.

Deklarant bojxona rejimini tanlashda shuni hisobga olishi zarurki, tovarlarni ayrim bojxona rejimlariga joylashtirish muddatlari cheklangandir, jumladan, bojxona ombori rejimida tovar 3 yildan ortiq bo'lмаган muddatgacha turishi mumkin; O'zbekiston Respublikasi hududiga faqat reeksport maqsadlarida olib kirilgan tovarlar olib kelingan kundan boshlab 6 oy muddatdan kechikmasdan olib chiqilishi shart.

Bojxona rejimini o'zgartirish haqida gap ketganda, yana bir bor shuni eslatish lozimki, tovar olib o'tuvchi shaxsga rejimni tanlash huquqi (imtiyozi) berilgan. Bojxona rejimini o'zgartirishning eng ko'p qo'llaniladigan usuli – bu dastlab tovarni bojxona ombori rejimiga joylashtirib, so'ngra ushbu tovarni ombordan olib chiqib, boshqa bojxona rejimiga o'tkazishdir.

Bu usul quyidagi hollarda joriy etiladi: ichki bozorda sotishga mo'ljallangan tovarlar to'plamida – sertifikasiyalanishi, boj undirilishi, shuningdek, tarif va notarif boshqaruvchi chora-tadbirlari ko'riliishi lozim bo'lган turli hil tovarlar mavjud bo'lганligi sababli deklarant tovarlar bojxona omborida bo'lган vaqt mobaynida barcha kerakli hujjatlarni to'plashga ulgurolmaydi yoki moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga keladi – shuning uchun tovarlar turkumini bojxona ombori rejimidan boshqa tegishli bojxona rejimiga o'tkazish zarurati paydo bo'ladi.

Bojxona rejimini o'zgartirishning boshqa bir namunasi shundan iboratki, ko'rgazmaga olib kirilgan tovarlar dastlab vaqtincha olib kirish rejimiga joylashtiriladi, so'ngra mazkur tovarlar birorta tashkilot tomonidan sotib olingach, ular erkin muomalaga chiqarish rejimiga o'tkazilib, barcha zaruriy bojxona to'lovlari to'lanib, bojxona

qonunchiligidagi nazarda tutilgan talablar bajarilgach – mazkur tovarlar erkin muomalaga chiqariladi.<sup>1</sup>

Shu bilan birga, shunday vaziyatlar bo'ladiki, bir bojxona rejimini boshqasiga o'zgartirishga ruhsat berilmaydi, jumladan, agar tovar davlat foydasiga voz kyechish rejimiga joylashtirilgan bo'lsa, ushbu rejimni boshqa har qanday rejimga o'zgartirish taqiqlanadi. Bojxona rejimini o'zgartirishda tovarning maqomi (statusi)ni hisobga olish zarur. Masalan, agar tovar bojxona hududiga olib kirilib, erkin muomalaga chiqarilgan bo'lsa, ushbu tovarni olib chiqish maqsadida, mazkur rejimni reeksport rejimiga o'zgartirish mumkin emas, chunki, reimport rejimi faqat horijiy tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Erkin muomalaga chiqarilgan tovar esa O'zbekiston Respublikasi tovari huquqini oladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona organlari tomonidan 2005 yilda bojxona nazoratini takomillashtirish, bojxona organlarining TIF qatnashchilari bilan munosabatlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish, bojxona postlarining faoliyat samaradorligini oshirish borasida bir qator ishlar amalga oshirildi.

Xisobot yilda bojxona chegaralari orqali qiymati 8,06 mlrd. AQSh dollarlik 6,78 mln tonna import, qiymati 5,06 mlrd AQSh dollarlik 19,07 mln tonna eksport va qiymati 5,85 mln AQSh dollarlik 72,46 mln tonna tranzit yuuklar bojxona ko'rigi va rasmiy lashtiruvidan o'tkaziladi. Respublika hududiga kirib kelgan 40587 avtotransport vositasi ko'zatuvga olinib, ulardan 1356,9 ming evro ekvivalentida yig'im undirildi.

Shu davrda «O'zbekiston temir yo'llari» Aksiyadorlik kompaniyasi va uning tarkibiy tuzilmalaridagi temir yo'l transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga ijaraga berishning bojxona nazoratini soddallashtirish tartibi, «Tovarlarni bojxona ko'riganidan o'tkazish sifati va samarasini oshirish choralari», «Reeksport bojxona rejimidan foydalanishni tartibga solish» to'g'risidagi buyruqlari, jami 11 ta yangi huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi yoki ularga o'zgartirishlar kiritildi, 5 ta hujjatlar bo'yicha ishlar olib borilmoqda.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> M.Xalmedov, T.Pardaev va boshqalar. «O'zbekiston Respublikasida bojhona rejimlarini qo'llash asoslari». T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2005 yil, 9-10-betlar.

Amalga oshirilgan ishlar bilan birga o'tgan yilda bojxona nazoratini tashkil etish sohasida bi qator kamchiliklarga ham yo'l qo'yildi.

2006 yilning 1 yanvar holatiga avtotransport vositalariga rasmiylashtirilgan yukni yetkazib berish nazorat kitobchalaridan Toshkent shahrida 45 ta, Toshkent viloyatida 42 ta, «Toshkent-Aero» IBKda 38 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi da 29 ta, Qashqadaryo va Surxandaryoda 27 tadan, Buhoroda 22 ta, Farg'onada 20 ta, Andijonda 17 ta, jami 284 tasi nazoratdan echilmagan.

Shuningdek, temir yo'l vagonlarida tashilgan yuuklar uchun rasmiylashtirilgan jami 597 ta, shundan, Toshkent viloyatida 175 ta, Qoraqalpog'iston Respublikasi da 140 ta, Toshkent shahrida 135 ta, Buhoroda 67 ta, Andijonda 29 ta, Surxondaryoda 20 ta, Namanganda 16 ta, Farg'onada 15 ta yukni yetkazib berish kitobchalari nazoratdan echilmagan.

Tovarlarning bojxona ko'riganidan o'tkazishni yanada yahshilash va tartibga solish maqsadida 2005 yil 21 aprelda DBQning 68-sonli buyrug'i ishlab chiqildi. Bu boradagi ishlar ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 19 sentyabrdagi «Eksport-import operasiyalarini tartibga solishning qo'shimcha choralarini to'g'risida»gi PQ-183-sonli qaroridan keyin yanada kuchaytirildi. Qaror ijrosini ta'minlash masalalari DBQning 26 noyabrdagi Xay'at yig'ilishida ko'rib chiqildi va aniq vazifalar belgilab berildi. DBQ xodimlaridan iborat mahsus guruhlar hududiy boshqarmalarga yuborilganidan keyin joylarda respublika hududiga tovarlarni hujjatlarini qalbakilashtirib olib kirish, ularning nomi, turi, miqdori, qiymatlarida katta farqlar, bir hil tovar o'rniga to'lovi kam yoki umuman yo'q, boshqa tovarlarni ("tovaro' pokro'tiya") olib kirishning ko'plab holatlari aniqlandi.

Xisobot yilida jami 143906 ta bojxona ko'rigi dalolatnomalari rasmiylashtirildi. Shundan, atigi 206ta holatda bojxona qoidasini buzilishi holati aniqlanib, 11tasi bo'yicha jinoyat ishlari qo'zg'atilgan.

Xisobot yilida DBQ hay'atining qarorlari va ko'rsatmalarida rasmiylashtirilaetgan BUDlarning to'ldirilishida qator hato va kamchiliklarga ko'plab yo'l qo'yilaetganligi ta'kidlanganligiga qaramasdan hamon joylarda bu kabi kamchiliklar aniqlanmoqda.

Ta'kidlash joizki, yilning 1 choragida tovarlar eksporti hajmi importiga nisbatan 70 mln AQSh dollariga ko'p bo'lgan holda, 3-chorakda 270 mln AQSh dollariga kam tovarlar eksporti amalga oshirilgan. O'zbekiston Respublikasi Pezidentining 2005 yil 19

sentyabrdagi 183-sonli qarorida bildirilgan e'tirozlardan to'g'ri hulosa chiqargan va ko'rilib choralardan so'ng 4-chorakda tovarlar eksporti hajmi iportga nisbatan 17,7 mln AQSh dollariga ko'p yoki 1031 ln AQSh dollarini tashkil etdi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, eksport hamda import qilinayotgan tovarlarga rasmiylashtirilgan BUDlar to'liq tahlil qilinmasligi oqibatida tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarining sun'iy avishda oshishiga yoki kamayishiga olib kelmoqda. Masalan, 43 holatda Toshkent shahar, Andijon, Samarqand, Farg'ona, Buhoro, Havoiy viloyatlari va «Toshkent-Aero» IBKda eksport rejimiga rasmiylashtirilgan BUDlarning 1 va 37-grafalarini Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 9 avgustdag'i 189-sonli qarori talablariga zid ravishda to'ldirilishi tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarining sun'iy ravishda 1,6 mln. AQSh dollariga kaayishiga olib kelgan.

Xuddi shunday, 356 ta holatda import rejimiga rasmiylashtirilgan BUDlarning 37-grafasini Adliya Vazirligidan 1999 yil 3 noyabrda ro'yhatdan o'tkazilgan 834-raqamli yo'riqnomalariga zid ravishda to'ldirilishi natijasida tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlari 1 mln. AQSh dollariga sun'iy ravishda oshirlgan. Ushbu hatoliklar asosan Farg'ona, Toshkent, Buhoro va Qashqadaryo viloyatlari va Toshkent shahar bojxona boshqarmalarida aniqlangan.

Shuningdek, chet davlatlarga ko'rgazma sifatida olib chiqilgan tovarlarning respublikamiz hududiga qaytarib olib kirilishida «Toshkent-Aero» IBK tomonidan rasiylashtirilgan 2 ta BUDning 37-grafasi noto'g'ri to'ldirilganligi natijasida tashqi savdo bojxona statistikasi ma'lumotlarini sun'iy ravishda 14,8 mln AQSh dollariga oshishiga sabab bo'lgan.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona rejimlari deganda nimani tushunasiz?
2. Bojxona rejimlarini turlari.
3. Tovarlarni bojxona rejimlariga joylahtirish tarti qanday.
4. «Ekport» bojxona rejimida rasmiylashtirish tartibi qanday?
5. «Import» bojxona rejimida rasmiylashtirish tartibi to'grisida gapiring?
6. «Tranzit» rejimida tashiladigan tovarlarni bojxona nazorati.
7. «Baktincha olib kirish (olib chiqish)» rejimida tovarlarni saqlash muddati qanday?
8. Qaysi holatlarda tovarlar «Davlat foyidasiga voz kyechish»

rejimiga joylashtiriladi?

9. Kanday holatlarda tovarlar yo'q qilinadi.

10.«Bojxona ombori» rejimi to'grisida gapiring?

**Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi. T., Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2016 yil.

3. Sh.Shorahmedovning umumiy tahriri ostida «Bojxona fanlarining ilmiy asoslari», Soliq va bojxona organlari akademiyasi, 2002 y. А.Д. Эршов Ershov Международное таможенное отношения : учеб. пособ. IBESEP, 2000 г.

5. Б.М. Хазаненко, К.С. Хазаненко Таможенное обслуживание внешнеэкономической деятельности – М.: Экзамен, 2001 г.

## **V BOB. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish tizimida tarif usullari.**

### **5.1. Davlatni savdo-tarif siyosati nazariyasi.**

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tatibga solishda, jahon amaliyotida ko'p qo'llaniladigan usullardan biri tarif usulidir. Tarif usulini asosini boj tarifi, ya'ni bojxona chegarasi orqali olib utilaetgan tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi prinsiplari va qoidalariga asosan bir tizimga solingan tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalari to'plami tashkil etadi.

Boj tarifini ta'rifidan shuni aytish mumkinki, ihtiyyoriy mamlakatni boj tarifi bojxona bojlarini aniq stavkalaridan iboratdir.

Bojxona boji – tovarlarni import yoki eksport qilishda, bojxona organlari tomonidan undiriladigan va eksport yoki importni sharoitini belgilovchi to'lanishi lozim bo'lган vznosdir.

Bojxona bojlari mohiyatiga ko'ra, uchta asosiy vazifani bajaradilar:

- Fiskal, bu vazifa ham import va ham eksport bojlariga teishlidir. Chunki bu bojlar davlat budgetini to'ldirish manbalaridan biridir.
- Proteksinistik (himoya), bu vazifa faqat import bojlariga taallyuklidir. Chunki ular yordamida davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qiladi.
- Balanslashtiruvchi, ya'ni mamlakat ichki bozoridagi narxi jahon bozoridagi narxlardan past bo'lган tovarlarni mamlakat hududan eksport qilinishini oldini olish. Bu vazifa eksport bojlariga tegishlidir.

Dunyo ho'jaligi amaliyotida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda davlat tomonidan qo'llaniladigan bojlarni qo'llanilish maqsadiga, tartibiga, ob'ektiga va yana boshqa belgilarga ko'ra quyidagicha klassifikasiyalash mumkin. Bojjlarni bunday klassifikasiyalanishi ularni qo'llashni iqtisodiy mazmunini aniqlash imkoniyati beradi.

Bojxona bojlari undirilish tartibiga ko'ra:

- Advalor – bu boj turi bojxona chegarasi orqali olib utilaetgan tovarlar va transport vositalarini bojxona qiymatidan foizda hisoblanadi. Odatda bunday bojlar bir tovar guruhiga mansub bo'lган har hil sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lган tovarlarga nisbatan qo'llaniladi. Advolar bojlarni, shu guruhga mansub boshqa boj turlaridan farqlantiruvchi kuchli tomoni shundaki, bojga tortiladigan tovarni narxini tebranishidan

qat’iy nazar, advolar boj ichki bozorni bir darajada himoya qiladi. Faqat davlat budgetiga tushayotgan daromad miqdori o’zgarishi mumkin.

Misol: Agar boj tovarni bahosini 20%ni tashkil etsa, tovarni narxi 200 dollarga teng bo’lgan holda davlat budgetini daromadi 49 dollarni tashkil etadi. Tovar narxi 300 dollargacha oshsa, budget daromadi 60 dollarni, agarda 100 dollarga kamaysa, daromad miqdori 20 dollarga kamyadi. Lekin ikkala holda ham ichki bozorni himoya qilish darajasi 20%ni tashkil etadi, ya’ni tovarni narxi 20%ga oshgan holda ichik bozorga kirib boradi.

Advolar bojni kamchilik tomoni shundan iboratki, bu boj tovarni bojxona qiymatini hisoblashni taqazo etadi. Tovarni qiymati har hil iqtisodiy va ma’muriy omillar ta’sirida o’zgarib turishini hisobga oladigan bo’lsak, advolar bojni qo’llash baholashni sub’ektivligi bilan bog’likdir.

Bojni undirilish tartibiga ko’ra ikkinchi turi – hos bojlardir. Bu bojni qiymatini bojga tortiladigan tovrani birligidan belgilangan kattalikda hisoblanadi.

Bu belgiga ko’ra bojni yana bir turi, Yuqorida keltirilgan ikkala boj turini o’zida mujassamlashtirgan aralash bojdir.

Jahon ho’jaligi amaliyotida qo’llaniladigan undirilish ob’ektiga ko’ra belgiga asosan sinflanadigan yana bir guruhi – import va eksport va tranzit bojlaridir. Bu bojlarni jahon ho’jaligiga kiruvchi barcha davlatlar mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish maqsadida kullaydilar.

Import bojlari import tovarlariga, ularni mamlakat ichki bozorida erkin almashuviga chiqarganda qo’llaniladi. Bu boj jahondagi barcha davlatlar o’rtasida tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni chet el raqobatchilaridan himoya qilish uchun qo’llaniladi.

Eksport bojlari eksport tovarlariga, ularni bojxona chegarsidan tashqariga chiqarishda qo’llaniladi. Bu bojlar mamlakatlar tomonidan juda ham kam hollarda qo’llaniladi. Odatda ular alohida olingan tovarlarga, ularni jahon bozorlaridagi erkin narxlari bilan ichki bozordagi tartibga solinadigan daholari o’rtasidagi katta tafovut holida eksportni qisqartirish va budgetini to’ldirish makadida qo’llaniladi.

Tranzit bojlari shu davlat hududidan tranzit sifatida olib utilaetgan tovarlarga nisbatan qo’llaniladi. Amaliyotda juda kam uchraydi, asosan savdo urushi vositasi sifatida qo’llaniladi.

Xarakteriga ko’ra bojxona bojlari:

Mavsumiy fasliy harakteriga ega bo'lgan mahsulotlarni asosan qishloq zho'jalik mahsulotlarini xalqaro savdoni tezkor ravishda tartibga solishda qo'llaniladigan bojlarga. Odatda bunday bojlarni qo'llanish muddati bir yilda bir necha oydan oshmaydi va ularni qo'llash davrida boj tarifini mavsumiy bojlarga tortiladigan tovarlar buyyicha ta'siri tuhtatiladi.

Agarda mamlakat boojhona hududiga olib kirilayotgan tovarlarni narxi, shu tovarlar ishlab chiqarilgan davlatdagi normal normal narxidan past bo'lsa va bunday olib kirish huddi shunday tovarlarni ishlab chiqaraetgan mahalliy korxonalarga iqtisodiy zarar etkazsa yoki ishlab chiqarish jarayonini kengaytirishga tusiklik kilsa, u holda bunday tovarlarga nisbatan dempingga qarshi boj qo'llaniladi.

Kompensasion bojlar esa shunday import tovarlariga nisbatan qo'llaniladiki, agarda bunday tovarlarni ishlab chiqarib, tashkil jarayonlarida bevosita va bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan bo'lsa.

Import tarifini har bir davlat Iqtisodiyotiga ta'siri har hil bo'lib, uni ta'sir darajasi har bir davlatning dunyo ho'jaligidagi iqtisodiy salmogiga bog'lik

Misol uchun Xitoy XX asr boshlarida iqtisodiy tomonidan kichik davlat bo'lib, bojxona qoidalarini buzilishiga molik davlat bo'lgan bo'lsa, hozirga kelib esa u dunyo ho'jaligida o'ziga hos salmokka ega bo'lgan davlatga aylandi.

Xalqaro Iqtisodiyotda davlat kichik davlat deyiladi, agarda u tomonidan import tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi dunyo mikesida ularni bahosini o'zgarishiga olib kelmasa.

Davlat katta hisoblanadi, agar u tomonidan import tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi dunyo mikesida bahoni o'zgarishiga olib kelsa.

Dunyodagi ko'pgina davlatlar xalqaro Iqtisodiyot nuqtai nazaridan kichik davlatlar hisoblanadi, chunonchi ular tomonidan import tovarlariga bo'lgan talabni o'zgarishi, ularni dunyo mikesidagi baholarini o'zgarishiga olib kelinadi.

Buni quyidagi misol orqali ko'ramiz. Moddelni 3 bosqichini ko'rib chikamiz:

- Tovar davlat hududida ishlab chiqariladi va shu hududda iste'mol qilinadi, ya'ni tashqi savdo faoliyati bohlangunga qadar.
- Erkin savdo sharoitida ya'ni chetdan tovarlar importi hech qanday to'siqlar bilan chegaralanmagan.
- Import tarifi kiritilgandan so'ng.

Tashqi savdo boshlangunga qadar kichik davlat E nuqtaga to'gri kelgan miqdordagi tovarni ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi. Bu Sd - yerda ichki taklif to'gri chizigi, Dd - ichki talab to'gri chizigi.

Rasmdan kurinib turibdiki davlat 50 birlikdagi tovarni har birini 9,5 dollardan ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi.

Erkin savdo holida. Davlat jahon savdosiga uchun ochiladi va shuni aniqlaydiki, uni tovarlarini dunyo mikesidagi bahosi Pw, uni mamlakat ichkarisidagi bahodan kichik ekan.

Dunyo bozori bu davlatga chegaralanmagan miqdordagi tovarni bahoda yetkazib beradi, bu holda taklif chizig'i SdQw gorizontal to'gri chizig'i bilan ifodalanadi va u iste'molchilar uchun bu narxda ham ichki manbalardan ham tashqi manbalardan ma'kul bo'lган tovarlar miqdorini belgilaydi. Erkin savdo sharoitida talab va taklifni F nuqtada erishiladi. Bu nuqtada tovarga bo'lган talab miqdori Q5 teng bo'lib, uning atigi Q1 miqdorini ichki taklif tashkil etadi, qolgan etishmaetgan qismi ya'ni Q1Q5 miqdordagi tovar import qilinadi. Import natijasida tovarni ichki bahosi Pd darajadan Pw darajaga pasayadi va mahalliy ishlab chiqaruvchilar bu bahoda Q3Q1 miqdorida kam tovar sotadilar.

Import hisobiga tovarni ichki bozordagi bahosi darajadan darajagacha pasayadi, iste'mol esa 80 birlikka oshadi. Ichki ishlab chiqarish esa 20 birlikgacha kamayadi. Iste'molni kondirish uchun davlat 60 birlik tovarni import qilishga majbur bo'ladi.

Tarif kiritilgandan so'ng. Xyukumat chetdan arzonroq tovarlarni olib kelishi natijasida zarar ko'raetgan milliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish maqsadida import taklifini kiritadi. Gap kichik davlat to'grisida ketayotganligi bois, uning tomonidan import tarifini kiritilishi tovarlarni dunyo bahosiga ta'sir ko'rsata olmaydi va dunyo bahosi o'zgarmay qoladi.

Bu degani davlatni savdo sotiq sharoitlari o'zgarmaydi, faqat import tovarini bahosi, tarif kiritilishi natijasida, Pw dan PwQt ga oshadi.buning natijasida umumiy taklif chizigi yuqoriga, kiritilgan tarif miqdoriga teng kattalikka ko'tariladi, ya'ni SdQwQt ga teng bo'ladi. Taklifni bu yangi darajasida ichki talab va umumiy taklif (ichki va tashqi) tengligiga G nuqtada erishiladi, bu holda import tarifini kiritilishi natijasida ichki ishlab chiqarish hajmi Q1Q2 miqdoriga oshadi. Ichki talab miqdori esa Q5Q4 miqdoriga kamayadi. Import miqdori esa Q1Q5 dan Q2Q4 ga kamayadi. Shunday qilib tarifni kiritilishi ichki iste'molni kamayishiga, ichki ishlab chiqarishni esa oshishiga, bu esa importni kamayishiga olib keladi.

Tarifni kiritilishi natijasini tovar birligini ichki bahosi 8 dan 9 dollarga oshdi, ichki iste'mol miqdori esa 80 birlikdan 60 birlikka kamaydi, ichki ishlab chiqarish 20 birlikdan 40 birlikgacha oshdi va import 60 birlikdan 320 birlikgacha kamaydi. Importga nisbatan tarifni belgilagunga qadar iste'mol bo'yicha ortiqchalik segmentlar yigindisiga teng bo'lib,ya'ni iste'molchilar ichki va tashqi taklifni umuimy miqdoriga to'gri kelgan to'gri chizik va ichki talab to'gri chizigi bilan chegaralangan miqdordagi tovarni iste'mol kilaetgan edilar.

Tarifni kiritilishi natijasida umumiyligi taklif chizigi import tarifi miqdoriga teng kattalikka yuqoriga ko'tarildi va iste'mol bo'yicha ortiqchalik ga kamaydi.

Umuman olganda tarifni kiritilishi natijasida ikki guruh iqtisodiy samaraga – qayta taksimlash samarasiga daromad (samarasi, taksimlash samarasi) va yo'qotish samarasiga(himoya va iste'mol samarasiga erishilgan).

Daromad samarasi import tovarlarni import bojlariga tortilishi natijasida davlat budjeti daromadlari oshishi bilan ifodalanadi. Daromad samarasi mamlakat Iqtisodiyoti uchun yo'qotishni belgilamaydi, iste'molchilar uchun u yo'qotishdir. Daromadni hususiy sektordan davlat sektoriga harakati amalga oshadi.

Taksimlash samarasi – daromadni iste'molchilarni import bilan rakobalashuvchi mahsulot ishlab chiqaruvchilarga taksimlanishidir. Import tarifi kiritilishi natijasida ishlab chiqaruvchilar tomonidan olingan qo'shimcha daromad bilan qo'shimcha tovar ishlab chiqarish uchun ketgan ishlab chiqarish harajatlari o'rtaсидаги farqdir.

Rasmdan shuni ko'rish mumkinki, imoport tarifi himoyasida iste'molchilar ichki bozorda 40 birlik tovarni 9 dollardan sotib oladilar. Buning uchun 360 dollar sarflaydilar. Agar tarif kiritilmaganda edi, 40 birlik tovarni sotib olish uchun 320 dollar sarflangan Bular edilar. Shunday qilib tarifni kiritilishi natijasida mahalliy ishlab chiqaruvchilar 360-320q40 dollari daromad oladilar. Importga tarif kiritilishi natijasida mahalliy ishlab chiqarish hajmi 20 dan 40 birlikka oshdi. Shuning natijasida daromadni oshishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarish harajatlarini oshirishga olib keladi.  $bq(40-20)*\$1/2q10$

Mahalliy ishlab chiqaruvchilarni daromadini usishida 40-10q30 dollarni qayta taksimlash darajasi umuman olganda davlatni iqtisodiy holatini emonlashuviga olib kelinadi. Endi boj tarifini katta davlat Iqtisodiyotiga ta'sirini ko'rib chikamiz.

Agar import qiluvchi davlat iqtisodiy tomonidan dunyo ho'jaligiga katta mavkeiga ega bo'lsa, ya'ni u tomonidan import tarifini kiritlishi import tovari bo'yicha dunyo bahosiga ta'sir kilsa, u holda import tarifini davlat Iqtisodiyotiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

Katta davlat uchun import tarifini kiritilishi nafaqat ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilish vositasi bo'ladi, balki bu davlatni tashqi dunyo bilan savdo sotiq shart-sharoitlarini yahshilash vositasi bo'lib hizmat qiladi.

Katta davlatni hatti-harakatlarini monopolistni hatti-harakatlariga uhshashi mumkin. Monopolist tovarni kamrok sotib olish orqali uni bahosini tushiriga harakat qiladi. Chunki katta davlat bu tovarni katta mikdarda import qiladi va u tomonidan import tarifini kiritilishi bu tovar bo'yicha jami tovarni sezilarli darajada kamyishiga olib keladi. Buning natijasida tovar o'tkazib beruvchilar tovar narxini tushirishga majbur bo'ladilar.

Import tovarlariga narxini pasayishi, eksport tovarlariga bo'lgan narxni o'zgarmasligida, davlatni savdo shart-sharoitlarini yahshilashga olib keladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojaxona tarifi va uni asosiy funksiyalari.
2. Bojaxona bojlarini qanday turkumlash mumkin?
3. Import bojlarini qo'llashni iqtisodiy ahamiyati.
4. Hominal, o'zgaruvchan va haqiqiy tarifni darajasi qanday hisoblanadi?
5. Tarif eskalasiyasi nima?
6. Kichik davlat tomonidan kiritilgan import tarifini iqtisodiy samaralari.
7. Katta davlat tomonidan kiritilgan import tarifini iqtisodiy samaralari.
8. Tarifni kichik va katta davlat Iqtisodiyotlariga ta'siri o'rtasida qanday farq bor?
9. Qanday tarif optimal tarif hisoblanadi?
10. Tarif kvotasi nima?
11. Eksport tarifini import tarifi Iqtisodiyotidan farqi nimada?
12. Tarifni kiritilishi tarafдорлари bilan qarshilari qanday argumentlardan foydalanadilar?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. А.П. Киреев. – Международная экономика, 1999 г.
3. В.В.Буглай, Х.Х. Ливенсев – Международное экономические отношения. М: Финансостатистика, 1996 г.
4. В.Г. Свинухов – Таможенно-тарифное регулирование ВЭД. М: Экономист, 2004 г.
5. И.П. Фоминский. Международное экономические отношения, учебник, М., Экономист, 2004 г.

## **5.2. Tashqi iqtisodiy faoliyatni mohiyati, ahamiyati va maqsadlari.**

Dunyo xo'jaligining XX asr ohirlaridagi faoliyatini o'ziga hos hususiyatlaridan biri – davlatlar o'rtaсидаги xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlanishi va takomillashishidir.

Xar bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iqtisodiy faoliyatini o'z iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo ho'jaligiga integrasiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama uylagan holda, tashkil etishga karatgan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy sharoitlaridan biri bulmish – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora tadbirlarini ishlab chiqarishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi.

Bu chora tadbirlar dunyo ho'jaligida ma'lum ustivorliklarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Dunyo tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

- bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishilmasdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo'llaniladi.

Odatda biror bir davlat tomonidan amalga oshirilaetgan bir tomonlama chora tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan huddi shunday tartibda qabul qilingan chora tadbirlarni qarama-qarshi holda qo'llashga olib keladi.

Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'rtaсида siyosiy ziddiyatlarni paydo bo'lishiga olib keladi.

- ikki tomonlama, ya'ni savdo siyosati choralari o'zaro sherik bo'lган davlatlar o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi.

- ko'p tomonlama, ya'ni davlatlarni savdo siyosatini kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati proteksionistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Proteksionistik – tarif va notarif usullarni qo'llash orqali ichki bozorni chet raqobatchilaridan himoya qilishga qaratilgan davlat siyosati.

Bularning qaysi biri qanday afzalikka ega, ega emasligi bir biridan ustunligi iktisodchilar o'rtasida ko'p yillar davomida mavjud bo'lib kelgan tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin.

50-60 yillarda dunyo ho'jaligi iqtisodiyoti uchun proteksionistik siyosatidan erkin savdo siyosatiga o'tish hos bo'lган.

70– yillarning boshlarda esa teskari tendensiya, yani erkin savdo siyosatidan tariflar orqali ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish ko'zatila boshladi.

Bu erda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda amalga oshirila boshladi. Misol uchun, rivojlangan davlatlar o'rtasida qishloq ho'jaligi, tekistil sanoati va kiyim kechak ishlab chiqarishda bo'lsa, rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida – rivojlanayotgan davlatlarni sanoat tovarlari eksporti sohasida.

Proteksionistik tendensiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi:

- seletiv proteksionizm – ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.

- soha proteksionizmi - halq xo'jaligini ma'lum sohasini himoya qilishga (qishloq ho'jaligi) qaratilgan.

- kollektiv proteksionizm – ma'lum davlatlar guruhi tomonidan shu guruhga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yahshimi yoki proteksionistik savdo siyosatimi?

Bu masala doimo iqtisodchilarni kiziktirib kelgan.

Xozirgi kundagi iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida iqtisodiyotni ochiqlashtirishiga intilish qonuniydir.

Galvert universitetida 115 ta davlat bo'yicha o'tkazilgan ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, epik iqtisodiyot siyosatini olib borayotgan davlatlarda ichki yalpi mahsulot hajmini yillik usishi 0,7% ni tashkil qilgan bir paytda, ochiq iqtisodiyot siyosatini olib borayotganda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi. (Albatta ochiq tashqi iqtisodisiyosatni olib borishni yahshi rivojlangan va tez suratlар bilan rivojlanayotgan davlatlar olib borayotirlar). Lekin hozirgi kunda proteksionizm siyosatining ba'zi bir tadbirdari barcha davlatlarda bor. Rivojlangan davlatlar uchun tarif eskalasiyasi o'rnlidir, ya'ni hom ashyo va tayyor mahsulotlarga belgilangan import bojlari o'rtasidagi katta farq. GATTni Urugvay raundidan so'ng rivojlangan davlatlar tomonidan olib chikilaetgan hom ashyyoga belgilangan tarif stavkalari, tayyor mahsulotlarga belgilangan stavkalarga nisbatan 3,5 barovar kam va tayyor mahsulotlarga qo'yilgan stavkalarga nisbtan esa 7,5 barovar kam bo'ldi.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq tashqi iqtisodiy majmuani boshqarishning o'ziga hos tizimlarini tezkor shakllantirish, tashqi aloqalarni yo'lga qo'yish, tamoyillarini ishlab chiqish, respublikaning jahon iqtisodiy tizimiga integrasiyalashuvi yo'llarini mustaqil belgilab olish vazifasi qo'yilgan edi. Ayni paytda, respublika hyukumati tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan bir qator chora tadbirdari amalga oshirilishi va zaruriy huquqiy asoslarning yaratilishi O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslarining horijiy mamlakatlar yuridik va jismoniy shaxslari, shuningdek xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini o'rnatilishi va rivojlantirishiga imkon berdi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'grisida» gi Qonunning qabul qilinishi tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Mazkur qonunnning 17 – moddasiga binoan tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

- tashqi iqtisodiy faolitning qonunchilik negizini shakllantirish va takomillashtirish;
- valyuta siyosati orqali tartibga solish;

- Soliq siyosati orqali tartibga solish;
- tarif va notarif dastaklar orqali tartibga solish;
- O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga rioya etilishi uchun himoya, kompensansiya va dempingga qarshi choralarini qo'llash;
- tashqi savdo faoliyatini amlga oshirish tartibini belgilash, shu jumladan miqdoriy cheklovlar o'rnatish hamda tovarlarning ayrim turlari eksport va import qilinishi ustidan davlat monopoliyasini o'rnatish;
- olib kiriladigan va olib chiqiladigan tovarlarni sertifikatlash;
- tehnikaviy, formakologiya, sanitariya, veterinariya, fitosanitariya, ekologiya standartlari va talablarini belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyat sub'etlari uchun preferensiya va imtiyozlar berish.

Respublikada olib borilayotgan «Ochiq eshiklar siyosati» - savdo iqtisodiy aloqalarni erkin va jadal rivojlantirib borish, ikki tomonlama va ko'p tomonlama asosda teng hyukuli va o'zaro foydali hamkorlik aloqalarini kengaytirish, raqobat va hamkorlik o'rtasidagi haqiqiy muvozanatni ta'minlash zamonaviy tehnika va tehnologiyalarni respublikaga olib kiradigan horijiy investorlar va alohida mamlakatlarga nisbatan qulay savdo rejimini shakllantirish, xalqaro huquqiy normalarning milliy me'yerlariga nisbatan ustivorligini tan olish, GATT/JST prinsiplari va qoidalariga amal qilish asosida tashqi savdo rejimini bosqichma – bosqich erkinlashtirish va respublikaning mazkur tashkilotiga integrasiyalashib borishini ta'minlash singari bir qator maqsadlarga qaratilgandir. 2000 – 2001 yillar O'zbekiston Respublikasi hyukumat tomonidan milliy iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish bo'yicha faol chora tadbirlarni amalga oshirish yillari bo'ldi. Xozirgi paytda iqtisodiy islohatlarni amalga oshirishning eng ustivor yo'nalishlaridan biri, respublika hyukumati tomonidan ichki valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan chora tadbirlarning amalga oshirilaetganidadir. Xususan, 2000 – 2001 yillar davomida mazkur yo'nalishda qabul qilingan me'yoriy aktlar valyutani tartibga solish sohasini yanada erkinlashtirish uchun mustahkam asos bo'lib hizmat kildi.

Ko'pchilik mamlakatlar o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarning xalqaro bozorlarda ayirboshlashni yahshilash maqsadida ularni xalqaro standart talablariga moslashtirishga harakat qiladilar. O'zbekitonda ham tashqi savdo faoliyatini boshqarishda bir

qator iqtisodiy dastaklardan foydalaniladi. Xususan, O'zbekiston hududiga olib kirilayotgan tovarlar ham respublikada amal qiladigan tehnik, formakologik, sanitar, veterinar, fitosanitar, ekologik standart talablariga javob berishi. Yuqorida qayd etilgan standart va talablarga javob bermaydigan, sertifikatsiz, mahsus belgisiz tovarlarni mamlakat hududiga olib kirish ta'qiqlanadi. Respublika hyukumati importni kamaytirishga, sanoatni rivojlantirishga katta ahamiyat berib kelmoqda. Xususan, don, go'sht, sut mahsulotlari importini kamaytirishga qaratilgan keskin chora tadbirlar ishlab chiqilgan. Bundan tashqari, sifatsiz mahsulotlarga ega bo'lgan narxi baland yoki noqonuniy import qilingan mahsulotlarga ega bo'lgan importerlarni chet el valyutasiga ega bo'lmasliklarini kafolatlovchi chora tadbirlar ham ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasi da tovarlar eksporti va importi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vakillik organlari tomonidan beriladigan mahsus ruhsatnoma asosida amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 1998 yil 18 fevraldag'i «Import operasiyalarini tartibga solishning qo'shimcha chora tadbirlari to'grisida» gi Farmoniga asosan Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligida faqat erkin almashinadigan valyuta (SKB) ga ega bo'lgan ho'jalik yurituvchi sub'ektlarining import shartnomalarini ro'yhatga olinishi ko'zda tutiladi. Soliq solinishi shart bo'lgan tovarlar majmui, shuningdek lisenziyalash va Soliqqa tortish tartiblari ham O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilab beriladi. Birok lisenziyalashni amalga oshirish aksariyat hollarida eksport va importni chegaralash orqali tashqi savdo rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ham mumkin.

So'nggi yillarda Respublika hukumati tomonidan tashqi savdo faoliyatini yanada kengaytirish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan strategik siyosatning amalgan oshirilishi, respublika tashqi savdo balansida ijobiy saldoni ta'minlash va muddati o'zaytirilgan tashqi karzdorlikning kamaytirish imkonini berdi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi kredit majburiyatlarini bajarish, mamlakat oltin valyuta zahiralarini kengaytirish, ichki valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan chora tadbirlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkoniyati tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosatining ustivor yo'naliishlari sifatida AQSh va Yevropa ittifoqi mamlakatlari bilan ko'p tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada rivojlantirish va chuqurlashtirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olingan. Bundan

tashqari, Tashqi savdoda MDX mamlakatlari bilan ham ancha ijobiy natijalarga erishilmokda. Fikrimizcha, mintaqaviy barqarorlik, mintaqaga darajasidagi integrasiya jarayonlarini rivojlantirish masalalarini baratraf etishda MDX davlatlari bilan ustivor iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, erkin savdo zonalarini tashkil etish va MDX mamlakatlariga o'zbek tovarlarini eksport qilish uchun asosiy bozorlardan biri sifatida qarash lozimdir. Xozirgi paytda respublika eksporti dunyoning 80 dan ortiq mamlakatlari tomon qaratilgan bo'lib, uning tarkibini iqtisodiy tahlili etish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda an'anaviy hom ashyo tovarlari bilan bir qatorda, turli kurinishdagi jihozlar, ozik ovqat mahsulotlari, hizmatlari, samolet, avtomobillar va shuningdek, boshqa tayyor mahsulotlar ulushi ortib bormoqda, ya'ni eksport tarkibida qiymatga ega bo'lган mahsulotlar ulushi salmokli darajada usgan. Respublikada 900 turdag'i yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish orqali eksport tarkibi bosqichma bosqich kengaytirildi

Davlat tashqi iqtisodiy siyosatining eng muhim jihatlaridan biri bu mamlakat iqtisodiyotiga horijiy investisiyalar jalb qilish bo'yicha loib borilayotgan siyosat hisoblanadi. O'zbekistonda investisiya loyihamalarini amalga oshirish uchun keng ko'lamli Soliq imtiyozlari tizimi yaratilgan va shuningdek, horijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantiruvchi bir qator chora tadbirlar ishlab chiqilgan. G'arb ekpertlarining fikricha, yaratilgan bunday imtiyozlari tizimi MDX mamlakatlari ichida eng makbul hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi da faol investisiya siyosatini amalga oshirishdan bosh maqsad milliy iqtisodiyotni turli sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni jadal amalga oshirish, tabiiy hom ashyo resurslarini zamonaviy tehnologiyalar asosida chuqur qayta ishlash ham ichki, ham tashqi bozor talablariga javob beradigan raqobatdosh mahsulotlarni ishlab chiqarishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining real sohalariga jalb etilgan horijiy investisiyalarning umumiy hajmi kariyb 12 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi.

Respublika hududida horijiy kapital ishtirokida 3800 ta qo'shma korxonalar tashkil etildi. Xozirgi paytda O'zbekiston uzoq horijiy mamlakatlarining 38 tasi bilan qulay savdo iqtisodiy rejimiga ega bo'lib, ular bilan «Investisiyalarni himoya qilish va o'zaro kengaytirib borish to'grisida» gi bitimni imzolagan.

Bizningcha, mamlakat iqtisodiyoti va jahon iqtisodiyoti tizimida ro'y berayotgan murakkab vaziyatlarni hisobga olgan holda mamlakat iqtisodiyoti usishini ta'minlash va aholi turmush sharoiti yuksaltirishga

qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosatni yanada takomillashtirish zarur. Tashqi iqtisodiy siyosat sohasida belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirish uchun: mamlakat iqtisodiyotiga horijiy investisiyalar jalb etilishini yanada jadallashtirish, an'anaviy eksport mahsulotlari raqobatdoshligini oshirish va ular eksport nomenklaturasini kengaytirib borish; qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan eksport mahsulotlari ishlab chiqarilishini yanada ko'paytirish orqaligina erishish mumkindir.

O'tgan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasida tashqi iqtisodiy faoliyatni qo'llab quvvatlash bo'yicha yangi infratuzilma institutlari tashkil etilgan bo'lib, u o'z ichiga horijiy investisiyalarni sug'o'rtalash «O'zbyokinest» milliy kompaniyasi, «O'ziinvestloyiha» injirining kompaniyasi, rivojlangan bank tizimlari, maslahat va lizing kompaniyalari qamrab oladi. Garchi, mamlakatda tashqi savdo infrato'zulmasini takomillashtirish va mamlakat salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan iqtisodiy islohatlar amalga oshirilaetgan bo'lsada, eksport tarkibida hamon hamon hom ashyo mahsulotlari ustunlik maqomini egallab kelmoqda. Boy tabiiy va qulay iqlim sharoitlariga ega bo'lgan O'zbekiston hozirga qadar ananaviy ravishda dunyoning ko'pchilik mamlakatlari bozorlariga qishloq ho'jaligi va unga to'tash bo'lgan sanoat tarmoqlari mahsulotlarini yetkazib berish bilan shug'ullanadi. Xolbuki, hozirgi paytda uzoq horijiy mamlakatlarda ham respublikamizda yetishtiralayotgan mevalarning mazasiga va yuqori sifatga ega bo'lgan vino mahsulotlariga yuksak baho berilayotgan bo'lib, O'zbekiston korxonalariga qishloq ho'jaliga mahsulotlarini qayta ishslash asosida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar uzoq va yaqin horijiy mamlakatar bozolarida ham o'z haridlariga ega bo'lishi mumkindir. Ayni paytda O'zbekistonda meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishslash orqali tayyor eksportbop tovarlarni yaratish imkoniyatlari mavjuddir. Bunday mahsulotlarning yaratilishi qishloq joylarida mulkchilik shakllarini o'zgarishi, ho'jalik yuritish shakllarini bozor munosabatlari asosida rivojlantirish va takomillashtirishni, meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishlovchi bir qator korxonalarini zamonaviy tehnika va tehnologiyalar asosida modelezasiya qilishni nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasining jahon iqtisodiy hamjamiyatiga integrallashuvi hamda yaqin va uzoq horijiy mamlakatlar bilan yangi turdag'i tashqi iqtisodiy aloqalarning yo'lga qo'yilganligi nafaqat yangicha korxonalarini tashkil etish, balki mavjud ishlab chiqarish korxonalarini modernizasiya kilish va tehnik jihatdan qayta

qurollantirish va shuning, yuqori qo'shilgan qiymat ulushiga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarilishini ta'minlovchi yangi zamonaviy, ilgor korxonalarga tashkil etishga qaratildi. Raqobatdosh tovarlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish korxonalarining samarali ishlashi va beqiyos rivojlanishining zaruriy sharoiti bo'lib qolmoqda. Barcha turdag'i yangi tovarlar sanoat tarmoqlari, horijiy investisiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar, kichik va o'rta biznes korxonalarini tomonidan o'zgartirib borilmokda. Turli faoliyat sohalari bo'yicha yangi korxonalarining tashkil etilishi, yangi sanoat tarmoqlari, hususan, avtomobilsozlikni rivojlantirilishi pirovard natijada O'zbekiston tovar aboroti tarkibida, uning eksport va importi o'z ifodasini topmoqda.

Respublikada ishlab chiqarilgan avtomobillar va avtobuslar harid narxlarining nisbatan pastligi rivojlanayotgan mamlakatlardan bozorlari uchun ayni mudooddir. Qolaversa, rivojlanayotgan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan turdosh mahsulotlar sifati unchalik yuqori darajada emasligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlardan iqtisodiy jihatdan taraqqiy etmagan bo'lib, ular ham rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy tehnologiyalar asosida ishlab chiqarilgan sifati yuqori, birok narxi qimmat bo'lgan avtomashinalarni sotib olish imkoniyatlariga ega emasdirlar. Ayni paytda, O'zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtomashinalar eksportini rivojlanayotgan mamlakatlardan tomon kengaytirib borish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda tashqi savdo muammolari bilan mahsus shug'ullanadigan ilmiy tadqiqot institutlarining yo'qligi, mavjudlarining esa ushbu masalalar bilan deyarli shug'ullanmasligi oqibatida ilmiy asoslangan tavsiyalardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari deyarli chegaralangandir. Fikrimizcha, bozor sub'ektlari bilan yaqindan hamkorlik qiladigan, shuning dek makro va mikro Iqtisodiyot muammolarini to'liq tadqiq eti shorqali tashqi savdoni takomillashtirish va rivojlantirish borasida ilmiy asoslangan tavsiyalar bilan uzlyuksiz ta'minlanib turadigan raqobatdosh tashqi savdo ilmiy tadqiqot institutlari va tashqi iqtisodiyot muammolari bo'yicha mustahkam va amaliy ilmiy tajribalar olib boradigan ilmiy tekshirish markazlarini shakllantirish o'ta muhimdir. Tashqi Iqtisodiyot siyosatda echilishi lozim bo'lgan muhim masalalardan yana biri bu eksporterlarni davlat tomonidan qo'llab quvvatlash tizimining yaratilishidir. Dunyoning ko'pchilik mamlakatlari o'zining potnsial eksportyerlariga ahborotlar berish, savdo kurgazmalarini tashkil eti shva chet elda biznes faoliyatini olib borish uchun aloqa o'rnatish kabihizmatlarni taklif etadi. Bevosita

va bilvosita subsidiyalar mamlakatdagi sohalarga, mamlakat ichida va tashqarisida horijiy mahsulotlar bilan raqobat kila olishlari chun beriladi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarning asosiy qismi o'z eksportyerlariga krerit hatarini sug'o'rta qilish borasida katta imkoniyatlar yaratib beradi. Bu esa horijga chiqarilgan tovarlar to'lovi havfini kamaytiradi. Eksportni muvaffakiyatli amalga oshirish uchun mamlakatda mustahkam makroiqtisodiy shart sharoitlar yaratish, ya'ni mustahkam valyuta almashinish kursini o'rnatish lozimdir. Eksporterlarni makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning istikboldagi holatdan habar qilish, vaziyatni to'gri baholab shartnomalarni imzolashga urgatish akkredit ochish shartlari bilan yaqindan tanishtirish va shuningdek ular valyuta almashtirish jarayonida ishonchli sharoitlarni yaratib berish lozim.

Bundan tashqari, kelgusidi, O'zbekiston Respublikasi da tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish va tashqi iqtisodiy majmuani yanada takomillashtirish borasida quyidagi masalalarni hal etish maqsadga muvofiqdir:

- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari manfaatlarini ham ichki, ham tashqi bozorlarda himoya qilish;
- Milliy Iqtisodiyotning rivojlanishi va uning jahon Iqtisodiyoti tizimiga integrasiyalashuvini ragbatlantirishga qaratilgan zaruriy shart-sharoitlarni yaratish;
- Tashqi iqtisodiy faoliyatning davlat tomonidan tartibga solish tizimlarini yanada rivojlantirish;
- Eksport salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqish va ularning amalga oshirilishini ta'minlash;
- Ishlab chiqaruvchilar va eksporterlar faoliyatini har taraflama qo'llab quvvatlovchi tizimlarni yanada takomillashtirish;
- Iqtisodiyotning barcha jabhalarida rakobadosh va ilm talab mahsulotlarni ishlab chiqarishga mo'ljalangan xalqaro standartlarni joriy etish;
- Xorijiy mamlakatlar bilan zamonaviy tehnologiyalarni standartlashtirish, metrologiya va sifatni sertifikasiya qilish sohasida hamkorlik qilish kulamini yanada kengaytirish;
- Xalqaro standart talablariga mos ravishda sifat ustidan nazoratni joriy etish;
- Tugridan to'gri horijiy investisiyalarni jalb eti shva xalqaro standartlarga javob beradigan hamda jahon bozorida raqobatdosh

bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqarish maqsadida mamlakatning turli hududlarida qo'shma korxonalar yaratilishini ta'minlash;

- O'zbekiston Respublikasining horijiy mamlakatlar va boshqa xalqaro huquq sub'ektlari bilan savdo – iqtisodiy va moliyaviy hamkorliklarni yanada kuchaytirish;
- Kichik va o'rta biznes sub'ektlari tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishiga hamkorlik qilish;
- Xalqaro transport kommunikasiyalarini rivojlantirish orqali eksport tovarlarning transportda tashish harajatlarini kamaytirish;

Fikrimizcha, tashqi iqtisodiy faoliyatni takomillashtirish va yanada rivojlantirishga tuskinlik qilib ketayotgan bunday bunday masalalarning o'z vaqtida bartaraf etilishi O'zbekistonning jahon iqtisodiy hamjamiyatida samarali ishtirok etishi imkonini beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Mamlakatning eksport siyosati va uni asosiy maqsadlari.
2. Import siyosatini asosiy maqsadlari nimaga qaratilgan?
3. Investisiya siyosati va uni eksport-import siyosatlari bilan o'zaro bog'liqligi.
4. Balota siyosatini asosiy vazifalari.
5. O'zbekistonda valyuta siyosatining huquqiy asoslari.
6. Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllanishini belgilovchi asosiy omillar.
7. Bojxona siyosati va uni mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlashdagi ahamiyati.
8. O'zbekiston Respublikasi ni bojxona siyosatini shakllanish bosqichlari.
9. Iqtisodiy siyosat deganda nimani tushunasiz?
10. Import tovarlarini urnini bosuvchi tovarlarni ishlab chiqarishni ijobjiy tomonlari nimada?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. A.P.Kireev – Mejdunarodnaya ekonomika. M: Mejdunarodno'y otnosheniya, 1999 g
3. И. Фоминский Международное экономические отношения, учебник, М., Экономист, 2004 г.
4. В.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г.

### **5.3. TIF ni tashkil etish, boshqarish va tartibga solish davlat siyosati.**

Bozor islohatlari Yangi strategiyasining asosiy yo'nalishlaridan biri, tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishni optimallashtirish hisoblanadi. Mamlakatning iqtisodiy mustahkamlanishi, barqaror rivojlanishi, uning jahon ho'jaligi tizimiga muvaffakiyatli integrasiyalashuvi ko'p jihatdan davlatning barcha ko'rinishidagi tashqi iqtisodiy siyosatni (TIS) erkinlashtirishga bog'lik.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) okilona tartibga solish iqtisodiy rivojlanishda davlat strategiyasining mo'zim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning o'ziga hos ichki va tashqi sharoitlarini inobatga olgan holda, jahon bozorining salbiy o'zgarishlaridan himoya qiluvchi, unda egallangan mavkelarni saklab koli shva kengaytirishni ta'minlovchi optimal darajada proteksionizm va erkin savdo siyosati qo'llanilishini taqazo etadi.

O'tish davri iqtisodiyotini boshidan kechirayotgan mamlakat iqtisodiy aloqalarini kengaytirish uchun o'zini erkin bozor girdobiga tashlab kuya olmaydi. Bunday sharoitda davlatning rivojlantirish kafolati sifatida faol qatnashuviga zaruriyat tugiladi. Bozor munosabatlariga o'tishning ilk boskiyalarida tashqi iqtisodiy aloqalarning (TIA) davlat tomonidan tartibga solinishi ayniqsa muhimdir. Bu esa birinchi navbatda tashqi savdoni va tashqi iqtisodiy faoliyatni boshqa shakllarini tartibga solish mexanizmlarini o'zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga muntazam moslashtirib borishni, ya'ni okilona tashqi iqtisodiy siyosat urgizishni talab etadi.

TIS mohiyatini ko'rib chiqishdan oldin Ushbu tushuncha mazmunini aniqlashtirib olish zarur.

TIA larni davlat tomonidan tartibga solish – bozor munosabatlari shakllanishi sharoitida siyosiy va ijtimoiy iqtisodiy islohatlar samarasini va dinamikasini oshirish maqsadida , mamlakat ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan , jumladan tashqi iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, eksport va import tarkibida progressiv siljishlarni ragbatlantirish, horijiy kapitallar okimini kuchaytirishga yunatirilgan vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan qonunchilik, ijroiya va nazorat qilish yo'nalishidagi chora tadbirlar tizimidir.

Bu tashqi iqtisodiy siyosatning eng umuimy ta'rifidir. Ushbu tarifni aniqlashtirish uchun tashqi iqtisodiy siyosat davlat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi ekanligi ta'kidlash joizdir.

Birinchidan o'tish davri sharoitida tashqi iqtisodiy siyosat yangi iqtisodiy yuklad shakllanishining muhim omili, iqtisodiy haetning bozor munosabatlariga monand ilgor shakllarini barpo etishning vositasi hisoblanadi va qat'iy markazlashtirilga rejali iqtisodiyotning nodinamik, kotib qolgan shakllaridan keskin farq qiladi. U iqtisodiy ma'muriy chora tadbirdan foydalanib, ichki iqtisodiy siyosatning quyidagi bir qator asosiy vazifalarini hal etishga yo'naltirilgan:

- Milliy iqtisodiyotning har tomonlama rivojlanishini ragbatlantirish, uning raqobatdoshligini ta'minlash;
- Ichki bozorni himoya qilish;
- Tarkibiy qayta o'zgarishlar amalga oshirilishiga kumaklashish;
- Mamlakat hududlaridagi resurslardan foydalanish va hakazolar.

Ikkinchidan, puhta uylangan va muvozanatli tashqi iqtisodiy siyosat davlat tashqi siyosatining ajralmas qismi sifatida mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlarini ta'minlash va amalga oshirish maqsadlariga hizmat qiladi, milliy iqtisodiyotni jahon bozorlaridan himoya qilishga, uning jahon hujalilgiga uygunlashishi uchun faol kumaklashishga yo'naltirilgandir.

O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy siyosat jahondagi siyosiy va ijtimoiy – iqtisodiy shart – sharoitlar nisbatan tez o'zgaraetganligini hisobga olib, jushkin, harakatchan, moslashuvchan bo'lishi zarur. Ayni vaqtda, respublikamiz jahon ho'jaligiga kushilaetgan bir sharoitda, gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini ragbatlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish to'grisida borar ekan, buning uchun yetarlicha barqaror bo'lishi talab etiladi. Bungan tashqi iqtisodiy siyosat o'z rivojlanishining ilmiy asoslangan konsepsiyasiga tayanganidagina erishish mumkin.

Shunday qilib tashqi iqtisodiy siyosat – bu davlatning tashqi iqtisodiy aloqalarini tartibga soli shorqali mamlakatning ishlab chiqarish omillari xalqaro taksimotida qatnashuvi samarasini oshirishga qaratilgan muayyan harakatlar majmuidir. Uning asosiy kurinishlari tashqi savdo siyosati (alohida eksport vaimport siyosatini o'z ichiga oladi), tashqi sarmoyalari siyosati, valyuta munosabatlarini tartibga solish siyosatidan iborat. Bundan tashqari alohida olingan davlatlar va mintaqalar Bilan tashqi iqtisodiy operasiyalarni jugrofiy jihatdan muvozanlashtirish masalalarini ham TIS hal etadiki, bu holl o'z navbatida, mamlakatning iqtisodiy havfsizligini ta'minlash Bilan boglangan.

TIFni erkinlashtirish deganda, eng avvalo TIA qatnashuvchilarining erkinligi va iqtisodiy mustaqilligini oshirish, tashqi savdoni tartibga

solist ma'muriy uslublarining ma'lum qadar qisqarishi, mavjud tusikva govlarning bartaraf qilinishi tushuniladi. Bu mutlako myukarrar, ichki iqtisodiy munosabatlar erkinlashuvining mantikiy natijalaridir. Samarali bozor mezанизми faqatgina jahon bozor munosabatlari Bilan o'zviy aloqada tashkil qilingan bo'lishi mumkin. Yana bunda eng muhimi turli mamlakatlar iqtisodiy va huquqiy shakllarining ma'lum darajada uhshashligidir. TISni erkinlashtirish islohatlarni amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytiradi, o'tish davri iqtisodiyoti masalalari echimimni tezlashtiradi.

Bunday erkinlashtirishning asosiy shakllari- horijiy investisiyalarning mamlakatga kirib kelishini kengaytirish, TIA larning davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarilishiga barham berish, import qilish jarayonidagi ortiqcha to'siqlarni olib tashklash, eksportni rivojlanishini faollashtirish, milliy valyutaning k4onvertasiya qilinishini ta'minlashdir.

Bu shakllar jahon tajribasi ko'rsatganidek, amaldagi bozor mexanizmlarini kuchaytiradi. Birok ular to'liq holda hatto rivojlangan bozor iqtisodiyotida ham qo'llanmaydi. Milliy ishlab chiqarishni himoya qilgan holda, davlat ma'lum cheklanishlarni urnatadi, bojxona tariflaridan keng foydalanadi, turli hil ta'kiklarni kiritadi va hakazolar. Bozor mexanizmi endi shakllanaetgan, mavjud ishlab chiqarish tizimi bozor sharoitlariga hali to'liq moslashmagan o'tish davri iqtisodiyotda davlatning roli yanada muhimdir.

Shuning uchun o'tish davri iqtisodiyotida TIA ni erkinlashtirish siyosati ichki milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga zarar keltirmagaani holda, mamlakatda bozor munosabatlarining tezkor rivojlanishini va uning jahon ho'jaligiga uygun kushilishini makbul darajada ta'minlashi zarur.

Moliyaviy kapital bozorining ochiqlik darajasi alohida masala sifatida ko'rib chiqilishi mumkin. Shak-shubhasiz ochiqlik darajasi birinchi navbatda investisiyalarni bevosita jalb qilishni ta'minlashi zarur. Birok portfel investisiyalar shuningdek o'rta va qisqa muddatli kreditlarni jalb etish ancha murakkab masala. Yaqinda kuzatilgan Janubiy – Sharkiy Osiyo mamlakatlaridagi moliyaviy tenglik shuni ko'rsatadiki, mamlakatdan kpitallarni birdaniga chkip ketish jarayoni o'z berganda qisqa muddatli kapitallar erkin harakati iktisod rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu Bilan birga, kredit va fond resurslari erkin harakatining mushqo'llashtirilishi, tabiiyki, milliy ho'jalik imkoniyatlarini cheklaydi.

Balo'ta bozorining erkinlashtirilishi milliy valyutaning konvertasiya qilinishi, avvalambor joriy operasiyalar bo'yicha konvertasiya qilinishini ta'minlashni bildiradi. Uning ta'minlanganligi – TIAlar rivojlanishi uchun jiddiy tusikdir. Balo'ta bozorining to'liq liberallashuvi , albatta kapital hisobi bo'yicha konvertasiya qilinishi ham ko'zda tutadi. Birok moliyaviy tizim samarasi past bo'lган mamlakatlar valyutaning to'liq konvertasiya qilinishiga shoshilmasliklari maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida TIF ni amalga oshirishda na zaruriy institutlarga, na yetarli mutahassislarga, na samarali o'matilgan aloqalarga ega edi. Shuning uchun boshlang'ich bosqichda o'z TISni ishlab chiqish va urgizishda kata qiyinchiliklarga duch keldi.

Bosqichma – bosqich amalga oshirilaetgan erkinlashtirish natijasida O'zbekiston tashqi savdo rejimi xalqaro amalaiet me'yorlariga va talablariga borgan sari yaqinlashmokda: lisenziyalashtiriladigan tovarlar ro'yhati qisqardi; miqdoriy cheklashlar borgan sari tariflar asosida tartibga solinmokda; erkin konvertasiya qilinagan valyuta o'zi ishlab chiqargan raqobatdosh tayyor mahsulotlarni eksport qiluvchi korxonalar uchun, shuningdek horijiy investisiyalarni ishlab chiqarish sohasi, ayniqsa kata eksport salohiyatiga ega bo'lган tarmoqlarga jalg qilishni ragbatlantiruvchi imtiyozlar tizimi uzlyuksiz ravishda takomillashib bomokda. Investision kuyilmalarni sug'o'rta qilish tizimi rivojlanib bormoqda, moliyalashtirishning eng murakkab sxemalarini qo'llash asosida investision loyihalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lган moliyaviy infratuzilmalar shakllanmokda.

Birok mamlakatning tashqi iqtisodiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishga tusik bo'laetgan salbiy holatlar hali ham saklanib qolmoqda.

Bozor iqtisodieti sharoitida davlat mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta'minlash va umummiliy manfaatlarni himoya qilish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatni (TIF) tartibga soladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish bo'yicha davlat organlarini faoliyati barcha mamlakatlarda amalga oshiriladi, Lekin uning ko'lami, shakllari va usullari, aniq maqsadlari va masalalari har bir mamlakat tomonidan, davlatning tashqi va ichki siyosatidan, jahon ho'jaligida to'tgan mavqeidan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish, turkumlanishi bo'yicha iqtisodiy va ma'muriy, tarif va notarif guruhlarga bo'linuvchi usullar yordamida amalga oshiriladi.

TIFni davlat tomonidan tartibga solishni iqtisodiy usullari, ya’ni savdo siyosatining iqtisodiy vositalari – bojxona bojlari, soliqlar (qo’shilgan qiymat solig’i, aksiz solig’i va boshqalar) va bojxona yig’imlarini qo’llashga asoslanadilar.

Bu vositalarni qo’llash orqali davlat tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlarini iqtisodiy manfaatlariga, ularning haq-huquqlarini ta’milagan holda ta’sir ko’rsatadi. Bu usullar mazmun-mohiyatiga ko’ra bozor munosabatlarining tabiatiga mos keladi, shuning uchun ham hozirgi sharoitda TIFni tartibga solishda asosiy ahamiyatga egadir.

TIFni davlat tomonidan tartibga solishning ma’muriy usullari o’z ichiga davlat qoidalarini, normalarini, mann etishlarni oladi. Bular orqali davlat TIF sub’ektlariga bevosita ta’sir o’tkazadi, jamiyat manfaatlari yo’lida ularni faoliyatlarini har hil tomonlarini cheklab qo’yadi. Ko’p hollarda ma’muriy usullar bozor munosabatlarini mazmun-mohiyatiga zid keladi va shuning uchun ham hozirgi kunda ularni qo’llash ko’lami asta-sekin kamayib borayapti.

Xozirgi kunda xalqaro mehnat taqsimotining rivojlanishi, xalqaro savdoni globallashuvi TIFni davlat tomonidan tartibga solishda iqtisodiy usullarni keng ko’lamda qo’llashni taqozo etayapti. Bozor iqtisodieti va TIFni erkinlashtirish sharoitida bojxona to’lovleri orqali davlat ma’lum tovarlarni olib kirish va olib chiqilishini rag’batlantirishi yoki ularni chegaralashi, mahalliy tovar ishlab chiqaruvchilarining tovarlarini va ularni chet el raqobatchilarining huddi shunday tovarlarini bir hil iqtisodiy sharoitlarga qo’yishi, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida aniq iqtisodiy, ilmiy-tehnikaviy, ekologik, moliya-pul siyosatini amalga oshirishi, tashqi iqtisodiy faoliyat sub’ektlarining faoliyatini umumdavlat, mahalliy manfaatlarga qaratishi mumkin.

Bojxona to’lovlarini undirish, ya’ni o’z iqtisodiy faoliyatini amalga oshirish orqali bojxona organlari budget daromadlarini oshirish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarini va ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qilish, mamlakat iqtisodiy manfaatlarini muhofaza qilish kabi vazifalarni bajaradilar. Umuman olganda mamlakat iqtisodiy havfsizligini ta’milash – bu bojxona organlarini asosiy vazifalaridan biridir.

O’zbekiston Respublikasi ojhona kodeksini 103-moddasiga asosan toovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o’tishda va ushbu Kodeksda nazarda tutilgan boshqa hollarda ularga nisbatan bojxona to’lovleri qallaniladi:

- Boj;

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- lisensiya bergenlik uchun yig'im;
- bojxona rasmiylashtiruvni bo'yicha mutahassis degan malaka attestatini bergenlik uchun yig'im;
- bojxona rasmiylashtirishuvi uchun bojxona yig'imi;
- tovarlarni saqlanganlik uchun bojxona yig'imi;
- tovarlarni bojxona ko'zatuviga olganlik uchun bojxona yig'imi;
- dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun haq (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 apreldagi 204-qarorining 1-ilovasida ko'rsatilgan yig'imlar turlari);
- Jismoniy shaxslardan undiriladigan yig'imlar;
- Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat maqsadida olib kelinaetgan tovarlardan yagona bojxona to'lovleri.

Bojxona to'lovlaridan boj – bu bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlardan bojxona organlari tomonidan undiriladigan to'lov turidir. Boj baho kategoriyalari qatoriga taalluqlidir. Bu esa har bir tovar bo'yicha bojxona asosliliginи belgilashda individual endoshish lozim. Bunda ularni mahalliy va jahon miqesidagi ishlab chiqarish harajatlari va baholar bilan muvofiqlashtirish (iste'mol hususiyatlarini, parametrlarini va tovarlarni sifatini, boshqalarni hisobga olish) lozim.

Tarihda olib kirish bojlarini belgilashda, ya'ni XIX asr ohiri va XX asr boshlarida fiskal endoshuv birinchi o'rinda edi: bojlar uqori darajada belgilanib, ularga davlat budgetining asosiy manbai sifatida qaralgan. Keyinchalik davlat daromadlarini shakllanishidagi ularning ahamiyati kamaya borib, birinchi o'ringa bojxona bojlarini tartibga solish funksiyalari ilgari surildi. Bojxona bojlarining bu funksiyasi import tovarlarini olib kirishni chegaralash yoki man etish bilangina chegaralanmadni. Tovar guruahlari va ayrim olingan mahsulotlar bo'yicha bojxona bojlarining stavkalarini differensiallashga bo'lган ehtiej osha boshladni. Bojxona bojlari stavkalarini differensiallashga bu tovarlar importiga bo'lган ehtiejni, milliy va jahon baholari va darajalarini hisobga olgan holda amalgalashdi.

Bojxona bojlarining stavkalarini kamaytirishga va ularni tovarlar guruahlari, aniq belgilangan buyumlar bo'yicha tabaqalashtirishga bo'lган qonuniyat ob'ektiv omillar bilan belgilangan edi. Bulardan biri

xalqaro mehnat taqsimotini rivojlanishi proteksionizmni umshatishni taqozo qildi. Shuning uchun ham bojxona bojlarini shakllantirishda ularning iqtisodiy tabiatini va funksiyalarini hisobga olish lozim, chunki ular bojlarni qo'llashni tamoyillari va usullarini belgilaydilar.

Bojxona to'lovlarining yana bir turi bu - qo'shilgan qiymat solig'idir. O'zbekiston Respublikasining bojxona haqidagi qonunlarida belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ga tortiladigan manba hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2012 yil 15 aprelda 1124-raqam bilan ro'yhatga olingan yo'riqnomaga amaliyotga joriy qilindi.

Mazkur yo'riqnomaga O'zbekiston Respublikasining Soliq va Bojxona kodekslariga asosan ishlab chiqilgan hamda O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga tovarlarni import qilayotgan jismoniy yoki yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchilar hisoblanadi. Qo'shilgan qiymat solig'ini bevosita deklarant yoki istalgan manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida o'zga hol nazarda tutilmagan bo'lsa to'lashi mumkin. Import qilinayotgan tovarlar uchun - QQS 20 foiz stavkada undiriladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan manba bo'lib, O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga binoan belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar (shu jumladan, MDX mamlakatlaridan import qilinadigan tovarlar) hisoblanadi.

Mazkur Yo'riqnomada tovar deganda iste'molga mo'ljallangan va qiymatga ega hamma narsa (ishlar, hizmatlardan tashqari) (uskunalar, mahsulotlar, hom ashyo, materiallar, elektr, issiqlik va energiyaning boshqa turlari, transport vositalari va tovar-moddiy boyliklar) tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bo'lib bojxona qonunlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan aylanma manba hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig'i summasi (aksiz solig'i to'lanadigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

QQS quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

**$S_{qqS} q (B_q Q I_b Q A_s) h H / 100$  bunda:**

$S_{qqS}$  - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;  $B_q$  - bojxona qiymati;  $I_b$  – import boji;  $A_s$  – aksiz solig'i;  $H$  - QQS stavkasi.

Jismoniy shaxslar notijorat maqsadida o'z ehtiejlari uchun tovar olib kelinaetganda tovarlarning bojxona qiymatidan bojsiz olib kirish me'eri ayirib tashlanadi va quyidagi tarzda hisoblanadi:

**$S_{qqS} q ((B_q Q I_b Q A_s) - 1000 \text{ dol.}) h H / 100$  bunda:**

$S_{qqS}$  - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;  $B_q$  - bojxona qiymati;  $I_b$  – import boji;  $A_s$  – aksiz solig'i;  $H$  - QQS stavkasi, 1000 dol. – bojsiz olib kirish me'eri.

Jismoniy shaxslar tomonidan tijorat maqsadida olib kelinadigan tovarlardan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 6 maydagi 154-son qaroriga asosan, 2012 yil 1 iundan boshlab, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona bojlari va yig'imlar o'rniga yagona bojxona to'lovi to'lash joriy etildi. Yagona bojxona to'lovining stavkasi oziq-ovqat tovarlari (undan tashqari) bo'yicha 50 foiz, nooziq-ovqat tovarlari bo'yicha 90 foiz belgilandi. Vazirlar Mahkamasining 27 sentyabr 2012 yildagi 335-son qaroriga asosan yagona bojxona to'lovining miqdorlari mos ravishda 40 va 70 foiz qilib belgilandi va bu to'lovlar milliy valyuta so'mda to'lanadigan bo'ldi.

Mamlakatimiz iste'molchilar huquqlarini himoya qilish maqsadida bozorlarimizda sifatli tovarlarni va milliy tovarlarimizni haridorgirligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini tomonidan 2012 yil 20 avgustda «Lisenziyalashni bekor qilish hamda iste'mol tovarlarni olib kelish va O'zbekiston Respublikasining ichki bozorida takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 295-sonli qarori qabul qilindi.

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagilar qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi:

a) horijiy diplomatik vakolathonalar va ularga tenglashtirilgan vakolathonalar rasmiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar;

b) diplomatik vakolathonalar va ularga tenglashtirilgan vakolathonalar diplomatik xodimlarining, shuningdek, ular bilan birga yashaydigan va O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bo'limgan oila

a'zolarining shaxsiy foydalanishi uchun mo'ljallangan tovarlar, shu jumladan, eng zarur uy-ro'zg'or tovarlari;

v) horijiy diplomatik vakolathonalar va ularga tenglashtirilgan vakolathonalarning ma'muriy-tehnik xodimlari, shu jumladan, ular bilan birga yashaydigan oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmasalar yoki O'zbekiston Respublikasida doimiy yashamasalar, olib kiradigan eng zarur uy-ro'zg'or tovarlari;

g) O'zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq insonparvarlik yordami sifatida olib kiriladigan tovarlar;

d) jismoniy shaxslar boj to'lamasdan olib kirish me'yorlari doirasida import qiladigan tovarlar, bundan tijorat maqsadlari uchun mo'ljallangan tovarlar mustasno;

e) tabiiy ofatlar, qurolli ihtiloflar, bahtsiz hodisalar yoki avariylar yuk berganda yordam ko'rsatish uchun olib kiriladigan mol-mulk;

j) O'zbekiston Respublikasi investisiya dasturiga kiritilgan ustivor ob'ektlar uchun olib kelinaetgan tehnologik uskunalar.

Aksiz so'zi – kesib qo'yish yoki to'siq qo'yish degan ma'noni bildiradi. Aksiz solig'i ko'pgina halq iste'moli mollari uchun keng ma'noda yashash uchun birinchi navbatda zarur bo'lmaydigan tovarlarga nisbatan qo'llaniladi.

Respublika ichki ishlab chiqaruvchilar manfaatlarini himoya qiluvchi richag sifatida chetdan olib kelinadigan ayrim mahsulotlarga nisbatan iqtisodiy usullarni qo'llash maqsadga muvofikdir.

Dunyo iqtisodieti amaliyotida import qilinadigan quyidagi tovarlarga nisbatan aksiz solig'i qo'llaniladi. Bular:

- neft va neft mahsulotlari;
- qand va to'zlarga;
- tamaki mahsulotlariga;
- transport vositalariga;
- gilamlarga;
- alkogoli ichimliklarga;
- video va audioapparaturalarga;
- qimmatbaho buyumlarga va shunga o'hshash boshqa tovarlarga.

Aksiz solig'inining ikki hil turi mavjuddir:

- Respublika hududiga olib kelinaetgan tovarlarga;
- Respublika hududidan olib chiqib ketilaetgan tovarlarga.

Dastlab O'zbekiston Respublikasi da aksiz solig'i 1994 yil 31 dekabrdagi 600-sonli Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan:

- tamaki mahsulotlariga – aksiz solig’ini hisoblash bazasi asosiga nisbatan 50 foiz miqdorida;
- alkogoli ichimliklarga – aksiz solig’ini hisoblash bazasiga nisbatan 75 foiz miqdorida belgilangan.

1996 yil 3 sentyabrdagi 304-sonli Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab:

- engil avtomobilarga dvigateli quvvatiga nisbatan EKUlarda, 1997 yil 14 apreldagi 188-sonli Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan Rossiya Federasiyasidan olib kelinadigan engil avtomobilarga, 1997 yil 15 apreldan boshlab bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda ya’ni avtomobilni faktura qiymatiga nisbatan 5 foiz miqdorida aksiz solig’i undirilishi joriy etildi.

1997 yil 17 iundagi 302-sonli Vazirlar Mahkamasining qaroriga binoan 1997 yil 20 iundan boshlab «GM Uzbekistan» AJning rasmiy dilleri maqomiga ega bo’lmagan jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan olib chiqib ketiladigan, Vatanimizda ishlab chiqariladigan avtomobilarga dvigatel hajmining 1 kub santimetriga 3 EKU miqdoridagi stavka bo'yicha aksiz solig’i belgilanib, qayta eksport tariqasida «GM Uzbekistan» AJ tomonidan o’z sho’ba va qo’shma korxonalari ustav jamg’armasiga qo’shish uchun, shuningdek, horijda avtomobilarga kafolatlari va servis hizmati ko’rsatish uchun olib chiqib ketilayotgan uskunalar, asboblar, ehtiyyot qismlar, asosiy va yordamchi materiallar aksiz solig’i to’lashdan ozod qilindi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 14 avgustdagagi 285-sonli qaroriga binoan 1996 yil 1 oktyabrdan boshlab:

- O’zbekiston Respublikasi da ishlab chiqarilgan va olib kirilgan alkogol ichimliklaridan (pivotan tashqari) va tamaki mahsulotlarini aksiz markalari bilan markalash;

- markasiz bo’lgan alkogol ichimliklar (pivotan tashqari) va tamaki mahsulotlarini sotish taqiqlandi.

1-Jadval

**O'zbekiston Respublikasi hududiga chetdan keltiriladigan  
aksizlanadigan ayrim tovarlarga nisbatan aksiz solig'i stavkalari  
jadvali**

Tovar turining raqami	Tovarlarning nomi	TIF bo'yicha tovar kodi	TH Boj stavkasi (%)
04	Tabiiy asal	04090000	10
09	Xushbo'y ta'mli qo'shilgan yoki qo'shilmagan choy	0902	10
10	Guruch	1006	40
17	Chaynaladigan saqich	170410110	40
21	Turli oziq-vqat mahsulotlari, shu jumladan mo'zqaymoq	21 (21042001 dan tashqari)	20
22	Solod pivosi	220300	30, litri 5 AQSh dol. dan kam emas
	Vinolar	220421, 2205	70, litri 5 AQSh dol. dan kam emas
	Konyak	220820210	82, litri 14,5 AQSh dol. dan kam emas
	Aroq	20860	85, litri 3,5 AQSh dol. Dan kam emas

**Manba: O'zR Statistika qo'mitasi ma'lumotlari**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 12 iundagi 1789-sonli Farmoniga binoan 1997 yil 1 iuldan boshlab aksiz markasi bo'limgan alkogol ichimliklar va tamaki mahsulotlarini O'zbekiston bojxona hududiga (xalqaro tranzitdan tashqari), O'zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik «Vaqtinchalik olib kirish» rejimida va jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish taqiqlangan. O'zbekiston Respublikasining qonunchiligidagi belgilangan normalar doirasida aksizsiz olib kelish bundan mustasno.

Aksiz soliqlarini hisoblash, undirish va budjet daromadlari hisobiga o'tkazish tartibi O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, Vazirlar Mahkamasining 1996 yilning 14 avgustidagi 285-sonli, 1998 yil 21 maydagi 221-sonli, 1999 yil 5 yanvardagi 2-sonli, 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli qarorlari asosida ishlab chiqilgan 2002 yil 5 martdagi 1101 raqamii bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida ro'yhatdan o'tgan «O'zbekiston Respublikasi hududiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan olib kiriladigan ayrim tovar turlaridan aksiz solig'ini undirilishi yuzasidan tasdiqlangan tartib haqida»gi yo'riqnomasi asosida tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinaetgan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini hisoblash uchun soliqqa tortiladigan manba bo'lib, BUDning 45-ustunida ko'rsatilgan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki kursi bo'yicha hisoblab chiqilgan tovarning bojxona qiymatidan hisoblanadi.

Pivo, alkogoli ichimliklar va tamaki mahsulotlari uchun aksiz solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan manba quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**O q (S h 100) / (100 - A), bu erda:**

O – soliqqa tortiladigan manba, S – bojxona qiymati, A – aksiz solig'i stavkasi.

Aksiz solig'i quyidagi formula bilan aniqlanadi:

**As q O h A / 100, bu erda:**

O – soliqqa tortiladigan manba, A – aksiz soliq stavkasi.

Qolgan aksiz solig'iga oid tovarlar bo'yicha (ichimliklar, pivo, sharbatlar va avtomobillardan tashqari) hisoblab chiqarish asosi bo'lib tovarning bojxona qiymati hisoblanadi. Ushbu tovarlar bo'yicha aksiz solig'i quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

**As q S h A / 100, bu erda:**

S – bojxona qiymati, A – aksiz solig'i stavkasi.

Olib kiriladigan, aksiz solig'i to'lanaadigan alohida turdag'i tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi tovarning bojxona qiymatidan foizlarda yoki bir birlik o'lchovi uchun AQSh dollarida belgilanadi.

Quyidagi harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilagan miqdorlarda bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'implari undiriladi:

- Tovarlar va transport vositalarini, shu jumladan, kuzatuvchisiz bagajda xalqaro pochta jo'natmalarini va yuylarda olib

o'tilayotgan notijorat maqsadlardagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirganlik uchun;

- Tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida, bojxona organlarining belgilangan i shvaqtidan tashqarii vaqtda, bayram va dam olish kunlari bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirganlik uchun;

- Tovarlar va transport vositalarini, bojxona organlari egaligidagi bojxona omborlari va vaqtincha saqlash omborlarida saqlaganlik uchun;

- Tovarlarni bojxona ko'zatuviga olganlik uchun.

Bojxona yig'imlarining stavkalari Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 30 apreldagi 204-sonli qarori bilan belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi bojxona hududiga kirib kelayotgan tovarlar quyidagi holatlarda bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlardan ozod etiladi:

- O'zbekiston Respublikasi hududiga avariya, bahtsiz hodisalar, qurolli to'qnashuvlar, tabiiy ofatlar natijasida ro'y bergan hodisalarni bartaraf etish maqsadida olib kelingan hayriya yordam tovarlari;

- Yuridik shaxslarning eng kam ish haqining 10 barobari va undan kam bo'lган summadagi tovarlari bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilganda;

- Jismoniy shaxslarning bojsiz olib kirish me'eridan kam bo'lган summadagi tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilganda;

- «Davlat foydasiga voz kyechish» rejimida tovar va transport vositalari rasmiylashtirilganda;

- «Baqtincha saqlash rejimi»da tovar va transport vositalari rasmiylashtirilganda;

- O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan «Tranzit rejimi»da o'tuvchi tovar va transport vositalaridan;

- O'zbekiston Respublikasi diplomatik vakolathonalari xodimlari shaxsiy foydalanishga olib kelgan tovarlar;

- Diplomatik vakolathonalar xodimlari va ularning oila a'zolari, shu bilan birga vakolathonalarning tehnik xodimlari hamda ular bilan birga yashaydigan oila a'zolari tomonidan shaxsiy foydalanish uchun olib kelingan tovarlar;

- O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligi, MXX, IIB, FQB, Davlat chegarasini qo'riqlash qo'mitasi va DBQning harbiy yuuklari;

•O'zbekiston Respublikasi hududidan ko'rgazma, yarmarkalar uchun vaqtincha olib chiqilayotgan va olib kiriladigan tarixiy edgorliklar, madaniy boyliklar.

Vazirlar Mahkamasining 31 may 2002 yildagi 189-son qarorini 2-ilovasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi hyukumatining ba'zi bir qarorlariga o'zgartirishlar kiritildi. Shunga ko'ra, Vazirlar Mahkamasining 30 aprel 1999 yildagi «Bojxona yig'imlarining stavkalari to'g'risida»gi 204-son qarorining 1-bandi quyidagi abzaslar bilan to'ldirildi:

- O'zbekiston Respublikasi ni butun hududida bojxona yig'imlari milliy valyuta so'mda, erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududlarida esa – erkin almashtiriladigan valyutada undiriladi.

Erkin bojxona zonalari va erkin omborlar hududlarida undirilgan yig'imlardan valyuta tushumlari quyidagicha taqsimlanadi:

- umumiy tushumlar summasining 15 foizi, Lekin Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan summadan kam bo'lмаган qismi Butunjahon savdo tashkilotiga a'zolik badalini to'lash uchun ishlataladi, O'zbekiston Respublikasi bojxona qo'mitasi ihtiyyorida qoladi;

- qolgan summa birjadan tashqarii valyuta bozorida, talab va taklifdan kelib chiqqan, erkin kursda sotiladi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri – bu mamlakat bojxona chegaralari orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalaridan bojxona bojlarini, soliqlar va boshqa bojxona to'lovlarini undirishdir. Bu jarayonning huquqiy asoslari, respublikamiz iqtisodietidagi, ayniqsa, uning tashqi iqtisodiy faoliyatida amalga oshirilgan va oshirilaetgan iqtisodiy islohotlarga mos ravishda shakllanib bordi va hozirgi kunda takomillashib borayapti.

O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda har qanday eksport va import jarayonlarini imkonli boricha soddalashtirish, jahon xalqaro bojxona huquqi andozalariga amal qilgan holda davlat hazinasiga ko'proq mablag' tushirishni ta'minlash mamlakatimizdagi tovar moddiy boyliklari ustidan qattiq nazorat o'rnatib, ularni noqonuniy yo'l bilan olib chiqib ketilishiga yo'l qo'ymaslik zarur.

### Nazorat savollari:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solinishini zarurligi nimada?
2. Milliy Iqtisodiyotni rivojlanishini ragbatlantirish.
3. Ichki bozorni himoya qilishni iqtisodiy mohiyati.

4. O'zbekiston Respublikasi makroiqtisodiy rivojlanishini asosiy ko'rsatkichlarini hozirgi holati.
5. O'zbekistonda TIFni tashkil etish va boshqarishni huquqiy asoslari.
6. TIFni tashkil etish, boshqarish davlat tashkilotlari va ularni asosiy vazifalari.
7. TIF ni tartibga solishda bojxona organlarini urni qanday?
8. TIF deganda nimani tushunasiz?
9. TIF ni rivojlantirish bo'yicha qanday imtiyozlar beriladi?
10. Eksportga qaratilgan ishlab chiqarishni rivojlantirishni ahamiyati to'grisida gapiring.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil
3. В.Г. Свинухов – Таможенно-тарифное регулирование ВЭД, М: Экономист, 2004 г.
4. Э.Ф.Авдокушин – Международное экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.

#### **5.4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvi vositalari.**

Dunyo xo'jaligining XX asr ohirlaridagi faoliyatini o'ziga hos hususiyatlaridan biri – davlatlar o'rtaSIDagi xalqaro iqtisodiy munosabatlarni yanada rivojlanishi va takomillashishidir.

Xar bir davlat bu sharoitda o'z tashqi iksodiy faoliyatini o'z Iqtisodiyotini har tomonlama rivojlantirish, dunyo ho'jaligiga integrasiyalashuv jarayonlarini, har tomonlama uylagan holda, tashkil etishga karatgan bo'ladi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishni asosiy shakllaridan bulmish – tashqi savdoni (eksport va import jarayonlarini ) amalga oshirishda davlatning roli asosan savdo siyosatini amalga oshirish va tashqi savdoni tartibga solish chora tadbirlarini chiqarishga, qo'llashga qaratilgan bo'ladi. Xar bir mamlakatdagi savdo siyosatida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy huquqiy va boshqa masalalar o'zviy boglangandir. Savdo siyosatini tub mohiyatidan kelib chiqqan holda iqtisodiy masalalar asosiy hisoblanadi.

Mamlakatlar o'z ichki bozorlarini himoya qilish, chet el bozorlariga ko'proq tovarlar chiqarish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyatlarni savdo siyosatini mavjud vositalari yordamida tartibga soladilar.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish davlat vositalari harakteriga ko'ra ta'rif – ya'ni boj tarifini qo'llashga asoslangan va notarif – boshqa barcha vositalarga bo'linadi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni ayniqsa tashqi savdo faoliyatini tartibga solishda, mavjud usullardan qaysi biridan foydalanish muammosi vujudga keladi.

Bu chora tadbirlar dunyo ho'jaligida ma'lum ustivorliklarga erishishga qaratilgan bo'ladi. Dunyo tajribasi shani ko'rsatadiki, tashqii savdoni davlat tomonidan tartibga solish:

Bir tomonlama, ya'ni davlat tomonidan ishlab chiqilgan chora tadbirlar davlat organlari tomonidan savdo bo'yicha sherik davlatlar bilan kelishmaslikdan va ular bilan maslahatlashmagan holda qo'llaniladi. Odatta biror bir davlat tomonidan amalga oshirilayotgan bir tomonlama chora tadbirlar, boshqa davlatlar tomonidan huddi shunday tartibda qabul qilingan chora tadbirlarni qarama qarshi tarzda qo'llashga olib keladi. Bu esa o'z navbatida savdo bo'yicha sherik davlatlar o'rtasida siyosiy ziddiyatlarni paydo bo'lishiga va keskinlashuviga olib keladi.

- Ikki tomonlama, yani savdo siyosati choralari o'zaro sherik bo'lган davlatlar o'rtasida kelishilgan holda amalga oshiriladi. Misol uchun o'zaro kelishilgan holda har bir tomon tomonidan iqtisodiy manfaatlariga zien etkazmagan holda, konvension bojlar qo'llanilishi, mamlakatlar tovarlarini kadoklanishiga, belgisiga qo'yilgan tehnik sabalar, sifat sertifikatlarini o'zao tan olishi to'grisida kelishib olishlari mumkin.

- Kup tomonlama, ya'ni savdo siyosati kelishilgan holda, ko'p tomonlama shartnomalar asosida amalga oshiriladi.

Davlatni xalqaro savdo jarayonlariga aralashuvi darajasiga ko'ra xalqaro savdo siyosati proteksinistik savdo siyosatiga hamda erkin savdo siyosatiga bo'linadi.

Erkin savdo – davlatni tashqi savdo jarayonlariga aralashuvini kamayishi, ya'ni tashqi savdoni erkin bozor talabi va taklifiga asosan rivojlanish.

Proteksionizm – tarif va notarif usullarini qo'llash orqali ichki bozorni chet el raqobatchilaridan himoya qaratilgan davlat siyosati.

Bularning qaysi biri qanday afzallikka ega, ega emasligi bir biridan ustunligi iktisodchilar o'rtasida ko'p yillar mavjud bo'lib kelgan tortishuvlarning asosidir. Tashqi savdo amaliyoti tarixida bir savdo siyosatidan ikkinchi savdo siyosatiga o'tish davrlarini kuzatish mumkin.

50-60 yillarda dunyo ho'jaligi Iqtisodiyoti uchun proteksionistik siyosatidan erkin savdo siyosatiga o'tish hos bo'ldi.

70 yillarning boshlarida esa teskari tendensiya, ya'ni erkin savdo siyosatidan tariflar orqali ayniqsa notarif usullari yordamida ichki bozorni himoya qilish siyosatiga o'tish ko'zatila boshladi.

Bu erda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda amalga oshirila boshladi. Misol uchun, rivojlangan davlatlar o'rtasida qishloq ho'jaligi, tyokistil sanoati va kiyim—kechak ishlab chiqarishda bo'lsa rivojlangan davlatlar bilan rivojlanayotgan davlatlar o'rtasida – rivojlanayotgan davatlarni sanoat tovarlari eksporti sohasida, rivonaetgan davlatlar o'rtasida esa ularga hos an'anaviy tovarlar savdosi sohasida.

Proteksionistik tendensiya taraqqiyoti proteksionizmni bir necha shakllarga ajratish imkonini beradi:

- Selektiv protesonizm- ayrim davlatlar, ayrim tovarlarga qarshi qaratilgan.
- Soha proteksionizmi – halq xo'jaligini ma'lum sohasini himoya qilishga (qishloq ho'jaligi) qaratilagan.
- Kollektiv proteksionizm – ma'lum davlatlar guruhi tomonidan shu guruhgaga kirmagan davlatlarga nisbatan qo'llaniladigan chora tadbirlarni ishlab chiqishdir.

Erkin savdo siyosati yahshimi yoki proteksionistik savdo siyosatimi? Bu masala doimo iktisodchilarni kiziktirib kelgan.

Xozirgi kundagi Iqtisodiyotni yanada globallashtirish sharoitida Iqtisodiyotni ochiqlashtirishiga intilish qonuniydir.

Garverd universitetiga 115 davlat bo'yicha ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki epik Iqtisodiyot siyosatini olib boraetgan davlatlarda ichki yalpi mahsulot hajmini yillik usishi 0,7%ni tashkil qilgan bir paytda ochiq Iqtisodiyot siyosatini olib boraetganda bu ko'rsatkich o'rtacha 5 marta yuqori bo'ldi. (Albatta ochiq tashqi iqtisodiy siyosatni olib borishni yahshi rivojlangan va tez suratlar bilan rivojlanayotgan davlatlar olib borayaptilar). Lekin hozirgi kunda proteksionizm siyosatining ba'zi bir tadbirlari barcha davlatlarda bor. Rivojlangan davlatlar uchun tarif eskolasiyasi o'rnlidir, ya'ni hom-ashyo va tayyor mahsulotlarga belgilan import bojlari o'rtasidagi farq. GATTni Urugvay raundidan so'ng

rivojlangan davlatlar tomonidan olib chiqilayotgan hom ashyoga belgilangan tarif stavkalari, tayyor mahsulotlari stavkalariga nisbatan 3,5 barovar kam va tayyor mahsulotlarga qo'yilgan stavkalarga 7,5 barovar kam bo'ldi.

Davlatning savdo siyosatida ko'pgina masalalar o'zaro bir biriga boglanib ketadi. Bular iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalardir.

Xalqaro iktisod avvalo iqtisodiy masalalarni va savdo siyosatini oqibatlarini urganadi.

Savdo siyosatida mujassamlangan boshqa masalalarni esa fanni ihtisoslashgan yo'naliishlari urganadi.

Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish usullari mohiyatiga ko'ra 2 guruhga bo'linadi. Bojxona tariflariga asoslangan tarif usullariga (iqtisodiy bilvosita), hamda notarif (ma'muriy bevlosita) usullari.

Hotarif usullari o'z navbatida me'eriyligini usullarga va kurinmas proteksionizm usullaringa bo'linadi. Savdo siyosatining ba'zibir usullari ko'pincha cheklashni eksportni qo'llab quvvatlash uchun qo'llaniladi.

Xalqaro savdoda davlatning asosiy vazifasi – o'zlarini ishlab chiqargan mahsulotlarini iloji boricha chetga olib chiqishlari uchun eksportchilarni qo'llab-kuvvalash, ularni tovarlarini xalqaro bozordagi raqobatbardoshlik darajasini oshirish, ichki bozorda chet el tovarlarini raqobatbardoshlik darajasini pasaytirish maqsadida importni chegaralashdir.

Shuning uchun davlat tomonidan tartibga solish usullaridan bir qismi ichki bozorni chel el raqobatidan himoya qilishga, ya'ni importni chegaralashga qaratilgan. Usullarni boshqa qismini asosiy maqsadi eksportni jadallashtirishga qaratilgandir.

Oldingi mavzulardan shuni anglash mumkinki, xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solish bir tomonlama, ikki tomonlama va ko'p tomonlama bo'lishi mumkin. Xalqaro savdoni tartibga solish davlat vositalari boj tarifini qo'llashga asoslangan tarif va barcha boshqa usullarga asoslangan notarif turlariga bo'linadi. Davlatni tashqi savdo siyosati, ichki bozorni chet el raqobatiga ochish bilan bog'lik bo'lgan erkin savdo siyosatidan, ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilishga qaratilgan proteksionistik savdo siyosatidan yoki o'zida erkin savdo va proteksionistik siyosati elementlarini ma'lum proposiyada mu'tadil savdo siyosatidan iborat bo'lishi mumkin. Ko'pchilik davlatlarda hyukumatning xalqaro savdo sohasidagi asosiy vazifasi – eksportchilarga iloji boricha ko'p mahsulotlarini chetga chiqarishlariga

va ularni tovarlarini xalqaro bozorlardagi raqobatdoshligi oshirshga kumaklashishdan va importni chegaralab, chel el tovarlarini ichki bozordagi raqobatbardoshlik darajasidan tushirishdan iboratdir.

Xalqaro savdoni tartibga solish davlat mexanizmlarini mamlakatni iqtisodiy holatini ta'sirini iste'molchi tomonidan iste'mol qilinayotgan tovarlarni ortiqchaligi va ishlab chiqaruvchini ishlab chiqargan tovarlarni ortiqchaligi tushunchalari tushunchalari bilan ifodalash mumkin.

- Iste'molchi tomonidan iste'mol qilinayotgan tovarlarni ortiqchaligi – bu iste'molchi tomonidan sotib olingan tovarni bahosi bilan shu tovarni sotib olishi mumkin bo'lgan maksimal bahosi o'rtaсидаги farq tushuniladi.

#### Savdo siyosatini harakteri.

Xar hil davlatlar o'z savdo siyosatini amalga oshirish uchun xalqaro savdoni tartibga solish davlat vositalarini har hil turlaridan va usullaridan foydalanadilar. Agarda davlat bojxona himoyasini o'rtacha darajasini aniq miqdoriy jihatdan baholash mumkin bo'lsa, notarif usullarini qo'llash darajasi, ularni hilma hilligi va har hil iqtisodiy mazmunga egaligidan, miqdoriy jihatdan takribiy baholashi mumkin.

Tovarni o'rtacha darajasi odatda faqat import bojiga tortiladigan tovarlar uchun hisoblanadi. Uni qiymati import tarifiga tortiladigan tovarlarni hajmini bahosiga nisbatan import bojini o'rtacha stavkasi ko'rinishida ifodalananadi, ya'ni

TsrqPim1QPim2Q...QPimn / Qt1QQt2Q...QQtn

Bu erda Qtn import bojiga tortiladigan tovarlar import narxi, Pimn import bojini stavkasi.

Hotarif chegaralashni o'rtacha darjasи esa shu chegaralashlarga to'gri keladigan import yoki eksport ulushini bahosi sifatida hisoblanadi. Bu erda bu chegaralashlarni qo'llanilish intensivligiga karab o'zgartirishlar kiritiladi. Misol uchun, kerakli hujatlarni taqdim etilishi bilan, davlat organlari tomonidan beriladigan avtomatik lisenziya eksportni belgilangan miqdordan ortiq tovarni eksport qilishni tasdiqlovchi eksport kvotasiga nisbatan kam darajada chegaralaydi. Davlatni savdo siyosati proteksionistik, umerenno'y yoki ochiq(erkin savdo) bo'lishi mumkin. Bu tushunchalarni har biri nisbiy mazmunga ega bo'lib, bir to'gri chizikni ikki ekstrimal nuqtalari o'rtaсида joylashган bo'ladilar. Ekstrimal nuqtalarni bir-birini mazmuni shundan iboratki, davlatni tartibga solish qurollari ta'kiklovchi mazmunga ega bo'lib, tashqi dunyo bilan savdo sotiqni tuhtalishi bilan va ikkinchi nuqta

davlat tashqi savdo yo'nalishida hech qanday savdo qurollaridan foydalanimaydi.

Xar bir davlat savdo siyosatini u yoki bu vositalarini qo'llash bo'yicha qaror qilish oldidan, qo'llanilaetgan vositalarni davlat savdo siyosati harakteriga ta'sirini va sherik davlatlar tomonidan javob chegaralari qo'llanilishi mumkinligini urganib chiqish lozim.

Savdo siyosati choralarini baholash maqsadida iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot xalqaro tashkiloti tomonidan 1985 yili indikativ savolnomaga mamlakatlar hyukumatlari amaliyoti keng qo'llaniladi.

## 2-Jadval Tarif va notarif usullarni qo'llash

Usullar		Savdo siyosati vositasi	Asosan tartibga soladi	
Tarif		Bojxona bojlari Tarif kvotasi		import import
N O	Miqdoriy	Kvotalash Lisenziyalash Ihtiyoriy chegaralash	eksport eksport	import import
T A	Ko'zga tash-Lanmas	Davlat haridlari Mahalliy komponentlarni borligi Tehnik to'siqlar Soliq va yig'imlar		import import import
R		Subsidiyalar Kreditlash Demping	eksport eksport eksport	
I F	Moliyaviy			

Savdo siyosatini iqtisodiy chora tadbirlarini qo'llashdan oldin javob berilishi lozim bo'lgan savollar quyidagilardan iboratdir:

- Bu chorani amalga oshirilishi natijasida tarmoq yoki firma uchun qanday iqtisodiy utyuk kutiladi va kancha ish joylari tashkil etiladi yoki saklab kolinadi?
- Budget daromadlari kanchaga oshadi yoki tadbirlarni amalga oshirish uchun kancha budget harajatlari talab etiladi?
- Ichki narxlar kanchaga oshadi v abu chora tadbirlar natajasida iste'mol miqdori kanchaga kamayadi?

- Amalga oshirilmokchi bo’lgan chora tadbirlarni bozor tuzilishiga va undagi raqobatga ta’siri qanday?
- Bu chora tadbirlarni qo’llanilishiga savdo bo’yicha sherik davlatlar qanday munosabat bildiradilar va uni ularga potensial ta’siri qanday?
- Kullanilishi kutilaetgan chora-tadbirlar mavjud davlat ishtirok etayotgan ko’p tomonlama yoki ikki tomonlama shartnomalar qoidalariga to’gri keladimi yo’qmi?

Mana shu savollar javablarini organib va tahlil qilingandan so’ng xalqaro savdoni tartibga solish vositalari u yoki bu turlaridan qo’llaniladi.

Dunyo ho’jaligi amaliyotida xalqaro savdoni tartibga solishda qo’llaniladigan usullarni mazmun mohiyatiga ko’ra quyidagi sinflash mumkin (rasm 1).

Ma’lumki savdo siyosati iqtisodiy, siyosiy, ma’muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalar o’z aksini topadi.

Xalqaro iqtisodiy savdo siyosatini iqtisodiy oqibatlarini, huquqiy, tashkiliy masalalarini mahsus fanlar tomonidan kurilishiga qoldirib, urganadi.

Xalqaro savdoni tartibga solish davlat vositalari harakteriga ko’ra boj tarifini qo’llashga asosan tarif va notarif usullariga bo’linadi.

Xalqaro savdo sohasida davlatning asosiy vazifasi – eksportchilar uchun iloji boricha ko’p tovarlarini, ularni jahon bozorlarida raqobatdoshligini oshirgan holda, eksport qilishga kumaklashish, hamda chet el tovarlarini ichki bozordagi raqobatdoshlik darajasini kamaytirish maqsadida importni qisqartirishdir.

### **Nazorat savollari:**

1. Xalqaro savdo va uni asosiy vazifalari.
2. Xalqaro savdoni davlat tomonidan tartibga solishni qanday shakllari sizga ma’lum?
3. Erkin savdo siyosati bilan proteksionizm o’rtasidagi farq.
4. O’zbekiston Respublikasi savdo siyosatini hozirgi holati qanday?
5. Savdo siyosatini asosiy vositalarini sanab uting.
6. Iste’mol ortiqchaligi nima?
7. Ishlab chiqarish ortiqchaligi qachon o’z beradi?
8. Erkin savdo siyosatini proteksionizmdan afzalligi nimada?
9. Savdo siyosatining asosiy vazifalari nimadan iborat?
10. Respublikamizning iqtisodiy siyosati nimaga qaratilgan?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. В.В.Буглай, Х.Х. Ливенсов – Международные экономические отношения. М: Финансостатистика, 1996 г.
3. Э.Ф. Авдокушин – Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
4. Х.А. Миклашёвская, А.В.Хлопов – Международная экономика, М., Дело-сервис, 2004 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. В.К.Ломакин – Мировая экономика, учебник, М., УТИ, 2014 г.
2. И.И. Думулен – Всемирная торговая организация. М: Торгова-промышленная палата РФ. , 1997 г.
3. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана Ж: Экономическое обозрение №1(11), 2016 г.
4. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi veb-sayti
5. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi veb-sayti

## **5.5. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat boshqaruvida notarif usullar.**

Tashqi iqtisodiy faoliyatni, hususan tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda tarif usullari bilan bir qatorda notarif usullari ham qo'llaniladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda uhtin uhtin tarif usullariga nisbatan notarif usullarini qo'llashga ko'proq e'tibor beriladi. Chunki notarif usullar siyosiy tomondan qo'llashda qulay, iste'molchilar uchun Soliq bo'yicha qo'shimcha og'irliliklar tugdirmaydi. Bundan tashshkari notarif uullari ko'zlagan maqsadga erishishda ham qulaydir.

Misol, Bugdoy importi miqdorini 2,5 mln.tonna qilib belgilashda notarif usullardan foydalanish qulaydir. Chunki shu tovar bo'yicha import miqdorini, import ta'rifi orqali shunday qilib belgilash uchun kerak bo'lgan tarif stavkasini hisoblash ko'p mehnat talab qiladi.

Ba nihoyat notarif usullarni qo'llash hech bir xalqaro tashkilot tomonidan tartibga solinmaydi v abu usulni o'z savdo siyosatida qo'llash orqali har bir davlat, tarifni qo'llashga nisbatan, o'zuni

erkinrok his etadi. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda tarif usullaridan foydalanish, aniqrogi tashqi savdoni ko'zlagan miqdorda tartibga solish butun jahon savdo tashkiloti tomonidan tartibga solinadi.

Hotarif usullari mazmun mohiyatiga ko'ra miqdoriy, ko'zga tashlanmas va moliyaviy chegaralash turlariga bo'linadi.

Miqdoriy chegaralash – eksport va importga ruhsat etilgan tovarlarini miqdori va nomenklaturasini belgilashda davlat tomonidan qo'llaniladigan notarif usullarini ma'muriy shaqlidir. Miqdoriy chegaralashlar biron bir davlat hyukmati qarori asosida yoki ma'lum tovar savdosini tashkil etuvchi xalqaro kelishuvlar asosida qo'llanilishi mumkin.

Miqdoriy chegaralash usullarini amaliyoti keng tarkalgan turi kvota yoki kontingentdir. Bu ikkala tushuncha bir hhil ma'noga ega bo'lib, kontingent so'zi odatda mavsumiy harakterga ega bo'lgan kvotani belgilashda qo'llaniladi.

Kvota – bu eksport yoki importni belgilangan miqdorda va summada ma'lum vaqt oraligida chegaralash bilan bog'lik bo'lgan miqdoriy chegaralash chorasıdır.

Kvotalar ta'sir yo'nalişlari bo'yicha quyidagi turlarga bo'linadi:

Eksport kvotaları – biron davlatni ma'lum tovar eksportini umumiyligi miqdordagi ulushini belgilashda, xalqaro muvofiqlashtiruvchi kelishuvlar asosida kiritiladi. Bundan tashqari bu kvotalar biror bir davlat tomonidan alohida holda, ichki bozorda takchil bo'lgan tovarlarni olib chiqib ketilishini oldini olish maqsadida ham kiritiladi.

Import kvotaları – mahalliy hyukumat tomonidan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, savdo balansini muvofiqlashtirish, ichki bozordagi talab va taklifni tartibgga solish, shuningdek boshqa davlatlar tomonidan qo'llaniladigan savdo bo'yicha iqtisodiy tazikka javob maqsadida kiritiladigan kvotalar.

Kamrab olish darajasi bo'yicha esa kvotalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Global kvotalar – qaysi davlatdan import qilinayotganidan, qaysi davlatga eksport qilinayotganidan qat'iy nazar, ma'lum tovar eksport iva importi bo'yicha ma'lum davrga belgilanadigan kvotalardir. Bu turdagiligi kvotalar ichki iste'molni kerak bo'lgan darajada ushlab turish uchun qo'llaniladi.

- Individual kvotalar – eksport yoki import kilaetgan davlat tomonidan, global kvota doirasida, belgilanadigan kvotadir. Odatda bunday kvotalar o'zaro 2 tomonlama kelishuvlar asosida qo'llanadilar.

Bu kvotalar o'zaro siyosiy, iqtisodiy va boshqa manfaatlarga ega bo'lган davlatlarga eksport va import bo'yicha ma'lum afzalliklar beradi.

Kup holllarda individual kvotalar mavsumiy bo'ladilar, ya'ni ichki bozorni ma'lum tovarlar bo'yicha davlat himoyasiga zarurati bo'lganda, ma'lum vaqt oraligida qo'llaniladi.

Miqdoriy notarif usullarini yana bir turi – lisenziyalashdir.

Lisenziyalash – davlat organlari tomonidan, eksport iva importini belgilangan hajmi bo'yicha ma'lum davrga beriladigan, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi ruhsatnomadir.

Liseziyalash kvotalashni tarkibiy qismi bo'lishi yoki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishni alohida olingan davlat quroli ham bo'lishi mumkin. 1 – holda belgilangan kvota doirasida kvota doirasida tovarni olib kirish va olib chiqish huquqini tasdiqlovchi hujjat bo'lishi mumkin, 2 – holda esa u bir qator aniq shaxslarga ega bo'lishi mumkin:

- Bir marotaba beriladigan beriliadigan lisensiya – bir savdo kelishuvi asosida bir yil ichida tovarlar olib kirish va chiqish bo'yicha davlat tomonidan beriladigan yozma ruhsatnoma.

- Bosh lisensiya – u yoki bu turdagи tovarlarni chegaralanmagan sondagi savdo kelishuvlari asosida, bir yil davomida olib kirish va chiqish bo'yicha beriladigan ruhsatnoma.

- Global lisensiya – ma'lum vaqt oraligida, chegaralanmagan miqdordagi va qiymatdaggi ma'lum bir tovarni ihtiyyoriy davlatga olib kirish va chiqish bo'yicha beriladigan ruhsatnoma.

- Avtomatik lisensiya – eksportchi va importchi tomonidan, ma'lum savdo operasiyalarini o'tkazish bo'yicha ruhsat suralgan zahoti, davlat organlari tomonidan qaytarilmaydigan ruhsatnoma.

Lisenziyalash dunyodagi juda ko'p davlatlar tomonidan qo'llaniladi. Jumladan rivojlanayotgan davlatlar tomonidan lisenziyalash importni tartibga solishda, rivojlangan davlatlar esa belgilangan kvota doirasida, importchi tomonidan ma'lum tovari olib kirish bo'yicha ruhsatni tasdiqlovchi hujjat siifatida ishlataladi.

Importni miqdoriy chegaralsh nafaqat import kilaetgan davlat tomonidan import tarifi yoki import kvotalarini kiritilishi orqali amalga oshirilishi mumkin, balki eksport qiluvchi davlat tomonidan «eksportni erkin ravishda» doirasida ma'lum chora tadbirlarni amalga oshirish orqali ham amalga oshirish mumkin.

«Eksportni ihtiyyoriy ravishda» chegaralash odatda katta importchi davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosiy tazik ostida

amalga oshiriladi. Katta davlat eksport qiluvchi davlatga nisbatan bir tomonlama holda importni chegaralash orqali uni o'z tomonidan «o'z eksportni erkin ravishda» chegaralashga majbur qiladi.

«Eksportni erkin ravishda» chegaralash bu, savdo bo'yicha sheriklar bir tomonidan davlatlararo rasmiy kelishuv asosida yoki eksportga kvota o'rnatish bo'yicha norasmiy kelishuvlar asosida eksportni miqdoriy chegaralash yoki juda bo'limganda uni hajmini oshirmaslik to'grisida majburiyat olishidir.

Xar hil yo'llar bilan amalga oshiriladigan moliyaviy eksportni tan narxini kamaytirish orqali eksport tovarlarini jahon bozoridagi raqobatdoshlik darajasini oshirishga qaratilgan.

Savdo siyosati sifatida eksportini moliyalashtirish davlat bujetidan, hamda davlat organlari tomonidan (banklar, jamgarmalar va boshqalar) amlga oshiriladi. Shuningdek shaxsiy sektor-eksportchilarini o'zları ularga hizmat ko'rsatuvchi banklar tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Eksportni moliyalashtirishni savdo siyosati sifatida banklar tomonidan aylanma kapitalni eksport va importni jarayonlari bo'yicha tijorat operasiyalarini moliyalash jarayonidan farq qiladi.

Savdo siyosati sifatida moliyalash milliy ishlab chiqaruvchilarni va eksportchilarni manfaatlarini diskriminasiya qilishga qaratilgan.

Savdo siyosatining keng tarkalgan usullari – Bular subsidiyalash, kreditlash va dempingdir. Bu usularning har biriga alohida-alohida tavsifnomasi beramiz:

Subsidiyalar agarda davlat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni eksportini qo'llab-quvvatlashni lozim deb bilsa, u holda davlat ularga u yoki bu shaklda davlat budgetidan subsidiyalar berishi mumkin.

Kreditlash va eksport krediti – firmalar eksportini davlat tomonidan ragbatlantirish bilan bog'lik bo'lgan, tashqi savdo siyosatining notarif moliya usulidir.

Demping – tovarni eksport bahosini shu davlatda mavjud bo'lgan bahodan kamaytirish orqali uni tashqi bozorga harakatini ta'minlovchi tashqi savdo siyosatini moliyaviy usulidir.

Ajratilish (to'lanish) mohiyatiga ko'ra subsidiyalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Tugri subsidiyalar – eksportchi tomonidan eksport operasiyalarini amalga oshirgandan so'ng eksportchiga uni qilgan harajatlarni va daromadlari orasidagi farqka teng mablag ajratish. Tugri subsidiyalar mahalliy ishlab chiqaruvchilarga dunyo bozoriga chiqishda

ajjeratiladigan dotaliyalaridir. 60 yillar boshidan boshlab to'gri subsidiyalar ob'ekti sifatida rivojlangan davlatlarning sanoat tovarlari eksporti, ya'ni kemalar, aviasiya tehnikasi va boshqalar belgilandi. Lekin to'gri subsidiyalarni qo'llash BTO qoidalari bo'yicha ta'kiklangan bo'lib, ularni qo'llash savdo sheriklari tomonidan javob choralarini qo'llanishiga olib keladi.

- Bilvosita – eksportchilarni mahfiy ravishda, Soliq to'lash bo'yicha imtiyozlar berish, imtiyozli shartlarda sug'o'rtalash, bozor stavkalaridan kam stavgali karzlar berish, import bojlarini qaytarib beri shva boshqa chora tadbirlar orqali dotaliyalashdir. Subsidiyalar import bilan raqobatlasha oladigan tovralar ishlab chiqaruvchilarga, shuningdek eksportga tovar ishlab chiqaruvchilarga beriladi. Ikkala holda ham subsidiyalar ishlab chiqaruvchilar uchun salbiy Soliqdir, chunki subsidiyayalar ularga hyukumat tomonidan ishlatalib, ularni foydasidan chegirib tashlanadi.

- Ichki subsidiya – savdo siyosatini ichida ham maskirovkalangan moliya usuli bo'lib, importga nisbatan, import tovarlari bilan raqobatlasha oladigan tovralar ishlab chiqaruvchi ichki korxonalarni budgetidan moliyalash orqali, iqtisodiy ta'zik o'tkazishdir. Ichki subsidiyalarni iqtisodiy samarasini quyidagi chizma orqali ko'rib chikamiz.

Subsidiya berilishi natijasida ikki turdag'i iqtisodiy samara vujudga keladi. Subsidiyalarni bir qismini shu tovari ishlab chiqarish bo'yicha samaralirok bo'lgan mahalliy ishlab chiqaruvchilarga ishlab chiqaruvchi ortiqchaligi ko'rinishi «segment - a» tegishli bo'ladi. Ximoya samarası «v- segmenti», Iqtisodiyot uchun to'gridan-to'gri yo'qotishlar shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish bo'yicha samarasiz bo'lgan korxonalar ham subsidiya olgandan so'ng, o'zları ishlab chiqargan tovarlarni sotish imkonitiga ega bo'ladi. Import tovarlari bilan raqobatlasha oladigan tovralar ishlab chiqaruvchilariga berilgan subsidiyalar orqali importni chegaralangan, iqtisodiy nuqtai nazardan, importni import yoki kvotasi orqali chegaralashga nisbatan afzalroq hisoblanadi. Chunki import tarifini va kvotasini kiritilishi natijasiga va kvotasini kiritilishi natijasidagi yo'qotishlar, subsidiyalar berillgan holdagiga nisbatan, ko'proq hisoblanadi. Ba'zi bir hollarda hyukumatlar nafaqat import bilan raqobatlasha oladigan ishlab chiqaruvchilarga moliyaviy yordam beradilar, balki eksportga tovar ishlab chiqaruvchilarga ham moliyaviy yordam chiqaruvchilarga ham moliyaviy yordam beradilar. Eksportni subsidiyalar bilan ta'minlash

mahalliy tovarlarni chet el bozorlaridagi narxini pasayishiga va ularni raqobatbardoshlik darajasini oshishiga olib keladi.

Moliyaviy usullarni yana bir turi eksport kreditlaridir. Kup hollarda eksportni pinhona (ko'zga tashlanmas holda) subsidiyalash eksport kreditlari orqali amalga oshiriladi.

Eksport kreditlash – tashqi savdo siyosatini notarif moliyaviy usuli bo'lib, milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan eksportni rivojlantirishlari uchun ularni davlat tomonidan moliyaviy ragbatlantirish.

Eksport kreditlash bir necha shaklda bo'lishi mumkin:

- Milliy ishlab chiqaruvchilarga subsidiyalashtirilgan kreditlar foiz stavkalari bozor stakalaridan past burgan, davlat banklari tomonidan beriladigan kreditlar;

- Chet el importchilariga, tovarlarni faqat kredit bergen davlat firmalaridan sotib olishlari bilan beriladigan davlat kreditlari;

- milliy eksportchilarni eksport tavakkalchiliklarini sug'o'rtalash, ya'ni importchi tomonidan yetkazib berilgan tovar narxini to'la olmasligini, importchi tomonidan eksportchi oldidagi majburiyatlarini, davlat tomonidan kutilmagan hatti-harakatlarni amalga oshirilishi natijasida bajara olmasliklarini sug'o'rtalash.

Eksport kreditlari berilish muddatlariga ko'ra:

- qisqa muddatli – bir yil muddatga beriladigan kreditlar. Bular asosan hom ashyo va iste'mol tovarlari eksporti uchun beriladi;

- o'rta muddatli – bir yildan besh yilgacha beriladi va mashina uskunalar eksportini qo'llab-kuvvvtlash uchun buriladi;

- uzoq muddatli – besh yildan ortiq muddatga berilib, investision tovarlar eksportini va proektlarni kreditlashga qo'llaniladi.

Eksport kreditlarini berish bilan davlat organlari, davlat nazoratidagi hususiy firma va xalqaro tashkilotlar(kreditlarni va investisiyalarni sug'o'rtalash xalqaro ittifoqi – Bern ittifoqi) bo'lishlari mumkin.

Raqobatni kuchayishi sharoitida, eksportni yanada kengaytirish maksakdida subsidiyalash ba'zi bir hollarda o'ta keskin shaklga ega bo'lishi mumkin. Bunday shaklda bo'lishdan maqsad raqobatchilarni sindirish va bozordan sikib chiqarishdir. Ana shu ma'nodagi subsidiyalash dempingdir.

Demping – tovarni tashqi bozorga, eksport bahosini, eksport qilinayotgan davlatlardagi normal bahodan kamaytirib, harakatlantirish bilan bog'lik bo'lgan, savdo siyosatining notarif moliyaviy usulidir.

Demping o'z mahsulotlari bilan tashqi bozorni egallab olishga harakat kilaetgan, alohida firma mablaglari hisobiga, shuningdek eksportchilarga davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar hisobiga amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat amaliyotida demping quyidagi turlardan biri ko'rinishi bo'lishi mumkin:

Sporadic demping – tovarlarni ortiqcha zahiralarini tashqi bozorda arzonlashtirib sotish. Bu hol ichki ishlab chiqarish hajmi bozor sigimidan oshib ketganda sodir bo'ladi. Ana shu paytlarda korxonalar oldida ikkita muammo kundalang bo'lib turib qoladi. Brinchidan ishlab chiqarish quvvatini bir qismidan foydalanmaslik va tovar ishlab chiqarmaslik yoki ikkichidan tovar ishlab chiqarish va uni tashqi bozorda ichki bozordagi narxidan past narxda sotish. Bunday demping asosan rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llanilishi mumkin.

Oldindan uylangan demping – ataylab eksport tovarlari narxini pasaytirib, tashqi bozorlardan raqobatchilarni sikib chiqarish va bozorda yakka hokimlikka (monopoliyaga) ega bo'lib kolish.

Doimiy demping – doimo tovarlarni narxini tushirgan holda eksport qilish.

Teskari demping – eksport tovarlarini narxini, huddi shunday tovarlarni ichki bozordagi narxidan oshirish.

O'zaro demping – ikki davlat o'rtasida narxini tushirgan holda o'zaro savdo.

Dempingni holatida bozoor holati etadi. Ichki bozorda monopol mavkeiga ega bo'lган ishlab chiqarish korxonalari raqobatchilarni sikib chiqarish maqsadida tovarlarni arzon narxda sotadilar. Bunday holat tashqi bozorlarda ham qo'llaniladi. Demak, bundan shu narsa aniq bo'ladiki demping har hil davlatlardagi talabni egiluvchanligiga bog'lik ekan.

Shunday qilib tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan notarif-moliya usullarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu usullarni barchasi milliy tovarlarni eksportini oshirishga, eksport jarayoniga kumaklashishga qaratilgan ekan. Bu usullar mazmun mohiyatidan kurinib turibdiki, asosan iqtisodiy tomondan bakuvvat davlatlar tomonidan qo'llaniladi.

Hotarif usullarini iqtisodiy mohiyati, qo'llanish tartibini tahlil qilib, ana endi respublikamizda bu usullardan foydalanish holatini urganamiz. Tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda miqdoriy chegaralash usullari bilan bir qatorda notarif usullari ichida ko'zga

tashlanmas proteksionistik, ya’ni bojxona faoliyatiga tegishli bo’lmagan markaziy davlat va organlar tomonidan savdo yo’nalishida kuriladigan to’siqlar ham katta ahamiyat kasb etadi.

Ko’zga tashlanmas proteksionizm usullarini qo’llash xalqaro savdoni kelishilgan prisiplarini buzilishiga yaqqol misoldir.

Ba’zi bir hisob-kitoblarga ko’ra ko’zga tashlanmas proteksionizmni bir necha o’z turlari mavjud bo’lib, ular yordamida mamlakatlar bir eklama holda import yoki eksportni chegaralashlari mumkin. Bular ichida:

Tehnik to’siqlar – savdo siyosatini ko’zga tashlanmas usullari bo’lib, ularni hosil bo’lishi shu bilan bog’likki, milliy tehnikaviy, ma’muriy norma va qoidalar chet ellardan tovarlarni olib kirilishiga tusik qo’yilishiga mos ravishda kurilgan.

Tehnik harakterdagi to’siqlarni keng tarkalgan turlari – milliy standartlarga rioya qilinishini talab etish, import mahsulotlari uchun sifat sertifikatini olish, tovarlar spesifik kadoklashga va markirovkalashga to’gri kelishi, ma’lum sanitariya gigiena qoidalariga rioya qilish bo’yicha chora tadbirlarni kullaganligi, myukammal bojxona rasmiylashtiruviga rioya qilish va boshqalar.

Misol, Fransiya hyukumati Yaponiya video kassetalari importini cheklash maqsadida, bu tovarlarni barcha partiyalarini Puate shaharchasida joylashgan kichik bir bojxona maskanidan o’tkazishga qaror qilgan. Bbu katta partiyadagi bunday tovarlarni davlat bojxona hududiga tez olib kirishga tuskinlik qilgan. Usha Fransiya Shotlandiya viskisini reklam qilishni ta’kiklagan, Bugo Britaniya esa ingлиз tetevideniyasi orqali chet el filialrini ko’rsatishini ta’kiklagan.

AQShga import qilinayotgan tovarlar, sotulgunga qadar uchmaydigan va uvilmaydigan harflar bilan ingliz tilida markirovkalangan bo’lishlari kerak. Kanadada ham shunday talablar, Lekin yozuvlar ham ingliz tilida, ham franso’z tilida bo’lishi kerak. Shvesiyada esa ozik-ovqat va tibbiet tovarlarini upakovkasida tovar to’grisidagi ma’lumot shved va fin tillarida yozilgan bo’lishi kerak.

Tehnik to’siqlar barcha hollarda ham proteksionizm usullari bo’lavermaydilar. Kup hollarda ularni qo’llanilishi ichki bozorni himoya qilish maqsadiga emas, balki aholini himoya qilishga qaratilgan. Misol uchun Yevropa Ittifoqi kiruvchi davlatlarda 1993 yildan biri aholini himoya qilish bo’yicha ko’rsatma amal qiladi. Bu ko’rsatmaga asosan ishlab chiqaruvchilar bozorga faqat aholini salomatligiga zarar etkazmaydigan tovarlar chiqarishlari lozim.

Ichki Soliqlar va yig’imlar – savdo siyosatini ko’zga tashlanmas usullari bo’lib, ular import tovarlarini ichki bozordagi narxini oshirish orqali, ularni raqobatdoshlik darajasini tushirishga qaratilgandirlar. Import tovarlariga qo’llaniladigan Soliqlar juda ham hilma-hildir va to’gri Soliqlar (qo’shilgan qiymat soligi, aksiz soligi, sotuv soligi) yoki egri Soliqlardan (bojxona rasmiyatchiliklari uchun yig’im, ro’yhatdan o’tkazish va boshqa rasmiyatchiliklar uchun, import yig’imlari) iborat bo’ladi.

Ichki Soliqlar va yig’imlar diskriminasion mohiyatga ega bo’ladilar, agarda ular faqat import tovarlariga qo’llanilib, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni tovarlari bunday Soliqlarga tortilmasa. Agarda ichki Soliqqa tortish qoidalari ham mahalliy tovarlarga, ham import tovarlariga nisbatan bir hil bo’lsa, u holda bunday siyosatni baho va sifat bo’yicha raqobat uchun bir hil sharoit yaratish siyosati deyiladi. Kup hollarda ichki Soliqlar bahosi bo’yicha import bojlarini miqdoridan yuqori bo’ladilar va bundan tashqari ularni stavkalari mahalliy bozorni kon’unkturasiga karab o’zgarib turadi.

Mahalliy komponentlarni borligi bo’yicha talab – davlatni savdo siyosatini ko’zga tashlanmas usuli bo’lib, ichki bozorda sotish uchun mo’ljallangan mahsulot tarkibida mahalliy tashkil etuvchini bo’lishini belgilovchi qonundir. Odatta mahalliy komponentlarni borligi talab etish usuli rivojlanayotgan davlatlar tomonidan qo’llaniladi. Bundan maqsad import tovarlaridan voz kyechish uchun importni urnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish mahalliy quvvatini oshirishdir. Rivojlangan davlatlar tomonidan mahalliy komponentlarni borligini talab etish usullaridan foydalanishdan maqsad, ishlab chiqarishni arzon ishchi kuchiga ega bo’lgan davlatlarga kuchib o’tishini oldini olish va shu orgali o’zlaridagi bandlik darajasini saklab kolishdir.

Shunday qilib tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solishda tehnik to’siqlardan foydalanishini tartib va maqsadlarini tahlil qilish shuni ko’rsatadiki, bu usullar bizning fikrimizcha ko’proq rivojlangan davlatlarga hosdir. Chunki rivojlangan davlatlar (bu davlatlarni hammasi asosan savdo tashkilotiga a’zodir). Jahon savdo tashkilotini qoidalariга rioya qilgan holda, o’z Iqtisodiyotlarini ravnaki to’grisida fikr yuritishlari lozim.

### Nazorat savollari:

1. Hotarif usullarini turkumlanishi.

2. TIFni tartibga solishda notarif usullardan foydalanishni tarif usullaridan afzalligi nimada?
3. Miqdoriy chegaralash usullarini qanday turlari mavjud?
4. Kvotalash, turlari va ularni iqtisodiy samaralari nimada?
5. Import tarifi bilan import kvotasini samaralari o'rtasidagi farq nimada?
6. Lisenziyalashni qanday turlari mavjud va ularni bir-biridan farqi nimada?
7. Eksportni «ihtiyoriy» ravishda chegaralash nima?
8. Eksportni «ihtiyoriy» ravishda chegaralash usulini iqtisodiy samarasini nimada?
9. Moliyaviy usullar va ularni TIFni tartibga solishda foydalanishdan maqsad nima?
10. Ichki subsidiyalar nima maqsadda qo'llaniladilar?
11. Tugri va egri subsidiyalar o'rtasidagi farqlarni tushuntirib bering.
12. Eksport subsidiyalarining iqtisodiy samarasini nimada?
13. Eksport kreditlari va ularni turlari.
14. Demping va uni turlari.
15. TIFni tartibga solish tizimida tehnik to'siqlarni to'tgan urni.
16. O'zbekiston Respublikasi da TIFni tartibga solishda tehnik to'siqlardan foydalanish.

#### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birligida barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. В.В.Буглай, Х.Х. Ливенсов – Международное экономические отношения. М: Финансостатистика, 1996 г.
3. Э.Ф. Авдокушин – Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
4. Х.А. Миклашёвская, А.В.Хлопов – Международная экономика, М., Дело-сервис, 2004 г.

#### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

1. И.И.Думулен– Всемирная торговая организаия. М: Экономика, 2013 г.
2. Внешнеторговая политика: выбор стратегии для Узбекистана. Ж:Экономическое обозрение №1(11), 2016 г.
3. [www.customs.o'z](http://www.customs.o'z). Davlat Bojxona qo'mitasi veb-sayti

4. [www.customs.ru](http://www.customs.ru). Rossiya Bojxona Akademiyasi vebsayti

## **VI -BOB. Bojxona hamkorligi tashkilotlarining tashkil etilish tarixi.**

### **6.1.Xalqaro bojxona hamkorligi uning mohiyati va maqsadi.**

Erkin savdo va bojxona ittifoqi bo'yicha kelishuv jahon hamjamiyati mamlakatlarida keng tarkaldi. Raqobatbardoshlikni kuchayishi sharoitida jahon iqtisodiy sistemasi iqtisodiy mavkeini mustahkamlash maqsadida boshqa chet-el mamlakatlar bilan shartnomaga to'za boshladilar.

Mamlakatlar, ular o'rtasida tovarlar, kapital va hizmatlarni erkin harakatlanishi uchun o'zaro kelishuvlar imzolaydilar. Bunday kelishuvlarning ko'pchiligi xalqaro va mamlakatlar o'rtasida hududiy harakter kasb etadi. Bularga Yevropa ittifoqi (EI), Butun jahon savdo tashkiloti (BJST), Butun jahon bojxona ittifoqi (BJBT), Yevropa erkin savdo assosiasiasi (BJSA), Erkin savdo bo'yicha shimoliy Amerika kelishuvi (ESBShAK), Shimoli-Sharkiy Osiyo mamlakatlari assosiasiasi (ASEAH), erkin savdo bo'yicha markaziy Yevropa mamlakatlari assosiasiasi, Shimoli-Sharkiy Afrika mamlakatlari umumiy bozori (KOTESA) va MDX mamlakatlari bojxona hamkorligi tashkiloti, «Shanhay beshligi» hamkorlik tashkiloti va Markaziy Osiyo mamlakatlari iktisolliy hamkorlik tashkilotlarini misol qilib keltirish mumkin.

Yevropa va shimoliy Amerika kelishuvi doirasida johon savdosini 40% foizi amalga oshiriladi. Yevropa ulushiga jahondagi savdo operasiyalarini yarmi to'gri keladi, Amerika zimmasiga jahon savdo operasiyalarini 1/6 qismi to'gri keladi. Shunday qilib umumiy tashqi savdo operasiyalarining 2/3 qismi savdo kelishuvlariga a'zo mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi.

O'ziniig rivojlanish yo'lida integrasiya bir necha miqdoriy va sifat bosqichlaridan utdi.

- 1.Ochiq savdo hududi (OChX )
- 2.Bojxonalar ittifoqi (BI)
- 3.Yagona yoki uumiy bozor (UB)
- 4.Iqtisodiy va valyuta ittifoqi (IBI)

Ochiq savdo hududi iqtisodiy birlashuvni eng sodda shaqli bo'lib, unda qatnashuvchi tomonlar o'zoro tovar savdosining iqtisodiy to'siqlarini olib tashlash bo'yicha tadbirlarni amalga oshiradilar, Lekin bir vaqtning o'zida qatnashuvchi tomonlar o'zining uchinchi

mamlakatlarga nisbatan iqtisodiy siyosatlarini olib bordi. Boshqacha qilib aytganda ochiq savdo hududlarini o'ziga hosligi bo'lib:

- tovarlar savdosini bojxona va miqdoriy chegaralashlardan ozodligi;

- bosqichma - bosqich o'zoro bojxona talablari va notarif usullarini bekor qilish;

- bir tomonlama notarif to'siqlari va bojxona bojlarini kiritmaslik.

Bu esa «erkin savdo» hududiga kiraetgan davlatlarni xalqaro tashqi iqtisodiy faoliyat savdo amaliyotida tez moslashishga olib keladi.

Ochiq savdo hududlarini faoliyatini boshqarish mahalliy davlat boshqaruvi aralashuvvisiz amalga oshiriladi.

Barcha qabul qilinayotgan qarorlar ochiq savdo hududi kelishuviga a'zo mamlakatlarning oliy mansabdor shaxslari yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha vazirlik va idoralar rahbarlari tomonidan siyosiy yo'llar bilan hal qilinadi. Bu qabul qilingan qarorlar ushbu bosqichda tashqi iqtisodiy faoliyat ittifoqchilarini tomonidan bajarilishi majbur bo'lgan qarorlar hisoblanadi.

Erkin savdo hududlari tashkil etish ayrim mamlakatlar iqtisodiyoti uchun salbiy harakter kasb etish ham mumkin. Bu esa ba'zi bir milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni ayrim chet-el tovar ishlab chiqaruvchilarining sifatli tovarlari oldida inkirozga uchrash havfini tugdiradi va ayrim hollarda bu maqsadlariga ham erishadilar.

Hatijada importerlar milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni o'z bozoridan sikib chiqaradilar. Shuning uchun ham milliy tovar ishlab chiqaruvchilarga davlat yordami zarur bo'ladi.

Erkin savdo hududlarini hammasini qamrab olgan hudud bo'lib, 1994 1-yanvarda kuchga kirgan Shimoliy Amerika erkin savdo bo'yicha kelishuvi hisoblanadi. Bu kelishuv AQSh, Meksika va Kanada mamlakatlari hyukumatlari tomonidan imzolangan.

Bu ochiq savdo hududi doirasida yagona tashqi savdo tarifi amal qiladi va yana bu kelishuvni yahshi tomoni Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuviga a'zo mamlaktlar hududida savdo tarifi umuman yo'qligi bilan ajralib turadi.

Bu kelishuvning o'ziga hos tomoni yana shundaki bunda investisiyalar ham “Savdo to'grisidagi kelishuv” ning bir qismi hisoblanadi.

Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi tovarlarni harakatini, kelib chiqishni tasdiqlovchi yagona jarayonini, tashqi iqtisodiy faoliyatni

savdo-bojxona orqali tartibga solishda va boshqa qoidalarini soddalashtirishda asosiy xalqaro tashkilot hisoblaydi.

Xalqaro iqtisodiy integrasiyani keyingi bosqichi bu Bojxona Ittifoqi hisoblanadi.

Bojxona ittifoqi o'z navbatida ittifoqka a'zo mamlakatlar orasida bojxona bojlarini bekor qilish, tashqi bojxona ta'rifini kiritish va ittifoqka a'zo bo'limgan uchinchi mamlakatlarga yagona tashqi savdo siyosatini olib borish bilan shug'ullanadi va buni amalga oshirish ustidan nazorat olib boradi.

Shunday qilib, "Bojxona ittifoqi"ga a'zo mamlakatlar uchinchi mamlakatlarga nisbat savdo siyosatini olib borishni Ittifoq boshqaruvi organiga saylangan a'zolar belgilaydilar.

Masalan 1967 yil Shimoliy-Sharkiy Osiyo davlatlari Assosiasiysi Bojxona ittifoqi yoki erkin savdo hududi ko'rinishida tashkil etilgan.

Bu ittifoq doirasida a'zo mamlakatlar iqtisodiy integrasiya to'grisida, iqtisodiy hamkorlikni rasmiy chuqurlashtirish va bojxona hamkorligi to'grisida chyukur uylamokdalar.

1992 yil ASEAH ga a'zo mamlakatlar ochiq savdo hududi tashkil etish bo'yicha 15 yilga, 1995 yilga kelib esa bu ochiq savdo hududini muddati 10 yilga qisqartirildi.

ASEAH ga a'zo mamlakatlarda tarif tovar qayta ishlanganlik darjasini atrofida belgilangan bo'lib ular 15 ta tovar kategoriyalari uchun tarif stavkalarini kamaytirish mo'ljallangandi. Tovarlarni kelib chiqish qoidasiga asosan tovarlar ASEAH da ishlab chiqarilgan bo'lishi uchun tovarning kamida 40% qismi unga a'zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan bo'lishi kerak.

Xalqaro iqtisodiy integrasiyani yuqori darajasi bo'lib **yagona yoki umumiy bozor** hisoblanadi, chunki bu sistemada kapital va mehnatning erkin harakati ta'minlanadi. Bojxona poshlinalarini qisqartirish, yagona tashqi savdo bojxona tarifni yaratish. Bojxona ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'z faoliyatları davrida yagona yoki umumiy bozor yaratish uchun shart-sharoit yaratadilar.

Buning uchun: yaratilgan mexanizm va vositalardan tashqari a'zo mamlakatlarni iqtisodiyotini ayrim tarmoqlarini rivojlantirish umumiyy siyosatini ishlab chiqish, kapitallarni erkin harakatiga, ishchi kuchi erkin harakatiga, hizmatlar va ahborotlarning erkin harakatiga tovarlarni har qanday to'siqlarsiz harakatiga sharoit yaratish; sosial va hududiy rivojlanishda umumiy fondlarni shakllantirish, bu haridorlar va

yashovchi aholini itegrasion jarayonni ustunligini real his etilishlariga olib keladi.

Asosiy urin raqobatni tartibga soluvchi qonunlarni bo'zulishiga yo'l qo'ymaslikka ajratiladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Bojxona hamkorligi deganda nimani tushinasiz?
2. Iqtisodiy integrasiya nima?
3. Iqtisodiy integrasiyaning qanday shaqillarini bilasiz?
4. Iqtisodiy integrasiyaning qanday bosqichlari mavjud?
5. Ochiq savdo hududi nima?
6. Bojxona ittifoqi deganda nima tushinasiz?
7. Yagona yoki umumiy bozor deganda nimani tushunasiz?
8. iqtisodiy yoki valyuta ittifoqi nima?
9. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvi (ASEAH) nechanchi yilda imzolanib nechanchi yilda kuchga kirgan?
10. Shimoliy Amerika erkin savdo kelishuvini qaysi mamlakatlar imzolagan?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. В.К.Ломакин – Мировая экономика, учебник, М., УТИ, 2014 г.

### **Qo'shimcha adabiyotlar:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to'grisida»gi qonuni. T: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 2015 y
2. «O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari» to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil

## **6.2.Yevropa Ittifoqi va uning jahon iqtisodiy maydonidagi o'rni va asosiy vazifasi.**

Xozirgi kunda xalqaro sistemada iqtisodiy integrasiyani turtta bosqichini o'ziga mujassam etgan faqatgina bitta sistema mavjud, u ham bo'lsa Yevropa ittifoqidir. Yevropa ittifoqini tashkil etilishining tarixi 1951 yilda Parij shartnomasining yani kumir va pulat bo'yicha Yevropa

birlashmasi tashkil etish bilan boshlangan. Yevropa birlashmasiga birinchi bo'lib 6 ta Yevropa mamlakatlari kirgan, Bular: GFR, Fransiya, Italiya va Benilyuks mamlakatlari (Belgiya, Hederlandiya va Lyuksemburg) kirgan. Yevropa birlashmasi to'grisidagi shartnoma 1953 - yildan boshlab kuchga kirgan va o'z faoliyatini boshlagan.

1957 yilda oltita Yevropa mamlakatlari tomonidan Rim shartnomasini imzolanishi bojxona ittifoqi va umumiy siyosatga asoslangan holda Yevropa iqtisodiy hamjamiyatini tashkil etishini ma'lum kildi.

Keyingi 1973 yildan to 1995 yilgacha shartnoma imzolagan oltita Yevropa mamlakatlariga yana tyukkizta Yevropa mamlakatlari kelib kushildilar (1973 yilda – Daniya, Irlandiya va Buuyukbritaniya mamlakatlari, 1981 yilda – Ispaniya va Portugaliya mamlakatlari, 1995 yilda – Avstrya, Finlandiya va Shvesiya mamlakatlari).

Xozirgi vaqtida Yevropa ittifoqiga 15 ta mamlakat kirib ularning aholisini umumiy soni 370 million odam tashkil etadi.

Yevropa ittifoqini tashkil etish tashkilotchilarini fikri bo'yicha «Turt erkinlik kengligini» tashkil etilishini: tovarlar harakati, kapital harakati, hizmatlar harakati va ishchi kuchilarini erkin va to'siqlarsiz harakati ma'lum kilardi. Yevropa Ittifoqini tashkil etish natijasida milliy tashqi savdo to'siqlariga barham berildi (Bojxona tarifi, kvotalar) va yagona tarif va kvota o'rnatish bo'yicha, tashqi savdoni tartibga solish qonun qoidalarini bir hillashtirish bo'yicha faol ish olib boradilar.

Togo mamlakatining Lomey shahrida imzolangan Lomey konvensiyasi Yevropa ittifoqi va Afrikaning ko'pgina rivojlanayotgan mamlakatlari, Karib dengizi va Tinch okeani havzasini mamlakatlari o'rtasida savdo-iqtisodiy sistemani tashkil etdi. Bular Yevropa ittifoqi va 68 ta rivojlanayotgan mamlakatlar orasida tashqi savdo sohasida ularning birlashuvini nazarda to'tgan edi. Yevropa Ittifoqining bu mamlakatlarga nisbatan olib borayotgan iqtisodiy siyosati ikki tomon manfatlarini ko'zlar edi.

Tashqi iqtisodiy faoliyatni savdo tarif orqali tartibga soluvchi asosiy xalqaro tashkilot bu mamlakatlarda agrar va tog kon sanoati sohalari iktisodi va shunga uhshash ayrim sanoat ishlab chiqarishni nopol sohalarini rivojlantirishga kumaklashish hisoblanadi.

Bu kravensiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarni Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar oldida chyukur ko'p kirrali bog'likligini anglatadi, chunki Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar mineral homashyoga juda ham muhtoj, shunday bo'lsa ham ularni rivojlanayotgan

mamlakatlar oldida iqtisodiy va siyosiy jihatdan ustun ekanligini anglatadi.

1985 yilda qabul qilinib 1987 yilga kuchga kirgan Yevropa akti kelgusida yagona ichki bozorni yakunlashi shart edi. Tovarlar harakati, kapitallar harakati, hizmatlar harakati va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishini oldida turgan to'siqlarni olib tashlash rivojlantirilgan iqtisodiy va valyuta ittifoqlarini tuzish bo'yicha harakatlar boshlangan edi.

1992 yil ohirlarida tuzilgan Yevropa ichki bozori o'zil kesil tovarlar, kapitallar, hizmatlar va ishchi kuchi harakatlarini erkin va to'siqlarsiz harakatlanishi va iqtisodiy to'siqlarni bekor kildi, ya'ni "turt erkinlik kengligini" milliy ho'jalik qonunini soddalashtirish uchun Yevropa Ittifoqiga a'zo mamlakatlar agrar, valyuta, moliya va strukturaviy siyosatni ma'lum bosqichlarini bosib o'tgan mamlakatlarga yangi yo'l ochib berdi.

Yevropa integrasiyonini rivojlantirishni yana bir muhim buginlaridan biri bo'lib 1991 yil dekabrda imzolangan Maastricht shartnomasi bo'ldi. Masstricht shartnomasini imzolanishi bilan: yagona Yevropa fuqaroligini (Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar fuqarolari Yevropa Ittifoqi fuqaroligini oldilar); siyosiy ittifoq (umumiylashchi siyosat, Yevropa parlamentini urnini ko'tarish, qonunchilik va ichki ishlar doirasida umumiylashchi siyosat urgizish); iqtisodiy va valyuta ittifoqi tuzishga erishildi.

1993 yil 1 noyabrdan Maastricht shartnomasini kuchga kirishi bilan birlashmaning nomi "Yevropa Ittifoqi" deb atala boshlandi. (Shu davrgacha "Yevropa hamjamiyati", 1967 yilda uchta ittifoqni birlashishi natijasida, ya'ni kumir va pulat bo'yicha Yevropa birlashmasi, Yevropa iqtisodiy hamjamiyati va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati)

Shunday qilib Garbiy Yevropada tashqi iqtisodiy faoliyatni kelishilgan bir hil prinsiplar asosida amalga oshirish va ittifoq hududi umumiylashchi urtuvchi yagona iqtisodiy hudud tashkil etildi.

Yevropa ittifoqida iqtisodiy integrasiyani rivojlantirish va chuqurlashtirish, dastlabki ko'rinishidan (ochiq savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiylashchi bozor), yuqori kurinishga o'tish (iqtisodiy va valyuta ittifoqi) va unga a'zo mamlakatlar sonini oshirish bu ularning asosiy vazifasi hisoblanadi. 1957 yil Rim (imzolangan Yevropa iqtisodiy hamjamijaatini tashkil etish) shartnomasida ko'zda tutilgan edi. Jahan haritasidan Yevropadagi sosialistik mamlakatlar yo'qolganidan so'ng

Yevropa ittifoqiga kushilishi mumkin bo'lgan mamlakatlar soni yana ko'paydi, ya'ni sobik ittifoqning boltik buyi mamlakatlari va Yevropaning boshqa sosialistik respublikalari kushilishi mumkin bo'ldi. Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarning 1997yil dekabrdagi Lyuksemburgda bo'lib o'tgan Oliy darajadagi uchrashuvda 1999 yildan Yevropa ittifoqi tarkibiga beshta mamlakatlarni kushish maqo'llandi. Bular Bengriya, Kipr (Gresiya qismi), Polsha, Chehiya va Sloveniya. 1991-1992 yillarda Sharkiy Yevropa bilan Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar o'rtasida, Sharkiy Yevropa mamlakatlari qonunlarini Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar qonunlari bilan yaqinlashtirish, tashqi iqtisodiy a'lokalarni kengaytirish davlatlar o'rtasida 10 yil ichida bojxona bojlarini bekor kilash yo'li bilan ochiq savdo hududlari, ochiq sanoat ishlab chiqarish hududlari tashkil etish va tashqi savdodagi boshqa to'siqlarni bekor qilish bo'yicha kelishuv imzolandi. Kupkina sanoat mahsulotlariga Yevropa ittifoqi 1995 yil Sharkiy Yevropa mamlakatlari uchun bojxona bojlarini bekor kildi. 1990 yillarning ikkinchi yarmiga kelib Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlarda ishlab chiqarilgan tovarlar Sharkiy Yevropa mamlakatlari ichki bozorlariga iqtisodiy siyosat choralariga tortilmasdan erkin kirib kela boshladi.

Mamlakatlar Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lislari uchun bir qator shartlarni bajarishlariga to'g'ri keladi:

- demokratik institutlarni meeriy ishlashini ta'minlash;
- huquqiy tartib;
- inson huquqlariga rioya qilish va milliy kamchilikni himoya qilish;
- bozor iqtisodiyoti jarayoni mavjudligi;
- a'zolik majburiyatlarini qabul qilish;
- siesiy, iqtisodiy va valyuta ittifoqi.

1973 yildan boshlab Yevropa ittifoqi uchinchi mamlamatlar bilan bevosita shartnoma imzolay boshladi. Xozirgi kunda Yevropa ittifoqi 30 dan ortiq ko'p tomonlama savdo, siyosiy sharinomalarda qatnashgan.

Rossiya Federasiyasi o'zining ichki bozorini himoya qilishda proteksionistik choralarни meeriy ravishda kulladi. Bundan tashqari Rossiya Federasiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarga nisbatan dempingga qarshi choralar bir tomonlama qo'llanilmaydigan bo'ldi. Kapitallarning to'g'ri investisiyalari ko'rinishida harakatlanishi to'grisidagi tartibi kelishib olindi. Rossiya Federasiyasi bilan Yevropa ittifoqi o'rtasidagi a'lokalalar usish harakterini kasb etdi. Rossiya Federasiyasining tashqi savdo aylanmasining 50% Europa ittifoqiga a'zo

mamlakatlar zimmasiga to'gri keladi. 1994 yil 24 iunda Gresiyaning Korfu orolida Rossiya Federasiyasi va Yevropa ittifoqi o'rtasida hamkorlik va sheriklik to'grisidagi kelishuv imzolandi. Bu kelishuv esa Rossiya Federasiyasi va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi ilgari qabul qilingan SSSR va Yevropa ittifoqi o'rtasidagi (1988 yil), SSSR va atom energiyasi bo'yicha Yevropa hamjamiyati o'rtasidagi (1990 yil), savdo - tijorat va iqtisodiy hamkorlik to'grisidagi kelishuvlar (1989 yil) yana ham chyukurlashishiga olib sabab bo'ldi.

Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar Rossiya Federasiyasi bilan iqtisodiyotni barcha sohalari bo'yicha hamkorlik kila boshladilar.

1998 yildan keyin Yevropa ittifoqi Rossiya Federasiyasi bilan itifokdoshlar kompaniya va korporasiyalari mamlakatlarda erkin harakatini qamrab olgan va transchegara buyi hizmatlar savdosi va kapital harakatini ko'zda tutuvchi erkin savdo hududi tashkil etishni rejalashtirilgan edi. Bu kelishuvlarning asosiy maqsadi bo'lib iqtisodiy va boshqa turdag'i kelishuvlarda ikkala tomonning foydasini ko'zda tutuvchi va ikkala tomon bir-birlariga nisbatan javobgarlikni his qiluvchi va bir-birlarini qo'llab - quvvatlash hisoblanar edi.

Kelishuvga asosan Rossiya Federasiyasi iqtisodiy o'tish davridagi mamlakat hisoblanar edi. Shundan kelib chiqqan holda Rossiya Federasiyasi davlat „savdo sistemasi” deb nomlangan tushunchadan Yevropa ittifoqi voz kechdi, bu esa Rossiya Federasiyasiga nisbatan Yevropa ittifoqi mamlakatlari kattik tashqi savdo diskriminasion choralar qo'llanilishini bildirardi, bu Rossiya Federasiyasida ishlab chiqarilgan tovarlarni Yevropa ittifoqiga a'eo mamlakat ichki bozorlariga kirib borishini kamaytirar edi.

O'tish davrining muddati 5-yilga mo'ljallangan edi, Lekin shartnama kuchga kirishi bilan Rossiya Federasiyasiga nisbatan Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar diskriminasion choralarini olib tashlovchi shartnomani qabul kildilar va u kuchga kirdi.

Kelishuv asosan GATT prinsiplariga asoslanganligi uchun Rossiya Federasiyasini bu tashkilotga a'zo bo'lishini osonlashtirardi. Birinchi marta Rossiya Federasiyasing xalqaro shartnama amaliyotida Rossiya GATTga a'zo bo'lmasdan turib uning ayrim asosiy moddalariga o'zgartirish kiritishga erishdi. Shunday qilib Rossiya Federasiyasi dastlabki maslahatlar natijasida o'zining boj tarifi imkoniyatini saklab koldi. Bulardan tashqari Yevropa ittifoqi Rossiya Federasiyasidek import qilinadigan barcha tovarlarga import kvotalarini bekor kildi. (Xozirgi vaqtgacha import kvotalari 600 ta tovar pozisiyalariga mavjud

edi). Tekstil va EOUS nomenklaturasidagi tovarlar (kumir, pulat va boshqalar) alohida kelishuv asosida oshiriladi. Bir-biriga nisbatan taqdim etilaetgan eng qulaylik sado rejimini berish rejasi GATT tomonidan belgilangan eng qulaylik savdo rejimini berish rejasiga to'liq javob beradi.

### **Nazorat savollari:**

1. Yevropa ittifoqini tashkil etish bo'yicha ilk shartnoma to'grisida nimalarni bilasiz?
2. Kumir va pulat ishlab chiqarish bo'yicha bo'yicha Yevropa birlashmasi nechanchi yilda imzolangan?
3. Kumir va pulat ishlab chiqarish bo'yicha bo'yicha Yevropa birlashmasi nechanchi kuchga kirgan?
4. Yevropa iqtisodiy hamjamiyati nechanchi yilda tashkil etilgan va qaysi mamlakatlar a'zo bo'lgan?
5. Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga 1973-1995 yillarda nechta va qaysi mamlakatlar a'zo bo'lgan
6. Yevropa ittifoqini tashkil etilishining asosiy sabablari nimada?
7. Yevropa ittifoqini tashkil etilish bo'yicha Maastricht shartnomasi nechanchi yilda imzolangan?
8. Yevropa ittifoqiga a'zo bo'lish uchun mamlakatlar qanday shartlarni bajarishi lozim?
9. Yevropa ittifoqini uchinchi mamlakatlar bilan o'zaro aloqasi qaysi tamoyillar asosida tashkil etiladi?
10. Yevropa ittifoqiga a'zo mamlakatlar bilan O'zbekiston Respublikasining o'zaro aloqasi?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. В.В.Буглай, Х.Х. Ливенсев – Международное экономические отношения. М: Финансостатистика, 1996 г.
3. Э.Ф. Авдокушин – Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
4. Х.А. Миклашёвская, А.В.Хлопов – Международная экономика, М., Дело-сервис, 2004 г.

### **6.3. JST/GATT – xalqaro savdo tashkiloti va xalqaro savdoni tartibga solish tamoyillari.**

Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv (GATT) – xalqaro savdoning boj-tarif jihatlarini tartibga soluvchi eng nufo'zli tuzilmadir. Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek, «bu tashkilot jahon savdosining hozirgi tizmini boshqarishda markaziy urinni egallab turibdi».

GATT 1947 yilda Jenevada to'zilib, tovar aylanmasi hajmini kengaytirish maqsadida xalqaro savdoning barqaror qoidalarini qaror toptirish intilishlarini aks ettiradi.

Dastavval AQSh takliflari asosida xalqaro savdo tashkiloti tashkil etish ko'zlanib, uning ustavi ishtirokchi davlatlar tomonidan ratifikasiya qilinmay, uning o'rninga boj siyosati asosiy qoidalari to'g'risidagi ko'p tomonlama kelishuv – boj va tariflar to'g'risidagi bosh kelishuv kuchga kirdi.

Bu kelishuv savdo erkinligi goyalarini, ya'ni ishtirok etuvchi taraflarning tengligini ifoda etadi. Bunday goyalar bir necha qoidalarda yanada aniq aks ettirilgan.

Birinchi va eng asosiy qoida diskriminasiya qilmaslik tamoyili, «eng ko'p qulaylik berish» shaklini olib, bu tashqi savdo ishtirokchilari hammasining tengligini ta'minlash va ularni diskriminasiya qildirmaslik to'g'risidagi tezisdir. «Eng ko'p qulaylik berish» rejimi ishtirokchi davlatlarning o'zaro yetkazib berilaetgan tovarlarga nisbatan har qanday uchinchi tomon tovarlarga nisbatan qo'llanilaetgan boj stavkalaridan yuqori bo'limgan boj stavkalarini qo'llash majburiyatini bildiradi. Lekin bu tezis mahsus iqtisodiy guruhlar tashkil etidgan hollarda undan chyokinishga ruhsat beradi. Shuningdek rivojlanayotgan davlatlarning preferensiya boj rejimlaridan bir taraflama foydalanishi huquqi ham alohida qayd etilgan.

Diskriminasiya qilmaslik tamoyili «milliy rejim» tushunchasining asosida ham etadi. Unga ko'ra a'zo davlat o'zining va boshqa a'zo davlat tovar va hizmatlari o'rtasida diskriminasiya rejimini urnatmasligi kerak. Tovar va hizmatlar boshqa davlatning chegarasini kesib o'tganidan bohlab ularga mahalliy ishlab chiqarilgan tovar va hizmatlarga bo'lgan munosabatda bulinishi talab etiladi. Bu eng avvalo Soliqqa tortish, tovarning sifati va sertifikasiyalashtirilishiga nisbatan talablarga taallyukli.

Ikkinchi tamoyil tashqi savdoni tartibga solish usullari qo'llanilishining huquqiy asoslanganligi tamoyilidir. GATT shunday usul sifatida faqat bojlarni tan oladi. Tashqi savdoni tartibga solishning boshqa usul va shakllari qo'llanilmasligi talab etilib, ular qo'llanilgan holda ham amal qilish davri qisqa bo'lib, faqat istisno holatlarida joriy qilinishi mumkindir. GATT a'zo davlatlarga kvotalardan foydalanish hamda eksport yoki import lisenziyalarini qo'llashni tavsiya etmaydi. Birok GATTda miqdoriy cheklashlarni joriy etish o'rinni hisoblab ularni asoslaydigan ehtimoliy istisno holatlari ro'yhati keltirilgan. Shular qatoriga qishloq ho'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishni tartibga solish dasturlarini amalga oshirish yoki to'lov balansi muvozanati buzilishi holatlari kiradi.

Ba nihoyat GATT faoliyatining eng asosiy tamoyili qarorlarni qabul kili shva chora tadbirlarni amalga oshirish qoidalariga aloqadordir, bu eng avvalo bir taraflama harakatlardan o'zaro muzoqaralar va maslahatlar foydasiga voz kyechishdir. Ishtirokchi davlatlar tashqi savdoni cheklashga qaratilgan bir taraflama tadbirlarni amalga oshirmaslik majburiyatini oladilar: barcha qaror faqatgina savdo masalalariga bag'ishlangan o'zaro muzoqaralar doirasida qabul qilinadi.

Bugungi kunda dunyodagi 148 mamlakat JST (Jahon savdo tashkiloti) a'zosi bo'lib, ular Urugvay raundi davomida erishilgan kelishuvlarga muvofiq ish ko'radilar. Xozirda Yana 30 ta mamlakat JSTda kuzatish maqomini qo'lga kiritganlar va ular ham a'zolikka da'vogardirlar.

JSTga a'zo bo'lish ancha o'zoq va murakkab jarayon bo'lib, uch bosqichdan iborat. Uning birinchi bosqichida da'vogar mamlakatlar hyukumatlari tomonidan JSTga kuzatish maqomini qo'lga kiritish uchun ariza topshirsalar, ikkinchi bosqichida tashkilotga teng huquqli a'o bo'lib kirish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etadilar. A'zo bo'lish jarayonining Ushbu bosqichi hyukumatlar tomonidan JSTga mahsus Memorandumning taqdim etilishini nazarda tutadi.

Memorandumda mamlakatlarning JST bitimi talablari doirasidagi sado-iqtisodiy siyosatiga tegishli asosiy jihatlaro'z aksini topadi. Aynan shu orqali mamlakatlarning a'zolikka da'vogarlik shartlari atroflicha o'rganib chiqiladi. Uchinchi bosqichda esa mamlakatlarning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha mahsus ishchi guruhi tashkil etiladi. Ishchi guruhi majlislarida da'vogar mamlakatlar ma'lum bir tovarlar va hizmatlar turi bo'yicha berilishi mumkin bo'lgan imtiyozlar va majburiyatlar hususida JSTga a'zo mamlakatlar bilan ikki tomonlama va ko'p tomonlama

muzoqaralar olib boradilar. Muzoqaralar o'rnatilgan tartiblarning amalda ijro etilishi mamlakatlar uchun majburiy hisoblanadi va ularning istagan vaqtida o'zgartirilishi qat'yan man etiladi.

A'zolikka da'vogar mamlakatning savdo rejimini o'rganish va uning bozorga kirib borish to'g'risidagi muzoqaralar o'z yakuniga etgandan so'ng, Ishchi guruhi tomonidan a'zolikka qabul qilish to'g'risidagi asosiy shart-sharoitlar ishlab chiqiladi. Majlis natijalariga ko'ra, mahsus bayonnomma tayyorlanadi va u Bosh yig'in yoki vazirlar Konferensiyasida JST a'zolarining 2/3 qismi tomonidan qo'llab-quvvatlanilgan taqdirdagina imzolangan va tasdiqlangan deb topiladi. Mamlakatlar JSTga a'zo bo'lганларидан со'нг, Urugvay raundi doirasida imzolangan bitimlarning barchasini qabul qilishlari va ularga amal qilishlari shartdir.

2003 yilning 10-14 sentyabrida Meksikaning Kankun shahrida bo'lib o'tgan JSTning 5-vazirlar Konferensiyasida 148 mamlakat savdo vazirlari o'rtasida yuzaga kelgan har hil kelishmovchiliklar sabab, jahon savdo tizimini yanada erkinlashtirish borasida hal qilinishi lozim bo'lган ushbu masalalar o'z echimini topa olmadi. Biroq, mazkur vaziyat JSTning xalqaro miqesdagi nufo'ziga ta'sir ko'rsata olmaydi, albatta. Chunki, bu tizim millatlar uchun ma'lum bir ustunliklar va shart-sharoitlarni yuzaga keltirishi tabiiydir.

JST tizimining ustunliklari, unda yirik savdogar davlatlarning a'zo bo'lганligi bilan emas, balki uning erkin tovar almashinushi jarayonida mamlakatlar uchun turfa hil iqtisodiy manfaatdorliklarni ta'minlashi bilan izohlanadi. Bu tizim a'zo mamlakatlar siesiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvoliga, shuningdek, fuqarolar farovonligiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. JST savdo tizimi mamlakatlar siesiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahvolida, shuningdek, alohida fuqarolar va umuman jahon hamjamiyati doirasida o'z ustunliklarini namoen etadi.

Xususan, JSTning iste'molchilar manfaati va aholi farovonligini yyuksaltirishdagi roli shu bilan izohlanadiki, bunda erkin savdo tamoiyllaridan kelib chiqqan holda, xalqaro savdodagi proteksiya to'siqlari minimal darajagacha kamaytirib boriladi. Tashqilotning 50 yillik faoliyati davomida savdodagi to'siqlar butun dunyo miqesida bir necha barobarga kamaytirildi. Buning natijasida, nafaqat import qilinadigan tayyor mahsulotlar va hizmatlar baholarining pasayishi, balki import qilinadigan hom ashyolar va butlovchi qismlar hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovarlar narxlarining ham arzonlashishi ko'zatildi.

Fikrimizcha, mahalliy bozorlarni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan import tariflari, miqdoriy cheklovlar va ishlab chiqarish sohalarini subsidiyalash singari ma'muriy-iqtisodiy dastaklarning me'eridan ortiqcha qo'llanilishi, ohir-oqibatda kutilgan ijobiy natijalarga emas, balki kishilar farovonligi darajasining pasayishiga sabab bo'lishi mumkin. Xususan, ayrim statistik ma'lumotlarga qaraganda, to'qimachalik mahsulotlari importiga qo'yilgan savdo cheklovlar oqibatida Buyuk Britaniyada iste'molchilarning kiyim-kechaklar uchun yiliga qo'shimcha 500 mln funt sterling miqdoridagi oshiqcha mablag'lar sarf qilganligi qayd etiladi. Ayni paytda, bu ko'rsatkich kanadalik iste'molchilar uchun tahminan 780 mln Kanada dollariga teng bo'lgan. Yevropa Ittifoqida esa, telekommunikasiya sohasining erkinlashtirilishi natijasida baholarning o'rtacha 7-10 foizga kamayganligi kuzatilgan. 2005 yilda JST doirasida to'qimachilik mahsulotlari va kiyim-kechaklar savdosi bo'yicha amalga oshirilishi mo'ljallangan islohotlardan ko'zlangan bosh maqsad ham, aynan shu hildagi mahsulotlar importiga qo'yilgan cheklovlarni muvofiqlashtirishga qaratilgandir.

Fikrimizcha, JST tamoyillariga asoslangan erkin savdo tizimining ustunliklari, yana shu bilan izohlanadiki, bunda iste'molchilar uchun tovar va hizmatlarga bo'lgan tanlov imkoniyatlari kengayadi. Chunki, tayyor horij mahsulotlaridan tashqari, import qilinadigan hom ashyolar, butlovchi qismlar va jihozlar baholarining arzonlashishi hisobiga ishlab chiqariladigan mahalliy tovar va hizmatlar turlari ham ko'payib boradi. Import raqobati ta'sirida mahalliy ishlab chiqarish maksimal darajada rivojlanadi va ichki baholarning pasayishiga bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ishlab chiqariladigan mahsulotlar sifatida ham ijobiy o'zgarishlar ko'zatiladi. Tovarlar almashinuvি jarayonining faollahuvi esa innovasiyaning rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Mahalliy mahsulotlar eksporti tarkibida miqdor va sifat o'zgarishlarining kuzatilishi natijasida ishlab chiqaruvchilarning qat'iy valyutadagi daromadi ortadi. Buning natijasida, hazinaga kelib tushadigan soliqLar miqdori ham o'z-o'zidan ortadi va pirovard natijada, aholi farovonligi yuksalishi ko'zatiladi.

Erkin savdo tizimining istehmolchilar, ishlab chiqaruvchilar va mamlakatlar iqtisodiyotiga ta'sirini aniq dallilarga tayanib asoslab berish qiyin, albatta. Xususan, savdo to'siqlarini kamaytirish orqali tovarlar va hizmatlar xalqaro almashinuvini kengaytirib borish, nafaqat davlat daromadlarining, balki hususiy sektor daromadlarining ham oshishiga

sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, xalqaro amaliyotda Urugvay raundiga asoslangan holda xalqaro savdo shartnomalari yangicha tizimining amaliyotga joriy etilishi natijasida jahon daromadining 109 mlrd dollardan 510 mlrd dollargacha ko'payganligi qayd etiladi.

Chunki, har qanday mamlakatda salohiyatli eksportchilar faoliyatining samarali tashkil etilishi, davlat daromadlarini bir necha barobarga yuksaltirib, ularning qayta taqsimlanishi, kuchli horijiy raqobatga duch keladigan mahalliy kompaniyalarini qo'llab-quvvatlash, sohalar raqobatbardoshligini oshirish, yangicha ishlab chiqarish quvvatlarini vujudga keltirish va ishlab chiqarish ko'lamenti yanada kengaytirish imkonini beradi.

Savdoning rivojlanishi, o'zoq muddatli istiqbollarda, asosan, iqtisodietning eksportga yo'naltirilgan sohalarida bandlikni oshirib borishning muhim omili bo'lib hizmat qiladi. O'z navbatida, mamlakatga kapitalning, hususan, to'g'ridan-to'g'ri horijiy investisiyalarning oqib kelishi natijasida qo'shimcha ish o'rnlari yaratiladi. Shuningdek, qisqa muddatli istiqbollarda mahalliy korxonalarining amalda cheklab bo'lmaydigan horijiy raqobat bilan to'qnash kelishi natijada mavjud ish o'rnlarining yo'qotilishiga ham sabab bo'lishi ehtimoldan holi emas.

Fikrimizcha, jahon mamlakatlari tomonidan proteksionizm siyosatining faol qo'llanilishi, bu muammoni yanada chigallashtiradi. Chunki, sadvo to'siqlarining noo'rin qo'llanilishi oqibatida ishlab chiqarish samaradorligi va mahalliy mahsulotlar sifatida keskin pasayish alomatlari kuzatilishi mumkin. Importni chegaralash jarayonida ishlab chiqariladigan mahsulotlar bahosining ortib borishi sotuv hajmiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida esa mavjud ish o'rnlari qisqarib boradi. Aynan shunday holat o'tgan asrning 80-yillarida Yaponiya avtomobilari importiga qat'iy cheklovlarining o'rnatilishi sababli, AQShda kuzatilgan edi. Bugungi kunda AQShning eksport tarmoqlarida kamida 12 millionga yaqin ishchi band bo'lib, bunga qarama-qarshi o'laroq, EI bozorlarining erkinlashtirilishi oqibatida, hamjamiyatiga a'zo mamlakatlarda qo'shimcha 300 mingga yaqin ish o'rnlari yaratildi.

Bizningcha, himoya chora-tadbirlarining aql-idrok bilan qo'llanilishi va qo'shimcha davlat daromadlarini shakllantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish har qanday mamlakatda savdoni erkinlashtirish jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishning muhim omili bo'la oladi. JST tamoyillarining amalda

qo'llanilishi, shuningdek, amaldagi bojxona poshlinalari va boshqa savdo to'siqlari tizimini soddalashtirish ham davlat tashqi iqtisodiy faoliyati samaradorligini oshirishda kutilgan natijalarga olib kelishi mumkin. Chunki, dahlsizlik va iqtisodietning ochiqligi, ustuvor savdo shartlarining belgilab olinishi va ularning soddalashtirilishi hamkorlar e'tiborini tortadi. Shuningdek, mavjud korxonalar harajatlarining kamayishi va savdo hamda investisiyalar uchun qulay muhitning yaratilishi, mamlakat tovar aylanmasi hajmining oshishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston ham ko'pchilik davlatlarning savdo munosabatlarini tartibga soluvchi xalqaro savdo tizimiga integrasiyalashuvini ta'minlash maqsadida JSTga kushilishga qaror kildi. Bunday integrasiyalashuv JSTga a'zo bo'lgan davlatlar bilan savdoni kengaytirish, eksport tushumlarini ko'paytirish, chet el investisiyalarini ko'prok jalb etish, ishlab chiqarish sohalarda bandlik yuqori darajasi erishishni ta'minlaydi.

Ma'lumki, O'zbekiston 1994 yilning iun oyida JSTda kuzatuvchilik maqomini qo'lga kiritgan edi. 1994 yilning dekabrida esa O'zbekiston Respublikasi hyukumati tomonidan O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi to'g'risida ariza topshirildi. 1995 yilning yanvarida esa O'zbekistonning JSTga qo'shilishi bo'yicha mahsus Ishchi guruhi to'zildi. O'zbekiston Respublikasining rasmiy delegasiyalari JSTning Singapur (1996 y.), Jeneva (1998 y.) va Sietl (1999 y.)da bo'lib o'tgan vazirlar darajasidagi konferensiylarida ishtirok etdilar.<sup>1</sup> 1998 yilning sentyabr oyida O'zbekiston hyukumati JST kotibiyatiga respublikaning tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumni taqdim etdi va uning rasmiy taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu yuzasidan Avstraliya, Yevropa Ittifoqi, Yangi Zelandiya va AQSh hyukumatlarining savolnomalari olindi va shunga muvofiq JST Kotibiyatiga javoblar tayyorlandi.

2002 yilning 17 iulida esa Shveysariyaning Jeneva shahrida O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib Kirishi bo'yicha tashkil qilingan Ishchi guruhining birinchi majlisi bo'lib o'tdi. Bunda O'zbekiston Respublikasining tashqi savdo rejimi to'g'risidagi Memorandumning yangi tahriri ko'rib chiqildi. Mazkur majlis natijalari bo'yicha bir qator mamlakatlar tomonidan Memorandum bo'yicha yozma sharh va savolnomalar taqdim etildi. O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi bo'yicha Ishchi guruhining birinchi majlisi davomida kelib tushgan

<sup>1</sup> O'zR TSVda 2014 yilning 5-17 yanvarida «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korhonalar rahbarlarining malakasini oshirish kursi» tarqatma ma'lumotlari asosida

savolnomalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, respublikamizga qo'yilgan asosiy talablar a'zolikka da'vogar mamlakatlarga qo'yilgan umumiyl talablarga to'liq mos keladi.

JST bilan samarali faoliyat tashkil qilish maqsadida, mamlakatda JST bilan ishslash bo'yicha idoralararo komissiya to'zildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 14 dekabrdagi 520-sonli Qaroriga muvofiq uning tarkibi tasdiqlandi. Unga TIAA, Iqtisodiet vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va boshqa vazirlik hamda idoralardan vakillar kiritildilar. JST bilan ishslash bo'yicha idoralararo komissiya kotibiyati vazifasini bajarish TIAA zimmasiga yo'qlatildi. JSTga kirish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni tayyorlash maqsadida respublikaning vazirliklari va idoralarda ishchi guruhlari tashkil etilib, ularning maqsadi:

- savdoda qo'llaniladigan sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar hamda tehnik to'siqlar to'g'risidagi savolnomalar ro'yhatini tayyorlash;
- qishloq ho'jaligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va eksport subsidiyalarini berish to'g'risidagi ma'lumotlarni tayyorlash;
- hizmatlar savdosiga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni tayyorlash;
- intellektual mulk huquqi savdosiga tegishli bo'lgan ahborotlarni tayyorlash;
- tovarlarga tarif chegirmalarini berish va hizmat majburiyatlari to'g'risidagi takliflarni ishlab chiqish;
- JST bitimi doirasida ko'zda tutilgan tartiblarga muvofiq milliy qonunchilikka o'zgartirishlar kiritish;
- JSTga a'zo bo'lishning iqtisodiet sohalariga bo'ladigan ta'sirini baholash bo'yicha tadqiqotlarni olib borishga qaratildi.

Shu paytga qadar O'zbekiston Respublikasi tomonidan JST Kotibiyatiga quyidagi bir qator masalalarni o'z ichiga oluvchi materiallar tayyorlab topshirildi:

- AQSh, EI, Koreya tomonidan JSTga kirish bo'yicha ishchi guruhining birinchi majlisi yakunlari bo'yicha O'zbekiston savdo rejimi to'g'risidagi memorandumga qo'yilgan yozma savollarga javoblar;
- JST bitimiga muvofiq savdodagi tehnik to'siqlar, sanitar va fitosanitar chora-tadbirlar bo'yicha qo'yilgan turli hildagi savollarga javoblar;

- Intellektual multk huquqi savdosi masalalariga tegishli bo’lgan ma’lumotlar.

Shuningdek, hozirgi paytda 2002 yilning 24 sentyabrida O’zbekistonning JSTga a’zo bo’lib Kirishi bo’yicha tashkil qilingan Ishchi guruhining ikkinchi majlisiga tayyorgarlik ko’rish bo’yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar rejasi amalga oshirilmoqda<sup>2</sup> va Ishchi guruhi tomonidan O’zbekistonning JSTga kirishi bilan bog’liq bo’lgan quyidagi qo’shimcha ma’lumotlar tayyorlanmoqda:

- tovarlar mavqeibo’yicha tariflarni tushirib borish yuzasidan boshlang’ich ma’lumotlar;
- hizmatlar savdosi sohasidagi siyosatni olib borish bo’yicha ma’lumotlar;
- hizmatlar savdosi sohasidagi mahsus majburiyatlarning boshlang’ich ro’yhatini tuzish.

Bugungi kunda O’zbekiston Respublikasi hyukumati JSTga a’zo bo’lib kirishni jahon iqtisodiy hamjamiatiga integrasiyalashuvning asosiy shakllaridan biri sifatida qarab kelmoqda va mazkur tashkilotga teng huquqli a’zo bo’lib kirish borasida dadil qadamlar tashlanmoqda. JSTga a’zo bo’lib kirish mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo’nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Xalqaro tajribaga muvofiq, JSTga a’zo bo’lish o’zoq muddatli istiqbollarda har qanday milliy iqtisodiet rivojiga ijobjiy ta’sir ko’rsatadi, biroq qisqa muddatli istiqbollarda u milliy ho’jalik taraqqieti uchun ayrim muammmolarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Eksportni rag’batlantiruvchi siyosat olib boradigan mamlakatlar JSTga a’zo bo’lishdan nafaqat o’zoq muddatli istiqbollarda, balki qisqa muddatli istiqbollarda ham katta foyda ko’radilar. Bunga qarama-qarshi o’laroq, import o’rnini bosuvchi siyosat olib boruvchi mamlakatlar JSTga a’zo bo’lishdan o’zoq muddatli istiqbollarda manfaat ko’rsalarda, qisqa muddatli istiqbollarda ular iqtisodiy jihatdan ma’lum darajada zarar ko’rishlari ham mumkindir. Shu sababli, halq ho’jaligi miqesida erishiladigan foyda va kutilishi mumkin bo’lgan zararlarni ilmiy jihatdan chuqr tahlil etish va iqtisodiy jihatdan baholash Butun jahon savdo tashkilotiga ishtirok etishning dastlabki bosqichlarida o’ta muhim hisoblanadi.

Ayni paytda, JSTga a’zo bo’lishning milliy iqtisodietga, shuningdek, uning alohida tarmoqlariga bo’ladigan ta’sirini baholamasdan turib, xalqaro savdoni muvofiqlashtirib turuvchi mazkur

---

<sup>2</sup> Экономическое обозрение, № 6 (46), 2013, стр. 27.

tashkilotda a'zo bo'lism uchun zarur bo'lgan qat'iy chora-tadbirlarni ishlab chiqish qiyin, albatta.

Xususan, MDX doirasidagi JSTga a'zo bo'lib kirgan ayrim mamlakatlarda xalqaro savdo rivojlanishi va kutilishi mumkin bo'lgan tezkor iqtisodiy o'sish holatlarining aniq ko'zga tashlanmaetganligi ko'zatilmoqda. Shuningdek, o'tish iqtisodietidagi mamlakatlar uchun JSTga a'zo bo'lism jarayonida ochiqlik darajasining ortib borishi, amalgaloshirlishi zarur bo'lgan iqtisodiy islohotlarni tezlashtiradi va o'z navbatida, bozor tarkibiy o'zgarishlarining istiqboli uchun zaruriy kafolat bo'lib hisoblanadi. Boshqa bir tomondan esa, baholar o'zgarishiga barham berish va mamlakatdagi cheklangan resurslardan oqilona foydalanish va ularni samarali taqsimlash imkoniyati yuzaga keladi.

O'zbekistonning JSTga a'zo bo'lib kirishi mamlakat hyukumati va olib borilayotgan iqtisodiy siyosatga jahon hamjamiyati va salohiyatli investorlar ishonchini yanada oshiradi va savdoning rivojlanishi, investisiyalar oqimining ko'payishi, shuningdek, tezkor iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkonini beradi. Iqtisodietni imkoniyat darajasida qayta ko'rish, tarmoqlarning qo'shilgan qiymatni yaratishi bilan bog'liq yuksak taraqqiet darajasini ta'minlash, JSTga a'zo mamlakatlar bozorlariga kirib borishning muhim kafolati bo'lib hisoblanadi.

### **Nazorat savollari:**

1. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuv qachon tuzilgan?
2. Savdo va tariflar bo'yicha bosh kelishuvning asosiy tamoyillari qanday masalalarni yechishga qaratilgan?
3. Shu davrgacha GATT/JSTni nechta raundlari o'tkazildi?
4. Bu raundlarda qanday asosiy masalalar kurligan?
5. Urugvay raundining eng ahamiyatli natijasi nimadan iborat?
6. Jahon savdo tashkiloti qachon tashkil topdi?
7. O'zbekiston Respublikasi Jahon savdo tashkilotiga kushilish istagini qachon bildirdi?
8. Jahon savdo tashkilotining asosiy kelishuvlari.
9. O'zbekiston Respublikasi JSTning qaysi kelishuvlariga kushildi?
10. O'zbekiston Respublikasining JSTga a'zo bo'lishi qanday ijobjiy va salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin?

### **Asosiy adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoyev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.T.O'zbekiston, 2017,-56 b.
2. B.B.Буглай, Х.Х. Ливенсов – Международное экономические отношения. М: Финансостатистика, 1996 г.
3. Э.Ф. Авдокушин – Международные экономические отношения. М: ИВЦ «Маркетинг», 1997 г.
4. Х.А. Миклашёвская, А.В.Хлопов – Международная экономика, М., Дело-сервис, 2004 г.

### **6.4. O'zbekiston Respublikasining jahon ho'jaligiga integrasiyalashuvi.**

O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatiga iqtisodiy integrasiyasi uchun chet mamlakatlarining bu soha bo'yicha eksportga mo'ljallangan va import urnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarishda to'plangan utyyuklari juda ham muhimdir.

Xalqaro iqtisodiy integrasiya deganda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, o'zoro iqtisodiy a'lokalarning chyukur rivojlanishi va mallatlar o'rtasidagi ho'jaliklarning mehnat taksimoti tushuniladi.

Shundan kelib chiqib bu jaroen faqatgina mamlakatlarning tashqi iqtisodiy almashinushi, bozor iqtisodiyoti emas, balki xalqaro hamkorlikda va jahon bozorida o'z urniga ega bo'lish jarayonini o'z ichiga oladi. Lekin bu tovarlar ishlab chiqarish doirasiga chyukur kirib boradi va har hil kurinishda chyukur iqtisodiy a'loka o'rnatishga olib keladigan jarayon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng uning oldida jahon hamjamiyatiga a'zo bo'lish yo'lida yangi imkoniyatlar paydo bo'la boshladi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integrasiyalashuvining:

- **siyosiy asosi** bo'lib O'zbekiston Respublikasining siyosiy mustaqilligi va demokratiya asosida kurilgan jamiyat;
- **iqtisodiy asosi** bo'lib mulkchilikning har-hil shakllari kurinishda bozor iqtisodiyotiga o'tishi va ular uchun barcha shart-sharoitlari yaratish shu jumladan huquqiy bazani ham;

- **material asosi** bo'lib O'zbekiston Respublikasining milliy boyligi va O'zbekiston Respublikasi da iqtisodiy integrasiyani rivojlantirish;

- **ijtimoiy asosi** bo'lib –O'zbekiston Respublikasida erkin mehnat, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni qo'llab-quvvatlash, haqiqiy mulkdorlar sinflarini shakllantirish;

- **ma'naviy asosi** bo'lib esa-goyalarning yaratilishi ma'naviy boyligimiz va millatning o'z-o'zini anglashi hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida integrasion o'zaro aloqalarini Yuqorida keltirilgan asoslari bo'lib

- mamlakatning tashqi iqtisodiy strategiyasini amalga oshirishda;

- tashqi iqtisodiy faoliyatni kelgusida ham mo'tadillashtirishga yo'naltirilgan;

- Respublikaning milliy Xalk ho'jalik kompleksini bozor iqtisodiyotiga o'tkazish va bundan tashqari integrasion imkoniyatlarni va undan samarali foydalanishini kuchaytirish zarur.

Bizning nazarimizda integrasion salohiyat deganda –Xalqaro iqtisodiy integrasiya sub'ektlarini, iqtisodiy manfaatdor tomonlarni xalqaro iqtisodiy ishlab-chiqarish, ilmiy tehnika sohasidagi hamkorligi va o'zaro almashinuv predmeti hisoblangan tabiiy kompleksi, mehnat, ishlab chiqarish, moliya-kredit, tashqi va ichki savdo resurslari, ilmiy salohiyatli kadrlar va insonlarning mulklari tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasining jahon hamjamiyatiga integrasion aloqalariga kumaklashuvchi faktorlari va shartlari orasida bahslashib bo'lmaydiganlari quyidagi integrasion patensionalini rivojlantirishga qaratilganlarini ajratish mumkin.

- O'zbekiston Respublikasining Evro-Osiyo kit'asida muhim geografik joyda joylashganligi;

er osti va er usti zahiralarini mineral hom-ashyo va o'simlik resurslari, qishloq xo'jaligini va qishloq ho'jaligi mahsulotlarini rivojlantirish uchun qulayligi;

tashqi savdo va eksport salohiyatini yuqoriligi;

yuqori ishlab chikrish salohiyati;

insonlarni salohiyati yuqoriligi usuvchi mehnat resurslari;

bundan tashqari jahon hamjamiyatiga nisbatan arzon ishchi kuchi mavjudligi;

Respublikamizni boshqa hududlar bilan boglab turuvchi avtomobil va temir yo'l magistrallari mavjudligi;

rivojlangan ishlab chiqarish infratuzilmasi mavjudligi;

ikki tomonlama manfaatli tashqi iqtisodiy va integrasiyon hamkorlik, chet el kapitali, investorlar jalb etish uchun davlat garanti va turgun siyosiy holat mavjudligi;

Yuqorida sanab utilganlarda belgilardan O'zbekiston Respublikasi mineral hom-ashyo salohiyatini alohida aytib o'tish mumkin. Chunki D. Mendeleev jadvalidagi deyarli barcha elemenlar mavjud bo'lib, u chet el ekspertlari tomonidan 3.3 trln dollar qiymatida baholangan. Shu bilan birgalikda har yili O'zbekiston Respublikasi er osti boyliklaridan 5.5 mlrd AQSh dollori miqdorida er osti kazilma boyliklari kazib olinadi, har yili er osti va er usti zahiralari 6-7 mlrd. dollarga usadi. Shu bilan bir qatorda respublikmizda mavjud ana shu salohiyatdan va yaratilgan iqtisodiy jarayondan samarali foydalanish zarur. Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish, bozor iqtisodiyoti sharoitida tashqi iqtisodiy faoliyatni faollashtirish ustuvor yo'nalish hisoblanadi.

Kichik biznes va hususiy tadbirkorlikka bevosita kumak beruvchi bir qator davlat institutlari tashkil etilgan ular: tovar ishlab chiqaruvchilar palatasi, kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab quvvatlovchi fond (biznes fond), "Madad" va "O'zbyokinvest" eksport import milliy sug'o'rta kompaniyasi, mahsuslashtirilgan aksiyadorlik tijorat "Tadbirkorbank", respublika tovar birjasi va fond birjasi, biznes-inkubatorlar, kuchmas multk birjasi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi hyukumati kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun rivojlangan chet el banklarining kreditlarini jalb etish bo'yicha samarali ishlar olib bormoqda. Shu maqsadda 2002 yilda chet el kreditlari respublikamizda kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash uchun 700 mln. AQSh dollari miqdorida kredit jalb etildi. Biznes fond 2002-2003 yillarda kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub'ektlari uchun 25 ta investision proektlarni hususiylashtirish yo'li bilan tushgan mablaglar hisobidan 5,7 mlrd. sum ajratildi.

Osiyo tarakkiet banki kichik va o'rta qishloq ho'jalik korxonalarini qayta jihozlash maqsadida 724 mln. AQSh dollari miqdorida mablag ajratdi. Shunday qilib juda katta geostrategik, zahirali insoniy intelektual va ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo'lган va respublikamiz mustaqilligi bilan uyg'unlashib ketgan jarayon hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini bozor sharoitiga moslashtirish uni rivojlantirish (masalan Respublikada sanoat ishlab chiqarishni usishi 2003 yilning 9 oyida 2002 yilga nisbatan 106,4 % darajasida usdi.) Respublika tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va

tashqi savdo aylanmasini o'sishiga erishish. O'zbekiston Respublikasini jahon arenalarida hurmatini oshirish integrasion alkalarini kengaytirish va chyukurlashishi uchun muhim sharoit yaratib beradi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasini davlat sifatida 165 ta mamlakat tan oldi. Shulardan 120 tasi bilan diplomatik aloqalar o'rnatilgan. O'zbekiston Respublikasi bilan diplomatik aloqa urnatgan 120 ta mamlkatning 40 tadan ortigi Respublikamiz poytahti Toshkentda o'z elchihonalarini tashkil etganlar. Respublikamizda 88 ta chet el mamlakatlarining vakolathonalari va 13 ta nodavlat tashkilotlari tashkil etilgan va ular hozirgi kunda faoliyat ko'rsatmokda. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishishi bilanok ko'p tomonlama xalqaro hamkorlik mexanizmiga faol kirishdi. Bir qator obruli xalqaro siyosiy iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar, BMT va uning institutlari; butun jahon banki, xalqaro valyuta fondi, xalqaro moliya korporasiyasi, iqtisodiy rivojlanishga kumaklashuvchi tashqitlotlar, Butun jahon bojxona tashkiloti va boshqalar. O'zbekiston Respublikasi bilan Xindiston mamlakati, Xitoy halq Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Bengriya Respublikasi, Shimoliy Koreya Respublikasi, Malaziya Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Germaniya Respublikasi, Amerika Qushma Shtatlari, Avstraliya mamlakati, Eron Islom Respublikasi, Rossiya Federasiyasi, Qozogiston Respublikasi, Kirgiziston Respublikasi va boshqalar davlatlar bilan hyukumatlararo savdo-iqtisodiy hamkorlik to'grisida kelishuv imzolangan.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik yangi ko'rinishi bu har yilda bir marta o'tkaziladagan Amerika-O'zbekiston savdo palatasini hisoblanadi (AUSP). Bu savdo palatasining asosiy maqsadi savdo-iqtisodiy aloqalarini kengaytirish va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga Amerika investisiyalari okimini ko'paytirishdan iborat. Bu tashkilot o'z ichiga Amerikaning 63 ta chet el mamlakatlari tomonidan tan olgan yirik kompaniyalari va korporasiyalarini birlashtiradi Bular "Boing", "Uayt end Keysn", "Koka-kola", "Katerpiller", "Kargil", "Dir end Kompani", "Enron", "Enkson", "Teksako", "Tehnalodjiz", "Hument end Mayying", "Amermkan interneyshnl", "Grinn", "Meyr Brain end platt". Ana shunday konferensiyalarning birida 1998 yil Hu-York shahrida AQSh ning 150 dan ortiq kompaniya va korparasiyalari ishtirok etdi.

Yuqorida olib borilayotgan barcha tadbirlar natijasida chet el mamlakatlarining sarmoyalalarining hajmi yildan yilga oshib bormoqda.

Chet el mamlakatlari sarmoyalari asosida O'zbekiston Respublikasi da bir qator yirik qo'shma korxonalar tashkil etilgan

Bular: “MAN”, “Chevrolet”, “O’zDEUelektroniks”, “O’zBAT”, “O’zitalmator” va boshqalar. Shu bilan birgalikda O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan so’ng 100 dan ortiq chet el investorlarining sarmoyalari bilan 3600 dan ortiq qo’shma korxonalar tashkil etildi.

O’zbekiston Respublikasini integrasion salohiyatini tashkiliy bo’linmasi sifatida tashqi savdoni ko’radigan bo’lsak, shunday hulosa chiqarish mumkinki O’zbekiston Respublikasining integrasion pozisiyasi sezilarli darajada oshdi, bu O’zbekiston Respublikasining jahon integrasion muhiti bilan o’zoro aloqasi har hil bosqichlarda-Global (xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarda), Transkontenental (transOsiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti), Subregional (Mustaqil davlailar iqtisodiy hamkorlik tashkiloti), Xududiy (Markaziy Osiyo Respublikalari iqtisodiy hamkorlik tashkiloti) mikro darajada (kichik biznes va hususiy tadbirkorlik sub’ektlari darajasi) tashkil etilgan va bu rivojlantirilmokda.

Lekin milliy integrasion salohiyatni barcha Yuqorida ko’rsatilgan o’zaro aloqasini to’liq tadbik etish uchun uning aniq mexanizmini ishlab chiqish kerak. Buning uchun iqtisodiy usullar, tashkiliy chegara va iinstitatlarni tushunish zarur.

O’zbekiston Respublikasini iqtisodiy salohiyatidan samarali foydalanish va uni tadbik etishni ta’minalash va jahon ho’jalik sistemasiga har hil darajadagi integrasion aloqalarni va milliy integrasion jarayonini chuqurlashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O’zbekiston Respublikasini jahon iqtisodiy bozoriga kirib borishida integrasion salohiyatini ikkita strategiyasi mavjud.:

Jahon bozoriga kirishning avtonom strategiyasi.

Xududiy integrasion bloklar bazalariga kelishilgan holda kushilish.

Jahon bozoriga kirishning avtonom strategiyasi O’zbekiston Respublikasi uchun juda og’ir masala bo’lib unda tovar ishlab chiqaruvchilar jahon bozoridagi kuchli raqobatga bardosh berishlariga to’gri keladi. Shuning uchun ham dastlabki 1-chi bosqichda jahon bozorida faqatgina hom-ashyo va malakali arzon ishchi kuchini taklif etish maqsadga muvofiq bo’lib hisoblanadi.

Keyinchalik o’zaro munosabatlarni kuchaytirish natijasida iqtisodiy usishning lokal nuqtasini shakllantirish kelib chiqadi. Bunda O’zbekiston Respublikasi tashkilotlari sohalar kompleksi va hududlar chet el mamlakatlari investisiyalariga sezilarli kizikishlari ortadi.

Bu – mehnat sigimi yuqori bo’lgan ekologik havfsiz tashkilotlar, ishlab chiqarishning hom -ashyo sohasi.

Lekin jahon amaliyoti shuni ko’rsatdiki hududiy integrasision bloklarga kushilish jahon bozoriga kirib borish uchun juda ham samarali hisoblanadi, masalan, Jahon integrasision birlashmasi, Yevropa ittifoqi, Shimoliy Amerika integrasision bloki, NAFTA, Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari hududiy koalisiyasi va boshqalar.

Shu Bilan bir qatorda O’zbekiston Respublikasining tarixiy sosial-iqtisodiy rivojlanishi jarayonida O’zbekiston uchun alohida hudud doirasida ma’lum integrasision kenglik shakllantirish uchun ob’ektiv sharoit yaratildi.

So’z avvalom bor Mustaqil Davlatlar XAMDUSTLIGI mamlakatlari ustida bormoqda.

SSSR mamlakatining tarkalib ketishi natijasida bir qator yangi sub’ektiv davlatlar paydo bo’ldi. Shular qatorida O’zbekiston Respublikasi ham. Sobik Ittifoqdagi Respublikalar o’rtasidagi aloqa birdaniga o’zilganligi sababli yagona iqtisodiy hudud saklanib kolinmadni. Real holatda sobik ittifoqdosh Respublikalar o’rtasidagi aloqalar chet el davlatlari singari tashqi savdo kurinishni oldi. Ya’ni sobik ittifoqdagi respublikalar o’rtasidagi aloqalarni yo’qotilishi dastlabki davrlarda sosial iqtisodiy aloqalarni qiyinlashishiga olib keldi, Bulardan tashqari sobik ittifoqdan respublikalarni havfsizligiga ham tahrid solindi. Natijada 1993-1994 yillarda mustaqil davlatlar hamdustligi MDX integrasision tuzilma tuzishga va anna shu tuzilma tarkibida yagona iqtisodiy hudud tuzish goyasi paydo bo’ldi. Ba 1993 yil 24 sentyabrda yagona iqtisodiy hudud tashkil etish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Ushbu shartnomalarini ho'jalik sub'ektlari o'rtasida o'zaro teng huquqlilik va bozor prinsiplari asosida va yagona iqtisodiy hududni tashkil etish va uni takomillashtirishni bosqichma - bosqich amalga oshirishga kelishilib olindi. Yagona iqtisodiy hudud to'grisidagi shartnomalarini nazarda to'tgan:

- ko’p tomonlama erkin savdo assosiasiyasini tuzish;
  - yagona bojxona ittifoqini tuzish;
  - to’lov ittifoqini tuzish;
- yagona mustaqil davlatlar hamdustligi umumiy bozorga o’tish.

Mustaqil davlatlar hamdustligi Iqtisodiy hamkorlik kengashi o’z oldiga kuygan maqsadlarini amalga oshirish, ko’pgina a’zo mamlakatlar fikriga ko’ra majburiy harakter kasb etmaydi, chunki bu hamkorlik tashkiloti millatlarni keltirib chiqaruvchi va ularni mustaqilligi va

erkinligini chegaralovchi millatlararo hokimiyat va boshqaruv tashkil kilmaydi. O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil davlatlar hamdustligi iqtisodiy tashkiloti ichida asosiy va eng muhim strategik sherik bo'lib Rossiya Federasiyasi hisoblanadi. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Rossiya Federasiyasi bilan xo'jalik aloqalarini o'rnatgan.

O'zbekiston Respublikasi integrasjoni salohiyatini muhim strategik yo'nalişlaridan yana biri bo'lib bu Respublikamizni O'rta Osiyo Respublikalari bilan yaqin hamkorligi hisoblanadi. Shuning uchun ham O'rta Osiyo Respublikalari 1992 yil yanvar oyida birlashib mamlakatlararo iqtisodiy birlashma tuzdilar va uni nomini Markaziy Osiyo hududiy hamdustligi deb atadilar va hamdustlik tarkibida 5 ta markaziy Osiyo Respublikalari a'zo bo'ldidir. Bular-O'zbekiston Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Turkmaniston Respublikalaridir.

Bu hamdo'stlikning asosiy maqsadi yagona ichki bozorni shakllantirish yo'li bilan hududiy iqtisodiy integrasiyaga erishish va bundan tashqari iqtisodiyotning oliv bosqichi sifatida tarnsOsiyo iqtisodiy hamkorlik tashkilotiga Markaziy Osiyo hududiy hamdustlik a'zolarini integrasiyalash edi. Bu esa Markaziy Osiyo davlatlari hamkorlik tashkiloti a'zolari tomonidan oldindan rejalashtirilgan asosiy yo'naliş edi.

O'rta Osiyo hududida iqtisodiyot va ta'minotni boshqarish bir-hil tizimligi, yuqori ishlab-chiqarish darajasi bir hilligi, qishloq ho'jalik yokinlarini uhshashligi, transport va energo ta'minot yagona integrasiyanı ravnakini belgilaydi.

Shular bilan bir qatorda ayrim faktorlar muhim urin tutadi, Bular qatoriga quyidagilar kiradi:

- hududni o'z-o'zini barcha turdag'i energetik, mineral va qishloq ho'jalik hom-ashyosi bilan ta'minlanish;
- sezilarli darajadagi yalpi eksport salohiyati;
- kuchli yalpi ishlab chiqarish salohiyati;
- mehnat resurslari va kiesiy arzon ishchi kuchi;
- suv resurslaridan rosional va hamkorlikda foydalanish imkoniyati;
- ekologik, iqtisodiy va siyosiy havfsizlikni ta'minlashga erishishda maqsadlarni umumiyligi;

Yuqorida keltirilganlarning hammasi Markaziy Osiyo hududida mamlakatlarining integrasiyasiga ob'ektiv zamin yaratadi.

Integrasiyon jarayonlarini kengaytirish kompleks choralariga asosiy urin transport faktoriga, asosan suv transportiga ajratiladi:

Sobiq ittifoq tarkalgungacha barcha o'zining shaxsiy portiga ega bo'limgan ittifoqdagi respublikalar o'zlarining shaxsiy portlariga ega bo'lishlariga ehtiej syozmasdilar, chunki ular Rossiya, Yekaterinburg, Boltikbuyi respublikalari va Gro'ziya portlaridan teng huquqli sub'ektlar sifatida foydalanadilar.

Sobiq ittifoq tarkalib respublikalar mustaqil bo'lganidan keyin barcha o'z portiga ega bo'limgan Respublikalar singari O'zbekiston Respublikasi ham bu sohada ancha qiyinchiliklarga uchradi.

Bu qiyin masalani hal etish yo'lidagi birinchi qadam 1993 yilda Belgiyani Brussel shahrida O'rta Osiyo respublikalari va Kavkaz mintaqasi Respublikalari, bundan tashqari Yevropa ittifoqi mamlakatlari vakillari tomonidan Markaziy Osiyo Respublikalari Gruziya va Ozarbayjon Respublikalar orqali Qora dengizga chiqish yo'lida «Yevropa-Kavkaz-Osiyo» transport koridorini tashkil etish bo'yicha deklorasiya qabul qilinishi bo'ldi. 1998 yil 8 sentyabrda Azarbayjon Respublikasining Baku shahrida bo'lib etgan xalqaro konferensiyada «Yevropa – Kavkaz - Osiyo» transport koridorini rivojlantirish bo'yicha ko'p tomonlama kelishuv imzolandi.

Bu esa ko'pgina mamlakatlarga shu jumladan O'zbekiston Respublikasi ga ham tovarlarni transport harajatlarini kamaytirgan holda eng qisqa yo'llar orqali tashish imkoniyatini ochib beradi. Ushbu transport koridori orqali bir tonna pastani tashish harajati ikki marotabaga qisqaradi.

Iqtisodiy integrasiyani Yuqorida keltirilgan ijobiy tomonlaridan kelib chiqib O'zbekiston Respublikasi ni yanada Tashqi Iqtisodiy faoliyatini erkinlashtirib jahon hamjamiyatiga integrasiyasini chyukurlashtirsa shunchalik halqimiz uchun va respublikamizni kelajakda rivojlanishi uchun zamin hozirlangan bo'ladi.

### **Nazorat savollari:**

1. Iqtisodiy integrasiya deganda nima tushunasiz?
2. Iqtisodiy integrasiya bo'yicha jahon tajribasi to'grisida gapiring?
3. O'zbekiston Respublikasining jahon ho'jaligiga integrasiyasi uchun qanday imkoniyatlar mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasining Jahon ho'jaligiga integrasiyasi integrasiyasi uchun kumaklashuvchi qaysi faktorlarni bilasiz?

5. O'zbekiston Respublikasi da kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga hizmat qiluvchi qaysi davlat institutlarini bilasiz?

**Asosiy adabiyotlar:**

1 “O'zbekiston respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to'g'risidagi 5414-sonli Prezident Farmoni 12.04.2018 yil

2. А.П.Киреев –Международная экономика М: Международные отношения, 1999 г

3. Международное экономическое отношение Mejdunarodno'e ekonomicheskie otnosheniya, Учебник, под.ред И. Фоминсконского, Экономист 2004 г

4. Б.И. Фомичев – Международная торговля. М: Infra- M, 2001 г

5.Б.Л. Ломакин – Мировая экономика, под.изд., учебник, М., УНИТИ, 2004 г.

6. Драганов Б. «Основы таможенного дела», М., 1998 г.

## Xulosa

Keyingi vaqtda bozor islohotlarini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni erkinlashtirishga yo'naltirilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qator farmon va qarorlari, shuningdek hyukumat qarorlari qabul qilindi. Ular bojxona faoliyatida ham aks etgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, hyukumat qarorlari, iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirishdan tashqari, tadbirkorlik sub'ektlariga faqat sud tartibida ko'llanishi mumkin bo'lган huquqiy ta'sir choralarini belgilaydi, ho'jalik yuritish sohasidagi huquqbazarliklar uchun tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy javobgarligi erkinlashtirilgan, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun ruhsat berish taomillarini qisqartirish va soddallashtirish yo'nalishlari belgilangan. Bularning hammasi tadbirkorlar, ma'muriy chikimlarni yanada kamaytirish va ho'jalik yurituvchi sub'ektlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay huquqiy va amaliy muhitni shakllantirish uchun yanada makbul shart-sharoitlarni yaratadi.

Davlat bojxona ko'mitasining bugungi kunda oliy malakali kadrlarni tayyorlashi borasida quyidagilarni aytib o'tish lozim. Bojxona ishi mutahassislarini sifatli tayyorlash, yuksak ijro intizomi, kasb etikasiga rioya qilish, vatanparvarlik burchiga sadokat ko'yilgan. Bojxona organlariga hizmat qilishga tanlovli sinovdan so'ng millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy e'tikodlaridan kat'i nazar, o'zlarining shaxsiy, ishbilarmonlik, intellektual va ahlokiy sifatlari, ma'lumot darajasi va sogligining holatiga ko'ra bojxona hizmati zimmasiga yyuklangan vazifalarni hal eta oladigan O'zbekiston fuqarolari qabul qilinadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kadrlar tayyorlashning myukammal tizimini shakllantirish O'zbekiston taraqqiyotining zarur sharti ekanligi aytildi. Ushbu vazifani hal etish uchun 2003 yilda Oliy harbiy bojxona instituti barpo etildi. Respublikamizda Markaziy Osiyoda bunday hildagi dastlabki o'kuv urtining ochilishi mamlakatning malakali ma'lumotli bojxona kadrlarini maqsadli bazaviy tayyorlash tizimining muhim bo'gini bo'ldi.

O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2018 yil 12 aprel kuni davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish to'g'risidagi farmonni imzoladi.

Hujjat umume'tirof etilgan xalqaro norma va standartlar asosida bojxona organlari faoliyatini hamda bojxona ma'muriyatchilagini tubdan takomillashtirish, tadbirkorlik va turizmni faol va jadal rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan. Hujjatda qayd etilishicha, bojxona nazorati va rasmiylashtiruvining murakkab tartib-taomillari va uzoq muddatlari, bojxona organlari xodimlari o'rtasidagi korrupsiyaviy huquqbuzarlik va xizmat vakolatlarini suiiste'mol qilish holatlarining saqlanib qolayotganligi islohotlarning to'liq amalga oshirilishiga to'sqinlik qilmoqda.

Bundan tashqari, tashqi savdo operatsiyalarini monitoring qilish sohasida idoralararo va xalqaro hamkorlikning sust tashkil etilganligi kontrabanda va kontrafakt mahsulotlarni olib kirishning oldini olish vazifalarini samarali bajarish, bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash sxemalarini aniqlash imkonini bermayapti. Ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan davlat korxonalari va tashkilotlari import qilayotgan tovarlar narxlari oshirib yozilgan faktlar oshkor bo'lgan. 2016–2017 yillarda oshirib yozilgan narxlар qiymati 416 mln AQSH dollarini tashkil etgan.

Farmonda bojxona organlarini isloq qilishning muhim yo'nalishlari belgilab berildi. Birinchidan, bojxona organlarining barcha darajadagi tuzilmalari vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda taqsimlash. Ikkinchidan, ikkinchidan, bojxona organlari tizimida korrupsiya ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish, xalqning ishonchini mustahkamlash va davlat bojxona xizmati obro'sini oshirish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.

«Yalpi» bojxona nazoratini o'tkazishdan har tomonlama tahlil asosida bojxona nazorati ob'ektlarini aniqlash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish imkonini beruvchi xavfni boshqarish tizimiga o'tish belgilangan. Navbatdagi yo'nalish — bojxona nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllari, uslublari va texnik vositalarini tatbiq etish hisobiga Davlat chegara o'tkazish punktlarida bojxona tartib-taomillarini amalga oshirishning davomiyligini qisqartirishdan iborat.

Farmon bilan 2018 yil 1 iyuldan tovarlarni bojxona rejimlariga joylashtirishda, shuningdek, xorijiy avtotashuvchilarining O'zbekiston hududi bo'ylab harakatlanish marshrutlarini o'zgartirishga bojxona organlari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar bekor qilinadi.

Xuddi shu sanadan boshlab bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida aynan bir xil tovarlarning bojxona rasmiylashtirushi (jismoniy xususiyati, sifati, ishlab chiqaruvchisi, tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklatura kodi bo'yicha) davriy deklaratsiyalarni taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Aynan bir xil tovarlarga bir tashqi savdo shartnomasi (kontrakti) doirasida karantin ruxsatnomalar, o'simlik va hayvonot dunyosi ob'ektlarini, ozon yemiruvchi moddalar va ulardan tashkil topgan mahsulotlarni olib kirish hamda olib chiqish uchun ruxsatnomalar, muvofiqlik sertifikati, veterinar, gigiyenik va ekologik sertifikatlar bir kalendar yilidan oshmagan muddatga bir marotaba taqdim etiladi.

Import tovarlari amalda O'zbekiston bojxona hududiga yetib kelishidan oldin, jumladan, tovarlarni bevosita chegara o'tkazish punktlarida erkin muomalaga chiqarish orqali insofli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini rag'batlantirish maqsadida ushbu tovarlarni dastlabki deklaratsiyalash amaliyoti joriy etiladi.

Bojxona organlari soliq organlari va Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti organlari bilan birgalikda ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan davlat korxonalari va tashkilotlari tomonidan import qilinayotgan tovarlarning narxini oshirib ko'rsatish holatlari bo'yicha muntazam ravishda monitoring o'tkazadi.

Bojxona omborlarida uch yildan ortiq saqlanib kelinayotgan mol-mulklar bojxona organlari tomonidan ushlab qolinadi va ular uch oy davomida talab qilib olinmagan hollarda sud qarori asosida davlat foydasiga undiriladi, keyinchalik belgilangan tartibda O'zbekiston Bosh prokururasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi tomonidan sotiladi yoki yo'q qilinadi.

Bojxona organlari tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riliqi va ularning tashqi savdo faoliyati qonuniyligini tekshirish maqsadida tovarlar va transport vositalari erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng ularning bojxona nazoratini amalga oshiradi.

DBQga 1 sentyabrga qadar muddatda tovarlarning bojxona nazoratini tanlov asosida o'tkazishni nazarda tutuvchi xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqish vazifasi topshirildi.

«Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti» va «Toshkent-tovar» bojxona postlarida bojxona tartib-taomillarini maksimal darajada soddallashtirish, bojxona to‘lovlarning to‘liq va o‘z vaqtida to‘lanishini ta‘minlash, tovarlarning noqonuniy importi va kontrabandani aniqlashga qaratilgan bojxona ma’muriyatichiligining zamonaviy uslublarini qo‘llash bo‘yicha dastlabki loyihalarni amalga oshirish ishlarini tezlashtirish hamda ijobiy tajribani boshqa bojxona postlarida qo‘llash topshirildi.

DBQ raisiga yuqori professional mahorat, axloqiy va ma’naviy sifatlarga ega, har tomonlama yetyuk va vatanparvar yoshlarni bojxona organlariga jalb etishga yo‘naltirilgan kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo‘yishning prinsipial jihatdan yangi tizimini yaratish topshirildi.

Farmonda hududlarda «yagona darcha» tamoyili asosida bojxona, bank, logistik, tezkor-laboratoriya, fitosanitar, veterinar, sanitarn-epidemiologik, ekologik, sertifikatlashtirish, shu jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida boshqa xizmatlar ko‘rsatadigan zamonaviy logistik markazlarni tashkil etish rejalashtirilgan.

Davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlaridagi chegara bojxona postlarini zamonaviy inspeksion-ko‘rik majmualari va boshqa bojxona nazoratining texnik vositalari bilan jihozlash belgilandi.Temir yo‘l chegara bojxona postlari davlat chegarasida temir yo‘l sostavlari kesishish joylariga ko‘chirilib, ushbu joylarda bojxona va boshqa turdagি davlat nazoratini amalga oshirish uchun zarur infratuzilma tashkil etiladi.

Bugungi kunda bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvni taomillarini takomillashtirish, bojxona monitoringi yordamida tashqi savdo operasiyalari ustidan samarali nazorat o’rnatish;

- bojxona ma’muriyatichiligi va boj-tarif bilan tartibga solishni isloh qilishni davom ettirish;

- Bojxona organlarining yagona avtomatlashtirilgan ahborot tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

- tezkor qidiruv ishini faollashtirish;

- tahlil va hatarlarni boshqarish tizimini joriy etish;

- O‘zbekistonning yaqin orada Jahon savdo tashkilotiga kirishini hisobga olgan holda bojxona qonunchiligi va huquqni ko‘llash amaliyotini takomillashtirish;

- zamonaviy talablarga javob beradigan bojxona kadrlarini tayyorlash;

- xalqaro faoliyatni jadallashtirishga erishildi

Respublika bojxonasida rejalar, goyalar, istikbollar oz emas. Ularni bajarish esa, avvalo, DBK har bir bo'linmasining, har bir bojxonachining o'z suveren Vataniga munosib ravishda hizmat qilishiga bog'likdir. Chunki Vatan muqaddasdir. Uning har bir qarich yerini, tabiiy boyliklarini ko'z qorachig'idek asrash, tug'ilib o'sgan jonajon yurtini sevish, qadrlash - har bir O'zbekiston fuqarosining burchi va majburiyatidir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining butun shaxsiy tarkibi ham buni o'zining muqaddas burchi deb hisoblaydi.

## GLOSSARIY

- 1. *Boj tarifi*** – tovarlar guruhlari bo'yicha bir tizimga solingan bojlar ro'yhati.
- 2. *Valyuta nazorati (exchange control)*** – milliy valyutani olib chiqishni cheklashga yo'naltirilgan va to'lov balansining emonlashuviga qarshi qo'llaniladigan hyukumat siyosati. Odatda mahalliy valyutaning kursi oshganda qo'llaniladi.
- 3. *Davlatning tashqi qarzi*** – davlatning horijiy fuqarolar, korxonalar va boshqa mamlakatlardan karzi.
- 4. *Diversifikasiya*** – bevosita bir-biri bilan boglanmagan ko'plab ishlab chiqarishlarning bir vaqtdagi rivojlanishi; firma ishlab chiqarishining diversifikasiyasi – firma tarkibida bir-biri bilan bevosita boglanmagan bir nechta ishlab chiqarishlarning rivojlanishi yoki unga kiritilishi.
- 5. *Demping (dumping)*** – tovarning tashqi bozorda tannarxi yoki ichki bahosidan past narxlarda sotilishi. Dempingning doimiy, sporadik va shafkatsiz turlari mavjud.
- 6. *Bojxona boji*** – chegara orqali o'tkaziladigan tovarlarga doir Soliq. Olib kirish va olib chiqish uchun bojxona bojlari mavjud.
- 7. *Yevropa valyuta tizimi*** – Yevropadagi bir qator mamlakatlarning valyuta tizimi, uning vositasida o'z valyutalari kursini bir-biriga nisbatan ushlab turadilar.
- 8. *Jahon bozori (World market)*** – ishlab chiqarish omillarining xalqaro mehnat taksimoti bazasida mavjud bo'lgan, mamlakatlar o'rtaсидаги barqaror tovar-pul munosabtlari sohasi.
- 9. *Dempingga qarshi boj (antidumping dutu)*** – tovar dempingidan kurilgan talafotlarni koplash maqsadida import qiluvchi mamlakatda joriy etiladigan vaqtincha yig'im, u ichki va dunyo bozorlaridagi narxlar o'rtaсидаги farq hajmida bo'ladi.
- 10. *Avtarkiya (autarky)*** – mamlakatning jahon bozoridagi ihtiyyoriy yoki majburiy tarzda mahdudlanish siyosati, davlatning ho'jalik jihatidan alohida yashashi. Olib kiriladigan tovarlarga yuqori cheklash bojlarining belgilanishi, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va savdo aloqalarini rivojlantirishga tuskinlik qiluvchi shart-sharoitlarni yaratish avtarkiyaning asosiy vositalari hisoblanadi.
- 11. *Esh tarmoqlarning himoyasi (infant industry argument)*** – proteksionizm siyosati tarafdarlarining dalil-isbotlaridan biri, unga

muvofiq yangi tarmoqlar jahon bozorida chinakam raqobatbardoshlikka erishgunga qadar tarif yordamida himoya qilinishga muhtoj bo'ladilar.

**12. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi (production possibility frontier)** – barcha ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanish va eng yahshi tehnologiyalarni qo'llash chogida turli mamlakatlarning ishlab chiqarish holatini aks ettiradigan egri chizik.

**13. Epik Iqtisodiyot (closed economy)** – horijiy mamlakatlar bilan aloqasi bo'lмаган Iqtisodiyot.

**14. Bozorning davlat tomonidan tartibga solinishi** – davlatning bozor mexanizmlari faoliyatiga aralashuvi, Iqtisodiyotga ma'muriy (qonun hujjatlari va hokimiyat ijroiya organlarining ularga asoslangan harakatlari), iqtisodiy (valyuta-moliya, pul-kredit, budget-Soliq va hokazo) usul va vositalar orqali ta'sir ko'rsatish.

**15. Jahon savdo tashkiloti (JST)** – unga kiruvchi davlatlar (1996 yilda – **16.** mamlakat) o'rtaida ko'p tomonlama bitim, qatnashchisi bo'lган davlatlar o'rtaсидаги savdo munosabatlari norma va qoidalarini belgilaydi.

**17. UHKTAD** – BMTning savdo va rivojlanish bo'yicha anjumani – BMT Bosh assambleyasi organi, uning ishi xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berishga, xalqaro iqtisodiy aloqalarni tartibga solish qonun-qoidalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

**18. Joriy operasiyalar hisobvaragi** – mamlakat to'lov balansining bulimi, unda tovarlar va hizmatlar eksporti va importining hajmlari, investisiyalardan olingan daromadlar va transfert to'lovleri hajmi qayd etiladi.

**19. Import (import)** – tovarlar va hizmatlarni chet elda sotib olish.

**20. Ishlab chiqarish omillari (factor of production)** – tovarlar yoki hizmatlarni ishlab chiqarish uchun zarur resurslar yoki harajatlar.

**21. Balo'taning konvertasiyalanuvchanligi (convertibility of currency)** – mazkur mamlakat valyutasining boshqa mamlakatlar valyutasiga erkin ayriboshlanish va barcha operasiyalarda cheklashlarsiz chiqish kobiliyati. Tulik va cheklangan konvertasiyalanuvchanlik mavjud.

**22. Iste'molchi oladigan ortiqcha foyda (sonsumer surplus)** – iste'molchi oladigan va u tovarlarni talab narxi bo'yicha emas, balki muvozanatli narx bo'yicha harid qilgani tufayli yuzaga keladigan foyda.

**23. Ishchi kuchining migrasiyasi (labor force migration)** – iqtisodiy, siyosiy, diniy va boshqa hil sabablar tufayli mehnatga laetkatli aholining bir mamlakatdan boshqasiga o'tishi.

**24. Resurslarni taksimlash samaradorligi** – resurslarni shunday taksimlash usuliki, bunda resurslarning mazkur hajmida va resurs tejovchi tehnika hamda tehnologiyalarni qo'llash bilan iloji boricha mumkin bo'lgan mahsulot hajmini ishlab chiqarish ta'minlanadi.

**25. Yevropa Ittifoqi** – alohida turdag'i xalqaro institut, Yevropadagi 15 davlatning xalqaro iqtisodiy tashkiloti va siyosiy federasiyasi hususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Iqtisodiy jihatdan olganda ularni iqtisodiy rivojlantirishga, iqtisodiy siyosatni muvofiqlashtirishga, yagona valyutali va sarmoyalar, tovarlar va ishchi kuchi to'liq erkin harakatlanadigan a'zo mamlakatlarning yagona bozoriga asta-sekin o'tishiga yordam berishga da'vat etilgan.

**26. Jismoniy shaxs** – huquqka laekatli shaxs sifatidagi kishi, ho'jalik faoliyati sub'ekti sifatida mustaqil faoliyat uritadi.

**27. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IXTT)** – mamlakatlarni unga muvofiqlashtirishni amalga oshiradigan xalqaro tashkilot, ular o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga kumak beradi.

**28. «Hou-hau»** – tehnik tajriba, ishlab chiqarish sirlari, ahborot va hokazolarni taqdim etish. «Hou-hau» predmeti, garchi patent himoyasi bilan ta'minlanmagan bo'lsada, ishlab chiqarishda foydalanilgan taqdirda ma'lum afzalliliklar yaratadi.

**29. Kvota** – import(eksport)ning muayyan muddatga belgilanadigan miqdoriy chekylanishi.

**30. Akkreditiv** – hujjat, bir moliya-kredit muassasasining boshqa shunday muassasaga tovar yoki hizmat uchun hak to'lashni yohud taqdim etuvchiga muayyan summani to'lashni topshirishi. Pul va tovar akkreditivlari mavjud.

**31. Investisiyalar (investment)** – milliy daromadning mamlakatda investisiya tovarlarini ishlab chiqarishga yunaltiriladigan qismi.

**32. Aksiz** – tovar yoki hizmat narxiga kiritiladigan bilvosita Soliq turi.

**33. Ayuksion (kimoshdi)** – ochiq savdo, bunda sotilayotgan mol-mulkka egalik huquqi savdo paytida eng yuqori narxni taklif etgan haridorga o'tadi.

**34. Shartnoma** – taraflarning huquq va majburiyatlari, bitimni amalga oshirish shartlari, muddati va hokazolarni belgilaydigan asosiy ho'jalik, tijorat hujjati. Oldi-sotdi, kredit, sug'o'rta, pudrat, marketing ishlarini o'tkazishga oid va hokazo shartnomalar ayniqsa keng tarkalgan.

**35. Kombinasiyalangan (aralash) tarif** – advalor va hos tariflarni birlashtirish yo’li bilan belgilanadigan boj.

**36. Bilvosita Soliqlar** – muayyan tovar va hizmatlarga doir Soliqlar, tovar narxiga ustama qo'yish orqali undiriladi.

**37. Boj** – Soliq turlaridan biri, chegara orqali kelib tushadigan (olib kelinadigan, olib chiqiladigan) tovarlardan undiriladi.

**38. Aktiv sadvo balansi (favorale balance)** – mamlakat eksportining uning importidan oshib ketishi.

**39. Advalor tarif (ad valorem tariff)** – import qilinadigan tovarlar qiymatiga foizlarda belgilanadigan boj.

**40. Kredit** – Iqtisodiyotdagi sheriklar o'rtasidagi ssuda shaqlini oladigan bitim, bunda bir sherik ikkinchisiga muddatlilik, qaytarishlilik va, odatda, to'lash shartlarida pul yoki mol-mulk taqdim etadi.

**41. Aksiya** – aksiyadorlik jamiyatiga sarmoya qo'yilganligidan guvohlik beruvchi va foydaning bir qismini dividend ko'rinishida olish huquqini kafolatlaydigan qimmatli qog'oz.

**42. Harhga doir kamsitish** – bir jinsdagi (bir hil) mahsulotga turli narxlarni belgilash amaliyoti, u tovarlar sifati yoki chikimlar darajasiga bog'lik bo'lmaydi.

**43. Hotarif savdo cheklovleri** – tariflarni istisno etganda tovar va hizmatlarning xalqaro okimlari harakat yo'lidagi ko'pdan-kum cheklovlar (kvotalar, subsidiyalar, eksportni ihtiyyoriy cheklash, demping, ekologik, sanitariya va boshqa me'rlar).

**44. OPEK** – neft kazib oluvchi davlatlar tomonidan neft kazib olish va eksport qilish, unga narx belgilash bobida yagona siyosat yuritish maqsadida barpo etilgan tashkilot.

**45. Erkin savdo siyosati** – xalqaro savdoga asosan talab va taklifning erkin kuchlari ta'sirida rivojlanish imkonini beradigan siyosat.

**46. Portfel investisiyalari** – mahalliy valyutada to'lanadigan, horijda aksiyalar, obligasiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni harid qilishga doir moliiyaviy operasiya. Portfel investisiyalari hatar darajasini sarmoyali diversifikasiyalash hisobiga pasaytiradi, Lekin investorga harid qilingan mulk ustidan amaldagi nazoratni bermaydi.

**47. Hotarif to'siqlar** – chet el tovarlarini olib kelishga qarshi yo'naltirilgan ma'muriy chora-tadbirlar.

**48. Lisenziya** – muayyan iqtisodiy faoliyatni yuritish uchun davlat yoki mahalliy hokimiyyat organlari tomonidan beriladigan mahsus ruhsatnoma.

**49. *Balans*** – o’zaro boglangan, biror bir hodisa yoki jarayonni uning ayrim tomonlarini takkoslash yo’li bilan tavsiflaydigan ko’rsatkichlar tizimi; daromadlar bilan chikimlar o’rtasidagi ayirma.

**50. *Proteksionizm*** – ichki bozorni chet el raqobatidan himoya qilish maqsadida tovar va hizmatlar xalqaro okimlari yo’liga davlat tomonidan joriy etiladigan cheklovlar tizimi.

**51. *Rivojlanayotgan mamlakatlar tasnifi*** – BMT, IXTT va Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan tasniflar mavjud.

**52. *Savdo balansi (trade balance)*** – muayyan vaqt davr, odatda bir yil uchun mamlakat eksporti va importining nisbati.

**53. *Fritradorlik*** – davlatning savdo erkinligiga va hususiy tadbirkorlik faoliyatiga aralashmasligi qoidasiga asoslangan iqtisodiy nazariya va ho’jalik siyosatidagi yo’nalish.

**54. *Xalqaro Balo’ta Fondi (XBF) (International Monetary Fund - IMF)*** – 1944 yili asos solingan xalqaro iqtisodiy tashkilot. Xalqaro valyuta-moliya munosabatlarini tartibgag soluvchi, xalqaro savdo va valyuta hamkorligiga kumak beruvchi asosiy organ.

**55. *Savdo siyosati (commercial policy)*** – importni cheklash maqsadida tovar okimlarini o’zgartirishni nazarda tutadigan hyukumat siyosati.

**56. *Tarif (tariff)*** – hyukumat tomonidan belgilanadigan, horijiy tovarlarning importi, eksporti yoki tranzitiga doir Soliq.

**57. *Reeksport*** – tovarni uni ishlab chiqargan mamlakatdan o’z iste’moli uchun emas, balki sotish uchun uchinchi mamlakatlarga olib chiqish; ilgari mamlakatga olib keltingan tovarni olib chiqish.

**58. *Tashqi savdo*** – davlatning boshqa mamlakatlar bilan savdosi, tovarlarni olib kirish va olib chiqishni o’z ichiga oladi.

**59. *Fiskal siyosat*** – Iqtisodiyotga ta’sir ko’rsatish maqsadida Soliq solish va davlat harajatlari tarkibini tartibga solish bobidagi siyosat.

**60. *Takiklovchi tarif (prohilitiva tariff)*** – tarif stavkasining yuqori darajasi, u tovarlar importini iqtisodiy jihatdan foydasiz qilib qo’yadi.

**61. *Fors-major*** – oldindan kutilmagan hodisa; bitimda ishtirok etadigan taraflarning harakatlariga bog’lik bo’lmagan, Lekin shartnomaga majburiyatlarining buzilishiga olib keladigan hodisa, masalan, tabiiy ofat, harbiy harakatlar va hokazo hollar.

**62. *Eksport subsidiyasi (export subsidy)*** – savdoni notarif cheklashlar shakllaridan biri, bunda hyukumat o’z eksportini ragbatlantirish va importni yahshilashga kamsitish maqsadida

mamlakatning ishlab chiqaruvchilarini ochiqdan-ochiq yoki nikobli kurinishda subsidiyalaydi.

**63. *Xalqaro mehnat taksimoti*** – alohida olingan mamlakatlar o’rtasida ishlab chiqarishni muayyan mahsulot ishlab chiqarishga ihtisoslashtirish.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

### **1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi. T.: O'zbekiston 2014 yil.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasining Bojhona kodeksi. T.: Adolat, 2016 y.
- 1.3. O'zbekiston Respublikasining «Bojhona xizmati to'g'risida»gi qonuni. T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi 1997 y.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining «Chet ellik investorlar huquqlarini kafolatlari va ularni ximoya qilish choralarini to'g'risida»gi qonuni. T.: O'zbekiston 2015 y.

### **2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi qarorlari**

- 2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik subyektlarini xuquqiy ximoya qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi»gi 2015 yil 14 iyundagi farmoni.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi 2015 yilga mo'jallangan investitsiya dasturi to'g'risida»gi 2016 yil 29 dekabrdagi farmoni.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 24 dekabrdagi «O'zbekiston Respublikasi byudjetining 2016 yildagi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va parametrlarini prognozlash to'g'risida»gi PP-1524 son Qarori.
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 31 mardagi «O'zbekiston Respublikasida Tashqi savdo faoliyatini erkinlashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida»gi 137-sodan qarori.
- 2.5. O'zbekiston Respublikasi TSVda 2014 yilning 5-17 yanvarida «O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchi korhonalar rahbarlarining malakasini oshirish kursi» tarqatma ma'lumotlari

### **3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari**

- 2.1. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz- jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiyalash va islox etishdir. T.: O'zbekiston 2005y.
- 2.2. Karimov I.A. O'zbek xalqi xech qachon xech kimga qaram bo'lmaydi. T.: O'zbekiston, 2005 y.

#### **4. Asosiy adabiyotlar**

- 3.1. Sh. Mirziyoyev . Tanqidiy tahlil, qa'tiy tartib-intizom va shahsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti mamlakatimizni 2016yilda ijtimoiy –iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'jallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilga majlisidagi ma'ruzasi. Xalq so'zi 16 yanvar 2017 yil.
- 3.2. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimovning 2015 yilining asosoiy yakunlari va 2016yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'naliшlariga bag'ishlangan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining ma'ruzasi. Xalq so'zi 17 yanvar 2016 yil.
- 3.5. Принципы и формы. Таможенный альманах. М.: Благовест – В, 2012 г., 510-bet.
- 3.6. Миляков Н.В. «Таможенная пошлина» М:, Финансы и статистика 2004 г.
- 3.7. Сирожиддинов Н. «Проблемы повышения эффективности внешней торговли Узбекистана».- Т., УМЭД, 2014 г., 224 с.
- 3.8. M.Xolmedov va boshqalar. «O'zbekiston Respublikasida bojxona rejimlarini qo'llash asoslari», T.:Iqtisodiyot va huquq dunyosi , 2015 y.
- 3.9. B.A.Abdukarimov, A.N.Jabriyev, I.R. Zuxurov va boshqalar . “Korxona iqtisodiyoti”-T.:2015 y. 288bet.

#### **5. Qo'shimcha adabiyotlar**

- 5.1. Mamatov M. Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalarni jalgilishning nazariy asoslari, Iqtisodiyot va ta'lif, 2015 y., № 4.

#### **6. Statistik ma'lumotlar to'plami**

- 6.1. O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining 2010-2017 yillar davomidagi xizmat faoliyati yakunlari to'g'risida ma'lumot, T.: 2018yil, 12-bet.

#### **7. Internet saytlari**

- 7.1. [www.economyworld.com](http://www.economyworld.com) – Axborot Texnologiyalari Asotsatsiyasi veb-sayti.
- 7.2. [www.review.uz](http://www.review.uz) – “Экономическое обозрение” jurnalining rasmiy sayti.
- 7.3. [www.vip.lenta.ru](http://www.vip.lenta.ru) – Internet nashriyoti.

- 7.4. <http://www.customs.ru> – O’zbekiston Respublikasi DBQ sayti.
- 7.5. [www.omad.uz](http://www.omad.uz) –Biznes rivoji uchun axborot portali.
- 7.6. [www.internet](http://www.internetindicators.com) indicators.com –Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.